



UDK: 8 81 811 81`32

Sayyora ABDURAHMANOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO`TAU tayanch doktoranti
E-mail: sayyoraabdurahman@gmail.com

ToshDO`TAU professori, f.f.d Z.Xolmanova taqrizi asosida

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE CREATION OF THE SHEVA CORPUS (FORMATION AND DEVELOPMENT OF UZBEK CORPUS LINGUISTICS)

Аннотация

The formation and development of Uzbek corpus linguistics. This article touches upon formation and development of Uzbek corpus linguistics and the results of scientific and practical research. The practical works carried out are presented analytically and critically using comparative methods, and the issue of development of Uzbek corpus linguistics is considered. At the same time, there are opinions and theoretical information on the creation of a dialectal corpus of the Uzbek language on the basis of corpora created for the Uzbek language.

Key words: corpus, corpus linguistics, national corpus, educational corpus, Uzbek language corpus, dialectal corpus, subcorpus.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ ДИАЛЕКТНОГО КОРПУСА (СТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОГО КОРПУСНОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ)

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы становления и развития узбекского корпусного языкознания и результаты научных и практических исследований. Проведенные практические работы представлены аналитически и критически с использованием сопоставительных методов, а также рассмотрен вопрос развития корпусной лингвистики узбекского языка. Вместе с тем, имеются мнения и теоретические сведения о создании диалектного корпуса узбекского языка на основе корпусов, созданных для узбекского языка.

Ключевые слова: корпус, корпусная лингвистика, национальный корпус, учебный корпус, корпус узбекского языка, диалектный корпус, подкорпус.

SHEVALAR KORPUSINI YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI (O‘ZBEK KORPUS LINGVISTIKASINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI)

Аннотация

Mazkur maqolada o‘zbek korpus lingvistikasining shakllanishi va taraqqiyoti va bu borada olib borilayotgan ilmiy va amaliy izlanishlarning natijasiga to‘xtalib o‘tilgan. Bajirilgan amaliy ishlar qiyosiy metoddan foydalanilgan holda tahliliy va tanqidiy fikrlar bayon qilinib o‘zbek korpus lingvistikasini rivojlantirish masalasiga to‘xtalib o‘tilgan. Shu bilan bir qatorda o‘zbek tili uchun yaratilgan korpuslar asosida o‘zbek tili dialektal korpusini yaratish borasidagi fikrlar, nazariy ma‘lumotlar mavjud.

Kalit so‘zlar: korpus, korpus lingvistikasi, milliy korpus, ta‘limiy korpus, o‘zbek tili korpusi, dialektal korpus, subkorpus.

Kirish. Mamlakatimizda tilga e‘tibor ma‘naviyatga e‘tiborining ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarildi. Shu bois ona tilimizni avaylab-asrash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o‘zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifaga aylandi. Chunki ona tilimizning jahonga chiqishiga erishish milliy ma‘naviyatni takomillashtirish va yuksaltirishning asosiy yo‘llaridandir[1].

XIX asr oxiri XX asr boshlaridan boshlab tilni tadqiq etishning yangi bosqich va nazariyalari yaratila boshladi. Aynan mana shunday yangi qarashlar amaliy tilshunoslik sari tashlanayotgan ilk qadam hisoblangan. Tilshunoslik fanida ham integratsiya natijasida kompyuter lingvistikasi fani rivojlandi. Aynan mana shu fan zamirida amaliy tilshunoslik masalalarini yechishga qaratilgan avtomatik tahrir, avtomatik tarjima kompyuter lingvistikasi kabi yo‘nalishlar yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Xususan, kompyuter lingvistikasi va u asosida yuzaga kelgan korpus lingvistikasi mana shunday amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlardan sanalgan. Bu borada dastlabki tadqiqotlar injener lingvistikasi nomi ostida birlashgan bo‘lsa bugungi kunga kelib kompyuter lingvistikasi tarkibiga kiruvchi har bir yo‘nalish mustaqil fan darajasiga ko‘tarila oldi. Bu boradagi ilk tadqiqotlar sun‘iy intellekt haqidagi farazlardan avvalroq boshlanganini inobatga olsak, dastlabki kompyuter lingvistikasiga oid ishlar inson mehnatiga tayanilgan holda bajarilgani va bu jarayon juda katta kuch talab etgani shubhasiz.

Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funksional imkoniyatlaridan foydalanish borasida cheksiz imkoniyatlar eshigini ochdi. Xususan, tilning imkoniyatlarini namoyon qilish va egallash borasida dunyo miqyosida tez sur‘atlarda yaratilayotgan til korpuslarining roli beqiyos[2]. Korpus lingvistikasi ham kompyuter lingvistikasi tarkibidagi etalon yo‘nalishlardan biri bo‘lib, tabiiy tilni saqlab qolish, uni qayta ishlashga xizmat qiladi. Bu boradagi ilk tadqiqotlar sun‘iy intellekt haqidagi farazlardan avvalroq boshlanganini inobatga olsak, dastlabki kompyuter lingvistikasiga oid

ishlar inson mehnatiga tayanilgan holda bajarilgani va bu jarayon juda katta kuch talab etgani shubhasiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Korpus (korpus) lotincha so‘z bo‘lib, «tana» degan ma‘noni bildiradi. “Korpus so‘z, so‘z birikmasi, grammatik shakllarni, so‘z ma‘nosini muayyan qidiruv tizimi orqali topishni anglatuvchi elektron ko‘rinishdagi matnlar jamlanmasidir”[3]. Korpus tushunchasi bilan yonma-yon “matnlar korpusi” atamasi ishlatilmoqda. Matnlar korpusi elektron holda saqlanadigan fonema, grafema, morfemalar, leksema, gap va matnlardan tashkil topishi mumkin bo‘lgan yaxlit butunlikdir. Korpuslar aslida ma‘lumotlar bazasi sifatida shakllantiriladigan, tilshunoslik masalalarini hal etish maqsadida va turli yo‘nalishdagi tadqiqotlarni amalga oshirish uchun material sifatida xizmat qiladigan jamlanmadir[4]. Bir so‘z bilan aytganda korpus bu – til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo‘ysundirilgan matnlar majmui, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og‘zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta‘minot asosida joylashtirilgan onlayn yoki oflayn tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi hisoblanadi. Bu yo‘nalish 1960-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlarida tilshunoslikning yangi yo‘nalishi sifatida paydo bo‘lgan. “Dastlabki matnlar korpusi (Braun korpusi)” 60-yillarda AQShda yaratilgan va Amerika bosma nasrining lingvistik xususiyatlarini aks ettirish uchun mo‘ljallangan. Bu korpus magnit tashuvchi (disketa yoki qattiq disk)ga yozib olingan va umumiy hajmi millionga yaqin so‘zdan iborat AQSh bosma nasrining turli matnlarining besh yuz ikki ming (502 000) so‘zli parchalarini o‘z ichiga olgan. Bu borada Rikov quyidagi farazni ilgari suradi. Ehtimol, Braun korpusi yaratuvchilari uchun kutilmaganda:

boshqa shunga o‘xshash korpuslarni yaratish uchun o‘ziga xos standartga aylandi;

korpus tilshunosligida yangi fanning yaratilishiga turtki bo‘ldi;

matnlar korpusi va korpus tilshunosligi usullarini qo'llash sohasi uni yaratuvchilar kutganidan ham ancha kengroq va rang-barang bo'lib chiqdi[5].

Darhaqiqat Braun korpusi keyinchalik yaratilgan boshqa til korpuslari uchun andoza vazifasini o'tadi. O'tgan asr so'ngida mazkur jarayon jadallashdi, XXI asr boshlarida millionlab so'zlarni aks ettirgan yuzlab til korpuslari paydo bo'ldi. Sun'iy intellektning avtomatik tarjima, kompyuter tahlili, tezaurus, elektron lug'at singari imkonioyatlari kengaydi, ilmiy, nazariy asoslari yaratildi, amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan ilk namunalar qo'llanila boshladi[6]. Bu jarayon tabiiy tilni qayta ishlash borasida tashlangan katta qadam edi. Dunyo tilshunosligida korpus lingvistikasi fan sifatida o'qitiladi va bu yo'nalishning obekti korpus yaratish nazariyasi va amaliyotini o'z ichiga olsa, fan sifatida dasturlash, dasturiy ta'minot yaratish ustuvorlik qiladi. Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi bo'lib, til korpusini yaratish kompyuter texnologiyasi yordamida ulardan foydalanishning umumiy nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadi[7]. Fanning obekti va maqsadidan kelib chiqqan holda korpus lingvistikasining predmeti til korpusi soblanadi. Bugungi kunga kelib korpus tushunchasini ifodalashga xizmat qiluvchi ko'plab ta'riflar mavjud. E. Finegan: "Korpus – bu odatda, kompyuter o'qiy oladigan formatda bo'lgan va bizga matn ishlab chiqilgan vaziyat, informatsiya beruvchi, muallif, adresat yoki auditoriya haqidagi ma'lumotni o'z ichiga olgan matnlar to'plamidir", - deydi. Turli umumiy ma'lumot beruvchi ijtimoiy saytlar korpusni statistik analiz hamda farazlar tekshiruvini asosida anglangan sohalarda uchrovchi til qoidalari va hodisalarini asoslay oladigan katta hajmdagi, tizimli matnlar to'plami (endilikda odatiy elektron shaklda) sifatida ta'riflaydi[8]. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki korpus yaratish tamoyillari umumiy bo'lsa, har bir tilning tabiatidan kelib chiqqan holda korpuslar xususiylik kasb etadi.

O'zbek korpus lingvistikasi ham ayni vaqtda taraqqiyot bosqichiga ko'tarilib ulgurd. O'zbek tili milliy korpusi[9], O'zbek tilining ta'limiy korpusi[10], O'zbek tili korpusi[11], Sahlo Hamroyevaning O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari monografiyasi, Oqila Abdullayevaning O'zbektilining internet axborot matnlarini korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari dissertatsiyasi hamda "Tug'ro korpusi[12], Nargiza G'ulomovaning Alisher Navoiy mualliflik korpusi[13], Dialektal korpus[14], Aziza Rahmonovaning O'zbek tili milliy korpusini yaratishda kompyuter usullari nomli f.f.f.d. PhD dissertatsiyasi, Anorxon Ahmedovaning Parallel korpusda o'xshatishlarning leksik-semantik munosabatlari tadqiqi monografiyasi kabilar bu borada amalga oshirilgan ishlar ko'lamidan dalolat beradi.

Tahlil va natijalar. Dastlabki tadqiqotlar asosan o'zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda korpus yaratishning nazariy masalalariga qaratilgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda amaliy masalalarga e'tibor qaratildi. O'zbek tilining milliy korpusi, O'zbek tilining ta'limiy korpusi va O'zbek tili elektron korpusini yaratish borasida borasidagi amaliy ishlar bugungi kunga qadar davom etmoqda. Korpusshunoslikda, xususan, dialektal korpuslarni yaratish borasida olib borilgan amaliy va nazariy tadqiqotlarni ikki guruhga[15] ajratishimiz mumkin. Bulardan birinchisi o'zga til korpuslari asosida o'z tili va shevalari xususiyatlarini inobatga olib yaratilgan korpuslar: Janub ovozi[16], Portugaliya korpusi[17] – The syntax-oriented Corpus of Portuguese dialects, 1972–1974 yillarda Finlandiyaning Xelsinki tumani aholisining so'zlashuviga asoslangan

korpus[18] Bolgar multimedia korpusi[19], Polsha korpusi (parallel korpus)[20] – Dialecty I gwary polskie Kompendium internetowe, Parijning og'zaki so'zlashuv korpusi[21], Ispan korpusi[22] – Corpus Oral y Sonoro del Español Rural, Bolqor korpusi[22] – Bulgarian dialectology as Living Tradition, Gurjiston korpusi (2 054 705 ta so'z, 3400 ta matndan iborat)[22], Tuva dialektal korpusi[25], Alban korpusi[26] va hokazolar, Xitoy tili Mandarin korpusi (bu dialekt xitoy tilidagi turlilik va o'zgaruvchanlikni o'zida namoyon etadi) va hokazo.

Ma'lum bir hududning shevasi asosida yaratilgan o'sha til xususiyatlarini inobatga olib yaratilgan korpuslar: Arxangelsk viloyatining Ustyia tumani sheva korpusi[27], Kuban dialektal korpusi[28], Rus milliy shevalarining elektron kutubxonasi[29], Rus milliy shevalarining elektron bazasi[30], Bolgar multimedia korpusi[31], Saratov dialektal korpusi va hokazolar. Dialektal korpusi yaratilishida anchagina ishlar amalga oshirilgan. Dialektal korpuslarni yaratishda bir qancha me'zonal mavjud ekanligi ham dunyo tilshunoslari e'tiboridan chetda qolmagan. O'z tili shevalarining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini o'zida aks ettira oladigan korpus yaratish masalasi birinchi o'rinda turgan. Milliy korpus bilan bir qatorda dialektal korpus yaratish borasidagi amaliy ishlar dastlab ingliz dialektlari bilan bog'liq edi. Xelsinki korpusi (HD) – Sharqiy Angliya, Janubi-g'arbiy Lankashir orollaridan aholisi bilan suhbatlashib orfografik transkripsiyalangan audioyozuvli nutq to'plami bo'lib, ushbu yozuvlar 1970–1980 yillar oraliqida tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasidir[32]. Ushbu dialektologik korpusning maqsadi nafaqat dialektologiya, balki nutq madaniyati, leksikologiya, sotsiolingvistik, grammatika va fonetika, fonologiya sohalarida lingvistik tadqiqotlar uchun material berishdir. Binobarin, korpus etnografiyasi, mahalliy aholining urf-odatlarini, qisman tarix va boshqa ko'plab lingvistik tadqiqotlar uchun tadqiqot maydoni vazifasini o'taydi. Bu dialektologik korpus uchun Essek Lankashirga Rita Kerman 1988 yil o'zining (Pro Gradu) diplom ishi uchun yig'gan ma'lumotlari asos bo'ladi. U tadqiqotlari uchun mezon sifatida unga ma'lumot beruvchi shaxslar uncha ham ko'p vaqtni maktabda o'tkazmagan, ya'ni o'rta ma'lumotli shaxs bo'lishi kerakligini va aynan ular tomonidan berilgan ma'lumotlar o'z qiymatini yo'qotmagan, adabiy til bilan sayqallanmagan holda berilishini lozimligini ta'kidlaydi[33]. Bundan ko'rinadiki tadqiqotchi mahalliy aholi madaniy boyligini tushunish uchun sheva vakillari orasidan ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti, yoshini inobatga olishi lozim. Etnolingvistik ekspeditiya nafaqat "axborotni o'rganish va materiallarni yig'ish", balki qishloq aholi yashovchi hududlarda yashash tadqiqotchida an'anaviy madaniyat bilan "nafas olish", "oziqlanish" imkonini beradi[34] va shu bilan birga dialektal korpus yaratish jarayonida soflik va xolislikni taminlaydi. Yana bir dialektal korpus o'z ichiga Daniya, Islandiya, Farer, Norvegiya va Shvedsiya kabi mamlakatlarning og'zaki so'zlashuv tilini qamrab olgan Norvegiya shevalar korpusi yani Nordic Dialect corpus (NDC) hisoblanadi[35]. U o'z ichiga Shimoliy o'lkada istiqomat qiluvchi aholining shimoliy German dialekti aralash shevalarni olgan va teglar (so'zlar) bilan belgilangan adabiy tilga oid birliklar, og'zaki yozuvlar hamda transkriptlar korpusning tarkibiy qismi sifatida tilga olinadi. Korpus uchun yig'ilgan ma'lumotlar Daniya, Norvegiya, va Islandiya, yozuvlari milliy tadqiqot kengashlari moliyaviy ko'magi asosida loyiha sifatida bajarilgan amaliy ish hisoblanadi[36].



ScanDiaSyn Scandinavian Dialect Syntax
NORDISK DIALEKTKORPUS - DATAINNSAMLING OG DATABASE
Mällýskutilbrigði í norrænni setningagerð

Mamlakat	Ma'lumot beruvchilar	Hududlar	Identifikatsion belgilar
Daniya	81	15	220,360
Farer	20	5	64,803
Islandiya	48	8	94,338
Norvegiya	438	111	1,997,920
Shvesiya (shu jumladan Ovdalian)	150	44	376,868

Yevropa dialektal korpuslari. 1

Dialektal korpusni yaratish bo'yicha jahon tajribasiga nazariy tashlaydigan bo'lsak sharq mamlakatlarida bu borada qanday ishlar amalga oshirilganligini ko'rib chiqish joiz bo'ladi.

Shevasiga ega bo'lmagan tillarda ham bu jarayon yani korpusshunoslik bo'yicha qilingan ishlar natijasini Arab shevalari korpusi (MSA) misolida ko'rish mumkin. Arab tilshunosligidagi

rasman sheva qayd etilmagan bo'lsada onlayn elektron xatlar, chatlar, o'zaro suhbatlar, bloglar va sms shaklidagi yozishmalarda qayd etilib, sekin astalik bilan adabiy tilga aylanib bormoqda va mana shu jarayon arab tushunoslarini arab dialektlarining keng qo'llanishini hududlarning kengayishi bilan arab standart tilidan fonologik, leksik va morfologik sahda o'zgarishlarda kuzatish mumkin[37].

Xulosa va takliflar. Korpus lingvistikasi shakllanishi bilan bog'liq nazariyalar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lksa,

mamlakatimizda o'zbek tilini avtomatlashtirish, o'zbek tili xususiyatlaridan kelib chiqib korpus yaratish nazariyalarini ishlab chiqish 2000-yillardan boshlangan. Bugungi kunga kelib o'zbek tilida mavjud bir qancha korpus til imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qilmoqda. Shu alohida aytib o'tish joizki til korpuslari tilning saqlab qolish, kelajak avlodga sof holatda yetkazish uchun zarur bo'lsa, dialektal korpuslar tilni ichki manbaa hisobiga boyishini taminlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Mengliyev B. Globallashuv : tillar taraqqiyoti va tanazzuli. "Ma'rifat" gazetasi , 2017-yil, 14-oktabr, 82-son.
2. Mengliyev B. Tilshunoslikning amaliy masalalari Monografiya Globeedit Toshkent 2020
3. <http://ruskorpora.ru>
4. Z.Xolmanova. Korpuslarning lingvistik tadqiqot materiali sifatidagi ahamiyati.52-bet (Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику. – М.: Эдиториал УРСС, 2001)
5. Rykov, V. V. Text corpus as an implementation of the objekt-oriented paradigm In Prosedings of the international seminar "Dialogue-2002" . Moscow: Nauka. PP. 124-129
6. Xamrayeva Sh. O'zbek tili mualliflik korpusi.-Toshkent: Globe edit, 2020. – 168 b.
7. Захаров В.П. Корпусная лингвистика: Учебно-метод. пособие. – СПб., 2005. -48 с, - С. 27
8. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. – Иркутск, 2011.С. 7.
9. <http://uzbekcorpora.uz/ijrochi>
10. <https://uzschoolcorpara.uz/>
11. <https://uzbekcorpus.uz/>
12. Abdullayeva O. O'zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariya va amaliy asoslari. f.f.f.d – Toshkent, 2022. – b. 158. <https://uzkorpus.uz/>
13. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning semantik teglari bazasini yaratish. f.f.f.d – Toshkent, 2022. – b. 189. <https://navoiykorpusi.uz/>
14. <https://dialect.uz/>
15. Kawai Chui., Huei-Ling Lai., The NCCU Corpus of Spoken Chinese: Mandarin, Hakka, and Southern\ Min Article in Taiwan Journal of Linguistics. 2008. Vol. №4. Is. №9. – P. 119-144.; Вадеев С.Йе. Лингвистические принципы построения и использование корпуса текстов для исследования официально-делового стиля современного немецкого языка: Автореф. дис...канд. фил. наук – М.: МГУ. 2005.; http://rusling.narod.ru/qqq_corp_nonslav_other.htm; <http://dialekt.corpus.tatar/> <https://ucnk.ff.cuni.cz/cs/>; <https://cyberleninka.ru/article/n/skandinavskiy-ostrov-v-slavyanskoy-yazykovoy-srede-dialekt-selastaro-shvedskoe-imya-suschestvitelnoe/viewer>; <http://www.ling.helsinki.fi/projects/hanco/>; <http://www.tekstlab.uio.no/scandiasyn/>; Дialektnая культура Кубани в свете этнолингвистического анализа (по данным электронного корпуса диалектной культуры кубани)\ Трегубова Йе.Н., Сфинко О.С., Баласенко Н.С., Литус Йе.В. – Краснодар: Екоинвест, монография, 2017. – S. 204.
16. <http://newsouthvoices.uncc.edu/nsv>,
17. http://rusling.narod.ru/qqq_corp_nonslav_other.htm
18. <http://www.ling.helsinki.fi/uhlcs/readme-all/README-uralic-lgs.html#C34>
19. <https://sarteorlingv.narod.ru/dialekt/kru4kova-goldin.html>
20. <https://ruscorpora.ru/new/search-para-pl.html>
21. <http://cfpp2000.univ-paris3.fr/Corpus.html>
22. O'sha manba. <https://ruscorpora.ru/>.
23. <https://www.tuancorpus.ru/?q=content/dialektnyy-korpus-tuvinskogo-yazyka>
24. <http://web-corpora.net/AlbanianCorpus/search/>.
25. <http://www.slavist.de/Pushkino/>
26. https://ethnolex.ru/?page_id=421
27. <http://dialekt.corpus.tatar/>
28. http://www.ruslang.ru/krylov_dialect
29. <https://sarteorlingv.narod.ru/dialekt/kru4kova-goldin.html>
30. Xolova M. O'zbek milliy shevalari korpusi tadqiqi (Boysun tumani "j"lovchi shevalari misolida) Monografiya. Termiz 2022 144-b.
31. <http://www.helsinki.fi/varieng/CoRD/corpora/Dialects/fieldwork.html>.
32. Xolova M. O'zbek milliy shevalari korpusi tadqiqi (Boysun tumani "j"lovchi shevalari misolida) Monografiya. Termiz 2022 144-b.
33. <http://www.tekstlab.uio.no/nota/scandiasyn/>
34. Janne Bondi Johannessen., Kristin Hagen., Anders Noklestad., Joel Priestley. Tour de CLARIN: The Nordic Dialect Corpus\ edited by Darja Fišer, Elisa Gorgaini, and Jakob Lenardič. 2020. №5 (17), – P. 178-b
35. Building Dialectal Arabic Corpora (acl-bg.org)



UDK: 821.512.151:821.111

Kamola ABDURASHIDOVA,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: abdurashidova.kamola@mail.ru

DSc, dotsent Sh.G'aniyeva taqrizi asosida

CLASSIFICATION AND GENRE FEATURES OF UZBEK AND ENGLISH FOLK LEGENDS

Annotation

This article examines the classification and genre features of Uzbek and English folk legends. Folk legends represent a genre that enables the conveyance of ancient historical and mythological events in a persuasive and imaginative form. The analysis reveals that Uzbek and English legends exhibit shared characteristics, including orality, anonymity and traditionality, which contribute to the formation of cultural identity.

Key words: Uzbek folk legends, English folk legends, Genre characteristics, Classification of legends, Oral creativity, Folk creativity

КЛАССИФИКАЦИЯ И ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ НАРОДНЫХ ЛЕГЕНД

Аннотация

В данной статье рассматриваются классификация и жанровые особенности узбекских и английских народных сказаний. Народные легенды представляют собой жанр, позволяющий передать древние исторические и мифологические события в убедительной и образной форме. Анализ показывает, что узбекские и английские легенды обладают общими характеристиками, включая устность, анонимность и традиционность, которые способствуют формированию культурной идентичности.

Ключевые слова: Узбекские народные предания, Английские народные предания, Жанровая характеристика, Классификация сказаний, Устное творчество, Народное творчество.

O'ZBEK VA INGLIZ XALQ AFSONALARINING JANR XUSUSIYATLARI VA TASNIFI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz xalq afsonalarining tasnifi va janr xususiyatlariga e'tibor qaratilgan holda tadqiq etiladi. Xalq afsonalari qadimiy tarixiy va mifologik voqealarni ishonarli va xayoliy shaklda yetkazish imkonini beruvchi janrdir. Tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz afsonalari og'zakilik, muallifi noma'lumlik va an'anaviylik kabi umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, bu madaniy o'ziga xoslikning shakllanishiga ko'maklashadi. Tadqiqot xulosalari xalq og'zaki ijodining madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishdagi va tarixiy merosni saqlab qolishdagi muhim ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: O'zbek xalq afsonalari, Ingliz xalq afsonalari, Janr xususiyatlari, Afsonalarning tasnifi, Og'zaki ijod, Xalq ijodi

Kirish. Afsonalar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va qadrlanadigan janrlaridan biri hisoblanadi. Ular avloddan-avlodga o'tib kelgan holda, nafaqat qiziqarli hikoyalar, balki madaniy va ma'naviy qadriyatlar, tarixiy voqealar va xalqning dunyoqarashi haqida boy ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston va Angliya xalqlari o'rtasidagi afsonalar mazmunida o'xshashlik va farqlarning mavjudligi, ularning turli madaniyatlar va an'analar orqali qanday shakllanganini tadqiq qilish ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Afsonalar xalqlar o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qilishi bilan birga, ularning ma'naviy merosi va tarixiy xotirasini saqlab qolishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois, turli xalqlar afsonalarini o'rganish orqali insoniyatning umumiy qadriyatlari va ma'naviy tamoyillarini chuqurroq tushunish imkoniyatini taqdim etadi. Maqolaning asosiy maqsadi – o'zbek va ingliz xalq afsonalarining janr xususiyatlarini aniqlash va tasniflash orqali ularning lingvistik va madaniy mazmunini yoritishdir.

Adabiyotlar tahlili. Jahon folklorshunosligida xalq afsonalarini to'plash, nashr qilish va ilmiy asosda o'rganish yuzasidan ingliz, nemis, rus va turkiy xalqlarda bir qator e'tiborli tadqiqotlar amalga oshirilgan. ... Bu borada V.Vundt, E.S.Xartlend, R.F.Fleck, V. A.Tayson, V.R.Feldman, Don.Yoder, V.M.Jirmunskiy, V.Ya.Propp, G.P.Snesarev, L.S.Tolstova, V.Ye.Gusev, S.N. Azbelev, L.I.Yemelyanov, K.V.Chistov, N.I.Kravsov, S.G.Lazutin, V.P. Anikin, Yu.G.Kruglov, Yu.S. Levskaya, O.B. Nayok, A.I. Nayeve, F.A. Nadrshina, E.M. Aliyeva, B.Yu.Sengleev, D.E.Basayev, L.L. Kushnareva, B.B. Badmayev, L.S.Malzurova, A.P. Lipatova, E.Sh. Ildarova, A.S. Mayer, A.B.Moroz, B.G. Axmetshev, L.P.FGerasimova, G.G.Ilina, I.S.,Shavelev, I.A. Besson, D.V.Sokayeva, M.V. Purbuyeva, G.M.Isxakova, I.K.Fazlutdinov, M.T.Satanar, M.P.Omelnskiy, Yu.G.Fateeva, A.X.Sadekova, M.M.Axmedov, S.X.Pashayev, O.V.Mexanoshina, Yu.M.Shevarenkova, S.M.Gilyazutdinov, Ye.N.Duvakin, S.Qasqabasov kabi ko'plab xorijiy olimlar, shuningdek, o'zbek folklorshunosligida ham K.Imomov, B.Sarimsoqov, U.Jumanazarov, M.Jo'rayev, Sh. Turdimov, J.Eshonqulov, N.Rahmonov, M.Rahmonova, A.M. Bakimbetov kabi olimlarning xalq afsonalarini o'rganish borasidagi tadqiqotlari jiddiy yutuqlardir, biroq o'zbek va

ingliz xalq afsonalarini qiyosiy tadqiq etish muammosi maxsus o'rganilmagan. Shuni e'tiborga olib, mazkur maqolamizda jahon va o'zbek olimlari tomonidan xalq afsonalarining janr xususiyatlarini, o'ziga xosliklarini o'rganish borasidagi nazariy qarashlarga tavsif berish, ilmiy konsepsiyalardagi nazariy qarashlarni umumlashtirishni maqsad qildik.

Maqolaning metodologiyasi sifatida qiyosiy tahlil, tarixiy-qiyosiy, etnografik metod, kognitiv yondashuv, lingvofolkloristik metodlardan foydalanildi.

Xalq afsonalari folklorning mustaqil janri sifatida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Unda og'zakilik, anonimlik, variantlilik, an'anaviylik va jamoaviylik kabi folklorga xos elementlar alohida o'rin tutadi. Afsona janri, shuningdek, mifologik komponentlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, turli magiklik, muqaddaslik va rituallik sifatida namoyon bo'ladi. Afsonalar, o'z navbatida, xalqning dunyoqarashi, qadriyatlarini va ijtimoiy-tarixiy muhiti haqida qimmatli ma'lumotlar taqdim etadi. Shu sababli, xalq afsonalari folklor va mifologiya o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish, madaniy paradigmalarni to'liq anglash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada xalq afsonalarining janr xususiyatlari, o'ziga xos tabiati, ularni taksonomik tadqiqi asosida tasniflash mezonlarini oydinlashtirish, tasniflashdagi differentsiativ muammolarni bartaraf etish va tasnifini yaratish kabi masalalar haqida fikr yuritishni maqsad qildik.

Xalq afsonalari dunyo xalqlari folklorida mavjud bo'lib, hayotiy voqelikni xayoliy uydirma asosida hikoya qilishga asoslangan, ma'lum tarixiy voqelik tasviri uydirmalar va fantastika asosida berilgan, ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan folklorning mustaqil janridir.

Afsona atamasi forscha afson so'zidan olingani, sehr-jodu, uydirma asosiga qurilgan nasriy hikoyani anglatishi, Mahmud Qoshg'ariyning "Devon-u lug'otit-turk" asarida "sav" tarzida qo'llanganligi, afsona so'zi bilan sinonim sifatida ishlatilgan "legenda" itilohi esa lotincha – o'qishga tavsifiya qilingan narsa so'zidan olinganligi, rivoyatlar asosida kelib chiqishi, uning asosiy xususiyatlaridan biri boshqa folklor janrlari bilan yaqin munosabatda bo'lishi, tilsimiy, sehr-jodu, mo'jiza aralashgan hodisalar, boshqa

folklor janrlari bilan yaqin munosabatda bo'lishi, tilsimiy, sehr-jodu, mo'jiza aralashgan hodisalar, "g'aroyib predmetlar" hayot voqeligi bilan yonma-yon keltirilishi afsonalar syujetiga xos asosiy belgilardan biri ekanligi, barqaror poetik shaklga ega emaslik, fabulatik bayonning kuchliligi, tashbeh-u epitetlarning uchramasligi, yangi davr voqeligini butun shiddatkorligi va murakkabligi bilan aks ettirishga qodir emasligi, shu bois hozir o'zbek folklorida zamonaviy afsona, rivoyat va naqlar yaratilmasligi haqidagi nazariy qarashlar mavjud.

K.Imomov afsonaning o'nta janriy xossasini sanaydi va ularning asosiy sifati sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Afsonalarning muayyan fakt, mifologik voqealarni xayoliy tavsiflash mezonini uning asosiy belgilaridir.

2. Afsona voqealari tinglovchi, bayon etuvchida ishonch uyg'otadi.

3. Afsonada tasvirlangan voqealar o'tmishdan xabar beruvchi hikoyalarga shaklida paydo bo'lib, ta'kidlash, tushuntirish, xabar berishga mo'ljallangan.

4. Unda e'lon qilinishi kerak bo'lgan voqea va hodisalar talqini bayon uslubiga asoslangan.

5. Afsonaning o'tmishdan darak berish funksiyasi ustuvor yo'nalishga ega, biroq badiiy darajasi kuchsiz, ikkilamchi hodisa bo'lib, estetik ta'sir etuvchi kuchning qisman paydo bo'lishini ta'minlagan.

6. Voqea vaqti konkret emas, tarixiy fakt, hodisalar noaniq zamonda yuz beradi... Afsona vaqti uzoq o'tgan zamonga yo'naltirilgan.

7. Syujeti ixcham, bir yoki ikki epizod- motivlar asosiga qurilgan.

8. Afsonani ... eshitgan, bilgan shaxs, xohlagan joy va istagan payt va nihoyat o'zi bilgan shaklda, eng muhimi biror obyekt bilan bog'liq holda bayon etadi.

9. Bu janrda obrazlar tizimini asosan uch xil personaj tashkil etadi: bosh qahramon, ...yordamchi personaj... raqib personaj. Obrazlar talqini sodda, ayni paytda qisqa, lo'nda, aniq va mubolag'ali ifodalangan.

10. Bu janr, barqaror syujet va kompozitsiyaga ega emas.

Yuqoridagi fikrlarga asoslansak, xalq afsonalarida ma'lum tarixiy yoki mifologik voqelikni xayoliy uydirma asosida ishonar qilib bayon qilish uslubining yetakchilik qilishi uning asosiy janriy xossalardan biri ekan. Masalan, "Rayhon va Shabada" afsonasida shamol haqidagi mifologik qarashlar transformatsiyasi yetakchilik qiladi. Afsonadagi voqelik bayonidan Shabadaning kunchiqar hukmdori Shamol boboning to'ng'ich o'g'li ekanligi, o'gay ona zulmidan qiyalgan qizni sevib qolgan, bir-biriga yetisha olmay qiz rayhonga evrilgani, shabada esa gullar orasiga singib ketganidan xabardor bo'lamiz. Afsonada tabiatdagi hodisalarni jonli deb bilish, qizni esa o'simlikka evrilishi asosidagi totemizmga ishonch asosida afsona syujeti ishonchli bayon qilingan. Shabadaning gul va o'simliklarga zarar bermasligi, Shamol boboning Bo'ron, To'polon, Quyun, To's degan o'g'illari esa o'simliklar uchun zararli ekanligi haqidagi hayotiy voqelik mifologik qarashlar asosidagi uydirmalar orqali obrazli tarzda tasvirlangan. Shabadaning gul va rayhonlar orasida esishi tabiiy hol bo'lib, bu holat uning qizga oshiqchiligi bilan izohlanadi. Maqsadiga yetmagan oshiqchilarning biror narsaga evrilishi motivi esa ana shu hayotiy voqelikning ishonchli bayoniga xizmat qilgan.

Xalq afsonalari syujetini harakatga keltiruvchi konflikt ham maishiy ma'no anglatib, uning yechimi mo'jizaviy harakat va homiylik marhamati asosida yuzaga chiqadi. "Obshir ota" afsonasi (B.Sarimsoqov 1977-yilda yozib olgan) misolida ko'rsak, undagi konflikt maishiy xarakterga ega bo'lib, g'ayridin lashkarning bostirib kirishi Dovud payg'ambar va uning qizlari o'rtasidagi konfliktning yuzaga chiqishiga turki bo'ladi. Ushbu afsonada ham payg'ambarlarning mo'jiza ko'rsatishi motivi asosida (hassasi bilan tog'ga uradi) paydo bo'lgan sharsharaning obshir deb nomlanish sabablari izohlanadi. Afsona konflikti Dovud payg'ambarning mo'jizasi orqali yechim topadi.

Xalq afsonalarida mifologik personajlar, g'ayrioddiy odamlar, payg'ambar va aziz-avliyolar, tarixiy shaxslar kabi obrazlar ishtirokidagi voqelik axborot berish va diniy ta'sir ko'rsatish, ishtirok maqsadida bayon etiladi. Bosh qahramonlar adolatli, xaos kuchlariga qarshi kurashuvchi, g'ayratbiiy kuchga ega bo'ladi. Uning obrazlar tizimida qahramonga xumo, bo'ri, qaldirg'och, pari kabi yordamchi personajlar hamda dev, ajdar, bosqinchilar kabi raqib personajlar ham ishtirok etadi. Raqib personajlar afsona syujeti tugunini, konflikt yuzaga chiqarishsa, yordamchi personajlar yechimni shakllanishiga va afsonada berilgan axborotning ishonchli chiqishiga xizmat qiladi. "Ajdar ko'zi" nomli afsonada najotkor

qahramon sifatida Ali (chahoryorlardan biri), raqib personaj sifatida ajdar va yordamga muhtoj kuch sifatida qiz va qishloq ahli ishtirok etadi. Afsona toponimik xarakterga ega bo'lib, Zebak yaqinidagi Bozgir qishlog'idagi ko'l va toshlarning nima uchun Ajdar ko'zi deb nomlanishi sabablari izohlanadi. Afsonadagi ajdarga har kuni yemish va bir insonni tortiq qilinishi (ertak) motivi asar konfliktini, shuning barobarida, tugunni yuzaga chiqargan bo'lsa, qiz ko'z yoshining Ali yuziga tushishi motivi asarning yechimiga xizmat qilgan. Afsonada ajdar bilan olishuv motivi Alini najotkorlik va g'ayratbiiy qudratiga ishonchni mustahkamlash hamda afsonadagi voqelik tasvirini berishga asos bo'lgan. Afsonada keltirilishicha, Ali ko'l yoniga kelganda ajdarga tortiq qilingan qizni ko'rib qoladi, uni qutqarish uchun ajdar bilan jang qiladi. Afsonada ajdarlarning suv ostida yashashi, kallasi yetti martagacha o'sib chiqishi kabi mifologik motivlar asosida ularning hozir ham yashashiga ishonch mustahkamlanadi.

Ingliz xalq afsonalari haqida bir qancha lug'atlarda quyidagi fikrlar beriladi: "Lotincha "legere" fe'li dastlab "to'plamoq" ma'nosini anglatardi. Vaqt o'tishi bilan bu fe'l 'ko'z bilan to'plamoq, ko'rmoq' ma'nosiga ega bo'ldi va bu 'o'qimoq' tushunchasiga olib keldi. Bu fe'ldan olingan lotincha "legenda" so'zi o'rta asrlarda "o'qilishi kerak bo'lgan narsa" ma'nosida ishlatilgan. "Legenda" so'zi asosan avliyolar hayotlari haqidagi hikoyalarga tegishli bo'lgan. O'rta asrlarda bunday ko'plab hikoyalarga yozilgan bo'lib, ular ko'pincha haqiqat bilan birga, badiiy elementlarni xam o'z ichiga olgan. Shunga ko'ra, "legenda" ingliz tiliga "legend" sifatida kirganida, o'tmishdan kelgan hikoya, to'liq haqiqat bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin ma'noni anglatdi."

Afsonalarning asosiy xususiyati haqida L.Degh: "Afsona xalq ongida ma'lum bir g'oyaviy haqiqatga ega bo'lib, bu haqiqatni anglash tasvirlangan voqealarning haqiqatiga bo'lgan ishonch shaklida ifodalaniishi mumkin. Biroq, afsona uchun hikoya qiluvchining unga ishonishi yoki ishonmasligi muhim emas, chunki hikoyachining afsonaga bo'lgan shaxsiy munosabati janrning asosiy xususiyatini o'zgartirmaydi.", deydi.

Ingliz xalq afsonalarining uchta asosiy vazifasi: izohlash, kommunikatsiya va didaktik vazifasi bo'lib, unda odatiy bo'lmagan g'aroyib hodisalar haqida xabar beriladi, izohlanadi va didaktik maqsadlarda bayon etiladi.

A.L.Laforet, Robert Georges va Jakob Grim (Jason)ning nazariy qarashlarini keltiradi, ularning har ikkisinin fikrlariga munosabat bildiradi va ularga asoslanib afsonalarning janr xususiyatlarini quyidagicha ochiq qilib: "Nihoyat, garchi bu masala ko'p jihatdan e'tiqodga bog'liq bo'lmas-da, Jorjning ta'kidlashicha, ko'plab afsonalarni tashqi dalillarga tayanib isbotlash yoki inkor etish mumkin emas (Georges, 1971: 10-15).

Afsona sifatida taqdim etilgan va qabul qilingan amaliy matnlar bu ta'rifga to'liq mos kelmasligi mumkin. Afsonalarning barcha matnlarida ham ularni boshqa turdagi bayonotlardan ajratib turadigan lingvistik belgilar mavjud emas. Afsonalarda hikoya qilingan voqealarning aniq sanasini kamdan kam hollarda bilish mumkin. Afsona voqealari ko'pincha uzoq o'tmishda, hatto tarixdan oldingi davrlarda sodir bo'ladi. Afsonalarni aytib beruvchilarning ularga qanchalik ishonishini ham aniqlash qiyin.

Ilk folklorshunos tadqiqotchilarni asosan bayon qilish, ifodalash va ushbu moyilliklardan kelib chiqib, bog'langan hikoyaviy ifodalar, va mistik obrazlar jalb qilgan. Zamonaviy olimlar, bu jarayonlarning qanday ishlashi va jamiyatga qanday ta'sir qilishi, insonlarning qo'rquvlari va shubhalarini ifodalash, hatto ularning harakatlarini qanday yo'naltira olishlarini o'rganmoqdalar. Zamonaviy afsonalarda favqulodda hodisalar haqidagi boshqa personajlar sifatida uzga sayyoraliklar, etnik, diniy va boshqa guruxlar, jinoyatchilar, ko'ngli-yarimlar, yangi texnologiyalar, ko'rinadi.

Yuqoridagi o'zbek va ingliz xalq afsonalari haqidagi fikrlarni ko'rsak, har ikki xalqda afsonalar qadim tarixiy yoki mifologik voqelikni xayoliy uydirma asosida ishonarli qilib bayon qilishga asoslangan janr ekan. Bu janriy xossasiga, yaratilish uslubi va xususiyatlariga ko'ra o'zbek va ingliz xalq afsonalari mushtarak.

Xalq afsonalari tasnifi masalasi. Jahon folklorshunosligida xalq afsonalarining taksonomik tadqiqiga oid nazariy qarashlar qiyosan o'rganishda Edvin Sidney Xartlend, Don Yoder, Richard Frensis Flek, Van Allen Tayson, Valter Robert Feldman B.Sarimsoqov, K.Imomov, U.Jumanazarov, M.Murodov, S.Ro'zimboyev, M. Jo'rayev, M.Rahmonova, M.A.Rizoyevab N.Q.Ro'ziyev tadqiqotlaridagi mavjud tasniflash mezonlari asosida ish ko'ramiz va ularning afsona janri haqidagi nazariy qarashlariga asoslanamiz.

O'zbek va ingliz folkloridagi afsona janri qiyosan o'rganilganda, ularni tasniflash murakkab jarayon ekanligini angladik.

Bu holatga esa tasniflardagi turli yondashuvlar, janr tabiatidagi o'ziga xosliklar, tematik mundarijasining turlichaligi kabi jihatlari sabab bo'ladi va afsona janri tasnifi borasidagi differentsiyalarni bartaraf etish zarurati tug'iladi.

O'zbek va ingliz xalq afsonalarini tasniflashda quyidagi tamoyillar asosida tasniflashni lozim topdik:

1. An'anaviy syujet motivlariga ko'ra.
2. Yaratilishiga ko'ra.
3. Tematik mundarijasiga ko'ra.
4. Voqelik bayonining makon va zamonga munosabatiga ko'ra.

Ingliz folklorida afsona janri yaratilishiga ko'ra:

1. Xalq afsonalari (Folk Legends)
2. Adabiy afsonalarga (Legend in Literature) bo'linadi.

Bizning tadqiqot obyektimiz xalq afsonalari (folk legends) bo'lgani bois ushbu janrning tasnifi masalasini yoritamiz.

O'zbek folklorshunosligida afsonalar tasnifi borasida turlicha yondashuvlar kuzatiladi. Bular orasida xalq afsonalarini tematik mundarijasiga ko'ra tasniflash tamoyili yetakchilik qiladi. O'zbek xalq afsonalari tasnifi borasida K.Imomov batafsil to'xtalgan. Ular V.Ye.Gusev (diniy, ijtimoiy-xayoliy, tarixiy), N.Xotamov va

B.Sarimsoqov (tarixiy, toponimik, diniy, maishiy), U.Jumanazarov (toponimik, tarixiy, diniy), S.Qasqabasov (tarixiy-toponimik, diniy-kitobiy, ijtimoiy-xayoliy) tasniflariga ilmiy yondashgan holda ularning kamchilik va afzalliklarini ko'rsatib beradi hamda afsona janri tasnifidagi farqlarni bartaraf etadi. Xususan, K.Imomov xalq afsonalarini dastlab uch tipga: mifologik (etiologik, esxatologik, demiurglar haqidagi, animistik, totemistik, kosmogonik miflar asosida yuzaga kelgan afsonalar), toponimik va tarixiy afsonalarga bo'lib o'rganadi. Olimning keyingi ishlarida esa xalq afsonalari to'rt xil ichki tipga: mifologik (ma'budlar, ilohlar va pirlar haqidagi, etiologik va ajdodlar kultiga e'tiqod bilan bog'liq afsonalar), diniy, toponimik va tarixiy afsonalarga tasniflab o'rganiladi.

Xulosa. Yuqoridagi o'zbek va ingliz xalq afsonalari haqidagi fikrlarni ko'rsak, har ikki xalqda afsonalar qadim tarixiy yoki mifologik voqelikni xayoliy uydirma asosida ishonarli qilib bayon qilishga asoslangan janr ekan. Bu janriy xossasiga, yaratilish uslubi va xususiyatlariga ko'ra o'zbek va ingliz xalq afsonalari mushtarak. Afsonalarni mavzu qamrovi, voqelikni ifoda qilish va voqelik bayonining makon va zamonga munosabatiga ko'ra an'anaviy va zamonaviy xalq afsonalariga, an'anaviy afsonalarni esa mifologik, tarixiy, toponimik va diniy afsonalarga tasniflash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Bakimbetov A.M. Qoraqalpoq xalq afsonalarining o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi va syujet tarkibi. Filol. fanlari bo'yicha falsafa (PhD) dokt.diss. avtoref. – Toshkent, 2020.– 54b.
2. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – T.: Fan, 2008.
4. Rahmonov B. O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti janrlarining postfolklor sharoitidagi holati va funksional xususiyatlari. Filol. fanl. bo'yicha doktori (DSc) ... dissertatsiyasi. – Andijon. 2022. – 260 b.
5. Edvin Xartlend. "Legendi Staroy Anglii" — M.: Sentrpoligraf, 2007 (1159).
6. Angliyskiye predaniya i legendi . Sostavitel: Nataliya Budur.M.: AST, Astrel, 2004 g. – 496
7. Folklore myths and legends of Britain. - 2d ed. - N-Y, 1979. - 552 p.
8. The Vanishing Hitchhiker. Author(s): Richard K. Beardsley and Rosalie Hankey. – California Folklore Quarterly, Vol. 1, No 4 (Oct., 1942), pp. 303-335.
9. <http://www.jstor.org/stable/1495600> Accessed: 01-02-2016 19:18 UTC.
10. Brunvand J.H. The Vanishing Hitchhiker: American urban legends and their meanings. NY: Norton, 1981. - 208 p.
11. Раҳмонов Б.М. Ўзбек халқ оғзаки ижодиёти жанрларининг постфольклор шaroitidaги holati va funksional xususiyatlari. Филол. фан. доктори (DSc)... дисс. – Тошкент, 2021. – 260 б.
12. Левская Ю.С. Американская городская легенда в контексте постфольклорной культуре. Автореферат дисс. ... канд.филол. наук. – Ижевск, 2006. – 24 с.
13. Никитин М.В. Реализация концепта «страх» в сценариях городской легенды. Автореферат дисс.канд.историч.наук. – Москва, 2008. – 26 б.
14. Abdulfatoh Abu G'udda. Sahifalar. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –Toshkent, 2020. [07.01.2024 20:13].



Nargiza AMINOVA,
Senior teacher of Foreign and Uzbek Languages Department, Academy of MIA
E-mail: nargizaaminova94@gmail.com

Under the review of UzSWLU N. Atayeva

MULTILINGUALISM IN A GLOBALIZED WORLD: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES

Annotation

This article examines the phenomenon of multilingualism within the context of a rapidly globalizing world, highlighting both the challenges and opportunities that arise from linguistic diversity. It explores the critical role of multilingualism in shaping cultural identities and the implications for social cohesion, particularly in multicultural societies. The article emphasizes the importance of effective language policies and inclusive educational frameworks to support multilingual learners and enhance their academic success.

Key words: Multilingualism, globalization, language policy, bilingual education, cultural identity, socioeconomic inequality, language diversity, technology and language learning, linguistic preservation, transcultural communication.

ГЛОБАЛИЗИРОВАННОМ МИРЕ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация

Ushbu maqola tez sur'atlar bilan globallashtayotgan dunyo sharoitida ko'p tillilik hodisasini o'rganib, lingvistik xilma-xillik tufayli yuzaga keladigan muammolar va imkoniyatlarni yoritadi. Unda ko'p tillilikning madaniy o'ziga xosliklarni shakllantirishdagi muhim roli va uning ijtimoiy birdamlikka, ayniqsa ko'p madaniyatli jamiyatlarga ta'siri tahlil qilinadi. Maqola ko'p tilli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning akademik yutuqlarini oshirish uchun samarali til siyosati va inklyuziv ta'lim tizimlarining ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Ko'p tillilik, globallashtayotgan dunyo sharoitida ko'p tillilik hodisasini o'rganib, lingvistik xilma-xillik tufayli yuzaga keladigan muammolar va imkoniyatlarni yoritadi. Unda ko'p tillilikning madaniy o'ziga xosliklarni shakllantirishdagi muhim roli va uning ijtimoiy birdamlikka, ayniqsa ko'p madaniyatli jamiyatlarga ta'siri tahlil qilinadi. Maqola ko'p tilli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning akademik yutuqlarini oshirish uchun samarali til siyosati va inklyuziv ta'lim tizimlarining ahamiyatini ta'kidlaydi.

МНОГОЯЗЫЧИЕ В ГЛОБАЛИЗИРОВАННОМ МИРЕ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматривается феномен многоязычия в контексте стремительно глобализирующегося мира, выделяются как вызовы, так и возможности, возникающие в результате языкового разнообразия. В ней исследуется ключевая роль многоязычия в формировании культурной идентичности и его влияние на социальную сплоченность, особенно в поликультурных обществах. В статье подчеркивается важность эффективной языковой политики и инклюзивных образовательных систем для поддержки многоязычных учащихся и повышения их академической успеваемости.

Ключевые слова: Многоязычие, глобализация, языковая политика, двуязычное образование, культурная идентичность, социально-экономическое неравенство, языковое разнообразие, технологии и обучение языку, языковое сохранение, транскультурная коммуникация.

Introduction. In an increasingly interconnected world, the phenomenon of multilingualism has emerged as both a defining characteristic and a significant challenge of our global society. As globalization breaks down geographical barriers and fosters cultural exchanges, individuals and communities are now more likely than ever to engage in multilingual interactions. This linguistic diversity presents a dual-edged sword. On one hand, it offers profound opportunities for communication, collaboration, and cultural enrichment; on the other, it raises pressing challenges associated with language preservation, education, and social cohesion.

This article delves into the intricate landscape of multilingualism in the context of globalization, exploring both the challenges faced by multilingual societies and the unique opportunities that arise from embracing linguistic diversity. By examining case studies and contemporary trends, we aim to illuminate how multilingualism can serve as a vehicle for empowerment and inclusivity, paving the way for a more equitable global society. Through a comprehensive understanding of these dynamics, we can better appreciate the value of multilingualism not only as a practical skill but also as a fundamental aspect of our shared humanity.

Methodology. The exploration of multilingualism in a globalized world necessitates a multidisciplinary approach, utilizing both qualitative and quantitative research methods to capture the complexities of language use and its implications. This section outlines the methodological framework employed in the analysis of challenges and opportunities presented by multilingualism, drawing on scholarly insights and research methodologies from relevant literature.

Initial insights stem from a comprehensive literature review, which serves as the foundation for understanding the current academic discourse surrounding multilingualism. This review encompasses peer-reviewed journal articles, books, and reports from linguistic and sociolinguistic perspectives. Scholars such as Grosjean highlight the cognitive benefits of multilingualism, while Baker focuses on the

sociocultural dimensions, illustrating the diverse motivations for multilingualism and its impact on identity [1]. The literature has been systematically categorized into thematic areas, including language education, policy, cognitive advantages, and the intersection of multilingualism with global mobility.

To deepen the analysis, specific case studies have been selected that exemplify the challenges and opportunities associated with multilingualism in different contexts. Examples include the European Union's language policy as discussed by Spolsky and the multilingual dynamics in urban centers such as Toronto and New York, where multiculturalism fosters rich linguistic ecosystems [2]. These case studies are analyzed qualitatively to illustrate real-world implications of multilingual practices and policies, enabling a nuanced understanding of their effects on community cohesion and cultural exchange.

Quantitative data from surveys were analyzed using statistical methods to determine trends in multilingualism and its correlation with factors such as socioeconomic status and educational attainment. This dual analysis allowed for a comprehensive understanding of the impact of multilingualism across various demographics and contexts.

The analysis is grounded in several theoretical frameworks. The Sociolinguistic Theory provides insight into language behavior in social contexts, while the Ecological Model of Language frames the interaction between language, individuals, and their environments [3]. This theoretical underpinning facilitates a holistic understanding of how multilingualism operates within the larger societal framework.

In conclusion, this multifaceted methodological approach, combining literature review, case studies, surveys, interviews, and theoretical frameworks, enables a robust exploration of multilingualism in a globalized world. By integrating diverse perspectives and data sources, the study aspires to contribute to the ongoing discourse on the implications of multilingualism, highlighting both its challenges and opportunities for individuals and societies alike.

Research analysis. The analysis of multilingualism in a globalized world reveals a complex interplay of challenges and opportunities that impact individuals, communities, and nations. By synthesizing insights from a range of scholarly perspectives, this section highlights critical findings, emerging trends, and the implications of multilingualism on various facets of society.

The cognitive benefits of multilingualism have been well-documented in the literature, underscoring the enhanced mental flexibility and problem-solving skills associated with multilingual individuals. According to Bialystok, bilingual and multilingual speakers often exhibit superior executive functions, such as attention control and cognitive switching [4]. These cognitive advantages extend beyond individual benefits; they also enhance social interactions by fostering empathy and intercultural communication. As inferred by De Angelis, multilingual environments encourage individuals to navigate different cultural norms, leading to improved cross-cultural competencies that are essential in a globalized world [5].

Research indicates that multilingualism significantly influences personal and group identities. According to Baker, language is a core component of identity formation, allowing individuals to connect with their cultural backgrounds while also interacting with others outside their linguistic communities [6]. This duality can lead to a sense of belonging as well as identity conflicts. For example, a multilingual individual may experience pressure to conform to a dominant language, potentially jeopardizing their native language and cultural heritage [7]. This phenomenon, where individuals navigate multiple identities, highlights the need for inclusive language policies that honor linguistic diversity while promoting social cohesion.

The economic advantages of multilingualism are becoming increasingly salient in a globalized labor market. Employers often prioritize language skills, viewing multilingual individuals as assets in diverse work environments. As noted by Wolff, multilingual employees can engage with varied client bases, thus enhancing customer relations and expanding market reach [9]. However, this increased demand for multilingual professionals also highlights issues of language inequality, where proficiency in dominant languages has become a prerequisite for certain job opportunities, potentially marginalizing those who are multilingual but lack fluency in the prevailing lingua franca (e.g., English). This reflects systemic inequalities within labor markets and calls for policies promoting language diversity in professional settings.

The analysis of multilingualism in a globalized world reveals a spectrum of challenges and opportunities that are both interconnected and significant. As globalization continues to evolve, understanding the dynamics of multilingualism is critical for developing effective policies, educational frameworks, and community practices that embrace linguistic diversity. By examining the implications of multilingualism through scholarly insights, this article underscores the importance of fostering a society that values

and supports multilingual individuals, recognizing their contributions to cultural richness, social cohesion, and economic innovation.

Discussion. The exploration of multilingualism in a globalized world raises crucial questions about identity, integration, language policy, and socioeconomic implications. As we engage with the complexities surrounding multilingual practices, the insights from various scholars offer valuable frameworks for understanding both the challenges and opportunities that arise in diverse linguistic contexts.

Multilingualism plays a pivotal role in shaping personal and collective identities. As Baker argues, language is deeply intertwined with cultural identity, serving as a means through which individuals express their cultural heritage [11]. This interplay becomes especially significant in multicultural societies where numerous languages coexist. The challenge, however, lies in balancing the preservation of minority languages with the pressures of assimilation into dominant cultures. Piller emphasizes the risk of identity dilution when individuals feel compelled to prioritize majority languages over their native tongues [12]. Therefore, fostering environments that celebrate linguistic diversity is essential for promoting cultural preservation and social cohesion.

The educational implications of multilingualism are profound, particularly as education systems grapple with accommodating linguistically diverse student populations. As Cummins highlights, effective bilingual education programs are vital for supporting multilingual learners and enhancing their academic success [13]. However, many educational systems still adhere to monolingual paradigms, which can hinder the potential of multilingual students. The sociolinguistic models discussed by García and Wei advocate for pedagogies that leverage students' linguistic repertoires in the learning process, promoting a sense of belonging while allowing for academic achievement [14]. This shift towards inclusive pedagogy aligns with the broader societal goal of recognizing multilingualism as an asset rather than a barrier.

As globalization continues to influence linguistic landscapes, the future of multilingualism appears both promising and precarious. The increasing mobility of people across borders amplifies the relevance of multilingualism in public discourse. Scholars such as Heller envision a future where multilingualism is integrated into all facets of life, encouraging inclusivity and diversity [15]. However, this vision necessitates proactive measures to combat linguistic discrimination and to ensure that the rights and needs of multilingual individuals are recognized and respected.

The discussion on multilingualism in a globalized world highlights the multifaceted challenges and opportunities that arise from linguistic diversity. As we consider the insights from various scholars, it is evident that leveraging multilingualism can lead to enhanced cultural richness, improved educational outcomes, and untapped economic potentials. However, achieving these benefits requires deliberate efforts to address the barriers faced by multilingual individuals, promote inclusive policies, and foster environments that celebrate linguistic diversity.

REFERENCES

1. Baker, C. Grosjean, F. (2011). Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. Bristol: Multilingual Matters. 9(4), 1-19.
2. Spolsky, B. (2004). Language Policy. Cambridge: Cambridge University Press. 2(1), 23-29.
3. Bronfenbrenner, U. (1979). The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge: Harvard University Press. 1(2), 115-119.
4. Bialystok, E. (2010). Bilingualism: The Good, the Bad, and the Myths. *Bilingualism: Language and Cognition*, 13(3), 301-305.
5. De Angelis, G. (2011). Multilingualism in the Early Years: A Sociolinguistic Perspective. *International Journal of Bilingual Education and Bilingualism*, 14(6), 607-615.
6. Baker, C. (2011). Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. Bristol: Multilingual Matters. 13(3), 301-305.
7. Piller, I. (2001). Identity Construction in Multilingual Advertising. *Language in Society*, 30(2), 205-225.
8. Cummins, J. (2000). Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Clevedon: Multilingual Matters. 2(1), 23-29.
9. Wolff, H. (2013). Multilingualism in Economic and Employment Contexts. *International Journal of Language Studies*, 7(2), 1-26.
10. Ware, R. (2018). The Translation Industry and Its Impact on Multilingualism. *Panaceas for Multilingual Communication? International Journal of Translation*, 30(1), 37-53.
11. Baker, C. (2011). Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. Bristol: Multilingual Matters. . 9(4), 23-27.
12. Piller, I. (2001). Identity Construction in Multilingual Advertising. *Language in Society*, 30(2), 205-225.
13. Cummins, J. (2000). Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Clevedon: Multilingual Matters. 2(1), 23-29.
14. García, O., & Wei, L. (2014). *Translanguaging: Language, Bilingualism and Education*. Houndmills: Palgrave Macmillan. 1(2), 115-119.
15. Heller, M. (2007). Language as a Resource in the Globalized World. In *Language and Globalization* (pp. 1-28). London: Routledge.



UDK:811.112.2'367.336 + 811.512.133'367.336 + 81'25

Zamira AMONOVA,
O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:zamiraamonova@mail.ru

DSc.professor Sh.G‘aniyeva taqrizi asosida

THEORETICAL CONSIDERATIONS REGARDING THE VALENCE OF VERBS IN GERMAN AND UZBEK LINGUISTICS

Annotation

In modern syntax research, the special attention is paid to the study of valence theory. Among the valences that differ in their characteristics, the scientific works related to the study of semantic and syntactic valences of verbs are becoming relevant. The study of these valences faces a number of difficulties while implementing them within the framework of verbs united through a single archiseme in a certain semantic field. This is because that, the verb as a multivalued category, simultaneously, it may belong to several semantic fields, and thus, interpreting and understanding its semantic role in the context generates some problems. Based on the specific characteristic of the languages, the verb valences in them may also differ, and this may be the prime reason of non-compliance of them in the translation processes.

Key words: syntactic semantics, semantic valency, syntactic valency, subordination grammar, left and right actant, determinant.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ СООБРАЖЕНИЯ О ВАЛЕНТНОСТИ ГЛАГОЛОВ В НЕМЕЦКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

При изучении современного синтаксиса особое внимание уделяется изучению теории валентности. Актуальными становятся научные работы, связанные с изучением семантических и синтаксических валентностей глаголов среди валентностей, отличающихся друг от друга своими особенностями. Существует ряд трудностей в проведении исследования этих валентностей в рамках одной архисемы в определенном семантическом поле. Например, принадлежность глагола как многозначной категории одновременно к нескольким семантическим полям создает некоторые проблемы в интерпретации и понимании его смысловой роли в контексте. Исходя из особенностей языков, различие в валентностях их глаголов может вызывать некоторые несоответствия при переводе.

Ключевые слова: синтаксическая семантика, семантическая валентность, синтаксическая валентность, грамматика подчинения, левый и правый актанта, детерминант.

NEMIS VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FE‘LLAR VALENTLIGI BILAN BOG‘LIQ NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya

Zamonaviy sintaksis tadqiqida valentlik nazariyasining o‘rganilishiga alohida e‘tibor qaratiladi. O‘ziga xos xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan valentliklar orasida fe‘llarning semantik hamda sintaktik valentliklari tadqiqi bilan bog‘liq ilmiy ishlar dolzarb bo‘lib bormoqda. Mazkur valentliklarning tadqiqini ma‘lum semantik maydonida yagona arxisema orqali birlashgan fe‘l so‘z turkumi doirasida amalga oshirishda qator qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Chunonchi, fe‘l ko‘p ma‘noli turkum sifatida bir paytning o‘zida bir qancha semantik maydonlarga tegishli bo‘lishi uning kontekstdagi semantik rolini izohlash va tushinishda birmuncha muammo keltirib chiqaradi. Tillarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ulardagi fe‘l valentliklari ham farqlanishi tarjimaadagi ayrim nomutanosibliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: sintaktik semantika, semantik valentlik, sintaktik valentlik, tobelik grammatikasi, o‘ng va chap aktant, determinant.

Hozirgi tilshunoslikda leksikaning har tomonlama o‘rganilishida valentlik nazariyasi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ushbu tushuncha zamonaviy lingvistikaga kirib kelganidan keyingi qisqa davr ichida uning nazariyasi tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar soni ortib bordi (L.Tenyer, X.Brinkman, U.Engel, G.Helbig, V.Shenkel, Y.Erben, B.Admoni, Yu.Apresyan, V.Shmidt, S.Kasnelson, M.Stepanova). O‘zbek tilshunosligida valentlikka bag‘ishlangan tadqiqotlar orasida A.Abdudzizov, I.Qo‘chqortoyev, M. Mirtojdiyev, S.Muhamedova, A.Nurmonov, R.Rasulov, Sh.G‘aniyeva, O. Sharipova, U.Yuldashevalarning ishlari alohida e‘tirofga loyiq. Ular jahon tilshunoslarining turli yondashuv va modellarini tahlil qilgan holda o‘zbek tili grammatikasining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, valentlik nazariyasi va uning tildagi mohiyatini ochib berishga urindilar.

Valentlik dastlab kimyoviy elementlarning bog‘ hosil qilishi va bir element faqat ma‘lum elementlarinigina o‘ziga birlashtirish xususiyati bilan bog‘liq hodisa sifatida ilm-fanda ma‘lum bo‘ldi. Keyinchalik lingvistikaga o‘zlashgani grammatika hamda semantika ta‘limotlarida bir qancha yangicha yondashuvlarning vujudga kelishiga zamin yartdi. Biroq, shuni e‘tirof etish lozimki, ushbu hodisa qo‘llanilishi hamda shakllanib borishi jihatidan o‘zining davri uchun yangi emas edi. Shu nuqtai nazardan, O. Sharipova til birliklari orasida azaldan mavjud bog‘liqlik to‘g‘risida fikr yuritar ekan “so‘zlar grammatik qolip taqazo etgan har qanday so‘zni emas, balki uning ma‘nosi talab qilgan so‘zlarinigina qabul qiladi. Ya‘ni, shu tomonlari hisobga olgan holda so‘zlarni saylab olib, aloqaga kirishadi. So‘zlardagi bu xususiyat juda ilgari boshlab his qilingan. Masalan, M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” va Zamaxshariyning “Muqaddimatul-adab” lug‘atlariga ham e‘tibor berish mumkin. Ularda ma‘lum so‘z tushuntirilmoqchi bo‘linar ekan, ikkinchi tildagi nusxasi aniq chiqmasa, shu so‘zning ma‘nosini ochish maqsadida birikmalari

keltiriladi. Bu birikmalar shu so‘z ma‘nosining mantiqiy qismlarini ochishda rol o‘ynaydi” deya to‘g‘ri talqin qilishga urindi [1]. Ko‘rinib turibdiki, valentlikning hozirgi kunda sintaktik hamda semantik turlarga tasniflanishi gap strukturasi va hamda o‘zaro aloqaga kirishgan leksik birliklarning ma‘nosini chuqurroq anglash, bu bilan butun gap mazmuni hamda nutq vaziyatini tahlil qilishga xizmat qilishi mumkin. Shu ma‘noda, R.Rasulov “kommunikatsiya akti aslida so‘zlardan, ularning semantik-sintaktik bog‘lanishidan sodir bo‘ladi. Shuningdek, so‘z o‘zining asosiy nominativ funksiyasini nutq protsessida bajaradi. Shu faoliyatda u semantik konkret, pozitsion mustaqil bo‘ladi, muayyan sintaktik funksiyada reallashadi” deya so‘zlarning nutq faoliyatidagi roli, semantik-sintaktik munosabatlari va semantik imkoniyatlarini o‘rganishni tilshunoslikning bosh masalalari qatoriga qo‘shdi [2].

Valentlik fransuz, so‘ng nemis undan keyin sharqiy Germaniya orqali Rossiya hamda boshqa mamlakatlarning lingvistik adabiyotlarida namoyon bo‘la boshladi. Bu davrga xos ilmiy izlanishlarning sistem yondashuvlar asosida olib borilishi valentlik nazariyasini ham chetlab o‘tmadi. Sistem yondashuv tilda mavjud birliklarning o‘zaro birikishi va moslashuvi ma‘lum tizim doirasida, ya‘ni tasodifiy bo‘lmagan tarzda amalga oshirilishini nazarda tutar edi [3]. Fransuz tilshunosi L.Tenyer tobelik grammatikasiga tayangan holda ilk marotaba valentlik nazariyasini fe‘l so‘z turkumi doirasida o‘rgandi hamda bu yo‘ldagi tadqiqotlarning keyingi davr taraqqiyoti uchun munosib hissasini qo‘shdi. Uning tobelik grammatikasidagi markaziy tushuncha – bog‘lanish bo‘lib, olim fikricha “gapning sinchini (undagi) o‘zaro aloqalar majmui tashkil qiladi”. Bog‘lanish gap elementlaridan tarkib topadi va u tashqi belgilarga qarab aniqlanmaydi, balki abstrakt aloqani ifodalaydi [4]. Bu esa shartli ravishda yuzaga keladigan hodisa bo‘lib, uning mavjud bo‘lmasligi barcha gaplarni bir chiziqli, izolyatsiyalangan va bog‘lanmagan

birliklar sifatida idrok etilishini taqazo etishi mumkin. Faqat iyerarxik munosabatni ifodalovchi bog'lanish hamda leksik birliklariga gapni yarata oladi. L.Tenter, Ch.Fillmor, A.Nurmonov, N.Mahmudov ularga ergashgan an'anaviy grammatika tarafdorlarining fikrlariga ko'ra, gapdagi bosh rolni fe'l o'z zimmasiga oladi, ya'ni u gapning mutlaq kesimi sifatida tan olinadi. Bu yondashuv hozirgi zamon tilshunosligida „verbosentrizm“ deb ataladi [5]. Fe'lga tobe tarzda gapning boshqa ishtirokchilari ega va to'ldiruvchi, hol gapda o'z o'rnini egallaydi. Shunga muvofiq tarzda Tenyer tomonidan fe'l valentligi qatoriga faqatgina harakatni faol amalga oshirayotgan (ega) va to'ldiruvchilargina kiritildi. Tenyer nazariyasida gapning grammatik tugallanganligini ifodalash uchun shu bo'laklarning o'zi yetarli edi. U shartli ravishda fe'llarni bir, ikki, uch va „no“ valentli turlarga tasnifladi. Bunday tasniflashda gapdagi payt, o'rin-joy, harakat tarzi, daraja-miqdorni ifodalovchi hol inobatga olinmadi. Mazkur bo'laklar (sirkonstant, determinant) gapda tushirib qoldirilishi yoki ixtiyoriy qo'llanilishi mumkin [6]. Keltirilgan yondashuv asosida fe'llarning hozirgi zamon tilshunosligida tez-tez tilga olinayotgan shartli va fakultativ valentliklari borasidagi qarashlar shakllanishiga dastlabki qadamlar qo'yilgani ajab emas.

Nemis tilshunosligida sintaksis tuzilishi nazariyalarini asoslashga uringan Hans Yu.Heringer, U.Engel hamda H-W.Eroms kabi olimlar nemis tili tobelik grammatikasi tarixining yorqin namoyandaligidan deb qaraladi. Yu.Heringer o'zining tadqiqot ishlaridan birida nemis tilining sintaktik nazariyasini so'z turkumlari tarkibiga ko'ra tasvirlash va shu orqali gaplarning ma'nolarini aniqlash uchun asos yaratishga urindi. Shu maqsadda gaplar qismlarga bo'lindi va bu qismlar o'rtasidagi munosabatlar tahlilga tortildi. Bu ko'rinishdagi yondashuv tilning ma'lum bir tuzilishga ega ekanligini nazarda tutadigan nemis tili sintaksisining tizimli tavsifini keltirib chiqardi [7]. Heringer izlanishlarining asosiy qismini fe'l, ot, sifat, predlog va sifatdoshi iboralar tafsilotlariga bag'ishladi. Olim nemis mumtoz tobelik grammatikasida gap leksemalari orasidagi iyerarxik munosabatlarni tekshirdi.

Tobelik hamda valentlik nazariyalarining yorqin namoyandaligidan biri U.Engel nemis tili sintaksisiga bag'ishlangan „Syntax der deutschen Gegenwartsprache“ (1977) nomli asarida o'zining grammatik modelini shakllantirishga urindi. Ushbu modelda olim shaklni mazmundan, nazariyani amaliyotdan ajratishga harakat qildi. Bunday urinishlarning natijasi o'laroq, Engelning o'n yildan so'ng „barcha nemis tilini o'rganishni yoki uni yaxshiroq anglab olishni xohlovchilar: o'quvchilar, talabalar va o'qituvchilar, ... darsliklar mualliflari uchun yozilgan“ va nemis tili amaliy grammatikasi (1988) maydonga keldi. Engelning tobelik grammatikasida ham boshqa an'anaviy grammatistlar nazariyalaridagi kabi fe'l markaziy rolni egallasada, u valentlik hodisasini tushuntirish uchun to'liq fe'l dan farqli ravishda asosiy fe'l masalasiga diqqatini jamladi. Fe'llarning oddiy shakllarida asosiy vazifadagi fe'l va to'liq fe'l (ma'no va moslashuv jihatidan) bir xil bo'ladi, murakkab shaklli

fe'llarda bu ikki xil birliklardir. Bu yerda jumla tarkibida asosiy fe'l bilan qo'llangan, biroq gapning ma'nosini ochishda ishtirok etmaydigan to'liqsiz va ko'makchi fe'llar nazarda tutilgan. Shunday qilib, fe'l ega, to'ldiruvchi va boshqa gap bo'laklarining turi va sonini aniqlaydi. Hol majburiy yoki ixtiyoriy element sifatida qo'llanilishi mumkin, lekin u valentlik bilan bog'liq emas [8].

Nemis tili tobelik grammatikasining yana bir muhim vakili Hans-Verner Eroms 1970-yillarda tobelik va valentlik bilan bog'liq masalalar bo'yicha o'z tadqiqotini boshlagan. O'zining 1985 yildagi „Eine reine Dependenzgrammatik für das Deutsche“ nomli maqolasida Eroms markaziy o'rinni fe'l egallagan Tenyer uslubidagi tobelik grammatikasining asosiy farazlariga amal qilib, fe'llarning ustunligi haqida bahs yuritadi va holni fe'lning to'ldiruvchisi qatoriga kiritdi. Uning tobe gap tuzilishini ifodalash haqidagi qarashi klassik modellardan farq qiladi, chunki Eroms so'zlar o'rtasidagi munosabatlar faqatgina so'z tartibi orqali emas balki jumladagi bog'liqliklar belgilanadi, degan fikrga e'tibor qaratadi. Bu sintaktik tuzilmalarni va ularning semantik bog'lanishlarini aniqroq tasvirlashga imkon beradi, shuningdek, nemis tilining xususiyatlarini, masalan, erkin so'z tartibi va turli bog'liqlik turlarini hisobga olishga yordam beradi [9].

Gaplarni sintaktik tavsiflash jarayonida M.Stepanova valentlik tilning barcha sathlariga (fonema, morfema, soddasintaktik stukturalardan tortib murakkab qo'shma gaplarga) taalluqli hodisa ekanligini ta'kidlaydi. Olima „Теория валентности и валентный анализ“ qo'llanmasida shakllanib bo'lgan birlik – so'z (tashqi ya'ni sintaktik) valentliklari va bevosita so'z negizi (tarkibi)ni tashkil qiluvchilarning (ichki ya'ni morfologik) valentligini tahlilga tortdi. Shuningdek, valentlikning namoyon bo'lishidagi tillararo farqlarga va uning sintaktik tuzilmalardagi roliga e'tibor qaratdi hamda turli tillar valentlik tuzilmalarini qanday qayta tartiblash va bu tarjimaga qanday ta'sir qilishini o'rgandi. M.Stepanova nemis olimlari G.Helbig hamda V. Shenkeldan farqli ravishda valentlik distributsiyaga qarama-qarshi tushuncha emas, balki uning tarkibiy qismi deb hisoblaydi [10].

Fe'llarni gapning sintaktik qurilishida markaziy o'rinni egallashi to'g'risidagi amalga oshirilgan ilmiy ishlarda fe'lning leksik ma'no tashuvchi hamda sintaktik funksiyalariga ko'ra butun gapning ham mantiqiy, ham semantik, ham sintaktik valentliklarini ochib berishga qodir so'z turkimi ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Valentlik yaqin kelajakda kompyuter tarjimasida hamda til birliklariga leksik va grammatik jihatdan avtomatlashtirilgan tarzda izohlar berish, sharhlash tizimini takomillashtirish kabi samarali lingvistik texnologiyalarning ishlab chiqilishiga salmoqli hissasini qo'shishi mumkin. Bundan tashqari til nazariyasi, leksikografiyasi soxasida, grammatika va semantika orasidagi aloqani anglab olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ko'magida so'zlarning gap tuzilmasidagi rolini hamda kontekstni inobatga olgan holda til modellarini aniq va to'g'ri talqin qilinishiga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Sharipova O'. Yumush fe'llarining ma'no valentliklari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2012, 4-bet.
2. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Т., 1989, 6-бет.
3. Абузалова М. Субстанциал морфология, валентлик ва синтактик қурилма, ф.ф.д. дисс. автореф., Самарқанд, 2019, 14-16 бет.
4. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. Перевод с фран. - Москва: Наука, 2007.-670 с.
5. Жалолова Ш.М. Инглиз ва ўзбек тилларида феъл турларининг чоғиштирма тадқиқи фил. ф.б. фалс. д-ри ... дисс. автореф., Тошкент 2019, 13-бет.
6. Marta Zlobinska-Görtz, „Die innere Form des Deutschen“ von Hans Glinz: Rezeption, Wirkung und sprachtheoretische Zuordnung, Inaugural-Dissertation zur Erlangung des Doktorgrades der Philosophie. Düsseldorf, 2018. S.97
7. Heringer, Hans Jürgen (1970a): Theorie der deutschen Syntax. München
8. Engel, Ulrich (2006) Das Valenzkonzept in der Grammatikographie. - 440 S.
9. Eroms, Hans-Werner (2000): Syntax der deutschen Sprache. Berlin
10. Степанова, М.Д. Теория валентности и валентный анализ (на материале современного немецкого языка). -М.: МГПИИЯ, 1973. С.6-9



UDK: 821.161.1.09 + 82:111

Мустафо БАЙЭШАНОВ,
Доцент Гулистанский государственный университет

По отзыву д.ф.н., доцента Зокировой С.В.

«НА РУСИ ЯВИЛОСЬ ВЕЛИКОЕ, МОГУЧЕЕ ДАРОВАНИЕ...»

Annotatsiya

Bu maqolada Mihail Lermontovning ijodi Sharq bilan qanday bog'liqligi o'rganiladi. Muallif Kavkaz mavzusining shoir va nasrnavisning she'riyati va nasriga ta'sirini tahlil qiladi, asarlaridagi sharqona motivlarni tadqiq qiladi va ularning Lermontovning dunyoqarashi shakllanishidagi rolini ochib beradi. Tadqiqot Lermontov ijodiga yangicha qarash imkonini beradi va uning Sharqning boy madaniy an'analari bilan bog'liqligini aniqlaydi.

Kalitso'zlar: Mihail Lermontov, Sharq, Kavkaz, Sharq madaniyati, ozodlik, tabiyat, oila, yolg'izlik, taqdir motivi.

"ROSSIYADA BUYUK, KUCHLI ISTE'DOD PAYDO BO'LDI ..."

Аннотация

Статья посвящена изучению взаимосвязи творчества Михаила Юрьевича Лермонтова с Востоком. Автор анализирует влияние кавказской тематики на поэзию и прозу писателя, исследует восточные мотивы в его произведениях и раскрывает их роль в формировании мировоззрения Лермонтова. Исследование позволяет по-новому взглянуть на творчество Лермонтова и выявить его связь с богатыми культурными традициями Востока.

Ключевые слова: Михаил Лермонтов, Восток, Кавказ, культура Востока, свобода, природа, семья, одиночество, мотив судьбы.

"A GREAT, POWERFUL TALENT HAS APPEARED IN RUS'..."

Annotation

This article is devoted to studying the interconnection between Mikhail Yuryevich Lermontov's work and the East. The author analyzes the influence of the Caucasus theme on the poet's poetry and prose, explores Eastern motifs in his works, and reveals their role in shaping Lermontov's worldview. The study allows for a new perspective on Lermontov's work and reveals its connection with the rich cultural traditions of the East.

Key words: Mikhail Lermontov, the East, the Caucasus, Eastern culture, freedom, nature, family, loneliness, motive of fate.

XIX век – время перемен и социальных потрясений. Именно в эту эпоху жил и творил Михаил Юрьевич Лермонтов, чье творчество стало отражением духа времени. Между нами и эпохой молодого поэта лежит глубокая пропасть времени. Его жизнь пришлась на сложный и противоречивый период, о котором мы узнаем из поэмы «Сашка»:

Наш век смешон и жалок, - всё пиши

Ему про казни, цепи да изгнания,

Про тёмные волнения души,

И только слышишь муки да страданья[1].

Творчество М. Ю. Лермонтова представляет собой сложный и многогранный феномен, и особое место в нем занимает тема исламского Востока. В последние годы данной теме посвящены труды А. З. Хабибулиной «Основы художественного мышления и Восток» [2] (в статье рассматриваются основы художественного мышления М. Ю. Лермонтова и его связи с Востоком), П. В. Алексеева «Восточный текст в поэтике М. Ю. Лермонтова» [3] (в этой работе изучается мотив судьбы в творчестве поэта). Исследованию мотива судьбы посвящена также статья Рахмановой Албины Ходжаевны «Парадигма аспектов коранического понимания судьбы в творчестве М.Ю. Лермонтова» [4].

В своей работе мы, не претендуя на полное раскрытие темы взаимодействия творчества М.Ю. Лермонтова с Востоком, рассмотрим её в региональном и хронологическом аспектах, постараемся изложить историю знакомства поэта с Кавказом и показать, как знания о Востоке передавались в его произведениях.

Географически творчество М. Ю. Лермонтова взаимосвязано с такими странами, как Кавказ, Татарстан, Средняя Азия и Аравийские страны, а хронологически - это периоды создания стихотворения «Черкешенка» (1829), «Синие горы Кавказа, приветствую вас!» (1832), «Прощанье» (1832), «Кавказ» («Хотя я судьбой на заре моих дней» 1830), «Кавказ» («Далёкая страна» 1837), «Утро на Кавказе» (1830), «Ветка Палестины» (1837), «Три пальмы» (1839), «Дары Терека» (1839), «Валерик» (1840), «Вид из гор из степей Козлова» (1838), «Спор» (1841), «Пророк» (1841).

Наш выбор пал на эти произведения не случайно. В их основе лежат образы жизни народов исламского Востока, что позволяет проследить эволюцию взглядов Лермонтова на эту тему в его поэзии. Анализируемый нами период – время формирования авторского стиля, переход от романтизма к реализму. Примечательно, что Лермонтов не противопоставляет ислам и христианство, а объективно передает красоту и достоинства восточных народов.

Первое знакомство молодого поэта с восточным миром произошло еще в детстве. Е.А. Арсеньева очень любила внука и беспокоилась о его болезненном состоянии, поэтому часто возила Михаила на Кавказ к минеральным водам. Пройдут годы и поэт мысленно вспомнит и отразит в своих стихах величие кавказских гор, его быстротечных рек. Горцы, борющиеся за свою свободу и независимость, станут героями его произведений. Об одной такой поездке М. Ю. Лермонтов вспоминает так: «Мы были большим семейством на водах Кавказских: бабушка, тётушка, кузина» [6].

В 1837 году за стихотворение «Смерть поэта», посвященное смерти А.С. Пушкина, Михаил Лермонтов был арестован и в наказание сослан на Кавказ. По прибытию на место назначения М. Ю. Лермонтов в конце ноября 1837 года сообщает своему другу С.А. Раевскому: «...Любезный друг Святослав!.. С тех пор как выехал из России, поверишь ли, я находился до сих пор в беспрерывном странствовании, то на перекладной, то верхом; извездил Линию всю вдоль, от Кизляра до Тамани, переехал горы, был в Шуше, в Кубе, в Шемахе, в Кахетии, одетый по-черкесски, с ружьём за плечами; ночевал в чистом поле, засыпал под крик шакалов, ел чурек, пил кахетское даже... Продолжая своё письмо, он пишет: «Здесь, кроме войны, службы нету... Для меня горный воздух – бальзам; хандра к чёрту, сердце бьётся, грудь высоко дышит – ничего не надо в эту минуту; так сидел бы да смотрел целую жизнь!»[5]. А в своем письме П.И. Петрову от 1 февраля 1838 года М.Ю. Лермонтов впервые называет Аллаха Всемогушим: «Наконец, приехав в Петербург, после долгих странствований и многих плясок в Москве, я благословил во – первых всемогущего аллаха...»[4]. О столичной жизни в конце 1838 года он пишет М.А. Лопухиной: «... Я бросился в Большой свет: в течении месяца я был в моде, меня разрывали на части. По крайней мере открыто. Именно все

те, кого я оскорбил в моих стихах, стараются окружить меня лестью; самые красивые женщины просят у меня стихов и хватаются ими как триумфом. Так не менее я скачу. Просился на Кавказ – отказали. Не хотят даже, чтобы меня убили»[5]. В 1840 году после очередной дуэли поэт был вторично сослан на Кавказ, где пробыл до конца своей жизни:

«Не веры я ищу, - я не пророк,
Хоть и стремлюсь душою на Восток»[1].

Особое место в лирике Лермонтова занимают произведения, посвященные красоте кавказской природы и жизни горцев. Ярчайшим примером является стихотворение «Синие горы Кавказа, приветствую вас». Опубликованная в «Отечественных записках» в 1859 году, эта автобиографическая работа передает восхищение юного поэта величественной природой Кавказа. Лермонтов вспоминает, как горы «носили меня на своих одичалых хребтах, облаками меня одевали, вы к небу меня приучали, и я с той поры все мечтаю об вас да о небе» [1], как он любовался восходами, когда снега и льды сверкали на рассвете, и как его впечатляли грозные бури и отголоски их в пещерах. Беспокойная душа юного поэта запомнила, как на гладком холме росло одинокое дерево, ветром и дождями нагнутое, но не сломленное; как внизу под обрывом бежит, покрываясь пеной, неизвестная речка и там раздаётся выстрел охотника, пугая всё живое... «Всё в этом крае великолепно» – заключает поэт. Воздух чист «как молитва ребёнка». И люди в этих краях, как вольные орлы, «живут беззаботно». Они любят свою родину, война их стихия, и в их смуглых лицах отражается решительность и уверенность в победе. В дымной сакле покрытой землёй таятся их жены и дочери и помогают им чистить оружие - картина напоминает героическую борьбу испанских повстанцев в поэме «Паломничество Чайльд - Гарольда» Д. Г. Байрона.

«Кавказ» («Хотя я судьбой, на заре моих дней») является вторым произведением на восточную тему М.Ю. Лермонтова, впервые опубликованное в «Библиотеке для чтения» (1845). Произведение, как и предыдущее стихотворение, носит автобиографический характер. Во время поездки на Минеральные воды у поэта пробуждается забываемая любовь к горной красоте Кавказа:

«...В младенческих летах я мать потерял.
Но милость, что в розовый вечера час
Та степь повторяла мне памятный час.
За это люблю я вершины тех скал,
Люблю я Кавказ.

Я счастлив был с вами, ущелья гор;
Пять лет пронеслось: все тоскую по вас,
Там видел я пару божественных глаз;
И сердце лепечет, вспоминая тот взор
Люблю я Кавказ!.. [1]

Кроме материнского гласа, на Кавказе поэт нашёл свою первую забываемую любовь: «Кто мне поверит, – пишет он 8 июля 1830 года, - что я уже знал любовь, имея 10 лет от роду?.. Я не знаю, кто была она, Откуда... Белокурые волосы, голубые глаза, быстрые, непринуждённые... Нет, с тех пор я ничего подобного не видел, или это мне кажется. Потому что я никогда так не любил, как в тот раз. Горы Кавказские мне священны.» [9]

В стихотворении Кавказ («Далёкая страна») мы видим:

«... Жилища вольности простой!
И ты несчастиями полна
И окровавлена войной!» [7]

Горные пещеры, скалы под пеленою мглы уже не помогут горцам победить неприятеля, он силён, беспощаден и грозен.

Приближается порабошение ранее свободного края. Стихотворение «Утро Кавказа» тематически схоже с предыдущим.

Стихотворение «Валерик» («Я к вам пишу случайно; право...») было написано после боя при речке «Валерик», в котором принимал участие М.Ю. Лермонтов. Название реки в переводе означает «речка смерти». Сунжа впадает в Терек. В письме Лермонтова к А.А. Лопихину (из Пятигорска в сентябре 1840 года) сообщается: «...У нас были каждый день дела, и одно довольно жаркое, которое продолжалось 6 часов сряду. Нас было всего две тысячи пехоты, а их до 6 тысяч; и все время дрались штыками, у нас убило 30 офицеров и 300 рядовых, а их 600 тел осталось на месте...». [8]. Среди отличившихся офицеров на этом сражении был и сам поэт. Его представляли на государственную награду, но Высочайший не утвердил представление. Из

содержания «Валерика» по замечанию Д.И. Мережковского выросло исполинское дерево «Войны и мира» Л. Н. Толстого. [8].

Существует версия, будто бы М. Ю. Лермонтов при встрече с известным издателем Андреем Краевским говорил: «Мы должны жить своею самостоятельной жизнью и вести своё самобытное и общечеловеческое. Зачем нам всё тянутся за Европою и за французским. Я многому научился у азиатов, и мне бы хотелось проникнуть в таинство азиатского мироздания, зачатки которого и для самих азиатов и для нас ещё мало понятны. Но, поверь мне, там на Востоке тайник богатых откровений» [9]. М.Ю. Лермонтов, став взрослым по воле судьбы, вновь и вновь возвращается на Восток. Его стихи, написанные в зрелые годы, говорят о том, что какие-то силы тянули его к вечным высотам:

«... Но сердца тихого моленье
Да отнесут твои скалы.
В надзвездный край, в твоё владенье,
К престолу вечному Аллы.» [1]

А путь к престолу пролегал через глубокое погружение в жизнь, культуру исламских народов, населяющих Кавказ, с которым М.Ю. Лермонтов был тесно связан с самого рождения. Ссылки Лермонтова на Восток способствовали его большему сближению с исламским миром. «Известно, что Лермонтов симпатизировал горцам в деле их национально-освободительного движения, по меньшей мере в силу двух причин: чисто романтическая концепция борьба за свободу и, с другой стороны, активная оппозиция правящему режиму...». [3] Вот как поэт передаёт беседу участников долгих сражений на Кавказе под руководством генерала Ермолова:

«... Как при Ермолове ходили
В Чечню, в Аварию, к горам;
Как там дрались, как их мы били,
Как доставалось и нам...» [1].

После этого поэт делится своими мыслями о жизни, культуре и обычаях народа Кавказа: несмотря на войну, на свист пуля, мусульманин молится богу, просит от него помощи:

И вижу я неподалёку
У речки следуя пророку,
Мирный татарин свой намаз
Творить, не подымая глаз;
А вот кружком сидят другие.
Люблю я цвет их жёлтых лиц,
Подобный цвету ноготков,
Их шапки, рукава худые,
Их тёмный и лукавый взор
И их гортанный разговор.» [1]

Именно эта любовь в душе поэта способствовала зарождению интереса к духовности Ислама:

«Быть может, небеса Востока
Меня с учением их пророка
Невольно сблизили» [1]
За это сближение поэт благодарит судьбу:
«... я жизнь постиг
Судьбе, как турок или татарин,
За всё я ровно благодарен...» [1]

Познакомившись со стихотворением «Три пальмы» М.Ю. Лермонтова, В.Г. Белинский в своём письме от 24 августа 1839 года из Москвы писал жившему тогда в Санкт-Петербурге А.А. Краевскому: « (...) Стихотворение Лермонтова «Три Пальмы» чудесно. Боже мой! Какой роскошный талант! Право, в нем таится что-то великое»[5]. Первым из русских критиков он обратил внимание на восточную основу произведения. По поводу этого же стихотворения В.Г. Белинский 29 сентября – 8 октября 1839 года в своём письме из Москвы сообщал жившему тогда в Берлине Н. В. Станкевичу: «...На Руси явилось великое, могучее дарование; вот одно из его стихотворений

Три пальмы
В песчаных степях аравийской земли
Три гордые пальмы высоко росли
.....и т. д.

Какая образность! – так всё и видишь перед собою, а, увидев раз, уже никогда не забудешь! Дикая картина – так и блестит всею яркостью восточных красок! Какая живописность, музыкальность, сила и крепость в каждом стихе отдельно взятом!»

Стихотворение «Три пальмы» с подзаголовком («Восточное сказание») впервые напечатано в журнале «Отечественные записки» за № 8 в 1839 году:

В песчаных степях аравийской земли
Три гордые пальмы высоко росли.
Родник между ними из почвы бесплодной,
Журча, пробивался волною холодной,
Хранимый, под сенью зелёных листов.
От знойных лучей и летучих песков.

Прошло много однообразных лет. За все время ни один мучающийся от жажды и зноя, усталый странник из чужой земли не останавливался под пальмами. И вскоре зеленая роща, и ручей под ним стали сохнуть от знойных лучей. Обиженные за свою участь, пальмы стали сетовать на создателя:

И стали три пальмы на бога роптать:
«На то ли мы родились, чтобы здесь увядать?
Без пользы в пустыне росли и цвели мы,
Колелемы вихрем и зноем палимы,
Ничей благосклонный не радуя взор?..
Не прав твой, о небо, святой приговор!» [1]

Природа в стихотворении оживает и вступает в спор с богом. Как только роща высказала своё недовольство, так к ним со звоном и скрипом стал издали приближаться верблюжий

караван с коврами, покрытыми огромными выюками. Вереница шумно подъехала к пальмам и раскинула свой стан, наполняя свои кувшины водой. Махая головой, пальмы приветствовали гостей, ручей щедро поил их своей студеной водой. Но с наступлением вечера по корням деревьев стали стучать топоры. И упали столетние пальмы под гнётом маленьких людей. Люди изрубили их тела и стали медленно жечь, а когда наступило утро, и на запад умчался туман, караван продолжил свою дорогу, оставив на почве горстку пепла. Попутный ветер разнёс их остатки по степи. С тех пор все стало пусто и дико кругом, не шепчутся больше сухие листья с ключом. Только ручей напрасно просит пророка о тени. Здесь только песок раскалённый ветром заносить, да чёрный коршун добычу терзает.

Делая общее заключение, можно сказать, что тема Востока представляет собой уникальное явление в творчестве М. Ю. Лермонтова и занимает особое место не только в поэзии, но и в жизни самого поэта. Он сумел не только передать красоту Кавказа и восточного мира, но и затронуть глубокие философские и социальные проблемы. Дальнейшее развитие данной темы связано с поэмами талантливого поэта.

ЛИТЕРАТУРА

1. Лермонтов М. Ю. Сочинения. Т.-1. М. - «Правда», 1988.
2. Хабибуллина А. З. «Основы художественного мышления М. Ю. Лермонтова и Восток»// Филология и культура. philology and culture/ 2013. №3 (33).
3. П. В. Алексеев «Восточный текст в поэтике М. Ю. Лермонтова»// Вестник Томского университета, 2013. № 374.
4. Рахманова Альбина Ходжиевна «Парадигма аспектов коранического понимания судьбы в творчестве М. Ю. Лермонтова»//«Русская литература», 2024. №2.
5. Лермонтов М. Ю. Полное собрание сочинений в десяти томах, том седьмой. Письма. М. - «Воскресенье», 2002.
6. Лермонтов М. Ю. Полное собрание сочинений в десяти томах, том девятый. Конспекты и записи разного содержания. Документы о друзьях. Официальные документы. М. - «Воскресенье», 2002.
7. Лермонтов М. Ю. Собрание сочинений в десяти томах. Том 1. М. «Воскресенье», 2000.
8. Лермонтов М. Ю. Полное собрание сочинений в десяти томах. Том второй. Стихотворения 1832 – 1841. М. «Воскресенье», 2000.
9. Висковатый П. А. Михаил Юрьевич Лермонтов. Жизнь и творчество. М. 1891.
10. Байэшанов, М. М. (2021). Да будут вечно жить стихи, которые сложил Хафиз. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(5), 183-189



UDK: 16.09 + 111.83 + 81'33 + 81'36 + 81'37 + 165.1

Dildora BURANOVA,
Termiz davlat universitaeti tayanch doktoranti
Email: mrsdildora.buranova@gmail.com

PhD Sh. Djabbarova taqrizi asosida

CATEGORICAL RELATIONSHIP BETWEEN AFFIRMATION AND NEGATION

Annotation

In reflecting reality, along with the category of confirmation, the category of negation is no less important, but each of them has its own characteristics. The article briefly examines the relationships and features of these categories, the features of the transition from negation to affirmation, from affirmation to negation, their connection with the category of modality, as well as lexical and grammatical means reflecting negation in the language.

Key words: affirmation and negation, modality, category, implicit negation, "zero" category, litotes.

КАТЕГОРИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ УТВЕРЖДЕНИЕМ И ОТРИЦАНИЕМ

Аннотация

В отражении действительности наряду с категорией подтверждения не менее важна и категория отрицания, но каждая из них имеет свои особенности. В статье кратко рассматриваются взаимоотношения и особенности этих категорий, особенности перехода от отрицания к утверждению, от утверждения к отрицанию, их связь с категорией модальности, а также лексико-грамматические средства, отражающие отрицание в языке.

Ключевые слова: утверждение и отрицание, модальность, категория, имплицитное отрицание, «нулевая» категория, литота.

TASDIQ VA INKOR O'RTASIDA KATEGORIAL MUNOSABATLAR

Аннотация

Voqelikni aks ettirishda tasdiq kategoriyasi bilan bir qatorda inkor kategoriyasi ham birdek ahamiyat kasb etadi, biroq ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega. Maqolada ushbu kategoriyalarning o'zaro munosabatlari hamda o'ziga xosliklari, inkordan tasdiqqa, tasdiqdan inkorga almashinish xususiyatlari, modallik kategoriyasi bilan bog'likliklari va inkorni tilda aks ettiruvchi leksik-grammatik vositalarga qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tasdiq va inkor, modallik, kategoriya, implisit inkor, "nol" kategoriya, litota.

Kirish. Nutqimizda tasdiq va inkor ma'nolarini ifodalash gapning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Bu ikki ma'noni aks ettirishda esa o'ziga xos usullar va vositalar mavjud bo'lib, ular turli tizimli tillarda turlicha namoyon bo'ladi. Ammo, ba'zi holatlarda tasdiq va negativlikni ifoda etishga grammatik vositalardan foydalanishga ehtiyoj qolmaydiva bu jarayonda shakl va mazmun nomuvofiqligi holatlari yuzaga keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tasdiq va inkor voqelikni aks ettirishning ikki shakli bo'lib, har biri o'ziga xos ma'noga ega. Tasdiq obyektlar va hodisalar o'rtasida aloqa mavjudligini, inkor esa aloqaning yo'qligini ifodalaydi [1]. Ingliz tilida tasdiq gapni ifodalashda "yes" so'zi va uning sinonimlaridan boshqa maxsus vositalar ishlatilmaydi. Inkorni ifoda etishda esa maxsus ko'rsatgichlar ishtirok etadi (inkorni ifodalovchi formal-grammatik ko'rsatgichlar) [2]. Ayrim tilshunos olimlar tasdiq va inkorni modal xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydi. V.G.Admoning fikriga ko'ra inkor tushunchasi modallikning maxsus turi sifatida quyidagicha asoslanadi: "Inkor obyektlar o'rtasida aloqa yo'qligini ifodalaydi va voqelikning real -norealligi modal bo'lganligi sababli ham negativlik modallik turkumiga kiradi. Olim tasdiq va rad etishga asosiy modal ma'nolar sifatida qaraydi. Shuningdek, u tasdiq va inkor bayonotlar "jumlada ifodalangan obyektiv voqelik munosabatlarining mazmuniga ko'ra emas, balki modal ta'biatiga ko'ra farqlanishini ta'kidlaydi [3].

L.N. Shapoval esa tasdiq va inkorni qarama-qarshi sifatidagi hukmlarni ifodalovchi rasmiy mantiqning asosiy kategoriyalari sifatida ta'riflaydi [4].

Tilshunos O.A. Prokofyeva: Tasdiqlash va inkor obyektiv voqelikning turli tomonlarini aks ettiruvchi hukmlardir -deya ta'rif beradi. Ushbu kategoriyalar kommunikativ sohaga ham tegishli, chunki ular nafaqat jo'natuvchi tomonidan qo'llaniladigan grammatik tuzilishga, balki uni qabul qiluvchi tomonidan idrok etilishi va adekvat tushunilishiga ham bog'liq. Shuningdek, tilshunos olim shuni ta'kidlaydiki, bir xil fikr ham tasdiqlovchi, ham rad etuvchi shaklda berilishi mumkin" [5]. Masalan: "Ish bor yerda osh bor" ya'ni "Ish bo'lmasa osh ham bo'lmaydi" (ziyouz.com-elektron kutubxona). Inkor va tasdiq haqidagi fikrlar haqida Aristotel rad etishni mantiq bilan bog'liq deb hisoblaydi va shunday deydi: "...har bir tasdiqning inkori bor va har bir inkor esa tasdiq shakliga ega" [6]. Tasdiq va inkor

kategoriyalari til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatuvchi lisoniy gaplar va mantiqiy mulohazalar asosini tashkil etadi [7].

Mantiqda "tasdiq" va "inkor" tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlik (inkor tasdiqdan kelib chiqadimi yoki yo'q) muammosi haligacha o'z yechimini topmagan. Bir qator faylasuf va mantiqshunoslarning bu boradagi qarashlari N.G.Ozerovning ishlarida aks etadi: "Rad etish gapning mustaqil shakli bo'lib, u tasdiqlovchi hukm bilan birgalikda voqelikning ma'lum bir tomonlarini aks ettirish uchun xizmat qiladi" [8; 9].

Tilshunoslikda negativlikning tasdiq gaplardan ustuvor ekanligi yoki ikkilamchi ekanligi haqida turli bahslar mavjud. A.I.Baxarevning fikriga ko'ra, tilda inkor tasdiq turkumidan keyingi o'rinda turadi. Negativlik tilda "tafakkurning abstraktlash vazifasining" yuqori darajasini nazarda tutadi. Olim shuni ta'kidlaydiki, ko'z o'ngimizda nima borligini aytish oson, ko'z oldimizda bo'lmagan narsa haqida gapirish qiyin va umuman yo'q narsa haqida gapirish esa undanda qiyinroq [9].

Tilshunos olim A.A.Kuznetsovaning fikricha, ayrim olimlar inkorga obyektiv kategoriya sifatida emas, sof subyektiv, baholovchi kategoriya sifatida qaraydi. Boshqa tilshunoslar esa negativlikni modallik kategoriyasi deb hisoblashmaydi, ammo uni modallik ma'no turlari bilan bog'laydilar. Shu tufayli ham, modallik va tasdiq-inkor kategoriyalari farqlanadi, modallik so'zlovchining voqelikka munosabatini ifodalovchi subyektiv kategoriyadir. Tasdiq va inkor esa obyektiv, haqiqiy voqelikni ifodalovchi kategoriyalardir [2].

Gapning modalligi uning voqelik, imkoniyat va zaruratga munosabatidir. Har bir bayonot tushunchalarning haqiqatga munosabatini emas, balki ularning boshqa bir tushuncha bilan bog'lanishi yoki ajratilishini ifodalaydi. Shu sababli, tasdiq ham, inkor ham turli modal ma'nolar bilan birikishi mumkin [10].

I.M.Romanenko inkor va tasdiqning qo'llanilishi haqida shunday deydi: "Tasdiqlovchi gap ma'lum bir holat to'g'risida qandaydir taxmini bildirishi, inkor gap esa uning oldini olishi kerak" [11]. So'zlovchi jumlaning ishlatishdan oldin unda ko'rsatilgan holat to'g'risida qandaydir taxmini bildirishi yoki uni oldini olishni aniqlab oladi. Bunday holda, qabul qiluvchining xabarini idrok etishi va tushunishi juda katta rol o'ynaydi, aks holda muloqot

ishtirokchilarining shaxsiy munosabatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga kelishi mumkin [12].

Tadqiqot metodologiyasi. Atrofimizdagi har bir obyekt o'zida ma'lum bir xususiyatlarni jamlaydi. Qaysidir bir predmetni o'rganish chog'ida nafaqat uning o'ziga xos xususiyatlari balki unda mavjud bo'lmagan sifatlarini ham aniqlash mumkin. Shunday ekan, har qanday obyekt (shu jumladan, har qanday hodisa va harakatni) ham salbiy, ham ijobiy tomondan ko'rib chiqish mumkin [5,50].

Tasdiq va inkor tushunchalarning ajralib turuvchi xususiyatlaridan yana biri bu- ular bir-biriga bog'liq bo'lib, o'zaro almashinishi mumkin. Shunday qilib, ma'lum bir hodisaning inkor etilishi boshqa hodisaning tasdiqlanishi bo'lishi mumkin. Ta'kidlab o'tilganidek inkor va tasdiq o'rtasida chuqur aloqa mavjud bo'lib, buni avvalo salbiy tushunchalarning ijobiy birliklar yordamida namoyon bo'lishi, ya'ni bilvosita (implisit) inkor qilish (yashirin salbiy nominatsiya [13]) va salbiy lingvistik tushunchalardan foydalangan holda ijobiy tushunchalarni (yashirin ijobiy nominatsiya) aks ettirishda ko'rinish mumkin [5].

Qolaversa, tasdiq va inkor bir xil psixologik darajadagi, bir xil avlod mantiqiga ega qarama-qarshi hodisalardir [7,9].

Tarkibida leksik inkor elementi bo'lgan tasdiqlovchi gap grammatik inkor ko'rsatkichi bilan qo'llanishi mumkin. Bunda gap tasdiqni ifodalovchi gapga aylanadi. Tasdiq ma'noni ifodalovchi inkor gapda inkorni ifodalovchi grammatik ko'rsatkich negatvlik ma'nosini yaratmaydi, aksincha tasdiq ma'noning turli ko'rinishlarini ifodalab keladi. Bu kabi tasdiq ma'noni ifodalash uchun ishlatiladigan ikki inkor ko'rsatkichga ega shakllar litota deb ataladi[5]. Masalan: Ukraine war: Settling somewhere new is hard - but not impossible.(BBC News.25.02.2023) Ammo olimning fikricha, ijobiy ma'noni yetkazish uchun negatvlik konstruksiyalardan foydalanishning barcha holatlarini ham litota deb bo'lmaydi.

Tasdiq va inkor haqida so'z yuritir ekan L.K.Bagayeva shunday deydi:”Tildagi tasdiq va inkor bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Obyektiv voqelik hodisalari yoki ijobiy yoki salbiy bo'ladi. Shu tufayli ham har bir bayonot nimanidir tasdiqlaydi yoki rad etadi. Tasdiq kategoriyasi grammatik kategoriya bo'lganligi, uni aks ettirish uchun ishlatiladigan maxsus vositalar mavjud emasligi sababli ham grammatikada u “no” kategoriya deb ataladi. Inkorni ifodalash uchun esa lingvistik vositalarning butun tizimi mavjud bo'lib, ulardan foydalanish rad etishning tabiati va yo'nalishiga bog'liqdir[14].

Tahlil va natijalar. Tilshunos olim A.A.Kuznetsova tasdiq-inkor kategoriyalarini obyektlar va hodisalarning o'zaro bog'lanishi yoki ajralishini ifodalashda xizmat qiluvchi sintaktik kategoriya sifatida tushuntiradi. Olim bu kategoriyalarni ifodalashda quyidagi grammatik vositalarni keltirib o'tadi(tasdiq esa maxsus vositaga ega emas):

not yuklamasi;

no, no one, nothing, neither, none, nobody olmoshlari;

never, nowhere, no-how, neither ravishlari;

neither, nor, neither...nor bog'lovchilari;

no so'z -gapi[2].

Olim, shuningdek, inkordan tasdiqqa o'tishning turli vositalariga ham to'xtalib o'tadi. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy ingliz tilida negatvlikni tasdiqqa quyidagi leksik-grammatik usullar yordamida almashtirish mumkin:

so'z yasovchi qo'shimchalar-prefiksalar: non-, un-, in-, dis-, mis-, de-, il-, ir-, im-, -less. Masalan: A group of 12 young British men deemed unmotivated, unskilled and unemployable were introduced to one novel solution(BBC News.08.03.2024).

Kontekstda salbiy ma'no ifodalovchi fail, wrong, without, far from, stop, give up, be mistaken kabi so'zlar. Masalan: Former Prime Minister Baroness Theresa May, who introduced the act as home secretary in 2015, accepted the law failed to protect victims in this case, and believes it needs to be “beefed up”(BBC News.30.09.2024).

Lingvostilistik qurilmalar:

so'roq konstruksiyalari(ritorik savollar): Who wouldn't want to save the whales?(Grammarly.com)

so'roq konstruksiyalari(rag'bat, motivatsiya ma'nosida): Won't you sit down? [2]

sintaktik qurilmalar frazeologizatsiyasi: A fat lot you know! [2].

Tasdiqlovchi-salbiy bayonotlarni o'zgartirishda jumalarda stilistik shakllar (masalan, taqqoslash, metafora, takrorlash, giperbola, inversiya va boshqalar) va intonatsiya qatnashishi mumkin. Inkor va tasdiq shakllarining muayyan kontekstual sharoitlarda o'zaro ta'siri va almashinishi tasdiq va inkor o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjudligidan dalolat beradi, bu esa ularni bir turkumga – tasdiq – inkor kategoriyasiga birlashtirishni asoslaydi[2].

Tasdiqlash va inkorning qarama-qarshiligi ikkala tushunchaning kategorik xususiyatidan kelib chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, tasdiq va inkor o'rtasidagi qarama-qarshilik faqat ularning qutbli qarama-qarshi xarakteriga emas, balki qarama-qarshi xususiyatlarning to'liqligiga ham asoslanadi. Pozitivlik va negatvlik nafaqat qarama-qarshi, balki paralell tushunchalardir[2,364]. Tilshunos olim P.N.Islamova inkor kategoriyasini lisondagi mustaqil tadqiqot sohasi deya ta'riflaydi. Olimning ta'kidlashicha, rad etish mazmun jihatdan o'ziga xosligi, tasvirlash obyektining mantiq obyektini va mazmunidan farqliligi bilan ajralib turadi [15].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilish mumkinki, tasdiqlash barcha tillarda mavjud bo'lgan universal, konseptual kategoriyadir. Shuningdek, inkor ham, tasdiq kabi, til taraqqiyotining barcha bosqichlarida inkor ma'noni ifodalashda xizmat qilib kelayotgan o'zining ma'lum bir shakllariga ega kategoriyalardan biridir. Tasdiq/inkor -falsafa, mantiq hamda tilshunoslikning asosiy kategoriyalardir, ular bir-birini istisno qiladi va shu bilan birga bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Блох, М.Я. Теоретические основы грамматики [Текст] /М.Я. Блох.– М.: Высшая школа, 2002. 126 с.
2. Кузнецова, А.А. Утверждение и отрицание в их категориальных взаимосвязях. Журнал. Преподаватель XXI век. 2016. 357 с.
3. Адмони, В.Г. Типология предложения [Текст] /В.Г. Адмони// Исследования по общей теории грамматики. – М.: УРСС, 2004.– 292с.
4. Шаповал Л.Н. Фонетическая реализация имплицитного отрицания в английском языке (теоретически - экспериментальное исследование): Диссертация ... канд. филол. наук.: 10.02.04. - Пятигорск, 1989.
5. Прокофьева О.А. Функционально-семантические особенности категории отрицания в современном английском языке: дис. канд. филол. наук. -Пятигорск, 2001. - 49с.
6. Аристотель. Об истолковании. - СПб, 1981.
7. Владимирская Л.М. Статус категории утверждение/отрицание в современном немецком языке. Автореф.: дис.... докт. филол. наук: 10.02.04. - : С-Пб., 1999.
8. Озерова, Н. Г. Средства выражения отрицания в русском и украинском языках / Г.Н. Озерова. - Киев, 1973.
9. Бахарев, А.И. Устойчивые синтаксические конструкции с отрицанием / А.И. Бахарев // Русский язык в национальной школе. - 1981. - № 5.
10. Айзенштадт, Э.И. Место отрицания в строе современного английского языка [Текст] / Э.И. Айзенштадт // Ученые записки МОПИ. – 1959. – Т. 73. – Вып. 5. – С. 137-149
11. Романенко И.М. Прагматическое значение предложений, содержащих отрицание. Диссертация ... канд. филол. наук.: 10.02.04. - : Москва, 1998. - 7с.
12. Stickel G. Syntactische und Pragmatische Aspekte der Negation // Positionen der Negativitat. - München: Wilhelm Fink Verlag, 1975.
13. Шуткина Л.Н. Категория отрицания во фразеологии современного английского языка: Диссертация... канд. филол. наук.: 10.02.04. -: М., 1988.
14. Л.К.Багаева. Негативные конструкции в современном английском и осетинском языках: Автореф.дис....канд.филол.наук [Текст] / Л.К. Багаева. – М., 1974. –16 с.
15. Исламова П.Н.Категория отрицания в таджикском языке. дис. ... канд.филол.наук.-Худжанд, 2017.-230с.



Xatira GAYBULLAYEVA,

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b, PhD

E-mail: xatiragaybullayeva@gmail.com

AJU universiteti o'qituvchisi, PhD Badelbayeva Yulduzbonu Orifonovna taqrizi ostida

TARJIMANING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA NAZARIY YONDASHUHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola tarjimaning lingvomadaniy xususiyatlari va nazariy yondashuvlarini rivojlantirish va tarjimaning milliy o'zaro aloqasi, bir-biriga ta'siri jarayonini optimallashtirishga bag'ishlangan. Shuningdek, tarjima xalqlar o'rtasidagi madaniy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlarning qudratli vositasi sifatida juda katta ahamiyat kasb etishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, lingvomadaniy xususiyatlar, yondashuv, madaniyatlararo muloqot, xorijiy til.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПЕРЕВОДА

Аннотация

Данная статья посвящена развитию лингвокультурных особенностей и теоретических подходов перевода и оптимизации процесса национального взаимодействия и взаимовлияния перевода. Было также заявлено, что перевод имеет большое значение как мощный инструмент культурных, политических и экономических связей между народами.

Ключевые слова: перевод, лингвокультурные особенности, подход, межкультурная коммуникация, иностранный язык.

LINGUO CULTURAL CHARACTERISTICS AND THEORETICAL APPROACHES OF TRANSLATION

Annotation

This article is devoted to the development of linguistic and cultural characteristics and theoretical approaches of translation and optimization of the process of national interaction and mutual influence of translation. It was also stated that translation is of great importance as a powerful tool of cultural, political and economic relations between nations.

Key words: translation, linguistic and cultural features, approach, intercultural communication, foreign language.

Kirish. Dunyoda tarjimashunoslik bo'yicha yaratilayotgan tadqiqotlarda tarjima lingvomadaniy xususiyatlari nazariyasi va amaliyotining juz'iy masalalari bilan bir qatorda, mazkur sohaning tub mohiyatini aks ettiradigan umumnazariy muammolar ustida ham keng ko'lamda izlanishlar olib borilmoqda va tarjimashunoslik masalalari tadqiqotchilarni borgan sari ko'proq o'ziga jalb qilmoqda.

Mamlakatimizda, ayniqsa Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish" [1] dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilab berildi. Bu borada tarjimashunoslikning lingvomadaniy xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillari misoli orqali qiyosiy aspektda ilmiy tadqiq etish, o'zbek tarjimachiligini yanada takomillashtirish, xorijiy tillardan ona tiliga bevosita yoki bilvosita tarjimalar farqini anglash, turli frazeologik va stilistik vositalarni tarjimada qayta ifodalashiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Avlodlardan avlodga o'tuvchi bu tarjima merosi buyuk mutafakkirlar ijodini almashishdek ajoyib tajriba, badiiy adabiyot yulduzlarining turli buyuk va kichik xalqlar tilida "gaplashishdek" an'analari yil sayin mustaxkamlanib taraqqiy etib bormoqda.

Tarjima milliy o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'siri jarayonini tezlashtiradi; milliy adabiyotlarda mushtarak mavzular, umuminsoniy g'oyalar, rang-barang adabiy estetik shakllarning paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Tarjima-milliy tillarning lug'at boyligini yanada oshiribgina qolmay, yangi lisoniy vositalarni ham yaratadi. Har-bir tarjima asari o'z davrining mahsulidir. Masalan, yuz yil avval muayyan bir badiiy asarning o'zbek tiliga qilingan tarjimasi bilan uning keyingi davrlarda bunyod etilgan tarjimalari bir-birlari bilan qiyoslansa, bundan turli davrlarda yashagan tarjimonlarning asar muallifini tushunish darajasi, ularning mahorati o'rtasida ko'zga yaqqol tashlanadigan farqi emas, balki adabiy tilning turli davrlardagi kamolot darajasida bo'lganligini ham ko'rish mumkin. Tarjima mamlakatimizdagi qardosh xalqlar o'rtasida do'stona aloqalar o'rnatish va rivojlantirishda, barcha milliy madaniyatlarining xalqlararo zaminini mustahkamlashda asosiy o'rin tutadi. Tarjima bu faqat aloqa vositasiga emas, balki o'ziga xos lisoniy-uslubiy va terminologik boyishning qudratli omili ham hisoblanadi.

Tarjima xalqlar o'rtasidagi madaniy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlarning qudratli vositasi sifatida juda katta ahamiyat kasb etadi. Tarjima jarayoni va tillarni qiyoslash paytida har bir tilning o'zi

alohida tekshirilganda tug'ilish mumkin bo'lmagan bir qancha masalalar ko'ndalang bo'ladi, ularni tahlil qilish esa har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq aniqlashga ko'maklashadi.

Jahon adabiyotida tarjimaning salmog'i yil sayin oshib borayotganiga qaramay, tarjimaning lingvomadaniy sohasida hali ko'p ishlar qilinmagan.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, o'zaro aloqalar nisbatan jadallashib ketgan bo'lsa ham, dunyo xalqlarining bir-birlaridan ajralib qolayotganlari hamon sezilmoqda. Bunday ahvolni tarjimachilik faoliyatini yanada faolroq va maqsadga yo'naltirilgan holda kengaytirish orqali bartaraf qilish hozirgi kun talabidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. S.Levinson ta'rifiga yuzlanadigan bo'lsak u J.Layonz keltirgan ta'rifga nisbatan boshqacharoq ta'rifni keltiradi ya'ni uning ta'rificha: «tarjimaning lingvomadaniy xususiyati tildan foydalanuvchilar gaplarining kontekstda o'rinli qo'llanilayotganligini o'rganuvchi sohadir.»[2]

Menimcha esa, keltirilgan ta'riflardan J.Layonzning ta'rifi tarjimada lingvomadaniy xususiyatlar mazmunini ko'proq ochib beradi. Turli tillardagi lisoniy birliklar har doim ham bir-birini to'la-to'kis almashtira olmaydi, bir tilga xos bo'lgan so'z ikkinchi tilda mavjud bo'lmashligi mumkin. Masalan quyidagi misolni ko'rib chiqaylik:

"A house of Long Island" so'zini ona tiliga tarjima qilganda asliyadagi ma'nosini ochib berish orqali lingvomadaniy tarjimaga erishish uchun tarjimon ayrim lingvomadaniy terminlardan foydalanadi va uni "Long Aylenddagi uy" deb emas balki "Long Aylend orolidagi uy" deb tarjima qiladi. Ya'ni bu yerda asliyadagi aks ettirilayotgan ma'no o'zbek retseptoriga tushunarli bo'lishi uchun «orol» so'zi qo'shilgan. Bunda J.Layonz ta'rifidagi lisoniy birlik aynan orol so'zidir.

Tarjimaning lingvomadaniy xususiyatlari "madaniy tarjima" yoki "madaniyatlar talqini"[3] shakli sifatida tasvirlangan bo'lsa, tarjima asosan sohadagi kuzatuvlarning etnografik matnga tarjimasi sifatida metaforik tarzda taqdim etiladi.

Ma'lumki, har qanday chet til lingvomadaniy xususiyati tarjima jarayonini o'zgartirishda o'z ona tili bilan taqqoslab amalga oshirish eng samarali metodlaridan biri hisoblanadi. Chet til madaniyatini o'z ona tiliga taqqoslab o'qitishda tillardagi o'xshash jihatlarni o'rgatish qanchalik oson kechsa, ular o'rtasidagi bir-biridan farq qiladigan jihatlarni o'rgatish shunchalik qiyin kechadi.

Tarjimada lingvomadaniy xususiyatlarni qayta ifodalashda ko'proq etnomadaniy, ya'ni milliy stereotiplarni tarjima qilish

masalasi tarjimasunos olimlar oldida yangi vazifalar olib kelmoqda. Masalan, yaponlar bilan dastlab mulqotga kirishgan yevropaliklar yaponlarning qayg'uli hodisalar, jumladan, yaqin qarindoshlarining kasalligi yoki o'limi haqida yuzlarida tabassum bilan gapirishlaridan hayratga tushishgan va hozirgacha hayratlanishadi. Bu kabi hodisalar berahm, shavqatsiz yapon stereotipining shakllanishiga asos bo'lgan. Biroq mazkur holatda tabassumni Yevropa madaniyatining o'lchovlaridan emas, balki yapon madaniyatining o'lchovlaridan kelib chiqqan holda tushunish maqsadga muvofiqdir. Chunki qayd qilingan holat yaponlarning atrofda qayg'usi bilan bezovta qilmasligini namoyon qiladi.

Madaniyatlararo mulqotda o'zbeklar mehmondo'stligi, ruslar tavakkalchiligi, qozoqlar qaysarligi, turklar hissiyotligi, xitoyliklar sertakalluligi, yaponlar xushmuomalaligi, estonlar sustkashligi, italyanlar qiziqqonligi, inglizlar sovuqqonligi, nemislar tartibga aniq rioya qilishi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan[4].

Tarjimon nafaqat tilning grammatik, leksik birliklari va stilistik xususiyatlarini, qolaversa lingvomadaniy xususiyatlarni mukammal o'rganishi lozim.

G'.Salomov: "Tarjima qilishdan maqsad asl nusxani (axborot) egallash, saqlash va etkazishdir, lekin o'z prototipiga ega bo'lmagan yangi asar yaratishdan iborat emas; tarjimonning maqsadi qayta yaratishdir[5]." – deb aytgan.

Tarjima ta'riflarida tarjima jarayoniga jalb qilingan bir yoki bir nechta omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Gyuttinger[6] tarjimini "ekvivalensiyani saqlab turishda boshqa tilda belgilar bilan almashtirish" deb belgilab, tarjimalar jarayonida tasviriy vositalarni nazarda tutgan.

Q.Musaev lingvomadaniy xususiyatlar to'g'risida quyidagi fikrlarni bildiradi[7]: "Tarjimonni xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan xos so'zlar ma'no va shakllaridan ko'ra ko'proq ularning muayyan kontekstlarda o'tab keladigan vazifalarini qayta yaratish masalasi mashg'ul qilmog'i dardkor. Bu san'atkorni asl nusxadagi xos so'zlarni beasos tarjima matniga ko'chirish yoki mumkin bo'lmagan taqdirda ham ularni tarjima tilidagi xos so'zlar bilan almashtirib qo'yish xavfdan saqlab qoladi. Tarjima amaliyotiga vazifaviy uyg'unlik nuqtaiy nazaridan yondashish aslyatdagi bunday ifoda vositalarining hajm, vazn, miqdor, hislat, xususiyat va vazifa aniqligini qayta yaratadi, shu bilan birga tarjimaning keng kitobxon ommasiga yaxshi tushunarli bo'lishiga erishish imkoniyatini beradi".

Genetik jihatdan qarindosh bo'lmagan tillardan amalga oshirilgan tarjimalarni o'rganishda dastavval ko'zga tashlanuvchi holat – bu lingvomadaniy xususiyatlardir. Bu xil so'zlar birliklar tarjimasida haqida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularning biri bolgar olimlari S.Vlaxov va S.Florinlarning "Непереводимое в переводе" monografiyasi hisoblanadi[8]. Ingliz asarlarining o'zbek tiliga tarjimalari materialida esa bu muammoni o'rganishga R.Fayzullaevaning "Национальный колорит и художественный перевод" monografiyasi bag'ishlangan[9].

Tadqiqot metodologiyasi. Kommunikativ tarjimaning aslyatdagi ma'lumotning ijtimoiy-madaniy konteksti, tarjima matnini o'quvchiga moslashtirish va aniqlashtirishga tayyorligi Laypsik maktabining lingvomadaniy elementlar ta'rifiga mos keladi. Ammo Nyumark bu munosabatni inkor etadi va uning qisman to'g'ri ekanligini aytadi va Pirs va Morris ta'riflaganidek lingvomadaniy tushuncha asosan yetkazuvchi va qabul qiluvchilar bilan shug'ullansa, kommunikativ tarjima esa e'tiborni faqat qabul qiluvchiga va odatda til konteksti va madaniy tafvutlarga qaratadi deb munozara yuritadi. Bunda asosiy hal qiluvchi narsa so'zlovchi va suhbatdosh o'rtasida istalgan aloqani o'rnatishda fikr bilan mos ravishda qo'llaniladigan kontekst va madaniy tafvutdir.

Ba'zi manbalarda esa lingvomadaniy atamasini falsafiy tushuncha sifatida fanga kirib kelganligi aytib o'tiladi.

Madaniy tilshunoslik madaniyat va tilning munosabati va o'zaro ta'sirini o'rganuvchi fanlararo yo'nalishdir.

Shotland lingvomadaniyatida sochning qoraligi zog'(qarg'a)ga qiyoslanadi. Binobarin, Shotlandiya shimoliy o'lka bo'lib, u yerda yilning deyarli barcha faslida zog'larni uchratish mumkin. Mazkur o'xshatishni shotlandiyalik shoir Robert Byornsnig "John Anderson my jo, John" she'rida uchratish mumkin.

John Anderson my jo, John,

When we were first acquent,

Your locks were like the raven,

Your bonie brow was brent.

Mazmuni: «qadrdomim, mening do'stginam Jon Anderson, birinchi bor sen bilan ko'rishganimizda, sochlaring zog'(qarg'a) rangiga o'xshar (ya'ni qop-qora edi, yosh eding), barq urib do'ng peshonangni bezab turardi...»[10]

Ingliz tilida agar soch qarg'aga o'xshatilsa, ingliz o'quvchisi faqat qarg'a(zog')ning o'zini emas, balki uning rangini tushunadi. Your locks were like the raven, Your bonie brow was brent misrasining rus tarjimoni S.Marshak tomonidan: Густой крутой твой локон, был черен точно смол tarzida tarjima qilinib, ingliz tilida "qarg'a"ga qiyoslangan soch "mum" (saqich)ga aylanganligini, qozoq tarjimoni Qubondiq Shang'itboyev tomonidan esa: Самая шашки тогилген, кара эди гой комирден kabi qozoqchallashtirilishi natijasida ruschadagi "mum" (saqich) sochlari qozoqchada "ko'mirdan ham qora"ga aylanganini aytadi.

Dastlabki muammolardan biri gap bo'laklarining o'zbek tilidagi tartibi

bilan ingliz tilidagi so'z tartibining keskin farq qilishidir.

Masalan: I go to the office by metro.

Ayni shu gap bo'laklarining har ikki tildagi so'zlarning joylashish tartibidagi farq til o'rganayotgan tarjimonlarda gapni to'g'ri tarjima qilishda qiyinchilik tug'diradi. Chunki tarjimon ona tilidagi gapni so'zma-so'z ingliz tiliga tarjima qilar ekan, quyidagi xatoga yo'l qo'yadi. Bunday xatolarni qilmaslik uchun birinchidan ingliz tilida so'z tartibi o'zbek tilidagiga nisbatan qat'iydir. Gap bo'laklari tartibining o'zgarishi tarjimaning ham o'zgarishiga olib keladi. Masalan:

A black pen - qora ruchka

A pen is black - ruchka – qora

Yana bir masalani ko'rib chiqamiz. "Men talabaman" (I am a student) degan gapni talabalar I student deb tarjima qiladi va xatoga yo'l qo'yadilar. Chunki ushbu gapda am yordamchi fe'lining o'zbek tilida muqobili yo'q. Bunday yordamchi fe'llarning qo'llanishi dars jarayonida o'qituvchi tomonidan mukammal o'rgatilib borilishi zarurdir.

Muammoning yana biri ingliz tilida qo'llaniladigan predloglarning

o'zbek tilida ishlatilmasligidir. Ular anglatgan ma'nolar o'zbek tilida kelishik, egalik qo'shimchalari va ko'makchi so'zlar orqali beriladi. Ingliz tilida esa predloglar juda keng qo'llaniladi va ular so'zlarning ma'nolarini butunlay o'zgartirib yuboradi. Masalan:

to look – qaramoq – look for – qidirmoq

to go – bormoq – go on – davom ettirmoq.

Tarjimada qiyinchilik tug'diradigan muammoning yana biri shaxsi

noma'lum yoki shaxsi topilmas gap deb ataladigan qurilma mavjud. Bunday gaplar o'zbek tilida juda ko'p uchraydi. Masalan:

Hozir qish. Bugun sovuq. Soat yetti. Ingliz tilida bunday gaplar It so'zi bilan boshlanadi, chunki ingliz tilida shaxssiz gaplar bo'lmaydi. It so'zi o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi, ya'ni uning o'zbek tilidagi muqobili yo'q. Natijada til o'rganayotgan talabalar it so'zini va u bilan moslashuvchi fe'l shakli "is" ni tushirib qoldiradilar. Masalan: Hozir qish – It is winter now; soat yetti – It is seven o'clock; bugun sovuq – It is cold today va hokazo.

Asosiy muammoli maqsadlardan biri zamon kategoriyasidir. O'zbek tilida fe'l zamonlari o'n turga yaqin bo'lsa, ingliz tilida esa o'n oltitadir. Ularning har biri ma'no jihatdangina emas, balki o'z tuzilishi shakli bilan ham bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun biz ustozlar talabalarga fe'lining grammatik zamon kategoriyasi haqida har tomonlama puxta tushuncha berishimiz zarur bo'ladi. Tarjima tillarning rivojlanishi uchun zarur vosita hisoblanadi. Tarjima insonni ma'naviy boy qiladi, tafakkurni rivojlantiradi.

Inson madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi masalasi bilan madaniy antropologiya shug'ullanadi. Antropologiya nomidan ham ko'rinib turganidek, inson haqidagi fandir. Biroq inson haqidagi

fanlar qatoriga barcha gumanitar va ayrim tabiiy fanlar (tibbiyot va qisman biologiya) ham kiradi. Inson haqidagi fanlarning ko'p bo'lishi tabiiy, chunki, inson murakkab, ko'pqirrali mohiyatdir. Shuningdek, mazkur fanlarning barchasi markazida inson bo'lgan kishilik jamiyatida rivojlanadi.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, transliteratsiya xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan xos so'zlarini tarjimada talqin etishning eng samarali usullaridan bo'lib, uning yordamida aslyatning milliy xususiyati siqiq holda talqin etiladi.

“Tarjima tilida goho aslyatdagi lisoniy vositalar ma'nolariga ma'lum darajada yaqinroq mazmunli birliklar uchrasada, ular o'zlarining shartli muqobillaridan yo xususiyat yoki shakl-hajmiqdor jihatlaridan farqlanishi bu tafovut ularning tarjimada o'zaro almashinuviga yo'l qo'ymaydi. Masalan, aslyat mansub bo'lgan xalqqa xos pul hamda masofa-uzunlik birliklari, ro'zg'or ashylolari, kiyim-kechak, yegulik-ichgulik kabi ko'pgina tushunchalarni anglatadigan so'zlarni transliteratsiya yo'li bilan talqin etish asarda aks etgan o'ziga xos muhit va sharoitning kitobxon ko'z oldida ochiq-oydin jonlanishini ta'minlaydi. Amerika Qo'shma Shtatlari “dollar”ining, ingliz “funt sterling”ining, nemis “marka”siyu hind “rupiya”sining, afg'on “afg'oniy”sining transliteratsiya qilinmasdan, o'zbek “so'm”i bilan almashtirilib qo'yilishi, Amerika Qo'shma Shtatlari “brendi”si, ingliz “viski”si nemis “shpanse”sining rus “vodka”si orqali talqin etilishi ingliz boshiga “shlyapa” o'miga o'zbek “do'ppi”sini, egniga “palyto” yoki „plash” o'rniga “to'n” yoki “yaktak” kiygizib qo'yish bilan barobar”, – deydi Q.Musaev. Asosli transliteratsiya kitobxon tasavvurini boyitadi, uning tili lug'at zahirasini kengaytiradi. Masalan, ruscha “танцевать” so'zi o'zining birgina ma'nosi bilan o'zbekcha “raqsga tushmoq” birikmasiga mos

ekivalent bo'la olar edi. Uning boshqa bir ma'nosi – erkak va ayolning belu qo'l ushlab davrada aylanishi, bu usulda raqsga tushish o'zbeklarga xos bo'lmagani tufayli, o'zbek tilida o'z ekivalentiga ega emas. Mazkur so'zni transliteratsiya usulida talqin etish esa o'zbek tili lug'at boyligini kenshaytiradi. Hozirgi umumxalq tili lug'at tarkibidan o'rin olgan “tansa qilmoq” birikmasi azaldan o'zbekcha “raqsga tushmoq” birikmasi bilan sinonimik qator hosil qilgani holda, omma tasavvurini boyitdi.

Xulosa. Lingvomadaniy xususiyatlarni ona tilga o'girishda avvalo ularning muayyan kontekstda kelayotgan axboriy va uslubiy vazifalarini aniqlash, so'ngra tarjima tilida ularga har jihatdan mos, ayni paytda shu til me'yorlari va madaniyati darajasidagi lisoniy vositalar tanlash zarurati tug'iladi. Milliy tushunchalarni ifoda etadigan xos so'zlarning ayrimlari aslyatga mansub bo'lgan tildan tashqari yana qator xalqlar lafzlarda uchrashi jumladan, tarjima tili lug'at zahirasining ham tarkibiy qismi hisoblanishi mumkin. Bunday so'zlar hudud, turmush-sharoit jihatlaridan bir-birlariga yaqin, doimiy munosabat va muloqotda bo'lib turadigan xalqlar tilida ko'proq uchraydi. Bu tarjimoni amaliy qiyinchiliklaridan halos etadi. Kavkaz va kavkaz-orti rus-ukrain-belaruslar, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman va tojiklar uchun umumiy bo'lgan ko'pgina milliy xususiyatli so'zlar shular jumlasidandir. Muayyan xalq turmush tushunchalarini anglatadigan ko'pchilik xos so'zlarning ma'nolari va o'taydigan vazifalari mamlakatlarning o'zaro madaniy, ma'rifiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida qator xalqlar vakillariga, shu jumladan tarjima tili sohiblariga ham tanish bo'lib qoladiki, tarjimonlar bunday so'zlarga o'z tillarida muqobil lisoniy vositalar qidirib yurmasdan, ularni transliteratsiya yo'li bilan talqin etaveradilar.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6084-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5058351>
2. Levinson S. Presumptive Meanings: The Theory of Generalized Conversational Implicature. –Cambrige, Mass.: MIT Press, 2000. P. 53.
3. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 34.
4. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. –М.: Флинта, “Наука”, 2010. –С. 82
5. F. Саломов Tarjima nazariyasiga kirish. Ўқитувчи, –Т.: 1978. – Б. 101
6. Güttinger, Fritz. Zielsprache, Theorie und Technik des Übersetzens, Zürich: Manesse Verlag, 1963. –S. 108
7. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari: darslik. – Т.: fan, 2005. – В.352.
8. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. 2- с изд., М.:Выш.шк., 1986. – С. 46.
9. Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: Дисс. ... канд. филол. наук. – Т.: ИЯЛ АНРУз, 1972. – С. 82
10. Сирождинов Ш., Одилова Г. Бадий таржима асослари. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. –Б. 80.



UDK: 811.512.133'373.72

Umarjon G‘OYIBOV,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

E-mail:umar.goyibov@mail.ru

PhD, dotsent Z. Abdusamadov taqrizi asosida

THE COGNITIVE MECHANISMS OF THE FORMATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH ANTHROPNOMIC COMPONENTS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

A phraseological unit is a linguistic unit consisting of two or more word components attached to a single semantic field with a certain degree of figurative meaning. As an example, we can include a shoulder to cry on, since Adam was a boy, Bazmi Jamshid, ko‘z qiri. The use of anthroponyms in the system of phraseological units of English and Uzbek languages, in other words, personal names, is considered a product of human’s cognitive activity. This article discusses the cognitive viewpoint of anthroponyms as onomastic components in phraseological units of English and Uzbek.

Key words: anthroponymic component phraseological unit, cognitive interpretation, conceptual system, cognitive activity, associative meaning, encyclopaedic information.

КОГНИТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С АНТРОПОНИМИЧЕСКИМИ КОМПОНЕНТАМИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Фразеологизм – это языковая единица, состоящая из двух и более компонентов слова, закрепленных за единым смысловым кругом, имеющих определенную степень переносного значения. В качестве примера можно привести такие, как a shoulder to cry on, since Adam was a boy, Bazmi Jamshid, ko‘z qiri. В системе фразеологических единиц английского и узбекского языков употребление антропонимов, иными словами, имен существительных, является продуктом познавательной деятельности человека. В данной статье рассматриваются когнитивно точки зрения антропонимы, участвующие во фразеологизмах английского и узбекского языков как ономастические компоненты.

Ключевые слова: фразеологизм с антропонимическим компонентом, когнитивная трактовка, концептуальная система, когнитивная деятельность, ассоциативное значение, энциклопедическая информация.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ANTRONIMIK COMPONENTLI FRAZEOLGIK BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING KOGNITIV MEKANIZMLARI

Аннотация

Фразеологик birlik bu – muayyan darajada majoziy ma‘noga ega bo‘lgan yagona semantik doiraga birlashtirilgan ikki va undan ortiq so‘z komponentlaridan iborat til birligidir. Misol tariqasida a shoulder to cry on, since Adam was a boy, Bazmi Jamshid, ko‘z qiri kabilarni kiritishimiz mumkin. Ingliz va o‘zbek tillari frazeologik birliklar tizimida antroponimlar, boshqacha so‘z bilan aytganda, kishining atoqli otlari qo‘llanilishi inson kognitiv faoliyati mahsuli sanaladi. Ushbu maqolada esa ingliz va o‘zbek tillari frazeologik birliklarida onomastik komponent sifatida ishtirok etgan antroponimlar kognitiv aspektida muhokama qilinib, ularga munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: antroponim komponentli frazeologik birlik, kognitiv talqin, konseptual tizim, kognitiv faoliyat, assotsiativ ma‘no, ensiklopedik axborot.

Kirish. Bugungi kunga kelib, insonning tafakkur faoliyati bilan bog‘liq bilimning shakllanish mexanizmi hisoblangan tilning kognitiv aspektini tadqiq qilishga bo‘lgan e‘tibor sezilarli darajada o‘sdi. Tafakkur faoliyati jarayonida yuzaga keladigan bilim insonning ongli faoliyati zaminida shakllanadi va bu faoliyat amalga oshishida muhim rol o‘ynaydigan lisoniy bilim lingvokognitiv tahlil sifatida tanlanishi ham bejiz emas [1]. Aynan ushbu tafakkur faoliyati jarayoni insonning borliqni anglashi natijasida shakllanadigan olamning konseptual manzarasini qamrab oladi hamda lisoniy vositalar orqali tilda verballashadi. Voqelikni aks ettirish vazifasini dastlabki o‘rinda tafakkur faoliyati bajaradi va ushbu faoliyat jarayonida yuzaga keladigan mental tuzilmalar til tizimida o‘z ifodasini topadi. Sh. Safarovning “Kognitiv tilshunoslik” risolasida ko‘rsatilishicha, mazkur mental tuzilmalar qatoriga “obraz”, “geshtalt”, “sxema”, “freym”, “propozitsiya”, “skript”, “ssenariy”, “kognitiv model” kabilar kiritilgan bo‘lib, ular tafakkurda to‘plangan va saqlanayotgan axborot qismlarini saqlovchi “quticha”lar sifatida izohlanadi [1]. Zero, voqelikni bilish jarayoni lisoniy olamning kognitiv olam bilan chambarchas hamohangligi vositasida yuzaga keladi hamda inson ongida mazkur jarayon mahsuli bo‘lmish bilim shakllanadi. Qolaversa, kognitiv tilshunoslik inson ongida kechadigan mental jarayonlarni lisoniy faoliyat bilan bog‘liq holda o‘rganib, tilni bilim qatlamlarini tashkil etish, aks ettirish, qayta ishlash, saqlash va uzatishning kognitiv mexanizmi sifatida tahlil qiladi.

Kognitiv nuqtayi nazaridan til tizimi bilim olish va saqlash, uni amalda qo‘llash va uzatish manbayi, uni shakllantiruvchi vosita sifatida izohlanib, mazkur til tizimi har qanday sohada egallangan bilimning shakllanishi va tizimlashtirilishining asosiy vositasi sifatida

xizmat qiladi. Tilning borliq haqidagi ma‘lumotlarni to‘plash, saqlash, saralash va uzatish kabi vazifalari bilimning lisoniy vositalarda aks etish mexanizmlarini o‘rganishni zaruriyatga aylantiradi chunki bilim insonni o‘rab turgan olamning konseptualashtirilishi va kategoriyalashtirilishi mahsuli, inson ongida borliqning in‘ikosi hisoblanadi. Bilim inson ongida konsept, analogiya, obraz va boshqa mental jarayonlar ifodasi sifatida aks etib, ulardan konsept termini kognitiv tilshunoslik nazariyasida keng qo‘llaniladi. Tafakkur birligi va mental hodisa sifatida yuzaga keladigan konseptning lisoniy voqelanishi nutqiy tafakkur faoliyati natijasidir [1]. Konseptning lisoniy voqelanishi esa kishi ongi va til tizimi hamohangligida yuzaga keladi. Bundan tashqari, konseptlarning mazmuni insonlarning tajribasi, bilim-ko‘nikmalari, tasavvur va obrazlari yordamida doimiy ravishda rivojlanib, bilimlar bilan to‘ldirilib boradi.

D. Xudoyberganovanning “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da ta‘riflanishicha, konsept – bu inson tafakkurining jamiyat kognitiv faoliyati natijasini namoyon qiladigan va aks ettirilayotgan narsa-buyum yoki hodisalar haqida keng qamrovli qomusiy axborot beradigan, ushbu axborotning ijtimoiy ong tomonidan qay tarzda talqin qilinishini hamda mazkur predmet yoki hodisaga uning munosabatini namoyon etadigan, nisbatan tartibli ichki tuzilishga ega bo‘lgan asosiy birligi, diskret mental tuzilma, kognitiv tilshunoslikda esa u xotira, mental leksikon, konseptual tizim va miya tilining, shuningdek, inson ongining mental va ruhiy imkoniyatlari, uning bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tizimining operativ mazmuniy birligi sanaladi [2]. Darhaqiqat, inson obyektiv borliqni anglar ekan, to‘plagan bilim va tajribalari, borliq, voqelik hamda shaxsning o‘zi haqidagi axboroti o‘z xotirasida muayyan mental

tuzilmalar qatori konsept ko'rinishida qorishiq saqlanadi va tizimlanadi. Konsept obyektlar va ularning xususiyatlari haqidagi axborotni qurish jarayonida vujudga keladi va ushbu axborot insonni o'rab turgan borliqdagi voqe'liklarning hamda inson tasavvuridagi dunyo va undagi hodisalarning potensial ahvoli haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [3]. Konsept kishining ong-shuuri va tafakkur faoliyatida amalga oshuvchi bir-biri bilan uzviy bog'liq konseptuallashtirilgan va kategoriyallashtirilgan jarayon natijasidir. Chunki konseptuallashtirish jarayoni bu – konseptni shakllantirish hamda lingvistik ma'lumotlar va ensiklopedik axborot asosida bilim strukturalarini barpo etish bilan bog'liq inson kognitiv faoliyatini anglatuvchi dinamik mental jarayondir [4]. Mazkur ensiklopedik axborot o'z ichiga tarix, geografiya, etnografiya, adabiyot, madaniyat, antropologiya va boshqa shu kabi ko'plab ma'lumotlarni qamrab oladi hamda buning asosida inson ongida bilim strukturalari shakllanadi. D. Ashurova va M. Galiyevaning "Kognitiv tilshunoslik" risolasida mazkur bilim strukturasining lingvistik, ensiklopedik, kommunikativ va madaniy turlari e'tirof etiladi [4]. Bilim strukturasining ensiklopedik, kommunikativ va madaniy turlari olamning konseptual manzarasi sifatida talqin qilinsa, lingvistik turi olamning lisoniy manzarasi sifatida inson ongidagi mazkur bilimlarni muayyan til birliklari vositasida verballashtiradi.

Ma'lumki, frazeologik birliklar olam konseptual manzarasining tilda verballashishida ahamiyatga molik til birliklaridan biri sanaladi. Kognitiv nuqtayi nazardan qaralganda frazeologik birliklar o'z komponentlari yig'indisidan tashkil topgan ma'no birligiga ega bo'lgan til birligi sifatida emas, balki konseptual tizimimizning mahsuli sifatida qaraladi, frazeologik birliklar tarkibidagi komponent so'zlar esa mazkur konseptualizatsiya jarayonini shunchaki chuqur ochib beradi [5]. Shuning uchun ham frazeologik birliklarning ma'nosi bizning olamni konseptual anglashimiz natijasida yuzaga keladi, ya'ni bizning konseptual sistemamizda mujassamlashgan borliq haqidagi bilimlarimiz asosida shakllanadi. Masalan, ingliz tilidagi "through thick and thin", "birds of a feather", "two peas in a pod", "a shoulder to cry on", "close-knit", "build bridges", "hit it off" kabi frazeologik birliklarda bevosita friend (do'st) so'zi ishtirok etmagan, balki uning doirasida birlashuvchi thick and thin (og'ir va qiyin damlar), of a feather (bir guruh vakili), two peas (o'xshashlik), shoulder (suyanch), bridge (ko'pri) kabi so'zlar ishtirok etgan. Bu esa bizning friendship (do'stlik) haqidagi bilimlarimiz asosida mazkur frazeologik birliklar shakllanganligini anglatadi, do'stlik to'g'risidagi bilimlarimiz esa quyidagilardan iborat: 1) qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo'lgan, inoqlik, ahillik bilan bog'langan ikki yoki undan ortiq kishilarning ijtimoiy munosabati; 2) qiyin damlarda bir-birini qo'llab-quvvatlash (through thick and thin, a shoulder to cry on); 3) umumiy qarashlar va qiziqishlarga ega bo'lish (birds of a feather, two peas in a pod); 4) do'stlik munosabatlarining boshlanishi (hit it off), mustahkamlanishi (build bridges) va boshqalar.

Frazeologik birliklarni kognitiv semantik nuqtayi nazardan tadqiq qilgan Z. Kovekses va P. Szabo kabi olimlarning ta'kidlashicha, ko'plab frazeologik birliklarning ma'nosi o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmasdan, balki metafora, metonimiya, umume'tirof etilgan bilimlar majmui kabi kognitiv mexanizmlar ko'rinishida motivatsiyalangan bo'lib, ular bilim zaxirasini figurativ frazeologik ma'nolarga tutashiradi [5]. Xuddi shunday yo'nalishda tadqiq qilgan H. Ying va S. Yan kabi olimlarning fikricha, frazeologik birliklarning ma'nosi o'z-o'zidan paydo bo'lgan til hodisasi sifatida emas, balki kishining siyosat, tarix, xalq ijodiyoti, geomadaniyat, diniy qarashlar kabi qomusiy bilimlarning natijasida paydo bo'lgan hamda ularning kognitiv faoliyati mahsuli sifatida ta'riflanadi [6]. Kognitiv semantika nazariyasida frazeologik birliklarning ma'nosi kishi ongining muayyan bir shart-sharoitlar ostida olamni anglashi natijasi deya ta'kidlanadi. Bu esa so'zlovchining qomusiy bilimi, tajribasi hamda madaniyat darajasi bilan bog'liq bo'lib, uning konseptual sistemasida mujassamlashtiriladi. Kishi olamni anglagani hamda obyektiv borliq to'g'risidagi tajribani to'plagan sari mental faoliyatidan foydalangan holda tashqi dunyoni konseptuallashtiradi hamda kodlashtiradi. Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan friendship (do'stlik) konsepti bilan bog'liq frazeologik birliklar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Konseptual metafora obyektiv reallikni bilish, konseptuallashtirish, tushuntirish va baholash usuli, bir konseptual soha haqidagi bilimlarning boshqa konseptual soha bilan kesishishi mahsuli sanaladi [2]. Mazkur metafora ikki mental maydonlarni umumiy jihatlar asosida birlashtiradi hamda buning asosida yangi hisla ma'noga ega frazeologik birliklarni shakllantiradi. Birinchi mental maydon konkret ko'rinishga ega bo'lib, ko'pincha fizik obyektlarni o'z ichiga qamrab olsa, ikkinchi mental maydon asosan abstrakt ko'rinishida mavhum tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ular

ham o'z navbatida manba va maqsad maydonlari deb atalib, bilim zaxiramiz jamlangan manba maydonidan foydalangan holda maqsad maydonida biz tasvirlamoqchi bo'lgan obyekt ochib beriladi.

Frazeologik birliklar shakllanishining konseptual metafora bilan birgalikda konseptual metonimiya kognitiv mexanizmi ham e'tiborga molik sanaladi. Konseptual metaforada ikki mental maydonlar "biri sifatida tushunilishi" munosabatini aks ettirsa, konseptual metonimiya mazkur mental maydonlar "biri o'rnida ishlatilishi" munosabatini anglatadi. Ya'ni, konseptual metaforada bir mental maydon boshqa bir mental maydon yordamida anglashiladi, konseptual metonimiya esa butun-qism munosabati asosida bir mental maydonning muayyan qismi orqali boshqa bir mental maydon anglashiladi. Masalan, ingliz tilidagi "an eye for an eye", "close one's eyes to", "keep one's eyes open", "up to one's eyes in", "have eyes at the back of one's head", "eye candy", "turn a blind eye to" hamda o'zbek tilidagi "ko'zining paxtasi chiqmoq", "ko'z ilg'amas", "ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'lmoq", "ko'z ko'rmagan", "ko'z ochib yumguncha", "ko'z ochirmaslik", "ko'z oldi qorong'ilashmoq", "ko'z qiri" kabi frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan birgina eye (ko'z) komponenti orqali butun-qism munosabati asosida turli ma'nolarni ifodalab keladi, shu jumladan: "An eye for an eye" – qilmishiga yarasha javob qaytarish. Bunda eye komponenti orqali qasos konsepti hosil qilinadi; "Close one's eyes to", "Turn a blind eye to" – e'tibor bermaslik, parvo qilmaslik. Bunda eye komponenti orqali loqaydlik konsepti hosil qilinadi; "Keep one's eyes open", "Have eyes at the back of one's head" – diqqatni jamlash, e'tibor qaratish. Bunda eye komponenti orqali e'tibor konsepti hosil qilinadi; "Ko'zining paxtasi chiqmoq" – g'azabi ko'zida aks etib, ko'zi chaqchaymoq. Bunda ko'z komponenti orqali g'azab konsepti hosil qilinadi; "Ko'z ko'r, quloq kar bo'lmoq" – hayratlanmoq. Bunda ko'z komponenti orqali hayrat tuyg'usi tushuniladi; "Ko'z ochib yumguncha" – juda qisqa muddatda, "Ko'z qiri" – tez va sezilar-sezilmas qarash. Bunda ko'z komponenti orqali vaqtning tez o'tganligi anglashiladi.

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi frazeologik birliklarning barchasi bizning eye (ko'z) to'g'risidagi bilimlarimizga tayanadi. Ko'z deganda biz nafaqat tirik mavjudotning ko'rish a'zosini tushunamiz, balki qasos, e'tibor, loqaydlik, ehtiyotkorlik, g'azab, hayratlanish, qo'rquv kabi hissiyotlar, makon, vaqt singari konseptlarga ega bo'lamiz. Ko'z komponenti ishtirok etgan yuqoridagi frazeologik birliklar bizning ongimizda ko'z to'g'risidagi konseptlarimiz asosida hamda konseptual metonimiya kognitiv mexanizmi ko'rinishida shakllanganligini namoyish qiladi.

Frazeologik birliklar tarkibida keluvchi antroponimlar inson ongida ma'lum bir ensiklopedik bilimning faollashishi jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Antroponimlar frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettirish bilan birgalikda ma'lum bir g'oya, assotsiatsiya va ensiklopedik ma'lumotni rag'batlantiruvchi murakkab konseptual strukturani ifoda etish imkoniyatini beradi. Antroponimlar frazeologik birliklar tarkibida informativ, ya'ni ma'lumot tashuvchi xususiyatga ega bo'lib, ular bevosita tilga oid bo'lmagan, nolingvistik omillarga bog'liq holda ma'lum bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlari haqida ma'lumot beradi [7]. Frazeologik birliklar tarkibida antroponim komponentlar u yoki bu diniy rivoyatlarda tilga olingan obrazlar, tarixiy shaxslar, mifologiya va badiiy obrazlar hamda xalq og'zaki ijodi va afsonalarida tasvirlangan qahramonlarning o'ziga xos sifatleri haqidagi ensiklopedik axborotning kishi ongida faollashishiga katta hissa qo'shadi. Bundan tashqari, antroponimlar ikki xil madaniyatga ega ingliz va o'zbek tillarida shaxs xarakteristikasi, aqliy salohiyati, tashqi ko'rinishi, mehnat faoliyati, ijtimoiy holati kabi tushunchalarning inson ongida konseptuallashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Ingliz tilidagi "A Potemkin village", "Father Miller", "Hobson's choice", "Draconian law", "Prince Albert", "Foe Abraham" hamda o'zbek tilidagi "Aflotun miya", "Amir Temurdan qolgan", "Devonayi Mashrab", "Asfandiyor xon bo'ldi, og'zi-burnim qon bo'ldi", "Padarkush AbdullatiF" kabi frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar kishi ongida tarixiy shaxslar hamda ularning hayoti va faoliyati to'g'risidagi qomusiy axborotni faollashtiradi.

Mifologik va afsonaviy hikoyatlar zamirida shakllangan ingliz tilidagi "A Pandora's box" antroponimik komponentli frazeologik birligi kognitiv nuqtayi nazardan kishi ongida qadimgi yunon mifologiyasi bilan bog'liq hikoyatni gavdalantiruvchi kognitiv model hisoblanadi. Afsonaga ko'ra, Pandora ismli go'zal qiz qiziquvchanligi tutib, turli balo-kulfatlarni keltirib chiqaruvchi idishni ochadi. Uning bunday xatti-harakati inobatga olinib hozirgi kunda ushbu frazeologik birlik ko'plab chigal muammolarni keltirib chiqaruvchi holat yoki vaziyatni nazarda tutadi. Bundan tashqari, ingliz tilidagi "Achilles' heel", "Cassandra warnings", "in the arms of

Morpheus”, “between Scylla and Charybdis”, “Penelope’s web”, “Castor and Pollux”, “as rich as Croesus” kabi frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar kishi ongida bevosita yunon mifologiyasini faollashtiradi. Afsonalar asosida shakllangan o'zbek tilidagi “Qora Botir” antroponimik komponentli frazeologik birligi kishi ongida bevosita turkiy va forsiy xalqlar durdonalarida mashhur “Farhod va Shirin” dostonida tasvirlangan Qora Botir ismli qahramon gavdalanadi. Uning ikki sevisgan bosh qahramonlar Farhod va Shirinning nikohiga aralashishi, ya'ni to'sqinlik qilishi inobatga olinib, bugungi kunda ushbu frazeologik birlik kimgadir g'ov bo'ladigan yoki biror hodisaga to'sqinlik ko'rsatadigan shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

Badiiy adabiyot durdonalari asosida shakllangan ingliz tilidagi “A Sherlock Holmes” antroponimik komponentli frazeologik birligini interpretatsiya qilish kishining ingliz adabiyotidan boxabar bo'lishini taqozo etadi. Ingliz detektiv asarlar adibi Artur Konan Doyning sevimli qahramoni hisoblanmish Sherlok Xolms o'ta kuchli aql-zakovatga ega bo'lib, ko'plab jinoiy ishlarning sirlarini o'z deduktiv xulosalari yordamida fosh qilgan. Uning bunday fazilati inobatga olinib hozirgi kunda ushbu frazeologik birlik kishi ongida deduktiv xulosalardan foydalanib ish tutuvchi detektiv politsiya xodimini konseptualashtiradi. Badiiy adabiyot mahsuli bo'lmish o'zbek tilidagi “Majnun bo'lib qolmoq” antroponimik komponentli

frazeologik birligi esa kishining olam haqidagi konseptual manzarasida turkiy va forsiy xalqlarda mashhur “Layli va Majnun” dostonidagi hikoyatni gavdalanitiradi. Unda tasvirlangan Majnun obrazi komillik bilan bog'liq yuksak darajadagi ishq namoyandasi sifatida kuylanadi. Uning ushbu fazilati inobatga olinib, kishi ongida ushbu frazeologik birlik chin qalbdan sevib qolgan inson assotsiativ ma'nosi faollashadi. Qolaversa, ingliz tilidagi “Billy Bunter”, “Jekyll and Hyde”, “Colonel Blimp”, “Cordelia's gift”, “Hamlet without the Prince”, “A Peter Pan”, o'zbek tilidagi “Layli va Majnun” kabi frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar kishi ongida badiiy adabiyot durdonalarida tasvirlangan obrazlar to'g'risidagi ma'lumotni faollashtiradi.

Shunday qilib, frazeologik birliklar kognitiv nuqtayi-nazardan qaralganda inson konseptual tizimi mahsuli, uning olamni anglashi va qiyoslashi natijasi sifatida ta'riflanadi. Ingliz va o'zbek tillari frazeologik birliklar tarkibida onomastik komponent sifatida ishtirok etgan antroponimlar ikki til madaniyatini aks ettirish bilan birgalikda kishi ongida ikki xalqqa oid muayyan ensiklopedik axborotni faollashtiradi. Frazeologik birliklarning ko'chma ma'noga ega ekanligini inobatga olsak, ularning tarkibida ishtirok etgan antroponimlar qaysidir xarakterli jihatlari bilan o'zga insonlarga qiyos qilinadi va natijada ular mazkur antroponimlar bilan bog'liq muayyan assotsiativ ma'nolarga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Safarov, Sh. (2006). Kognitiv tilshunoslik. Samarqand: Sangzor nashriyoti;
2. Xudoyberganova, D. (2024). Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: Bookmany print;
3. Baxronova, D. K. (2017). Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (o'zbek va ispan tillari materialida). Filol. fan. fal. dok-ri dis. Toshkent;
4. Ashurova, D. & Galiyeva, M. (2018). Cognitive linguistics. Tashkent: VneshInvestProm;
5. Kovecses, Z., Szabo, P. (1996). Idioms: A View from Cognitive Semantics. Applied Linguistics, 3: 326-355
6. Ying, H., Yan, S. (2020). English Idioms Interpretation in Perspective of Cognitive Semantics. US-China Foreign Language, 3: 88-91
7. Abdusamadov, Z. N. (2022). Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. Filol. fan. fal. dok-ri dis. Toshkent;
8. Nasrullayeva, G. S. (2019). Antroposentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti. Filol. fan. fal. dok-ri dis. Farg'ona
9. Yuldashev, A. (2022). Tilda olam haqidagi bilimlar ikkilamchi interpretatsiyasining antroposentrik mohiyati. Filol. fan. dok-ri dis. Toshkent



Kandilat IUSUPOVA,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: kandilatyusupova71@gmail.com

O'zRFA akademigi J.Eshonqulov taqrizi asosida

ABOUT THE UZBEK TRANSLATION OF "THE OLD MAN AND THE SEA" BY ERNEST HEMINGWAY

Annotation

This article discusses the problems of translation of the work "The Old Man and the Sea" by Ernest Hemingway, winner of the Nobel Prize, into the Uzbek language. The work "The Old Man and the Sea" was translated into Uzbek in 1986, and the work was indirectly translated from Russian. In the original text of the work, there are many words related to the sea and fishing, and analyzes are given about which method the translator used to translate them.

Key words: translation, a sea, work, Hemingway, Santiago, a hero, method

О ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЭРНЕСТА ХЕМИНГУЭЯ «СТАРИК И МОРЕ» НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

В данной статье рассматриваются проблемы перевода на узбекский язык произведения Эрнеста Хемингуэя, лауреата Нобелевской премии, «Старик и море». Произведение «Старик и море» было переведено на узбекский язык в 1986 году, причем произведение косвенно переведено с русского. В оригинальном тексте произведения много слов, связанных с морем и рыбалкой, и дан анализ того, какой метод использовал переводчик для их перевода.

Ключевые слова: перевод, море, работа, Хемингуэй, Сантьяго, герой, метод

ERNEST XEMINGUEYNING "CHOL VA DENGIZ" ASARINING O'ZBEK TILIGA O'GIRMASI XUSUSIDA

Аннотация

Mazkur maqolada Amerika yozuvchisi, Nobel mukofoti sovrindori Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asarining o'zbek tilidagi tarjima muammolari xususida so'z yuritiladi. "Chol va dengiz" asari 1986 yili o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, asar bilvosita rus tilidan o'girilgan. Asarning asl matnida ko'plab dengiz va baliqchilikka ga oid so'zlar uchraydi, tarjimon ularni tarjimaning qaysi usuli orqali tarjima qilgani haqida tahlillar keltiriladi.

Kalit so'zlar: tarjima, dengiz, asar, Xeminguey, Santyago, qahramon, uslub

Kirish. Ma'lumki, tarjima azal-azaldan xalqlar o'rtasidagi muhim ko'priq vazifasini bajarib kelgan muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunga qadar ona tilimizga bir necha asarlar o'girildi hamda o'zbek kitobxonlariga taqdim etildi. Ular allaqachon o'zbek o'quvchilarining sevimli asarlariga aylanib ulgurgan. Ana shunday asarlardan biri dunyoga mashhur Amerika yozuvchisi Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asaridir. Biz mazkur maqolamizda bu asarning tarjima matniga e'tiborimizni qaratib, tahlil qilishga harakat qilganmiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amerikalik mashhur adib, Nobel mukofoti sovrindori Ernest Xeminguey ijodi haqida I.V.Kashkin, S.Donaldson, S.Bigel, K.Beker, Sh.M.Mur, Sh.Gxauri, X.A.Al-Amro, Y.Xay, K.L.Nikolayevna kabi ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari buning dalilidir. Ammo bu borada O'zbekistonda qilinishi zarur bo'lgan ishlar bir talay. Jahon adabiyotida muhim o'rin tutgan yozuvchilar ijodini o'rganish avvalo ularning asarlari tahlilidan, asarlarining yozilish tarixini o'rganishdan boshlanishi lozim. Bu masala Ernest Xeminguey asarlariga ham taalluqlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola yozish jarayonida qiyosiy-tarixiy tahlil usuli, qiyosiy-tipologik va yaxlit estetik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asarini milliy tilga o'girishda tarjimon mahorati xususida so'z olib boradigan bo'lsak, Ibrohim G'afurovning mahorati hamda tajribasini qayta ta'kidlab o'tishimiz joiz bo'ladi. Biz bu asar tarjimasini o'qir ekanmiz, mutarjim I.G'afurov E.Xemingueyning ijodiy manerasini, uning g'oyaviy pozitsiyasini yaxshi anglaganligini guvohi bo'lamiz. Bu asarning o'zbekcha nususida ham qissaning kirish qismidagi chol yashagan muhit, dengizchilar hayoti nihoyatda nafis tasvirlangan. Go'yo dengiz nafasi, baliqning hidi dimog'ingizga urilgandek his etasiz. Asarning bosh qahramoni Santyago hamma baliqchilar singari oddiy bir zahmatkash, bugungi topgani ertaga etmaydigan bir kambag'al tarzida beriladiki, kitobxon bu sahifalarni o'qiganda oddiy bir mehnatkashning siyosini ko'z oldida gavdalanadi.

Ingilzchasi: "... he always went down to help him carry either coiled lines or the gaff and the sail that was furled around the mast. The sail was patched with flour sacks and furled it looked like the flag of the permanent defeat".

O'zbekchasi: "U (Manolin) cholning uskunolari, changak, gaprun va machtaga o'ralgan elkanlarni tashib olishgani qirg'oqqa keladi. Dag'al matodan to'qilgan elkan yamalaverib, ola-quroq bo'lib ketgan o'roqlik holda yaksoni chiqqan polkning yaloviga o'xshar edi".

Mana shu keltirilgan parchada omadi yurishmagan baliqchining hayot tarzi nihoyatda real aks ettirilgan. Mutarjim cholning hayotiga tegishli, uning turmushini aks ettiradigan yozuvchi tasvirlagan muhim: "Yamalaverib ola-quroq bo'lib ketgan", "yaksoni chiqqan polkning yalovi" kabi detallarni topqirlik bilan qo'lladi. Bu detallar rus tilida: "napominal znanya na golovu razbitogo polka", "zaplatax iz meshkoviniy" tarzida berilgan. Biz asl nusxada chol hayotini aks ettirish uchun berilgan bu detallarni rus tilidagi variant bilan qiyoslasak, rus tarjimonlarining originalga to'g'ri yondoshganlarini ko'ramiz. O'zbek tarjimoni unga ijodiy kirishib, baezi bir xarakterli detallarni o'zidan qo'shadi. Mazmunini kuchaytirishga, to'ldirishga mutarjim qo'shgan sifatlashlar ancha muvaffaqiyatli chiqqan. Agar biz "ola quroq" so'zini olib qaraydigan bo'lsak, aslida bu so'z originalda yo'q. Biroq mutarjim bu so'zni o'z o'rnida qo'llaydiki, butun mazmunni yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrni oddiylashtirib bergan. Bu o'rinda "yakson" so'zini ham qayd qilish mumkin. Mutarjim xuddi poeziyadagidek bu so'zlar zimmasiga chuqur maeno yuklay olgan. Oddiygina sifatlash orqali Santyagoning ayanchni ahvoli namoyon bo'ladi.

Xemingueyning qisqa va lo'nda iboralardan keng foydalanishi, uning o'ziga xos bu uslubi haqida alohida so'z yuritgan, adib asarlarining tarjimoni, tarjimachilik maktabini yaratgan katta olimlarimizdan biri bo'lmish Ivan Kashkinning quyidagi fikrini shu o'rinda eslaymiz:

"Xeminguey badiiy mahoratga erishish uchun uzoq yo'lni bosib o'tdi. U bu yo'lda barcha mashaqqat va to'siqlarni engib, ijodga xalaqit beradigan barcha narsalardan o'zini tordidi. Ana shunday ijod jarayonida o'zining "Telegraf" usulini tajriba qilib ko'rди va sodda, qisqa fikrlarni aniq tasvirlaydigan uslubini yaratdi. Ba'zan bahsga doir ho'kizlar jangiga oid, baliqchilikka xos harbiy operatsiyalar, chunonchi ko'prikn portlatish kabi qator texnik terminlar asarlarga zo'rlab kiritilgandek tuyuladi. Biroq Xeminguey tasvirida bu terminlar kitobxoniga lug'atsiz tushunarli darajada ifodalangan bo'ladi. Qisqasi, Xeminguey tanlagan so'z va iboralar voqelik asar mantig'ida kelib chiqqan holda aks etgan. Tanlagan so'z va iboralar qay darajada

ziqnalik bilan qo'llanmasin, kishini hayratga soladigan darajada avtor maqsadini aniq ko'rsatib beradi".

Haqiqatdan ham Ivan Kashkin ta'kidlaganidek badiiy adabiyotdagi qisqalik, "telegraf" usulida tasvirlash prinsipi, umuman jahon adabiyotida ham yangilik edi.

"Chol va dengiz" qissasida ham E.Xemingueyning o'zi ta'kidlagan yolg'izlik dardi aks etgan.

Ma'lumki, tarjima asarlari xususida gap ketganda, avvalo, biz tilga e'tibor berishni ko'proq nazarda tutamiz. Til adabiyotning asosiy elementi bo'lgach, unga jiddiy e'tiborni qaratish lozim. Biroq badiiy asarning o'ziga xos qonuniyatlari mavjuddir, ularni idrok qilmasdan tarjimaga yondoshish mumkin emas. Bugungi kunda qilinayotgan va qilingan tarjima asarlari tematik jihatdan nihoyatda rang-barang. Tarjimon asar tarjima qilish jarayonida uning mavzusiga ham e'tibor berishni, shu mavzuga oid materiallar bilan tanish va notanishligini, ya'ni bilishi hisobga olish kerak. "Chol va dengiz" qissasi tematik jihatdan baliqchilar hayotini tasvirlagan asardir. Shu ma'noda tarjimon baliqchilikdan ham xabardor bo'lishi kerak. Asardagi ba'zi o'rinlarda mutarjimning bu soha – baliqchilik kasbi bo'yicha ancha-muncha xabardorligi seziladi, lekin ba'zi o'rinlarda baliqchilikka xos bo'lgan ayrim so'zlarni to'g'ri ifodalagan. Natijada bir umr baliqchilikni kasb qilib kelgan inson nutqidagi g'alizlik kitobxonda shubha uyg'otadi.

Chunonchi, inglizchasi: "He'll take it", the old man said aloud. "God helps him to take it" (OMS, 44)

Ruschasi: "Klyunet, - skazal stari vsluxyu – Klyunet, day ey zdorov'ya!"

O'zbekchasi: "Cho'qiydi, - dedi chol ovozi chiqarib. – Cho'qiydi xudoyu dard ko'rmasur". (CHV, 40)

Bu misolimizda mutarjim "cho'qiydi" so'zini baliqqa nisbatan qo'llagan. Odatda qarmoqqa tushadigan baliq xo'rakni turtkilab ko'radi. Shu turtkilash natijasida qarmoq po'pagi tebranadi, suvga goh-goh cho'mib chiqadi. Agar biz baliq cho'qiydi deganimizda qarmoqning po'pagi tamoman boshqa harakatga kelar edi. Cho'qish bu qushlarga nisbatan qo'llaniladigan so'zdir.

Xemingueyning "Chol va dengiz" qissasi tarjimasi xususida gapirar ekanmiz, tarjimon yutug'ini o'sha davr adabiy saviyasini nazardan soqit qilish mumkin emas. Har bir yangi hodisaning vujudga kelishida muhitning roli katta. "Chol va dengiz" qissasining kirib kelishi o'zbek adabiyotining tub burilish davri bilan bog'liqdir. I.G'afurovning ham yutug'i o'sha davr adabiy jarayonidagi intensiv harakatning belgisi sifatida ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, har bir san'at asarining o'ziga xos g'oyaviy-uslubiy yo'nalishlari mavjud. Saneatkor o'z uslubidan kelib chiqib xarakterga hayot boqiyiligi orqali ma'lum bir qarashlarni yuqtiradi, hayot kontsepsiyasini olg'a suradi. Inson odatda kuch-g'ayratga to'la paytlarida yolg'izlik, kambag'allik, ishning og'ir-engili xususida bosh qotirib o'tirmaydi. U o'z kuch-qudratiga ishonadi. U shu bilan hayotda o'z istaganicha yashashi mumkin. Asar qahramoni Santyago ham xuddi shunday yashab kelgan. Endilikda u o'z odamlar diqqatini o'ziga torta olmaydi, o'z kunini zo'rg'a ko'radi. Ayniqsa, uch kunlik vahshiy akulalar bilan qilgan janglaridan keyingi ahvoli uni o'ylantirib qo'yadi. Ana shunda u o'zini nihoyatda yolg'izligini yuragidan his etadi. Bu cholning hayotidagi eng oxirgi turmushidan keltirib chiqargan xulosasi bo'ldi. Cholning bu fikri ma'lum bir jihatdan o'zining umriga yakun etdi. Yozuvchining mahorati shundaki, ana shunday oddiy insoniy o'ylar orqali hayotning temir qonunlarini kashf etadi. Mutarjim cholning bu fikrlarini juda to'g'ri, asl nusxasiga xos o'zgardi. Tarjimon bunday parchalarning asarda muhim rol o'ynashligini yaxshi bilganligi parchaning tarjimasida ko'rinib turibdi. Bu parchadagi mazmun orqali biz bilamizki, Santyago Manolindan minnatdor. U shuning uchun gaplashadigan biron odaming bo'lsa, qanday ajoyib bo'lishini hozir ich-ichidan sezadi. Shu bilan yozuvchi bizning diqqatimizni bola xarakteriga tortadi. Mana ular gapining davomi:

Inglizchasi: Finally the old man woke. "Don't sit up", the boy said. "Drink this". He poured some of the coffee in a glass.

"They beat me, Manolin", he said. "They truly beat me".

"He did not beat you. Not the fish".

"No. Truly. It was afterwards". (OMS, 97).

O'zbekchasi: Nihoyat chol uyg'ondi.

- Ular meni engib qo'yishdi, Manolin, - dedi u. – Ular meni engishdi.

- Ammo uning o'zi seni engolmabdi-ku axir. Axir seni engmabdi-ku!

- Yo'q, engmaydi. To'g'ri gapdan qochib bo'larmidi. Bu voqea keyin bo'ldi. (CHD, 131)

Chol o'zini baliqdan engilganini qayd qilgan ekan, bola "axir baliq seni yengmabdi-ku", deya e'tiroz bildiradi. Choldagi tushkunlik, boladagi optimistik ruh bu dialog o'rtasida bo'lib o'tgan bu suhbatning o'rnida mutarjimlarning mahoratini qayd qilishi mumkin xolos. Tarjimada cholning xarakteri asarning uning g'oyaviy oqimiga monand voqealar mantig'idan kelib chiqqan holda beriladi. Undagi horg'in ruh har bir so'zda, har bir xarakterda seziladi. Ayniqsa, cholning shuncha jabru jafu bilan tutib kelgan baliq'iga befarqligida ko'rinadi. Chunki baliqning kallasini g'o'rak uchun boshqa bir ovchiga in'om etdi. Bolaga esa qilichini o'zing estalikka ol deydi. Cholning bu gaplari uning kelgusida ov qilish umidi yo'qligidan darak beradi. Biroq boladagi intilish, yoshlik g'ayrati cholning gaplaridagi teran mazmun bilan hisoblanmaydi. Bunday bo'lishi tabiiy.

Taniqli yozuvchi Nazar Eshonqul qalamiga mansub "Mendan mengacha" nomli kitobda ham Ernest Xeminguey haqida maxsus maqola berilgan bo'lib, undagi quyidagi jumlar o'quvchi diqqatini tortadi:

"Ernest Xeminguey nomi hamisha modernistlar safida sanalmagan, uning o'zi ham adabiyotda modernist bo'lishni istamagan. Amerika modernistlarining bekasi Gertruda Steyn xonim Xeminguey haqida "U qanchalik zamonaviy bo'lishga intilmasin, yozganlaridan muzeyning hidi keladi", degandi. Aslida, Xeminguey shakl yoki adabiy uslublar yaratish uchun asar yozmagan, balki inson dardi va qalbini bayon qilish maqsadida o'ziga xos yangi shakllar izlagan. "Bong kimni chorlamog'da?" romani bu borada tahlil va talqinlar uchun boy. Bu erda ongosti kechinmalari ham, oddiy bayon ham, adibga xos tagmatnu telegraf usuli ham qorishiq keladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, E.Xeminguey badiiy matnda stilistik vositalardan ko'pincha metafora, oksimoron, jonlantirish kabi unsurlardan, grammatik jihatdan juda qisqa yoki juda uzun jumladan, leksik tomondan suv, daryo, dengiz, yomg'ir singari leymotivlardan, fonetik tomondan esa ispan tilidagi so'zlar va ularning ohanglaridan foydalangani, shuningdek yozuvchining individual dunyosini ochib beradigan eng muhim xususiyatlardan biri adabiyotda E.Xeminguey nomi bilan bevosita bog'liq bo'lgan aysberg usuli ekanligi kuzatildi, shuningdek, E.Xeminguey romanlarida inson psixologiyasining yoritib berilgani asosan obrazlar ichki monologi hamda ularning portretlari, asosan, nigohlari orqali aks ettirilgani misollar yordamida ko'rsatib berildi. "Chol va dengiz" asaridagi bosh qahramonning ruhiy holatlari tarjimada milliy ko'proq bo'yoqdor so'zlar bilan berilgani, ayrim voqealarda esa uslubiy jihatdan tarjimaga yondashilgani misollar bilan dalillandi.

Amalga oshirgan kichik tadqiqotimiz davomida shuni ko'rdikki, E.Xeminguey asarlarida asosan yozuvchi uslubidagi minimalizm, telegraf va aysberg uslublari yaqqol ko'rinadi, shunga ko'ra E.Xeminguey asarlari tarjimonlari uchun telegraf va aysberg uslublarga qat'iy rioya qilish; buning uchun avvalo, yozuvchining har bir asarining yozilish tarixi va sababini o'rganib chiqish, muallif qahramonlarining ruhiy holatini o'rgangan holda o'zbek tilidagi ekvivalentlarni to'g'ri tanlay bilish, ortiqcha jumla va izohdan qochish, muallif nutqining asarda ko'p o'rin egallamaganligi sababli tarjimada ham bu an'anaga rioya qilish; adib asarlarining barchasida insonning ruhiy g'alabasi bosh mavzu ekan, tarjimada ham aynan shu g'oyaga asosiy e'tibor qaratish lozimligi tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Kashkin I.A. Dlya chitatel'ya sovremennika. (Stat' isledovaniya) Izdatel'stvo "Sovetskiy pisatel'" M.1968 str.55-56.
2. Eshonqul. E. "Mendan mengacha". "Akademnashr", Toshkent, 2014. 488-489 bb.
3. G'afurov. I. Yam-yashil daraxt. Toshkent. 1976. 229-bet.

Munisa QODIROVA,

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: munisakadirova9894@gmail.com

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD N. Madalovning taqrizi asosida

BADIIY MATNDA SAN'AT TERMINLARINING QO'LLANILISH MOTIVLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi san'at terminlarining badiiy matnlarda qo'llanilish motivlari va ularning funksional-semantik xususiyatlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. San'atga oid leksik birliklarning boyitish va obraz yaratishdagi roli, shuningdek, ularning ingliz va o'zbek tillarida qo'llanilish uslubi va milliy madaniy kontekstga moslashuvi qiyosiy tahlil qilinadi. San'at terminlarining badiiy nutqda estetik va stilistik vosita sifatida ishtiroki, ularning muloqotda kognitiv va emosional ta'sir ko'rsatishdagi ahamiyati o'rganiladi.

Kalit so'zlar: san'at terminlari, funksional-semantik xususiyatlar, badiiy matn, leksik birliklar, stilistik vositalar, milliy – ma'daniy kontekst, obraz yaratish, estetik ta'sir.

МОТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕРМИНОВ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ТЕКСТАХ И ИХ ОСОБЕННОСТИ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация

В статье проводится лингвистический анализ мотивов использования терминов искусства и их функционально-семантических особенностей в литературных текстах на английском и узбекском языках. Рассматривается роль лексических единиц, связанных с искусством, в обогащении содержания текста и создании образов, а также их особенности использования и адаптации в национально-культурном контексте на английском и узбекском языках. Статья также изучает роль терминов искусства как эстетического и стилистического средства в литературном языке и их значение в создании когнитивного и эмоционального воздействия в коммуникации.

Ключевые слова: термины искусства, функционально-семантические особенности, литературный текст, лексические единицы, стилистические средства, национально-культурный контекст, создание образов, эстетическое воздействие.

MOTIVES FOR THE USE OF ART TERMS IN LITERARY TEXTS AND THEIR CHARACTERISTICS (BASED ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

Annotation

The article provides a linguistic analysis of the motivations behind the use of art terminology and their functional-semantic characteristics in literary texts in English and Uzbek. The role of art-related lexical units in enriching the content of the text and shaping images, as well as their usage patterns and adaptation to the national cultural context in English and Uzbek are comparatively analyzed. The article also explores the role of art terminology as an aesthetic and stylistic tool in literary language and its significance in producing cognitive and emotional effects in communication.

Key words: art terminology, functional-semantic characteristics, literary text, lexical units, stylistic devices, national-cultural context, image creation, aesthetic effect.

Kirish. San'at va ma'daniyatning lingvistik aspektlaridagi o'rni tilshunoslik sohasida dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib, san'atga oid terminlarning lingvistik tahlili ilm-fan rivojida yangi izlanishlar olib borishni talab qiladi. San'at terminologiyasi o'zining murakkab semantik va funksional jihatlar bilan nafaqat badiiy asarlarning semantik tuzilishini boyitadi, balki madaniy kodlarni ham uzviy ifodalaydi. Tilshunoslikda san'at terminlarining o'rganilishi madaniyatlararo aloqalarni, milliy o'zlikni aks ettiruvchi vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu terminlar ijtimoiy qadriyatlar, estetik tafakkur va badiiy jarayonlarni tilda muayyan shaklda kodlaydi, bu esa ularning ilmiy tahlilini dolzarb qiladi. Tilshunoslikda terminologiya tushunchasi umumiy nazariyaning asosiy unsuri bo'lib, u bir yoki bir nechta tillarda ma'lum sohalarga oid leksik birliklarni yig'ish, ta'riflash, shakllantirish va taqdim etishni o'rganadi. Ushbu sohada tadqiqotlar olib borgan X. Felber, bu masala bo'yicha uch xil nuqtai nazarni ta'kidlaydi: 1) sohalararo fan bo'lib, maxsus tushunchani ifodalovchi terminlarni o'rganadi; 2) muayyan soha tushunchalari tizimini aks ettiruvchi terminlar majmuasi; 3) terminlar yordamida ifodalangan maxsus soha tushunchalarining tarqoq bo'lishidir [1]. Tilshunos olimlar o'rtasida termin sifatida hisoblangan asosiy obyektning ta'rifiga doir bahs-munozaralar hali ham davom etmoqda.

Rus tilshunos olimi B.N. Golovin, «Terminlar umumiy foydalanishdagi so'zlardan farqli ravishda joriy qilinadi va ularning zarurati anglangan holda yaratiladi», deb ta'kidlaydi [2]. N.P. Kuzkin esa, «Umumiy adabiyotda keng tarqalgan leksema hammaga tanish bo'lib, terminologik sohadagi termin esa faqat tor doiradagi mutaxassislariga tegishlidir», deb izohlaydi [3]. Ushbu ta'riflarga qo'shimcha ravishda, P.P. Nishonov «Termin - o'z tuzilishi jihatidan so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, semantika jihatidan maxsus soha doirasida cheklangan va ushbu soha tushunchasini ifodalovchi leksik birlikdir», deya ta'rif beradi. Termin va terminologiyaga oid tadqiqotlar tahlil qilinishi natijasida P.P. Nishonov tomonidan termin tushunchasiga berilgan ta'rif bir qancha izohlar bilan kengaytirilgan va quyidagicha ifodalangan: Termin - o'z lingvistik tabiati jihatidan adabiy tilning leksik tizimining ajralmas qismi bo'lib, boshqa so'z turlaridan kasbiy, ilmiy va texnik tushunchalarni aniq va ixcham ifodalovchi, ma'lumotga boy bo'lishi bilan ajralib turadigan, tuzilishi

jihatidan so'z yoki so'z birikmasi, abreviatura bo'lib, semantika jihatidan maxsus soha doirasida cheklangan va ushbu soha tushunchasini ifodalovchi leksik birlikdir [4]. Shu bilan birga, termin soha vakillarining asosiy muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari olimlarning diqqat e'tiborini tortuvchi dolzarb masalalardan biri sifatida qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtda terminologiya lingvistikaning faol rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Terminologiya bo'yicha maxsus tadqiqotlar, ya'ni maxsus til bo'limiga oid izlanishlar mashhur rus va xorijiy tadqiqotchilar G.O. Vinokur (1939), D.S. Lotte (1961, 1968), A.A. Reformatskiy (1959, 1968, 1986), O.S. Axmanova (1969), E.N. Tolikina (1970), V.V. Gak (1971), V.M. Leychik (1971, 1977, 1981, 1985, 1987, 1991, 2007), B.N. Golovin (1970, 1972, 1987), V.P. Danilenko (1971, 1976, 1977, 1978, 1986), A.V. Superanskaya (1983, 2007a, 2007b) va T.S. Rosyanova (2018) tomonidan amalga oshirilgan.

Rus va boshqa tillardagi san'at terminlariga oid dastlabki tadqiqotlar Sh. Samushiamning «Hozirgi zamon rus tilida musiqiy terminologiya» (1969), S. Lubenskayaning «Ingliz tilida musiqiy terminologiyaning shakllanishi yo'llari va manbalari» (1971), L. Peretsmanning «Nemis musiqiy terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi, uning ekspressiv-stilistik funksiyalari» asarlarida ko'rib chiqilgan. O'zbek tilida musiqiy terminlarga oid tadqiqotlar F. Sh. Qodirovaning «Ingliz va o'zbek tillaridagi tasviriy sanat va dizaynga oid terminlarning lingvokulturologik xususiyatlari» (2021), G.S. Xojiyevaning «Sanatga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy taxlili (fransuz va o'zbek tillari misolida)» (2023), asarlarida o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Maqolada ko'zlangan maqsadga to'la qonli erishish maqsadida 4 asosiy metodlardan foydalangan holda tahlil ishlarini olib boramiz. Ular:

1. Qiyosiy tahliliy metod – lingvistik tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, bir nechta tillardagi terminlar, tushunchalar va ularning qo'llanilish uslublarini qiyoslab o'rganishga qaratilgan.

2. Diskursiv analiz – terminlarning real muloqotdagi, ya'ni matndagi qo'llanishiga e'tibor qaratadi. Bu metod tilshunoslikda

terminlar va ularning nutqiy strukturalardagi roli, ularning estetik, stilistik va kommunikativ vazifalarini o'rganishga yordam beradi.

3. Semantik – funksional metod – terminlarning ma'nodorlik jihatlarini va ularning stilistik, funksional xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Bu metod til birliklarining semantik kengligi, ularning

badiiy asarlardagi semantik imkoniyatlari va funksional roli haqida chuqur bilim beradi.

4. Matnshunoslik va stilistika metodlari – badiiy matndagi san'at terminlarining stilistik va estetik vazifalarini o'rganadi. Matnning ichki tuzilishi, stilistik vositalar orqali qanday obrazlar yaratishi va terminlarning ushbu jarayondagi o'rni tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. Quyida tahlil natijalari jadval ko'rinishida keltirilgan:

	Asar nomi (muallif)	Til	San'atga oid terminlar bilan parcha	Metod 1: Qiyosiy-tahliliy	Metod 2: Semantik-funksional	Metod 3: Stilistik-tahliliy
1	Girl with a Pearl Earring (Tracy Chevalier)	Ingliz	«The light in the painting makes the pearl glisten, and the shadow of her face adds depth». (p. 25)	Terminlar qiyosiy ravishda o'zbek tilidagi yaltirash va soya so'zlari bilan solishtiriladi. Ingliz tilida terminlar tasviriy san'at texnikasi bilan bog'liq.	Light va shadow terminlari rang-baranglikni va yorug'likning ta'sirini bildiradi.	Glisten so'zi estetik va tasviriy ta'sir ko'rsatadi.
2	The Picture of Dorian Gray (Oscar Wilde)	Ingliz	«The portrait had the elegance of a Renaissance masterpiece.» (p. 92)	Elegance va masterpiece so'zlari o'zbek tilida nazokat va daho asar kabi terminlarga o'xshash tahlil qilinadi.	Bu yerda elegance stilistik yukga ega, masterpiece esa asar qadriyatini ifodalaydi.	Iboralar asar uslubiga estetik beradi va Renaissance tushunchasi badiiy qadriyatini oshiradi.
3	The Great Gatsby (F. Scott Fitzgerald)	Ingliz	«The lights of the city sparkled like jewels, casting a golden glow on the party».	Lights va jewels so'zlari o'zbek tilida yorug'liklar va zarlar kabi terminlarga qiyoslanadi.	Sparkled so'zi yorug'likning qiziqarli va jozibador ko'rinishini ifodalaydi.	Sparkled so'zi estetik ta'sir ko'rsatadi, golden glow esa tasviriy va melodik birikma yaratadi.
4	O'tgan kunlar (Abdulla Qodiriy)	O'zbek	«Madrasaning katta eshigi ochilganda, ichkaridan amirlar haykali ko'rindi».	Haykal tushunchasi bilan ingliz tilidagi «sculpture» tushunchasi qiyosiy tahlil qilinadi.	«Haykal» so'zi madaniy va tarixiy semantik yukga ega.	«Haykal» tushunchasi milliy va madaniy kontekstni ifodalaydi.
5	Oq kema (Chingiz Aytmatov)	O'zbek	«Kemaning oq rangdagi tasviri, uning ichki tuyg'ularini aks ettiradi.» (b. 15)	«Tasvir» so'zi o'zbek tilida «depiction» yoki representation bilan qiyoslanadi. «Oq rang» esa «white color» ga mos keladi. Qiyosiy tahlil orqali ranglarning simbolik ahamiyati aniqlanadi.	«Tasvir» so'zi san'at asarining ko'rinishini va uning estetik qiymatini ifodalaydi. «Oq rang» ichki tinchlik va sof niyatni aks ettiradi.	«Tasvir» badiiy asar sifatida ko'zni jalb qiluvchi estetik tuyg'ularni keltirib chiqaradi. «Oq rang» muallif tomonidan berilgan ma'naviy hissiyotlarni ta'kidlaydi.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqola doirasida olingan badiiy asar parchalarining tahlili san'at terminlarining semantik, funksional va stilistik xususiyatlarini ochib beradi. Qiyosiy tahlil yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi san'at terminlarining o'zaro bog'liqligi va farqlari ko'rsatildi, bu esa tilshunoslikda madaniyatning ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi. Semantik-funksional yondashuv terminlarning o'ziga xos ma'nolarini va ularning badiiy matnlarda qanday qilib hissiy va estetik ta'sir yaratishini aniqlashga yordam

berdi. Stilistik tahlil esa san'at terminlarining badiiy uslubdagi rolini namoyish etdi va ularning muloqotda kognitiv ko'rsatkichlari bilan bog'liqligini keltirib chiqardi. Diskursiv analiz esa san'at terminlarining kontekstual ahamiyatini belgilashga, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ishlatilishini ko'rsatishga imkon berdi. Shu tariqa, tadqiqotimiz badiiy adabiyotda san'at terminlarining zamonaviy ahamiyatini va ularning lingvistik ifodasini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Felber H. Terminological work and standardization of terminology. – Paris, 1974. – P. 1.
2. Головин Б.Н. О некоторых аспектах лингвистического и информационного изучения термина // Место терминологии в системе современных наук. Научный симпозиум. – М., Изд-во МГУ, 1970. – С. 41.
3. Кузькин Н.П. К вопросу о сущности термина // Вестник ЛГУ. – № 20. Вып. 4. – Л., 1962. – С. 132.
4. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг киёсий-типологик тадқиқи. Номз. диссер. ... автореф. – Тошкент: 2009. – Б. 17.
5. Xojiyeva G. S. Sanatga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy tahlili (fransuz va o'zbek tillari misolida): filol.f.f.d. (PhD). ... diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – 54 b.
6. Qodirova F. Sh. Ingliz va o'zbek tillaridagi tasviriy sanat va dizaynga oid terminlarning lingvokulturologik xususiyatlari: fil.f.f.d. (PhD). ... diss. avtoref. – Toshkent: 2021. – 51 b.
7. Ismailov G'. O'zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo'lishi. Fil.f.n., diss... – Toshkent: 2011. – B. 24.
8. Leeuwen T. The critical analysis of musical discourse. Critical Discourse Studies 4 (9), – London, 2012. – pp. 319–328.



UDK: 821.512.133-31 + 82(091)

Feruza QURBONOVA,

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi
E-mail:feruzaq42@gmail.uz

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

CURRENT RESEARCH IN UZBEK NOVELTY

Annotation

Literature has always considered its noble mission to glorify beauty, goodness and enlightened feelings, to be an expression of the divine spirit. We are a great nation with a high literary and spiritual reserve, and we do not give in to moral threats and lack of talent.

Key words: Human psyche, virtue, psychological, character, character.

СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ УЗБЕКСКОЙ НОВИНКИ

Аннотация

Литература всегда считала своей благородной миссией прославление красоты, добра и светлых чувств, выражением божественного духа. Мы великая нация с высоким литературным и духовным резервом, не поддающаяся моральным угрозам и бездарности.

Ключевые слова: Психика человека, добродетель, психология, характер, характер.

O'ZBEK ROMANCHILIGIDAGI BUGUNGI IZLANISHLAR

Аннотация

Adabiyot hamisha go'zallik, ezgulik va nurafshon hislarni tarannum etish, ilohiy ruh ifodachisi bo'lishni o'zining ezgu missiyasi deb bilgan. Biz adabiy-ma'naviy xazirasi yuksak, ma'naviy tahdid va iste'dodsizlikka yon bosmagan ulug' xalqimiz.

Kalit so'zlar: Inson ruhiyati, ezgulik, psixologik, fe'l-atvor, xarakter.

Psixologik portretda muallifning asosiy diqqat-e'tibori qahramon xarakterini ochadigan, o'y-kechinmalarini ifodalaydigan qabariq (noyob) detalga qaratiladi. Obrazni psixologik va axloqiy-ma'naviy mazmun bilan to'ldiradigan bunday detal portretda o'ziga xoslik kasb etadi. U orqali qahramonning psixologik belgilari aniq-ravshan ko'rinadi. Badiiy asar kayfiyatining inson ruhiyatiga bevosita va bilvosita ta'siri badiiy mushohada teranligi hamda badiiy estetik salohiyatining ichki qonuniyati bir butunlikda uyg'unlashib talqin etilishi yozuvchining yutug'i hisoblanadi. Adib qahramon ruhiyatini tahlil qilar ekan, har bir personaj yashashdan maqsad va ma'no qidiradi. O'lo' tomonidan buyirilgan farz va amallarni ikki dunyo mezonidan kelib chiqib baholaydi va baholi qudrat bajaradi, shunga ko'ra romanda psixologik, falsafiy va ilohiy tushunchalar badiiy umumlashma mazmun kasb etadi.

Chorak asr davomida tarix va inson munosabatlarini idrok va ifoda etish tamoyillari tamomila o'zgardi. Badiiy haqiqat ijtimoiy-siyosiy hayot tasviridan ustun qo'yilib, Arastu davridayoq tasdig'ini topgan mavqeini egalladi. Endilikda, personaj aksariyat sho'ro romanlarida kuzatilganidek, voqelikka ilova emas, balki o'z o'y-xayol va xatti-harakati bilan tirik inson sifatida xolis tasvirlana boshladi.

Boshqacha aytganda, alohida shaxs borlig'i ijtimoiy voqelikdan ko'ra murakkabroq hodisa va uni tushunish va izohlash muhim ekanini poetik idrok etila boshladi. Globallashuv davri shiddati ta'sirida o'z milliy qiyofasidan ayrilib qolmaslikka intilayotgan kishilar ruhiy intellektual olami, tuyg'ular dunyosini ko'rsatishga ehtiyoj ortdi. Nuqul kitobxonga o'rnak bo'lish va unga yo'l-yo'riq ko'rsatish missiyasini tashuvchi, ammo o'z shaxsiy hayoti, insoniy tuyg'u-kechinmalaridan mahrum trafaret adabiy qahramonlar inkor etildi.

Bu hol badiiy nasrga kundalik turmushning adoqsiz ikir-chikirlariga o'ralashib yashayotgan – el qatori oddiy odamlar obrazini olib kirdi. Polvon, usta, duradgor, cho'pon, dehqon, qorovul, farrosh, hatto qishloqdan shaharga kelib biror ijtimoiy mavqe egallay olmagani, ammo millat ruhini tashuvchi o'zini anglab, odamlar orasidagi o'rni topib olishga intilayotgan, Q.Yo'ldoshev ta'biri bilan aytganda, “qahramon bo'lmagan qahramonlar” tasviriga ham e'tibor ortdi. Aslida, chinakam roman kundalik turmush ikir-chikirlari bilan qanoat tuyishi mumkin emas. Bunda u o'zining ijtimoiy zalvori, ya'ni millat fikriy-hissiy qamrovini belgilash missiyasidan mahrum bo'ladi.

Muhammad Salomning “Katta xonadon” romani ham millat kishilari turfa qiyofalari, betakror fe'l-atvorini haqqoniy tasvirlagani, xarakterlar yorqinligi, o'zbekona turmush tarzi ichdan nurlantirilgani, hayotiy ekani bilan muayyan estetik qimmat kasb etadi. Bizningcha, bir xonadon muhitining betakror tasvirlari shu oila inson va jamiyatni

anglash modeli ekanini ko'rsatadi. Zotan, adibni tashvishga solayotgan bosh omil milliy o'zlikni asrab qolish muammosidir. Umuman, dunyo adabiyotida namoyon bo'layotgan janriy sinkretizm hodisasi mustaqillik davri o'zbek romanlari qiyofasini belgilovchi muhim faktordir. S.Meliyev ta'kidlaganidek, biz dunyo uchun faqat o'zligimiz va o'zbekligimiz bilan qadrlimiz, qiziqarlimiz.

Zotan, adabiyot hamisha go'zallik, ezgulik va nurafshon hislarni tarannum etish, ilohiy ruh ifodachisi bo'lishni o'zining ezgu missiyasi deb bilgan. Biz adabiy-ma'naviy xazirasi yuksak, ma'naviy tahdid va iste'dodsizlikka yon bosmagan ulug' xalqimiz. Milliy adabiyotimiz nafaqat mazmun zalvori, balki shakliy-uslubiy go'zalligi, ezgulik hamda nafasli ifodasiga ehtiyojmand kitobxonlari bilan barcha davrlar talotumlaridan omon chiqib, insoniyat estetik xazinasini boyita olgan.

Shunday ekan, o'zbek romanchiligidagi bugungi izlanishlar o'z ijobiy samaralarini berishi aniq. Romanchilikdagi izlanishlar muammosi adabiy tanqidchilikda muayyan bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Bizningcha, san'at asari sifatida mustaqil borliq bo'lgan har bir romanni muallif badiiy falsafasi, odam va olamga munosabati, xayolot dunyosining qamrovi, hayotiy vaziyat-holatlarini baholash tarzi, roman kompozitsiyasi, xronotopi, poetik ifoda usullari, qahramon hissiy-intellektual dunyosida sodir bo'lgan evrilishlar e'tiqodiy asosi, badiiy tasvir vositalari nuqtayi nazaridan o'rganish lozim.

Mutaxassislarining fikrlariga ko'ra, A.Qodiriy romanlarida yevropada “valter-skottcha” roman nomi bilan mashhur bo'lgan tarixiy romanchilikka xos strukturaviy xossalar seziladi. “XX asrning 30-yillarida “V.Skott romani” rus adabiyotiga kirib keldi va o'zi uchun yangi bo'lgan adabiy-poetik muhitga moslashdi, yangi sifat, xususiyatlarga ega bo'ldi” – deya yozadi bu haqda adabiyotshunos G'.Murodov. – A.Pushkinning “Kapitan qizi”, L.Tolstoyning “Urush va tinchlik” epik asarlarida “shotland sehgari” (V.Skott nazarda tutilmoqda-N.S.) maktabining ijodiy ta'siri mavjud.

“V.Skott” romani tajriba va an'analari XX asr so'z san'ati, jumladan, Markaziy Osiyo tarixiy romanchilik tajribasida ham davom etdi. Abdulla Qodiriy, Sadridin Ayniy, Cho'lpon, Oybek epik ijodida bunday adabiy-badiiy vorislikni ko'rishimiz mumkin”.

Bu ilmiy axborotning mavzuimizga aloqador jihati shundaki, badiiy modifikatsiya hodisasining birinchi tarixiy omili – bu, adabiy an'ana hisoblanadi. Dastlab rus prozasiga ta'sir o'tkazib, Pushkin, Tolstoy tarixiy romanlari strukturasi shakllanishiga olib kelgan V.Skott an'analari G'.Murodov to'g'ri ta'kidlaganidek, o'zi uchun yangi bo'lgan adabiy-poetik muhitga moslashdi, yangi sifat, xususiyatlarga ega bo'ldi. Bu degani biron bir janr yoki janr komponentlari tashqi prozanasilik an'analari milliy nasrchilik

shakllariga singdirgan holda o'zgacha shakl-mazmun hosil qilsa, turlansa, shakl-holatini o'zgartirsa, modifikatsiya hodisasi yuz bergan hisoblanadi. Bu holat nafaqat epik tur yoki roman janrida, shu bilan birgalikda boshqa tur va janrlar doirasida ham sodir bo'lishi mumkin.

Badiiy adabiyot tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida bir xil vazifani bajarib kelgan. U har qanday ijtimoiy-siyosiy tuzum, har bir jug'rofiy hududda o'sha xalqning ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Kishilardagi eng oliy umumbashariy qadriyatlar erk, adolat, odob-axloq, mehr-oqibat, darddoshlik, ma'rifatparvarlikni yoqlab, zulm, haqsizlik, jaholat va insonlik sha'niga nomunosib bo'lgan ochko'zlik, zulm-zo'ravonlik, xiyonat, qo'rqqoqlik, yolg'on, kibr, maqtanchoqlikni qoralagan. Davr va jamiyat a'zolarining orzu-intilishlarini o'zida aks ettirgan badiiy adabiyot zamon bilan hamnafas o'z-o'zini isloh qilib kelgan.

Xalqning ruhiy, ma'naviy talabini qondirishni o'z oldiga maqsad qilgan badiiy adabiyot hayotni obrazli ifodalaganligi tufayli insonlar qalbiga yaqin. Shuning uchun ham xalqning ko'ngliga tez yo'l olgan. Xalq og'zaki ijodidan tortib mumtoz asarlargacha va hozirda yaratilayotgan eng sara badiiy ijod namunalari adabiy-estetik qiymati, xalq ma'naviy mulki sifatidagi nodir va noyobligi shu bilan izohlanadi.

Jadid adabiyoti yozuvchilari A. Qodiriy, Cho'lpon ijodida shakllangan adabiy an'analar mustaqillik davri adabiyotida yangicha mazmun-mohiyat kasb etadi. Jahon adabiyotining shakl va mazmun jihati bilan yangilagan asarlarga bo'lgan qiziqishning kuchayishi, adabiy tajribalarning o'zlashtirilish, ijodkor nigohining voqelikdan inson ruhiyatiga qaratilishi milliy nasrimiz tadrijiga olib keldi.

Odatda, romanda xalq va qahramon psixologiyasi o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlash orqali ijtimoiy tuzum, davr, ma'naviy muhit, jamiyatda umuminsoniy va milliy qadriyatlarining qaror topishi aks ettiriladi.

XX asrda o'zbek adabiyoti, jumladan, milliy nasrda pandnoma-didaktika o'z o'rnini ijtimoiy muammolar bilan bog'liq voqelik tasviriga bo'shatib berdi.

Badiiy asarlarni tekshirishda germeneytik yondashuv usuliga o'tilishi davr taqozosi sifatida yuzaga keldi. Insonlararo munosabatlar, ular o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar o'rnini inson botiniga qaratilgan, o'z-o'zi bilan kurashayotgan, kamchilik va nuqsonlardan xoli bo'lmagan, o'zini tanishga intilayotgan inson tasviri egalladi.

"Boqiy darbadar" romaniga atab maxsus tadqiqot yozgan adabiy tanqidchi R.Rahmat I.Sulton laboratoriyasiga xos bunday ijodiy dinamikani to'g'ri va nozik ilg'agan. "Boqiy darbadar" tasodif emasligini yozuvchi ijod biografiyasidan olingan aniq bir fakt bilan asoslagan, deb o'ylaymiz. Tanqidchi yozadi: "Bir vaqtlar "Munjo't" qissasidan keltirgan iqtibosimda mana bu fikr ham bor edi: Abad yoshlik xuddi abad qarilik singari mazmunsiz emasmi?"

Bu fikr Isajonning ijod dunyosidagi ildizi chuqur bir maysa edi, bu maysa eson-omon kattarib, ulkan daraxtga aylandi. Yozuvchi

keyinchalik yozgan katta asarlari, xususan, "Boqiy darbadar" romanida abadiy yoshlik, abadiy qarilik mavzusiga keng ko'lamda to'xtalgan. Isajonning nazarida abadiy yoshlik, aslida, abadiy qariligidir.

Professor A.Rasulov "Boqiy darbadar" romani haqida shunday fikrni aytadi: "O'tgan yuz yilning ulkan iste'dodlarning asarlari umuminsoniy G'oyalari tasvirlangani boisgina insoniyat nazarida qadru qiymatga ega bo'lgan edi. Adabiyotimizning keyingi avlodi asarlarida ana shunday umuminsoniy G'oya sezila boshlagani quvonarlidir. "Boqiy darbadar" romanida Isajon butun insoniyatning peshonasiga darbadar degan tamg'a bosgan, Tangri taolo yaratgan hudud-chegaralardan chiqishga uringanlar Etikdo'z qismati kabi, qarq'ish oqibatida olamda bemaqsad va mangu daydiy-tentirab yurish ekanini (va mangu bo'lmagan shu yorug' olamning oxirida yana mudhishroq bir hukmga ro'para kelishini) ko'rsatgan bo'lsa, "Ozod" romanida yozuvchi "Dunyoning yuksalishi behuda, insonning o'zining ruhiy yuksalishi muhim" degan g'oyani ilgari suradi".

Roman kompozitsiyasi mana shu uchta syujet liniyasini umumlashtirish, yozuvchining Boqiy Darbadar haqidagi yirik falsafasini badiiy ifodalashga qaratilgan. Boshqacharoq aytganda, Boqiy darbadar falsafasi roman markazidan turli syujet liniyalarini birlashtiruvchi qizil ip bo'lib o'tgan. Kompozitsiyaning asosi – fikr tashlash (tezis), unga boshqa bir fikrni qarshi qo'yish (antitezis) va xulosaga olib kelish (sintez)dan iborat mazmuniy tizimi ham muallifning Boqiy Darbadar degan badiiy-falsafiy umumlashmasidan kelib chiqqan. Asar mohiyatiga yovuzlik, ezgulik kurashining pirovard-oqibati Xudoga qaytish degan badiiy g'oya-konsepsiya qo'yilgan.

Yozuvchining ijodiy konsepsiyasi diniy-islomiy manbalardan oziqlangan hikmatlar ijod va so'z erkinligining mahsuli sifatida yuzaga kelganligi, mafkura va oqimlar doirasidan xolislik maydoniga chiqqan olgan bu asarlar adib ijodiy konsepsiyasini ifodalovchi adabiy poetik tamoyil darajasiga ko'tarilganligi va majoz falsafasi qiyosiy o'rganilib, asarlaridagi davriy va abadiy muammolarning majoz uslubida ifodalanishi yoritilgan.

His va aql sintezi natijasida yaratilgan badiiy asarlarda inson bilan bog'liq muammolar oshkora yoki ramz, majoz yo'li bilan qalamga olinadi. Kitobxon o'z dardi, hislari, ko'ngil kechinmalari – o'z qalbiga doir asarlarnigina qabul qiladi. Badiiy ijod inson botinida kechadigan hissiy va aqliy faoliyatning mahsuli bo'lib, u ijodkor "ichki men"ning til vositasida namoyon bo'lishidir, deb aytish mumkin. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, insonning ichki dunyosi, ruhiy olamida kechayotgan tuyg'ular, botinida yuz berayotgan evrilishlar g'ayritabiiy ravishda, hatto uning o'ziga to'liq tushunarli bo'lmagan holatda badiiy asarda akslanadi. Badiiy ijod ruhiy-psixologik jarayon bo'lib, uni batamom tushunish yoki tushuntirib berish imkonsiz.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.SH. O'zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir"/ Xalq so'zi, 2017 yil, 4 avgust.
2. Boltaboyev H. Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. Uch jildlik. 1-jild. Qadimgi davr.- Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2013
3. Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
4. Mustaqillik davri adabiyoti. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
5. N.Karimov va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
6. Psixoanaliz asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2004.
7. To'rayev D. Romanchiligimizning yangi ufqlari// Davr va ijod mas'uliyati. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. –B. 25-26;



Dilnozaxon QO'CHQOROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: adilnoza920@gmail.com

O'zDJTU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD G.Raximova taqrizi asosida

VIKTOR GYUGO VA UNING ASARIDA HIKMATLI SO'ZLARINING GAVDALANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada fransuz buyuk yozuvchisi Viktor Gyugo badiiy asarlarida hikmatli so'zlarning go'zal tarzda qo'llanilishi va ularning o'zbek tilida tarjimalari bilan yoritiladi. Maqola obyekt sifatida Viktor Gyugoning "Dengiz zahmatkashlari" asari tanlab olindi. Maqolada asarlarida sevgi shahri – Parijdagi hayotning asl yuzini fosh etgan romantizm kuychisi Viktor Gyugo hikmatlaridan yoqin namunalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: hikmatlar, maqol, iqtibos, jumla, lingvokulturologiya, romantizm, demokratiya.

VICTOR HUGO AND HIS APHORISMS IN LITERARY WORKS

Annotation

This article covers the beautiful use of wise words in the works of the great French writer Victor Hugo and their translations in Uzbek. Victor Hugo's work "Toilers of the Sea" was chosen as the object of the article. The article analyzes close examples of the wisdom of the romantic singer Victor Hugo, who revealed the true face of life in the city of love - Paris.

Key words: aphorisms, proverb, quotations, sentences, lingvoculture, romanticism, democracy.

ВИКТОР ГЮГО И ЕГО АФОРИЗМЫ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В данной статье рассказывается о прекрасном использовании мудрых слов в произведениях великого французского писателя Виктора Гюго и их переводах на узбекский язык. Объектом статьи было выбрано произведение Виктора Гюго «Труженики моря». В статье анализируются близкие примеры мудрости певца-романтика Виктора Гюго, раскрывшего истинное лицо жизни в городе любви - Париже.

Ключевые слова: афоризмы, пословицы, цитаты, предложения, справедливость, лингвокультурология, демократия.

Kirish. "Qashshoqlik inqilobga, inqilob esa qashshoqlikka yetaklaydi" [1]. Asarlarida sevgi shahri – Parijdagi hayotning asl yuzini fosh etgan romantizm kuychisi Viktor Gyugo hikmatlari ham lingvistik ham ma'nan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Nafaqat fransuz adibi, balki siyosiy arbob sifatida ham mashhur Viktor Gyugo romantizmga suyanib, betakror asarlar yaratgan ijodkor sifatida tarixda qolgan. Maqolada jamiyatdagi tengsizlik va adolatsizliklarga qarshilik qilishdan to'xtamagan, kitoblari o'nlab tillarga tarjima qilingan yozuvchining hayot va ijodiga nazar tashlaymiz va "Dengiz zahmatkashlari" romanidagi tagiga chizib o'qilgan satrlarni tahlil qilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistondagi bir qator olimlar, xususan, A.Abdurazizov, D.Ashurova, Sh.Safarov, O.Yusupov, A.Mamatov va boshqa tadqiqotchilar lingvokulturologiya sohasiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqdalar. Viktor Gyugoning "Dengiz zahmatkashlari", "Xo'rlanganlar"ning "Kozeta" va "Gavrosh" bo'limlari (1952, 1955), "Byug Jargal" (1982) Qodir Mirmuhamedov, Nurbek, E.Obidov tomonidan o'zbekcha tarjimada nashr etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati mavzuni o'rganish jarayonida paremiyalarning xususiyatlarini va lingvokulturologiyaning badiiy asarlarda dolzarb ahamiyatga ega bo'lish doirasini aniqlashdir. Bu zamonaviy tilshunoslikda, xususan lingvokulturologiyada, til vositalarining funksiyasini aniqlashtirishga yordam beradi va hikmatli so'zlar tomonidan ko'tarilgan funksional-semantik va pragmatik masalalarni o'rganishga hissa qo'shadi.

Tahlil va natijalar. XIX asrning boshi Fransiyada eski tartib va mutlaq monarxiya toptalayotgan davr - 1802-yil 26-fevralida Napoleon armiyasi kapitani Leopold Sijisbert Gyugo oilasida tug'ilgan uchinchi farzand kun kelib dunyo adabiyotiga mislsiz hissa qo'shadigan yozuvchi bo'lishini o'shanda hech kim tasavvur etolmasdi. Go'dak Viktorning shunchalik zaif va kichikligidan onasi: "Oshxona pichog'idan sal kattaroq bo'lgan", - deya o'g'liga ta'rif beradi. O'ziga to'q oila o'sha davr uchun yaxshigina hashamat hisoblangan uch qavatli uйда yashardi. Musavvirlikka qiziqqan, yozuvchilikka ixlos qo'ygan, qolaversa, musiqaga ham befarq bo'lmagan Viktor Gyugoni chinakamiga ijod olami odami deyish mumkin. 8 yoshidan turli suratlarda chizgan bolakay 14 yoshida romantizmning ilk namoyandasi Fransua Shatobrian bilan tanishadi va uning muxlisiga aylanadi. Bolaligidayoq qasida va she'rlar qoralab, o'lmas asarlar yaratgan adib kitoblar bilan har doimgidan ham

yaqinroq do'st tutinadi. Aksar hollarda maktab teatrlarida namoyish qilinadigan spektakllar ham uning muallifligida bo'lar, u esa ijod qilishdan to'xtamasdi. Adibning asrga tatigulik ijod naumanalarini tahlil qilar ekanmiz, o'sha davrda ijod qilgan romantizm namoyondalaridan farqli ravishda Gyugoning kitoblarida ijtimoiy va siyosiy jihatlar yashiringandi. Parij sevgi shahri deb sanalishiga qaramay, fransuz jamiyati notengliklar sabab qabohatga botib borardi. Bunga befarq bo'lmagan Gyugo inson axloq va odobni qadrlashni o'rgansagina muammolar barham topishiga ishonadi. Ayrim ijod namunalarini turli bahs va hatto mashmashalarga sabab bo'lganiga qaramay, o'z uslubiga ega adib hamisha kitobxonlar tomonidan ardoqlanadi. Dastlabki asari - "Qasidalar" (1821) she'rlar to'plami monarxiya g'oyalari ta'sirida bo'lib, 20-yillarning 2-yarmidan demokratik qarashlari mustahkamlana borgan. Isyonkorlik ruhi bilan sug'orilgan "Kromvel" (1827), "Sharq motivlari" (1829), "Marion Delorm" (1829), "Ernani" (1830), "Ryui Blaz" (1838) va boshqa she'riy va dramatik asarlarida davrning dolzarb masalalari aks etgan. "Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi" (1831) tarixiy romani voqealari o'rta asrda bo'lib o'tadi, asarda muhabbat fojiasi tasvirlanadi. 1848-yildagi inqilobni olqishlagan. Lui Bonapartning davlat to'ntarishini (1851) qoralagan. Shundan so'ng 18 yil surgunda bo'lib, qator romanlar yozgan. "Pakana Napoleon" (1852), "Xo'rlanganlar" (1862), "Dengiz zahmatkashlari" (1866), "Kulib turuvchi kishi" (1869), "Bir jinoyat tarixi" (1877—78) romanlarini yozib, ularda oddiy fransuzlarning og'ir hayoti va kurashini tasvirlaydi. G. romanlaridagi buyuk va olijanob insonlar turmushdagi pastkashliklar va illatlarga qarshi kurashishadi. "Dahshatli yil" (1872) she'rlar to'plami fransuz-pruss urushi va Parij Kommunasini (1871) voqealariga bag'ishlangan. So'nggi "93-yil" romani (1874)da inqilobga xayrixohlik bilan qaragan. U adabiyotga "Intiqom", "Qahrli yil", "Sharq ohanglari", "Shuur", "Asrlar afsonasi" nomli she'riy to'plamlar, "Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi", "Kulayotgan odam", "Dengiz zahmatkashlari", "Klod Gyo" kabi asarlarni taqdim etadi. "Xo'rlanganlar" romanini yozish uchun esa naq 20 yil sarflaydi. "Pakana Napoleon", "Bir jinoyat tarixi" romanlarida oddiy aholining qiyinchiliklarga boy turmushiga urg'u beradi. 1829-yilda yozilgan "Mahkumning so'nggi kuni" asari Alber Kamyu, Charlz Dikvens va Dostoyevskiy kabi yozuvchilar uchun ilhom manbai bo'ladi. Bundan tashqari, hayoti davomida teatrlar uchun ham dramalar qoralab turadi. "Ernani", "Kromvel", "Qiroli ishrati" va "Ruyi Bliz" nomli pyesalari

Parij teatrlarida sahnalashtirib, tomoshabinlar va san'at ixlosmandlarining qalbidan joy oladi.

Fransuz adibi Viktor Gyugo shunday deydi: «Zamonamiz halokatdir. Halokat yoqasida, demochi edim, lekin bo'lmadi. Bu halokat barcha e'tiborni bu dunyo hayotiga bog'lashga urinishdir. Insonni «Bu dunyodagi hayot asosiy maqsaddir, bundan boshqa hech qanday maqsad yo'q», deb ishonirish hayotdagi barcha qiyinchiliklarning asosiy sababchisidir. Bizning vazifamiz - barchani hozirgi hayotdan so'ng yana hayot bo'lishiga, unda adolat qaror

topishiga va har bir kishi qilganiga yarasha jazo yoki mukofot olishiga ishonirishdir» [2].

Adibning «Dengiz zahmatkashlari» romanini tahlil qilar ekanmiz asarda orolning o'ziga xos xususiyatlari zo'r mahorat bilan tasvirlanganiga muallif voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgani, kuzatgani sabab bo'lsa, asarning tug'ilishiga, badiiy yuksak bo'lishiga Gyugo bosib o'tgan uzoq kurash va ijod yo'li, uning adabiyot sohasidagi 40 yillik tajribasi sabab bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Quyida esa asarda fransuz va o'zbek tilida keltirilgan hikmatli so'zlar bilan tahlil qilamiz:

1	La solitude fait des gens à talents ou des idiots.	Yolg'izlik insonni iste'dodli yoki ahmoq qiladi
2	L'ignorant peut trouver, le savant seul invente.	Nodon topadi, bilimdon o'zi o'ylab topadi.
3	Les mugissements redoublaient. Aucune rumeur humaine ou bestiale ne saurait donner l'idée des fracas mêlés à ces dislocations de la mer.	Ruhii tushkunlik — bu aqlning xiralashishidir
4	Rien n'égale la timidité de l'ignorance, si ce n'est sa témérité. Quand l'ignorance se met à oser, c'est qu'elle a en elle une boussole. Cette boussole, c'est l'intuition du vrai, plus claire parfois dans un esprit simple que dans un esprit compliqué.	Yolg'iz yashaydigan odamlarning ichki dunyosi murakkab bo'ladi
5	Dans l'ordre des faits moraux tomber n'exclut point planer. De la chute sort l'ascension. Les médiocres se laissent déconseiller par l'obstacle spécieux ; les forts, non. Périr est leur peut-être, conquérir est leur certitude	Ma'naviy fikrlash ostida mag'lublik yuksalishni istisno etmaydi. Mag'lubiyat ortida muvaffaqiyatdir. O'rtaamir odamlar o'zlarini g'ayrioddiy to'siqdan tushkunlikka tushirishga imkon beradi; kuchlilar esa, yo'q. Halok bo'lish - ularning ehtimoligi, g'alaba qozonish - ularning ishonchidir
6	Le penseur veut, le songeur subit.	Mutafakkir iroda qiladi, xayolparast azob chekadi.
7	On regarde la mort, on regarde la vie, et l'on consent. Mais c'est un consentement qui saigne	Biz o'lim bilan yuzlashamiz, hayotga tik qaraymiz va biz taslim bo'lamiz. Lekin bu rozilik badallikdir.
8	On ne pense pas plus dans l'extase qu'on ne nage dans le torrent.	Birovlarni martaba jinni qiladi, boshqalarni esa fikr-o'y
9	La réalité c'est l'âme. A parler absolument, notre visage est un masque. Le vrai homme, c'est ce qui est sous l'homme.	Haqiqat - bu qalb. To'g'ri aytganda, bizning yuzimiz niqob. Haqiqiy inson — bu uning yashirin qalbidir.
10	L'homme avec l'or fait ce qu'il peut. Dieu avec le vent fait ce qu'il veut	Odam odamga maslahat beradi, lekin insofga kiritadigan - Xudo.

Quyida sanab o'tilgan hikmatli soz'larning barchasi «Dengiz zahmatkashlari» romanida keltirilgan bo'lib, ular odamlarni adolatga, ma'naviy yuksalkikka, bilim olishga, dangasalikdan qochishga dav'at etadi. Zero, Viktor Gyugo o'z zamonasining eng yuksak yozuvchisi bo'libgina qolmay, balki, xalqparvar inson bo'lganligini e'tirof etmog'imiz darkor. «Huquqni anglash burchni anglashni rivojlantiradi. Umumiy qonun — bu o'zganing erkinligi boshlanadigan joyda sening erkinliging tugashidir», - Viktor Gyugo.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni aytish joizki adib o'z asarlarida nafaqat hikmatli so'zlar balki maqolar ibratli go'yalar bilan matnini

jozibalashtirgan. Shuning uchun ham har bir kitobxon asarni o'qir ekan undagi voqealar ko'z oldida hayotiy mavj uradi. Tashqaridan qaraganda orzu qilish mumkin bo'lgan hamma narsa: iste'dod, pul, kazo-kazo do'stlari bo'lganiga qaramay, hayot Gyugoni ham alamli hayotga musharrif etgan. Yozuvchi 1885-yil bahorda pnevmoniyadan vafot etadi. Uning hayotdan ko'z yumgani haqidagi xabar Fransiya bo'ylab shamol tezligida tarqaladi, millionlab odamlar o'lmas asarlar muallifining dafn marosimida ishtirok etish uchun mamlakatning turli burchaklaridan yetib kelishadi.

ADABIYOTLAR

1. <https://daryo.uz/2022/03/16/qashshoqlik-inqilobga-inqilob-esa-qashshoqlikka-yetaklaydi-asarlarida-sevgi-shahri-parijdagi-hayotning-asl-yuzini-fosh-etgan-romantizm-kuychisi-viktor-gyugo-hikmatlari>
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Iymon" kitobidan
3. Маслова В.В. Лингвокультуроология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.,1987.
4. Viktor Gyugo "Dengiz zahmatkashlari" - M.,1866.
5. Shirinova R.H., Rakhimova G.A. and others. Representation of the national picture of the world in literary translation. International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 29, No. 5, (2020), pp. 1436-1445. https://www.researchgate.net/publication/340966581_Representation_of_the_national_picture_of_the_world_in_literary_translation?_tp=e_yJjb250ZXh0Ijpb7ImZpcnNOUGFnZSI6InB1YmxyY2F0aW9uIiwicGFnZSI6InByb2ZpbGUuLCJwcmV2aW91c1BhZ2UiOiJwdWJsaWNh dGlvbj9fQ.
6. Rakhimova G., Narimonova Z., Otajonova S., Abdulxaeva M. Stereotypy and poetics of the endemic of recit. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. 2019. T. 11. № 7. C. 966-969. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=43249894>
7. Qo'chqorova D. Comparative and cultural analysis of proverbs in french and uzbek languages International Journal of Word Art OAK 2023.
8. Qo'chqorova D. "Linguistic analyzes of citations and, maxims and proverbs" Emergent: Journal of Educational discoveries and lifelong Learning, Web of Science, 2023
9. Qodir Mirmuhamedov "Dengiz zahmatkashlari" o'zbek tilida tarjimasi - M.,1952.



UDK: 81'27 + 811.111 + 316.774:81'02

Feruzaxon MANSUROVA,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: feruz.m.sh@mail.ru

F.f.f.d., dots. D.Satimova taqrizi asosida

G'ARB TILSHUNOSLIGIDA OMMAVIY NUTQ GENEZISI TADQIQOTINING TARIXIGA NAZAR: TURLI YONDASHUVLAR VA DIAKRONIK ANALIZLAR

Аннотация

Uzoq yillar davomida jamiyatda turli ijtimoiy guruhlar oldida nutq so'zlash, insonlarga o'z fikrlarini yetkazish va ularning ongiga ta'sir ko'rsatish, shuningdek, biror voqea yoki hodisa haqida ishonchli ma'lumot berishga intilish, qadim zamonlardan boshlab insoniyat tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ommaviy nutq so'zlashning zaruriyati jamiyatning o'ziga xos rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon siyosat bilan bevosita aloqador bo'lgan tarixiy va lingvistik taraqqiyotning natijasi sifatida paydo bo'lgan.

Kalit so'zlar: ommaviy nutq, ritorika, ommaviy nutq madaniyati, nutq odobi, notiqlik san'ati.

ОБЗОР ИСТОРИИ ИССЛЕДОВАНИЯ ГЕНЕЗИСА ПУБЛИЧНОЙ РЕЧИ В ЗАПАДНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ: РАЗЛИЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ДИАХРОНИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

На протяжении долгих лет в обществе необходимость выступления перед различными социальными группами, передачи своих мыслей людям и влияния на их сознание, а также стремление предоставить достоверную информацию о том или ином событии, играло значительную роль в истории человечества с древних времен. Необходимость публичной речи связана с особенностями развития общества и представляет собой результат исторического и лингвистического прогресса, который непосредственно связан с политикой.

Ключевые слова: публичная речь, риторика, культура публичной речи, этика речи, искусство ораторства.

OVERVIEW OF THE HISTORY OF PUBLIC SPEECH GENESIS RESEARCH IN WESTERN LINGUISTICS: DIFFERENT APPROACHES AND DIACHRONIC ANALYSIS

Annotation

Throughout the ages, the necessity of addressing various social groups, conveying one's thoughts to the public, and influencing their consciousness, as well as the aspiration to provide reliable information about specific events, has played a significant role in the history of humanity since ancient times. The imperative of public speaking is intrinsically linked to the distinctive development of society and represents a product of historical and linguistic progress that is directly connected to the realm of politics.

Key words: public speaking, rhetoric, culture of public speaking, etiquette of speech, art of oratory.

Kirish. Nutqqa e'tibor, xususan, ommaviy nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Afina va Rim davlatlarida shakllangan bo'lsa-da, unga qadar Hindiston, Misr, Vavilon, Assuriya kabi mamlakatlarda paydo bo'lgani tarixdan ma'lumdir. Ommaviy nutq mahoratining o'ziga xos mahorat sifatida shakllangani Qadimgi Yunonistonda demokratiya tuzumining paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liq. Turli xalq yig'inlarida, senat kengashlarida, davlat va sud ishlarida o'sha mamlakatning har bir ozod kishisi erkin nutq so'zlash huquqini qo'lga kiritgan. Miloddan avvalgi XVI asrdan boshlab Afinada qonunchilik tizimi zodagonlar tomonidan boshqariladigan og'zaki an'anadan yozma ko'rinishga o'ta boshlashi kodifikatsiya (uyushgan qonunlar tizimini yaratish) hokimiyat boshqaruvini zodagonlardan sudga o'tkazdi. Qonunlarni qayta ko'rib chiqish, ushbu huquqiy o'zgarishni qanday boshqarish bo'yicha kelishib olish uchun jiddiy munozaralar zarur bo'lgan va ularning barchasi ommaviy nutq bilan fikrlarni ifoda etishni taqozo etdi. Bu haqida Doktor Dekaro shunday deydi: "Har bir erkin jamiyatda insonlar o'zlarning fikrlari va harakatlarini o'zgartirishga harakat qilishadi va bu erkin jamiyatning asosiy tushunchasidir". Ushbu davrlardanoq jamiyatdagi davlat arboblarning obro'-e'tibori, savdosiqtning rivojlanishi insonlarda chiroyli va ta'sirchan nutq so'zlash san'atiga alohida ahamiyat berishlarini taqozo etdi.

Adabiyotlar tahlili. Eramizdan avvalgi V asr o'rtalarida ommaviy nutq mahorati Afinada shakllanganiga qaramay, nutqlarning matnlariga e'tibor qaratilmagan. Bu san'atga ilmiy yondashib alohida san'at sifatida yo'lga qo'ygan kishilar sofistlar hisoblangan. Ular o'zlaridan oldin yashab o'tgan notiqning faoliyatlarini batafsil o'rganib nazariy "Ritorika" ilmiga asos soladilar va ommaviy nutq mahoratiga ega bo'lganlarni "Ritor" so'zi bilan ataydilar. Sitsiliya oroli ritorikaning asl vatani sanalib V asr o'rtalariga kelib demokratiyaning yo'lga qo'yilishi ommaviy nutq mahorati taraqqiyoti uchun asosiy omil bo'ldi. Jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan Aristotel, Demofen, Sitseron, Kvintilian, Demofen, Protogor, Suqrot, Izokrat, Sezar kabi qadimgi grek va rim notiqklarining asarlari o'sha davrlardanoq kishilik jamiyatida nutq, notiqlik san'atini o'ziga

xos rivojlanganligini namoyon etadi. Ritorika fanining asoschisi sanalagan Aristotel chiroyli so'zlash nazariyasi, ishonirish dinamikasi, ommaviy nutq haqida turli qo'llanmalar maydonga kela boshlagan bir paytda o'zining "Ritorika" nomli kitobida ularning barchasini jamladi va bu notiqlik san'ati bo'yicha birinchi darslik bo'ldi. Ushbu kitob uch qismdan tashkil topgan bo'lib asarning birinchi va ikkinchi kitoblari asosan nutqni chiroyli va ishonarli qilib yetkazib berish haqidagi fikrlardan tashkil topgan bo'lsa, uchinchi kitobda nutq mantiqi haqidagi mulohazalar yuritiladi. Aristotelning fikriga ko'ra, nutq so'zlovchi insonning tilidagi so'zlarning noto'g'ri talaffuz etilishi va mantiqan har xil tuzilishi kata xato hisoblanadi. U nutqdagi har bir jumlaning ravon, asosiy fikrni ifoda etishga qaratilgan va tinglovchi tushuna oladigan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi[1]. Bundan tashqari, notiq tinglovchilarni o'ziga jalb qila olishi uchun ularni hayajonlantira bilish, turli ko'rgazmalardan foydalanish, chog'ishtirish, turli metaforalarni qo'llash nutqni yanada ta'sirchanligini oshirishini biroq misollarning haddan ziyod ko'payib ketishi tinglovchining qiziqishini so'ndirishiga olib kelishi mumkinligini ham alohida eslatib o'tgan. Yana bir o'zining g'oya va tushunchalarini ajoyib tarzda hayotga tadbiiq etishga muvaffaq bo'lgan buyuk notiqlardan biri Rim siyotchisi hamda faylasufi Sitseron umri davomida bir yuz beshta ommaviy nutq so'zlagan va shulardan yetmish beshtasi to'liq yoki qisman holatda saqlanib qolgan. U o'z nutqining pragmatic ta'sirini oshirish uchun yuqori kitobiy uslubdan foydalanadi. Bundan tashqari, ommaviy nutqning ta'sirchanlik darajasini oshirish maqsadida Sitseron idiomatik iboralar, ritorik savol, undov, takrorlash, epitet kabi bir qator stilistik vositalariga murojat qiladi Sitseron: "Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lishi kerak", degan ekan. Shu sababli, jangovar mahorat tarixda qay darajada ahamiyatli bo'lsa, G'arbda og'zaki nutq san'ati ham sarkardalik mahoratidek yuqori darajada ulug'langan [2]. U o'z nutqining pragmatic ta'sirini oshirish uchun yuqori kitobiy uslubdan foydalanadi. Bundan tashqari, ommaviy nutqning ta'sirchanlik darajasini oshirish maqsadida Sitseron idiomatik iboralar, ritorik savol, undov, takrorlash, epitet kabi bir qator stilistik vositalariga murojat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yevropa va Amerikada notiqlik san'atining siyosiy sohada yuksalib borishi XVIII- XIX asrlarga to'g'ri keladi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida esa iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlar hamda jamiyatni demokratlashtirish davrida notiqlik nutqi ommaviy nutq sifatida yuritila boshladi[3]. Ushbu yangi kirib kelgan atama tinglovchilarning diqqatini torta boshladi. Yevropa va Amerika notiqlik san'atining umumiy xususiyatlariga qaramay, ular o'ziga xos milliy mentaliteti, taraqqiyotini turlicha namoyish etish bilan ajralib turadi. Jumladan, Britaniya notiqlik amaliyotida tinglovchining shaxsiy fikriga jiddiy ta'sir o'tkazmaslik, kinoyaning va dogmatizmning mavjud emasligi bilan ajralib tursa, Amerika notiqlik faoliyatida esa texnologik jihatlariga katta e'tibor qaratadi, nutq so'zlayotgan shaxs tinglovchining qarashlariga bevosita jiddiy ta'sir o'tkazadi.

Renessans davrida o'z nomi anglatib turgani kabi, burjua ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining shakllanishi bilan birgalikda, antik dunyoning madaniyati qayta tiklandi, inson ideallashtirilib, u aqlli, hissiy va cheksiz ijodiy imkoniyatlarga ega erkin mavjudot sifatida ko'rilgan boshlandi. Renessansning ilg'or shaxslari e'tiborida, avvalo, inson, uning rivojlanish erkinligi oladi, bu esa, o'z navbatida, notiqlik san'atining gullab-yashnashiga turki bo'ldi. Bu davrda ommaviy nutq san'atining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini anglashda M. Montal, T. Mor, E. Rotterdamskiy, F. Petrarka kabi o'rta asr mutafakkirlari va faylasuflarining ta'siri katta ahamiyatga ega [4]. O'sha davrda nutq san'ati asosan so'z ustalari, shoirlar, yozuvchilar, dramaturglar va mutafakkirlarning falsafiy va badiiy ijodida yorqin namoyon bo'lgan. Bu esa, umuman olganda, Renessans davrining o'ziga xos xususiyati sifatida, insonning haqiqiy hayotdagi o'rni, erkinligi va jamiyatdagi ahamiyatini anglashga, shuningdek, shaxsning ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar XVII asrdan boshlab hisoblangan Yangi davr Yevropada kapitalistik munosabatlarining o'rnatilishi bilan ajralib turadi. Yangi davrda klassitsizmning shakllanishi, barcha san'at turlarida ustunlik qilgani kabi notiqlikning rivojlanishiga ham salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, bu davrda antik-estetik tushunchalar asosida adabiy ijod va notiqlik san'ati nazariyasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ommaviy nutqqa oid masalalar F. Beko, T. Gobbs, R. Dekart, J. Lok, I. Nyuton va B. Spinoza asarlarida o'ziga xos aksini topgan bo'lib o'sha davrning nutq san'ati mantiqiy prinsiplar, aniq dalillar hamda metafizik-mexanik dunyoqarashlarni yo'naltirilgan edi.

XVIII asrdan XIX asrning boshigacha bo'lgan davr feodal tuzumga qarshi ijtimoiy harakatlarni o'ziga qamrab olgan demokratik xususiyatga ega bo'lgani sababli notiqlik san'atining rivojlanishiga jiddiy turki bo'ldi. Shu jumladan, V. Volter, G. Gegel, E. Geyte, D. Didro, I. Kant, J.-J. Russo, F. SHelling va D. Yum kabi faylasuflar va adabiyotshunoslarning badiiy ijodida notiqlik o'ziga xos rivojlanishga erishgan. Ommaviy nutq insoniyat bilimlarining muhim sohasi sifatida, ilmiy va badiiy asarlarning, kitoblarning nashr etilishida muhim ta'sir ko'rsatgan. XVIII - XIX asrlar barcha sohalarida madaniyatning jadal o'sishi bilan ajralib turganligi bois, tilshunoslik, falsafa, mantiq, adabiyotshunoslik hamda teatr sohalaridagi taraqqiyot ommaviy nutq san'atining yuksalishiga olib keldi [5].

Rossiya tarixida mahalliy notiqlikning rivojlanishi, avvalo, mamlakatning XVIII asrdagi tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Jumladan, global o'zgarishlar, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatining paydo bo'lishi, XVIII asrning 2-yarmidagi Rossiya

feodal iqtisodiyoti hamda turli siyosiy islohotlar insonlarda ommaviy nutqqa bo'lgan ehtiyojini oshirib yubordi [6].

Rus notiqlik san'atining rivojiga M.V. Lomonosov o'zining ommaviy nutq so'zlashning umumiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan "Kratkoye rukovodstvo k krasnorechiyu" (1748), ya'ni notiqlik bo'yicha qisqacha qo'llanmasi bilan ulkan hissa qo'shgan [7]. M.V. Lomonosovning fikriga ko'ra, notiqlik bu har qanday masala bo'yicha nutq so'zlovchi boshqalarga o'zining fikrini chiroyli yetkaza bilish bilan bir vaqtda ishonтира olish san'atidir deb hisoblab ommaviy nutq so'zlashni uch qismga bo'lgan: "nutqni yaratish", "nutqni bezatish", "nutqni o'z o'rnida ishlatish". U yaratgan notiqlik haqidagi qo'llanmalarida Qadimiy Yunoniston va Rim, O'rta asrlar, Uyg'onish davri mashhur yozuvchilari asarlaridan turli iqtiboslar keltirib o'tgan[8]. Notiqlik borasida ilmiy izlanish olib borgan mualliflardan biri falsafa fanlari doktori N.F. Koshanskiy o'zining "Chastnaya ritorika" i "Obshaya ritorika" kitobida notiqlikka quyidagicha ta'rif beradi: "Notiqlik bu so'z in'omi bilan boshqa insonlarning aqli, irodasi va hissiyotiga ta'sir eta olish san'atidir. Nasrning barcha turlaridan notiqlikning farqi shundaki, u faqatgina fikrlarni yaratish, ifodalabgina qolmay, nutq so'zlovchidan to'g'ri talaffuzini ham talab qiladi" [9].

Shuningdek, Rossiyada notiqlik san'ati bo'yicha muammoli sohalarini tadqiq etgan V.G. Belinskiy, V.I. Dal, K. Danilov, N.A. Dobrolyubov, V.A. Jukovskiy, D.I. Pisarev, L.N. Tolstoy, V.K. Trediakovskiy, N.G. Chernishevskiy va boshqa bir qator yozuvchilar o'zining asarlari orqali rus falsafiy tafakkurining gullab yashnashi hamda og'zaki nutqning rivojiga ulkan hissa qo'shdilar [10].

Shu bilan birgalikda, XIX asrning ikkinchi yarmida sud islohotlari va ochiq sud jarayonlarining joriy etilishi bilan bog'liq ravishda, advokatlarining jamoat oldida chiqishlarini talab qiluvchi sud ommaviy nutq san'atining jadallik bilan rivojlanishiga sabab bo'ldi. Rossiyadagi Dekabristlar qo'zg'olonlari, turli ijtimoiy-siyosiy, sotsial-demokratik harakatning avjiga olishi siyosiy-ommaviy nutqning ahamiyati ortishiga olib keldi. 1917-yilgi inqilobdan so'ng jonli namoyish qilingan ommaviy nutq xalqni ishonтира shda eng samarali vositaga aylana boshlagan. O'sha davrda P. A. Kropotkin, V. I. Zasluch, L. D. Trotskiy, T. V. Plexanov, A. V. Lunacharskiy, Y. M. Sverdlov, M. I. Kalinin, V. I. Lenin kabi ajoyib notiqlar Rossiya notiqlik tarixida alohida ajralib turadi [11].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Yevropa va Amerika tarixida asrlar davomida ommaviy nutqning rivojlanishiga madaniy, siyosiy, ijtimoiy va texnologik o'zgarishlar sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ommaviy nutqning ilk ko'rinishi Qadimiy Yunonistonda demokratiyaning paydo bo'lishi bilan tashkil etilgan turli ommaviy chiqishlar va yig'ilishlarda olib borilgan munozaralar sifatida shakllandi. Keyinchalik esa, Yevropa, Amerika va ko'plab davlatlarda ommaviy nutq ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar uchun muhim vosita bolib xizmat qildi. YA'ni, bir qator oratorlik qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslar xalqlarni birlashtirish, muhim xabarlarini ommaga yetkazish hamda tinglovchilarni ruhlandırish maqsadida ommaviy nutq kuchidan unumli foydalanish. Ta'kidlash joizki, XX asrda ommaviy axborot vositalarining, chunonchi, radio, televideniye va internetning rivojlanishi ommaviy nutqning ahamiyatini tubdan o'zgartirib yubordi. Negaki, bu vositalar siyosiy arboblarning nutqini va yangiliklarini kengroq ommaga yo'yish va auditoriyaga murojaat qilish imkoniyatini yaratishda yanada muhim omilga aylandi. Bugungi kunga kelib esa, samarali ommaviy nutq insonlarning ijtimoiy hayotida siyosiy, ijtimoiy, madaniy hamda fuqarorlik ishtiroki uchun hayotimizning ajralmas qismiga aylangan.

ADABIYOTLAR

1. В. С. Балашева и Ко. Екатеринбургский . "Риторика" Аристотеля / пер. с греч. Н. Платоновой. – СПб. : Типография. Кан., д. 80, 1894. – 204 с.
2. Qo'ng'urov, R., Begmatov, E., Tojiyev, Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: T: "O'qituvchi", 1992. – B.6.
3. Блох М. Я., Фрейдина Е. Л. Публичная речь и ее просодический строй. – М.: Прометей, 2011. – С. 8.
4. Лоценкова Р. Х. Роль ораторского искусства в повышении культуры общения в современном российском обществе // Вестник Башкирского университета. - 2009 - Т 14 № 2 - С. 553-554.
5. Лоценкова, Р. Х. "Ораторское искусство как социальное явление." Вестник Башкирского университета, т. 14, № 3. 2009, с. 913-914.
6. Лоценкова Р.Х. Ораторское искусство как социокультурный феномен: диссертация ... кандидата философских наук: 09.00.11 / Лоценкова Римма Халиулловна; [Место защиты: ГОУВПО «Башкирский государственный университет»]. — Уфа, 2010. с- 15
7. Замалетдинова Г.Ф. Основы риторики: учебно-методическое пособие . Казань:Изд-во Казан ун-та, 2016. С- 18.
8. Аннушкин В.И. Риторика. Вводный курс: учебное пособие. – 3-е изд. Москва:Флинта, 2008 – 290 с.
9. Кошанский Н. Ф. Общая риторика. –3-е изд. Москва:СПб., 1834, с. 3- 42
10. Лоценкова Р. Х. Роль ораторского искусства в повышении культуры общения в современном российском обществе // Вестник Башкирского университета. - 2009 - Т 14 № 2 - С. 553-554.
11. Лоценкова Р. Х. Роль ораторского искусства в повышении культуры общения в современном российском обществе // Вестник Башкирского университета. - 2009 - Т 14 № 2 - С. 553-554.



UDK: 811.512.133'373 + 39:81'42

Soxibaxon MELIBAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU tayanch doktoranti
@Melibaevashiba93@gmail.com

Fil.f.d M.Saparniyazova taqrizi asosida

THE PHENOMENON OF IDENTIFICATION AND EUPHEMIZATION IN UZBEK ANTHROPNYMICS

Annotation

In linguistics, there are such cases known as taboo and euphemization, in which the use of the name of various phenomena is prohibited, and in their place another word in a positive sense, corresponding or close to this concept, is used. This article deals with issues such as the taboo phenomenon found in anthroponyms, the causes that cause such a state of affairs and the involvement of these in the national-culture of the people. The process of euphemization, its importance is explained to some extent along with the reasons.

Key words: taboo, euphemization, national culture, anthroponyms, prohibition, extralinguistic factors, religious belief, nickname-name, patronymic.

ЯВЛЕНИЕ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ЭВФЕМИЗАЦИИ В УЗБЕКСКОЙ АНТРОПНИМИКЕ

Аннотация

В языкознании известны такие случаи, как табу и эвфемизация, при которых запрещается употребление названия различных явлений, а вместо них употребляется другое слово в положительном смысле, соответствующее или близкое к этому понятию. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как явление табу, встречающееся в антропонимах, причины, вызывающие такое положение вещей, и вовлеченность этих в национальную культуру народа. Процесс эвфемизации, его значение в той или иной степени объясняются вместе с причинами.

Ключевые слова: табу, эвфемизация, национальная культура, антропонимы, запрет, экстралингвистические факторы, религиозные убеждения, прозвище-имя, отчество.

O‘ZBEK ANTROPONIMIKASIDA TABULASHISH VA EVFEMIZATSIYA HODISASI

Annotatsiya

Tilshunoslikda tabu va evfemizatsiya deb nomlanuvchi shunday holatlar borki, bunda turli hodisalar nomini ishlatish ta'qiqlanadi va ularning o'rniga ijobiy ma'nodagi, shu tushunchaga mos yoki yaqin bo'lgan boshqa bir so'z ishlatiladi. Ushbu maqolada antroponimlarda uchraydigan tabu hodisasi, bunday holatni yuzaga keltiruvchi sabablar va bularning xalq milliy-madaniyatiga aloqadorligi kabi masalalar haqida so'z boradi. Evfemizatsiya jarayoni, uning ahamiyati sabablar bilan birga ma'lum darajada izohlanadi.

Kalit so'zlar: tabu, evfemizatsiya, milliy madaniyat, antroponimlar, ta'qiqlash, ekstralingvisik omillar, diniy e'tiqod, laqab-ism, himoyalovchi nom.

Kirish. Dunyo tilshunosligida har bir tilda onomastik tizim birliklari tadqiqat dolzarb muammolaridan sanaladi. Onomastik birliklar etnos timsolida dunyoning mavjud modelini belgilashga asos bo'ladi. Ma'lum tilga xos nomlar (onimlar) zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biridir. Onimlar nafaqat nominativ ma'noning tashuvchisi, balki shuningdek, hududning tili, geografiasini va tabiati, tarixi va urf-odatlarini haqida juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda ilm-fanning barcha sohalarida bo'lgani singari o'zbek tilshunosligida ham chuqur ilmiy asoslangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lgan antroponimlar tizimi, bu tizimga mansub birliklarning lisoniy jihatlari davr talablari darajasida o'rganish borasida ham qator ishlar qilinmoqda. Jumladan, o'zbek tili birliklari lingvomadaniy aspektda chuqur tadqiq etilmoqda. Respublikamiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni milliy tilimizni zamonaviy tadqiq usullarida chuqur o'rganishni taqozo qiladi.

Antroponimlarda kuzatiladigan tabu va evfimizm hodisasi bevosita xalqimizning milliy-madaniy an'analari, turmushi, dunyoqarashi bilan bog'liq.

Tabu (polinezcha - "ta'qiqlash") atamasiga O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi quyidagicha tushuntirish beradi:

Ibtidoiy jamiyat bosqichidagi xalqlarda tarqalgan ta'qiqlash tizimi.

Tilshunoslikda muayyan so'zlar, iboralar yoki atoqli otlarni qo'llashni ta'qiqlash, man etish.

Ibtidoiy davrlarda tabiat hodisalarining sirini bila olmagan inson qo'rquv uyg'otadigan sehrli va zararli yovuz kuchlardan, jin, arvohlardan, ofatli kasallik va yirtqich hayvonlardan saqlanishning yagona chorasi ularning nomini aytishni man etish, atamaslik deb tushungun. Ayniqsa, kishi nomiga nisbatan tabu keng tarqalgan. Masalan, o'lgan kishining nomini, dohiy yoki podshohning, ma'budalarning nomini va ba'zi qarindoshlar (qaynota, qaynona, er,

qaynog'a)ning nomini aytish, ularni ovoz chiqarib chaqirish ta'qiqlangan va bunday atoqli otlar tegishli tavsifiy iboralar yoki boshqa nomlar bilan almashtirilgan. Ovlanadigan, tirikchilik manbasi bo'lgan hayvon nomlari, kishini seskantiradigan jonivorlar va boshqa voqea-jarayonlar ham ba'zan tabulashirilgan. Masalan, chayon so'zi o'zbek shevalarida eshak, benom, gazanda, ayriqyuruq, beshbo'g'in va boshqa nomlar bilan atalgan, hozirgi tillarda o'lim haqida, og'ir kasallik haqida to'g'ridan to'g'ri gapirmaslik, yoqimsiz, noxush narsalarni eslash, eslatishdan qochish odatini ham tabuga kiritish mumkin. Tabu so'zlar o'rniga boshqa so'zlar- evfemizmlar zarur bo'ladi, boshqa tillar singari, o'zbek tilida ham bunday so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Antroponimlarda tabu hodisasi yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi, xalqning milliy madaniyati, tafakkuri, e'tiqodiga bog'liq bo'lgan bir necha holatlar mavjudki, natijada kishilarga maxsus qo'yilgan nomlar o'rniga boshqa nomlar bilan yuritilish, bir insonga bir necha ismlilik xos bo'lib qolish holati namoyon bo'ladi. Bunga quyidagi sabablarni keltirib o'tamiz. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa yaqinlari nom tanlashayotganda diniy e'tiqodlaridan kelib chiqib bolaga payg'ambarlar, avval o'tgan aziz avliyolarining ismlarini orzu-havas bilan o'z farzandlariga qo'yadilar. Lekin bunday ismlar bolaga og'irlik qilishi mumkin deb hisoblab, chaqaloq biroz ulg'aygunga qadar uni boshqa ism, ya'ni nom bilan nomlaydilar. Natijada, bolada ikki ism paydo bo'ladi. Keyin qo'yilgan ismlar ham bolaning barcha atrofidagi kishilari tomonidan yaxshi o'zlashtiriladi. Masalan, Muhammad nomi bilan boshlanuvchi ismlar, Muso, Idris, Ayyub, Yahyo va boshqa shu kabi payg'ambarlar ismidan olingan nomlar bilan bog'liq.

Yana shunday holatlar borki, yosh farzand tanasida ma'lum bir belgi, dog' bilan tug'ilgan bo'lsa va vaqlar o'tishi bilan bu farzandning tanasidagi dog' hajmi kattalashib, ko'payib borsa, yoki shu dog' tanadan yo'qolib ketsin degan maqsadda ota-ona yoki farzandning yaqinlari bolaga tug'ilganda niyat qilib tanlab qo'yishgan ismidan ma'lum muddat voz kechib, boshqa nom bilan atashga majbur

bo'ladilar. Aslida o'zbek xalqi antroponimiyasida qadimdan bolaga ism tanlashda bevosita xalqimizga xos bo'lgan madaniy urf-odatlar, e'tiqodi, dunyoqarashi, davr bilan bog'liq tuzum kabilardan kelib chiqqan holda ism beriladi. Tanasida qizil dog' bilan tug'ilgan farzandlarga Anor, Anora, Anorxon, Anorboy, Norxo'ja; tanasida sezilarli xoli bilan tug'ilgan chaqaloqlarga Xolida, Buxolida, Xoldor, Xolmo'min, Xolbeka, Xolbek, Xolboy, Xoljon, Xolxon, Tojiniso, Tojimurod, Tojdor kabi ismlar berilishi farzandga ism tanlashdagi milliy urf-odatlariga bevosita bog'liq. Lekin yuqoridagi kabi tanada ma'lum bir dog'lar bo'lishiga qaramay chaqaloqqa boshqa ism berish holatlari ham juda ko'p kuzatiladi. Ammo ayrim farzandlarning yaqinlari chaqaloqning tanasidagi dog' hajmi kattalashmasin yoki butunlay yo'qolib ketishini farzandni shunga mos ism bilan chaqirishga bog'liq hodisa deb tushunishadi va boshqa ism bilan atay boshlaydilar. Masalan, ayrim boshqa ismli qizlarga tanasida qizil dog' mavjudligi sabab Anora deb murojaat qilinadi. Natijada tabu hodisasi yuzaga kelgan va farzandning qonuniy ismi yaqinlari tomonidan deyarli unutilib, Anora deya ikkinchi nom bilan murojaat qilingan. Yoki boshqa bir ismli qizlarga tanasidagi xolning hajmi kattalashib ketishidan xavfsiragan holda, ma'lum muddat uni Xolida deya nomlanish odati mavjud. Bu kabi an'ana va milliy qadriyatlar kishilarning dunyoqarashi, madaniyati orqali vujudga keladi.

Xalqimizda tabu holatining yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi yana shunday omillar borki, chaqaloq yangi tug'ilganda ota-onasi yoki yaqinlari tomonidan qo'yilgan ayrim ismlarning ma'nosi diniy jihatdan ta'qiqlangan ma'no kasb etishi barobarida, keyinchalik norasmiy holatda bu kabi ismlar o'rniga boshqa bir nom bilan ataladilar.

Bolaning asl ismi tilga olinmay, unga keyinchalik berilgan laqab-ismni aytib unga murojaat qilingan. Mana shunday hollarda bordi-yu bolaning ismini so'rab qolsangiz, oila a'zolari asli ismi boshqa ekanini, uni boshqa nom bilan chaqirishlarini aytishadi.

Bolaga dunyoga kelishidan avvalroq olamdan o'tgan yaqin marhum yoki marhumaning qarindoshlik munosabatini ifoda etadigan so'zlarni aytish orqali murojaat qilishgan. Masalan, "bobojon", "dadaxon", "dadajon", "buvijon" va boshqa. Mana shunday qavm-qarindoshlik terminlari bolaning asl ismi o'rnida ko'p bor tilga olingani tufayli keyinchalik shu nomlar atoqli ot darajasiga ko'tarilgan. Hozirgi o'zbek ismlari lug'ati tarkibidagi Bobojon, Buvijon, Dadaxon, kabi ismlar ana shunday yo'l bilan yuzaga kelgan. Hozirda, hatto bunday ismlar rasmiy ravishda shaxsning fuqarolik pasporti va boshqa hujjatlarida qayd qilingan. Shaxsning dastlab berilgan asosiy nomi tilga olinmasligi tufayli ikkinchi nom tomonidan iste'moldan siqib chiqarilgan.

Bolaga marxum qarindoshning ismi qo'yilsa, bu ismga munosabatning o'ziga xos qonun-qoidalarga amal qilish lozim bo'lgan milliy-madaniy udumlar bor. Bordi-yu, qizga marxum buvisining ismi berilsa, uning nomini aytib chaqirmaydilar. Bunday bolani ismini aytib ko'yish va urish ham man qilinadi. Bunga amal qilinmasa, marxum bobosi yoki buvisi (momosi)ning ruhi ranjiydi, bu bolaga baxtsizlik keltirishi mumkin, deb o'ylashadi. Masalan, Bobojon Parpiyevning ismi Yunus bo'lgan. Yunus ismi bobosiga tegishli edi. Shu sababli oiladagilar marxum bobo ranjimasin deb

bolani Bobojon deb chaqirishgan. Natijada laqab ismi iste'moldan siqib chiqqan va Bobojon deb atash odat bo'lib ketgan.

Yana tabu hodisasini yuzaga keltiruvchi, milliy urf-odatlarimiz, xalqimiz mentalitetiga, turmush-tarzi xos bo'lgan shunday holat borki, bolaning asl ismi tilga olinmaydi. Unga oila a'zolari, yaqinlari o'zlari o'ylab topgan so'z va so'z birikmalari orqali murojaat qilishadi. Masalan, Polvon, Bek, Mullayigit, Oyqiz, Poshsha va boshqalar.

Surxondaryonig tog'li hududlarida yashovchilar marhum qarindosh nomi qo'yilgan bolaga uning asl ismini aytmay, Bobo, Ota, Amak (amaki), Kata (katta), Kalon Bobo (erkalab Boboyka), qiz bo'lsa, Moma, Ona, Amma (erkalab ammaska) deb murojaat qilishadi.

Inson ismini sehrli (magik) kuchga ega deb bilish, chaqaloqqa berilgan ismning unga mos kelmayotgani, og'irlik qilayotganiga ishonish, bola ismini boshqasi bilan almashtirishda ham yorqin ko'rinadi. A.Omonturdiyev ushbu udumning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Rasmiy nom bilan yashayotgan bola yoki o'smir surunkali kasal bo'laversa (xususan, Alloh, payg'ambar, avliyo yoki umuman, buyuklar nomi bilan atalgan bo'lsa, nomini ko'tarolmaydi deb hisoblanib), ismi o'zgartiriladi yoki u kamtarona evfemik bir nom bilan almashtiriladi. Natijada bola qo'shaloq nom (biri rasmiy, biri evfemik atama)ga ega bo'lib qoladi. Bu nomning ikkinchisi himoyalovchi ism sifatida faollashib ketadi.

Tabu hodisasi kuzatiladigan holatlarni professor E.Begmatov "Ismlarning sirli olami" nomli kitobida quyidagicha sanab o'tgan. Nomini tilga olish ta'qiqlanuvchi narsalar, jonzotlar, asosan, quyidagilar:

- ba'zi hayvonlar nomi;
 - ba'zi qushlar nomi;
 - ba'zi jonzot va hasharotlar nomi (ilon, chayon, biy); ba'zi daraxt va o'simliklar nomi;
 - ba'zi tabiiy va sun'iy obyektlar nomi (qoyalar, daryolar, buloqlar);
 - ba'zi aziz va muqaddas deb hisoblanuvchi shaxslar nomi;
 - bolaga ism sifatida qo'yilgan ba'zi marxumlar ismi;
 - oila, urug'dagi yoshi ulug' kishilar, qariyalar ismi;
 - ayollar, ayniqsa, kelinlarning oiladagi va erining avlodidagi katta va kichiklarga ismini aytib murojaat qilmaslik;
 - er-xotin orasidagi munosabatda bir-birining ismini aytmaslik;
 - shogirdlarning o'z ustozisi ismini tilga olmasligi;
 - oliy toifaga mansub, boy-badavlat kishilarga ularning ismini aytib murojaat qilmaslik;
 - kasb-hunar sirlariga oid ba'zi tushunchalarni ifoda etadigan so'zlar begonalar oldida tilga olinmay, u boshqa leksemalar bilan almashtiriladi;
 - chaqaloq badanidagi notabiiy belgini yashirish, uni boshqa nom bilan atash va boshqalar.
- Shunday qilib, cheklangan yoki mutlaq deb tushuniladigan lingvistik tabu ekstralingvistik omillar bilan belgilanadigan so'zlardan foydalanish vaqti: diniy va ijtimoiy an'analar, kasalliklardan qo'rqish, ismning sehrli kuchiga ishonish va boshqa tashqi kuchlarning ta'sirida kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni // Lex.uz
2. Begmatov E.A. Ism chiroyi. – Toshkent: Fan, 1994.
3. Begmatov E.A. Nomlar va odamlar. – Toshkent: Fan, 1996.
4. Begmatov. E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
5. Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутк эвфемикаси. — Т.: «Фан», 2006.
6. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.–Toshkent:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, 2004.



UDK: 811.512.133'271

Yulduzxon MIRZAAXMEDOVA,
“University of economics and pedagogy” NOTM dotsenti, PhD
E-mail:mirzaaxmedovayulduz@gmail.com

ADU professori, f.f.d Sh.Shaxobidinova taqrizi asosida

SOCIALLY CONDITIONED MANIFESTATIONS OF GENDER CHARACTERISTICS

Annotation

This article describes the views on the emergence of social differences in gender-differentiated discourses. The gender of certain discourses has a social character at the same time. The theoretical foundations of the analysis of these characteristics are considered in the article. Socially conditioned manifestations of gender characteristics.

Key words: social conditioning, gender, discourse, gender, feminism

СОЦИАЛЬНО ОБУСЛОВЛЕННЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ГЕНДЕРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ

Аннотация

В данной статье изложены взгляды на возникновение социальных различий в гендерно-дифференцированных дискурсах. Гендер некоторых дискурсов имеет в то же время социальный характер. В статье рассматриваются теоретические основы анализа этих особенностей.

Ключевые слова: социальная обусловленность, гендер, дискурс, гендер, феминизм.

GENDER XUSUSIYATLARNING IJTIMOYIY SHARTLANGAN KO'RINISHLARI

Аннотация

Ushbu maqolada gender farqlangan diskurslarda ijtimoiy farqlarning yuzaga chiqishiga doir qarashlar bayon qilingan. Muayyan diskurslarning gender tusi bir vaqtning o'zida ijtimoiy xoslanganlikka ham ega. Maqolada bu o'ziga xosliklarni tahlil qilishning nazariy asoslari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy shartlanganlik, gender, diskurs, jins, femenistikachiqlgan.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tatbiqiy yo'nalishlarga qiziqish toboro ortib bormoqda. XXI asr an'alariga ko'ra, har qanday fan singari tilshunoslik ham iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlikka intilib bormoqdaki, bu o'z-o'zidan tatbiqiy yo'nalishlarga ehtiyojni oshiradi. Ana shunday yo'nalishlardan biri bu gender tilshunosligidir. N.A.Bloxinaning ta'kidlashicha, “jins” (biologik jins) va “gender” (ijtimoiy-madaniy jins) atamalarini o'rtasidagi farq fanga psixolog Robert Stoller va endokrinolog Jon Moni tomonidan kiritilgan. Dastlabki, bir oz mavhum va hozirgacha tadqiqotchilar tomonidan tan olinadigan gender nazariyasi ta'rifida esa Ann Oakliga tegishli. “Jins” (sex) – bu erkak va ayol o'rtasidagi biologik farqlar bilan bog'liq bo'lgan so'z: jinsiy a'zolaridagi aniq farq, reproduktiv funksiyaga tegishli farq. “Gender” (gender) esa madaniy mavzu predmetidir: “erkak” va “ayollik” feminlik va muskulinlik tushunchalarining ijtimoiy tasnifi bilan bog'liq. Gender barqarorlik qanday tan olinsa, gender xilma-xilik ham shunday tan olinishi lozim [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tag'lili. Insoniyatning tasnifi borasidagi eng yaqqol oppozitiv belgi bu jinsdir. Inson dunyoqarashining ifodasigina emas, shakli ham bo'lgan tilda bu oppozitsiya qanday ifoda topgan? L.N.Pushkarevaning yozishicha, qadimgi olimlar ham grammatik rod va biologik jins o'rtasidagi bog'liqlik haqida o'ylashgan, biroq uzoq vaqt davomida (shu jumladan O'rta asrlarda) grammatik rod (genus) tushunchasi tabiiy hodisa – erkak va ayol jinsini (nar va moda) sifatida aks ettirish bilan uzviy bog'liq deb hisoblaganlar. Shuning uchun mujskoy rod ifodalaydigan nomlarda kuch, energiya, shijoat, faollik aks etsa, jenskiy rodga kiruvchi otlarda – passivlik, zaiflik, orzemandlik va gunohkorlik bilan bog'liq so'zlar ifodalanadi, deb ishonganlar. Biroq keyinchalik jins umuman lisoniy farqlanmagan yoki “mujskoy rod” va “jenskiy rod” ikkita alohida lisoniy variant sifatida mavjud bo'lgan tillar kashf qilindi. Shuning uchun hozirgi vaqtda otlarning jins kategoriyasiga sof lingvistik kategoriya sifatida qaraladi, ya'ni muayyan kelishik qo'shimchalarini qabul qilishi va o'ziga xos moslashish xususiyatlariga ega so'zlar sinfi sifatida qabul qilinadi. Mujskoy va jenskiy roddan tashqari, til va ongda “jins” tushunchasi mavjud – erkak va ayol. Bu faqat jonli narsalarga tegishli. Jins jonli narsalarni bildiruvchi otlarning ikki toifasidir: odamlarda – erkaklar va ayollar, hayvonlarda – nar va moda; bu insonning irodasidan tashqarida bo'lgan biologik tabiiy hodisadir [2].

Bu va shu xil boshqa qarashlarni jamlovchi atama borasida to'xtalib o'tsak.

“Gender” atamasi, A.V.Kirilina yozganidek, tilshunoslikdan (inglizcha gender – grammatik rod kategoriyasidan) olingan va ijtimoiy falsafa, sosiologiya, antropologiya, tarix, shuningdek siyosiy munozara kabi fanlarning tadqiqot maydoniga ko'chirilgan. Ko'chirish uni sexus (sex) (jins) atamasi – biologik jins bilan taqqoslash uchun amalga oshirildi, chunki bu tushuncha nafaqat tabiiy determinizm bilan, balki erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlar bilan, mehnatning jinslararo taqsimoti, teng bo'lmagan talablar va jamiyatning erkaklar va ayollarga bo'lgan munosabati bilan bog'liqdir [3].

Bu tushunchaning kelib chiqishi jamiyatning qanday ehtiyojlari bilan bog'liq? N.A.Bloxina gender tushunchasini sivilizatsiya rivoji bilan bog'laydi: jinslararo rollardagi stereotiplarning o'zgarishi odamning, masalan, erkak jinsiga mansub bo'lgan odam jamiyatda ayolning gender rolini o'ynashi mumkinligiga olib keladi (erkakning uyda bolalarga qarab o'tirishi) [4].

I.I.Bulichevning ta'kidlashicha, jinslararo ijtimoiy farqlar ibtidoiy voqelikka borib qadaldadi: “Jins (biologik jins) va gender (ijtimoiy jinsni) bir-biridan ajratish ibtidoiy jamiyat doirasida sodir bo'lgan. Jamiyatning genezisi va insoniyat shakllanishining dastlabki bosqichlarida voqelikning gender manzarasi erkak va ayol mavjudligining feminlik va maskulinlik usullari erkaklar va ayollarning sof biologik xususiyatlariga mos kelishi yoki kelmasligi mumkin. Gender identifikatsiyasi uchun bu empirik ravishda belgilangan jins tushunchasi emas, balki er yoki xotinning haqiqiy ijtimoiy mansubligi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu (biologik bo'lmagan) jins sifatida ijtimoiy genderning mustaqil xususiyatini ko'rsatadi. Ularning zamonaviy dunyodagi tafovuti iqtisodiy, demografik va boshqa omillarga bog'liq” [5].

Aksariyat xorijiy mualliflar feministik nazariyotchilar tomonidan ishlab chiqilgan ayollar tarixining so'zsiz gender bilan bog'liqligini e'tirof etishlari bilan ajralib turadilar. 80-yillardagi dastlabki tadqiqotlarda gender tarixi yoki jinslar tarixi yangilangan va to'ldirilgan ayol tarixi degan fikr ko'pchilik tomonidan ta'kidlangan. Keyinchalik olib borilgan tadqiqotlarda ushbu yo'nalishlarning aniq chegarasi ko'rinishga boshlandi. Bu, ehtimol, ma'lum bir mustaqillikning gender tarixi va uning ilmiy doiralarda tan olinishi bilan bog'liqdir. “Ayollar tarixi” fandagi feministik yo'nalish bo'lib, maqsadi “ayollar tarixi”ni erkaklar tarixidan ajratib ko'rsatishdir: masalan, S. Orner, M. Devin, M. Rosaldo ayollarning tarixdagi rolini ko'rsatishga intildi. Bu yo'lda ko'pincha ilmiy ob'ektivlikka putur etdi: tarixda erkak va

ayol rollarining tengligini isbotlash istagi dalillarining buzilishiga olib keldi [6].

Feministlar jamiyatda patriarxiya ustunlik qiladi va barcha matnlar va diskursiv amaliyotlar patriarxal, ya'ni erkaklarga oid qadriyatlarini shaxslarga singdiradi degan tezisini ilgari surdilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda kuzatish, so'rovnoma o'tkazish va statistik metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Gender tadqiqotlari ayollarga oid tadqiqotlar doirasida boshlandi. Ayollar tadqiqotlaridan farqli o'laroq, gender tadqiqotlarida ikkita ob'ekt bor – erkak va ayol. Agar ayollarning tadqiqotlari maqsadi faqatgina ayollarni o'rganish bo'lsa, gender tadqiqotida markaziy nuqta – bu gender farqlar va o'xshashliklarni, birinchi navbatda, jinsni ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini prizmasida o'rganishdir [7].

Feministik tadqiqotlar ayollarning jinsi, hayoti va yashash sharoitlari hamda erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlarga bag'ishlangan. Feministik tadqiqotlar tadqiqot jarayonini tubdan siyosiy lashtirish bilan tavsiflanadi. Gender tadqiqotlarida bunday aniq siyosiy yuk bo'lmaydi. Keyinchalik, "gender" tushunchasi tilshunoslik doirasiga kirib keldi. "G'arb fanida hozirgi kunga qadar jinsi aqliy tuzilma sifatida ko'rib chiqish masalasi bo'yicha bir fikrga kelinmadi. Ya'ni jinsning ijtimoiy-madaniy funksiyalarini belgilaydigan va bu funksiyalarni biologik yoki ijtimoiy konstruksiyadan ajratishga imkon beradigan ilmiy ta'rif. Ikkinchi holda, gender kamida to'rtta xususiyat guruhini nazarda tutadi: biologik jins, jins-rol (yoki shuning uchun jins) stereotiplari, gender-rol me'yorlari va jins-rolning o'ziga xosligi. Amerikalik sosiologlarning asarlarida so'nggi uchta xususiyat ba'zan (I. Xofmanning ortidan) "jinsning madaniy tarkibiy qismlari" ning turli xil namoyon bo'lishiga, ya'ni stereotiplar va jamiyat tomonidan o'rnatilgan ijtimoiylashuv va identifikatsiya usullari jinslar normalariga bog'liq bo'lgan "gender namoyishi" deb nomlanadi" [8].

Ushbu masala bo'yicha shug'ullanayotgan tadqiqotchilar safi yildan yilga kengayib bormoqda. O'zbekistonda genderni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari bo'lishi shubhasiz. O'zbek tilshunosligida til birliklari tavsifida jins belgisi neytral tadqiqotlar ustunlik qiladi. Buning bir necha sabablari bor. Xususan, o'zbek tilida gender mazmunli maxsus kategoriyalarning mavjud emasligi, gender farqlarga e'tibor nafaqat o'zbek, balki gender ko'rsatkichlarga ega tilshunosliklarga ham an'anaviy xos bo'lmagani, tatbiqiy-amaliy tilshunoslik yo'nalishlarining endi rivojlanish boshlagani kabilar bilan bog'lanadi. "Gender" atamasining o'zi ham tilshunosligimiz uchun yangi, o'zining paydo bo'lish tarixi, o'zining murakkab foydalanish an'analarga ega tilda bu termin bo'lmagan. Shu munosabat bilan bizning gender tadqiqotlarimiz muqarrar ravishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Xorijiy tilshunoslikda gender yo'nalishlari shakllandi, bir tomondan, tilda qayd etilgan feminlik va muskulinlik stereotiplari, shuningdek, gender assimetriyasi, ikkinchi tomondan, erkak va ayollarning nutqiy xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganila boshlandi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab gumanitar fanlarda gender tadqiqotlarga qiziqish kuchayib ketdi. Bu insoniyatning ma'lum bo'lgan tarixida eng farovonlikka erishgan davri tomonidan qo'yilgan talab edi. BMT Taraqqiyot dasturiga ko'ra inson rivojlanishining tarkibiy qismlariga samarali mehnat, jamiyat hayotiga tegishli masalalar bo'yicha qaror qabul qilishda kishilarning vakolatlarini va ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, rivojlanish barqarorligi hamda barcha odamlar uchun imkoniyatlar va tanlovning tengligi kiritiladi [9].

O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishdagi tadqiqotlar yangilik bo'yog'ini yo'qotmagan bo'lsa-da, bu borada salmoqli izlanishlar ham mavjud ekanligini rad etib bo'lmaydi. Xususan, keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida yaratilgan bir qator tadqiqotlar ichida prof. S.Mo'minov ishlari alohida o'rin tutadi. U o'z tadqiqotlarida o'zbek

nutqiy muloqotining erkaklar va ayollarga xos jihatlarni yorqin misollar bilan ochib bera olgan [10].

Insonlarning guruhlariga – sinflarga bo'linishi va sinflar orasidagi muayyan raqobat insoniyat tarixining asosiy tashkil etuvchilaridir. Shu bilan birga jamiyatda ushbu sinflarning paydo bo'lishi va ijtimoiy bahosi o'zgaruvchan. Ayrim sinflar muayyan bosqichda etakchi bo'lsa, keyingi bosqichda etakchiligi qo'ldan boy berishi mumkin. Shu bilan birga jamiyatning guruhlariga tasnifi ham o'zgaruvchan. Ayrim guruhlar davrlar o'tishi bilan umuman ijtimoiy qatlamlar sirasidan chiqsa, ayrimlari yangi paydo bo'lib boradi. Ammo insonning antropologik belgilarga asoslangan guruhlar tarixining barcha bosqichlarida ham saqlanadi. Shunisi qiziqki, biologik-antropologik belgilar atrofida jamlangan guruhlarning ijtimoiy mavqei er yuzida tarixan va hozir mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzumlarda bir-biriga mohiyatan o'xshashdir, faqat tashqi shakli – o'zgaruvchan hamda o'tkinchi belgilariga ko'ra farqlanish mavjud bo'ladi. Bunday guruhlarning eng yaqqol ko'rinishi gender farqlanuvchi guruhlar – erkak va ayollardir. Erkaklar va ayollar orasidagi farq insoniyat tarixining barcha bosqichlarida ham yaqqol bo'lgan. Bu farqni yo'qotishga bo'lgan intilishlar odatda salbiy baholab kelingan. Erkak va ayollarning teng huquqligi, o'zaro munosabatlari masalasi har qanday ijtimoiy tuzumda ham dolzarb bo'lib kelgan. BMT tomonidan 25 noyabr ayollarga nisbatan jinsiy zo'rovonlikka barham berish kuni deb e'lon qilinishi ham bejiz emas [11].

Xulosa va takliflar. O'zbek jamiyatida gender farqlar nafaqat erkak va ayollar o'rtasida ko'rinadi, balki bir jins vakillarining ijtimoiy o'ziga xosliklaridan ham kelib chiqadi. Bir necha misollarga murojaat qilak:

Bo'yi etgan qizning orzusi osmondagi yulduzga o'xshaydi. Uzoqdan yaraqlab ko'rinadi-yu, na etasan, na tutasan. Yulduz esa o'lsida sirli-sirli miltirab turaveradi. Talpinasan, hech kimga bildirmay xayol surasan. Yulduzing yoningga tushishini orziqib kutasan. Kim bilsin, «yulduzi yulduziga to'g'ri keptin», degan gap balki shundan chiqqandir. Mening yulduzim – Kimsan akam edi [12].

Matndagi o'ziga xos verbal ifodalar – yulduz, sirli-sirli, «yulduzi yulduziga to'g'ri keptin»...yosh qizning nutqini tavsiflaydi.

Kimsan akamni kuzatganimizdan keyin ikki hafta o'tmay Xolposhola oyimning oldiga yig'lab chiqib qoldi.

– O'rgilay, ovsinjon! Cholim o'lgur yomon ish qildi. Shokirim bilan Zokirim urushga ketamiz, degan ekan, hovliqma deb yo'lga solish o'rniga o'zi etaklab voenkomatga oboribdi. Hech kimga aytmayjo'natib keldi. Bolalarim bilan rozi-rizolik ham tilasholmay qoldim, ovsinjon!

Oyim uni yupatishga urindi. – Nafasingizni issiq qiling, aylanay. Yurtga kelgan to'y. Mana, Kimsanim ham ketdi-ku! O'tiribman Yaratganga topshirib...

– Sizniki izzat-ikrom bilan ketdi. Bir kun bo'lsayam diydoriga to'yib qoldingiz. Mening cholim aqalli xayrlashganiyam qo'ymadi! «Yov quvdimi, muncha hovliqingiz», desam, «men belida belbog'i bor o'g'il o'stirganman!» deb keriladi. [13]

Bu parchada esa, O'rgilay, ovsinjon! Cholim o'lgur... rozi-rizolik ham tilasholmay qoldim, ovsinjon! Nafasingizni issiq qiling, aylanay. Yurtga kelgan to'y. O'tiribman, Yaratganga topshirib... izzat-ikrom bilan ketdi...

Bir kun bo'lsayam diydoriga to'yib qoldingiz. Mening cholim aqalli xayrlashganiyam qo'ymadi! «Yov quvdimi, muncha hovliqingiz»...ifodalari katta yoshli ayolga ishora qilmoqda.

Gender jihatlarni o'rganishda ularning ijtimoiy bahosini ham hisobga olish zarurati muayyan diskurslar tahlilida yaqqol namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Блохина Н.А. Понятие гендера: становление, основные концепции и представления // Общество и гендер. – Рязань: АВГ, 2003. – С.302.
2. Пушкарева Н.Л. Женщина. Гендер. Культура. – М.: Терра, 1998. – Б.19.
3. Кирилина А.В. Некоторые итоги гендерных исследований в российской лингвистике // Гендер: Язык, Культура, Коммуникация. Материалы
4. Третьей Международной Конференции. – М., 2003. – С. 12.
5. Блохина Н.А. Понятие гендера: становление, основные концепции и представления // Общество и гендер. – Рязань: АВГ, 2003. – С.302.
6. Булычев И.И. Образы маскулинности и феминности в формате гендерной картины мира // Credo, № 1, 2004.- С.45.
7. <https://konspekt.com/referat-24215-doklad-gendernye-issledovaniya-v-zarubezhnoj-i-rossijskoj-lingvistike>.
8. <https://libr.link/knigi-pedagogika/soderjanie-otlichie-ponyatiy-gendernye-75689.html>; <http://www.med24info.com/books/gendernaya-terapiya-spravochnik-prakticheskogo-psihologa/gendernye-issledovaniya-15741.html>;

9. <https://arzamas.academy/materials/959>
10. Пушкарева Н.Л. Женщина. Гендер. Культура. – М.: Терра, 1998. – Б.18.
11. Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Samarqand, 1993. – 140 b.; Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2000. – 236 b.;
11. Kaxarov Q. O'zbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2020. – 148 b.
12. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016 – B.155



Zulxumor MIRZAYEVA,
Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d
E-mail: zmirzaeva1313@gmail.com

ToshDO'TAU professori, f.f.d N.Jabborov taqrizi asosida

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARINI YANGICHA O'QISH TAJRIBASI

Аннотация

Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasi jahon adabiyotshunosligidagi yangi "kitobxon javobi" nazariyasi asosida tahlil qilinib, milliy adabiyotshunoslikda mavjud qarashlardan farqli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: retseptiv estetika, ramz, ruhiy-emotsional holat, mutolaa, antologiya

НОВЫЙ ПОДХОД ЧТЕНИЯ РАССКАЗОВ АБДУЛЛА КАХХОРА

Аннотация

В данной статье рассказы Абдулла Каххора «Страх» анализируются на основе новой теории и делаются новые выводы отличные от существующих взглядов в узбекском литературоведении

Ключевые слова: рецептивная эстетика, символ, психоэмоциональное состояние, чтение, антология.

A NEW APPROACH TO READING THE STORIES OF ABDULLA KAHHOR

Annotation

In this article, Abdulla Kahhor's story "Fear" is analyzed based on a new theory and is made new conclusions which completely differ from the ideas existing in Uzbek literary criticism

Key words: receptive aesthetics, symbol, psycho-emotional state, reading, anthology.

Kirish. Badiiy asarning yashovchanlik xususiyatlaridan biri undagi haqiqatlarning mutlaqlashmaganligi bilan belgilanadi. Abdulla Qahhorning ayrim asarlaridagi badiiy-g'oyaviy xulosalarning turfaligi, yozilganidan yozilmaganining muhimligi, har bir yangi davr, ijtimoiy-siyosiy muhit uchun fikr, g'oya beraverishlik xususiyati asarlariga qayta va qayta murojaat qilish ehtiyojini tug'diraveradi.

1960-70-yillarda paydo bo'lgan retseptiv estetika ("o'zlashtirish esitakasi", "kitobxon javobi", reader response theory) nazariyasi Qahhor asarlarida ham yangi xulosalarni keltirib chiqarishida muhim ahamiyat kasb etadi. Retseptiv estetikaning muhim xususiyatlaridan biri badiiy asar haqidagi xulosalar o'quvchi va matn munosabatiga, o'quvchi tafakkuri dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni o'qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatiga asoslanadi. O'quvchi o'z fikrlari bilan, badiiy matn mantig'iga tayanib, uning "yozilmagan qism" larini yaratadi. Bunda badiiy asardagi ma'no(lar) yoki muallifning badiiy-g'oyaviy konsepsiyasi emas balki badiiy asarning o'quvchi tuygulari, emotsional holatiga ta'siri, kechimplari natijasidagi individual xulosalar kashf qilinadi. Kitobxon javobi nazariyasiga ko'ra retseptiv matn mutolaa qilish jarayonida o'z o'tmishi va kelajagida sodir bo'lgan va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarni taftish qiladi, asar voqeligi ta'sirida yoki mazkur voqea-hodisaga muvofiq muayyan maqsadlari, umidlarini qayta shakllantiradi, avvalgilarini esa qayta chig'riqdan o'tkazadi. Badiiy asar qayta o'qilganda avvalgilardan boshqacha taassurotlar qoldiradi. Oqibatda har bir yangi mutolaa yangicha nuqtai nazarlarga, qarashlarga yo'l ochaveradi. Birgina kitobxonning o'zida ham biri-ikkinchisini inkor qiluvchi turfa qarashlar shakllanadi. Mutolaa faol jarayonga aylanadi. Ayniqsa, yangi qarashlarning tug'ilishida o'quvchining asarni o'qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holati muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoqarash, hayotiy tajriba, ko'nikmalar, avvalgi bilimlar yig'indisi ham matnga "begona" qarashlarni tug'ilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asr o'zbek adabiyotini Abdulla Qahhorsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uning turfa janrlarda yaratgan asarlari hamma darvlarda birdek adabiyotshunoslar e'tiborida bo'lgan, ijodi tahliliga oid ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Hafiz Abdusamatov, Matyoqub Qoshjonov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Sanjar Sodiqov va yana ko'plab olimlar yozuvchi ijodiga xos muhim xususiyatlarni tahlil qilib, uning o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi xizmatlarini ilmiy asosda ochib bergan. Abdulla Qahhor ijodi Ilza Sirtautas, Xristofor Fort, Gexard Dudek, Konstantin Simonov kabi xorijlik olimlar tomonidan ham o'rganilgan, asarlari ingliz, ispan, nemis, polyak, fransuz, yunon, vyetnam tillariga tarjima qilingan. Mazkur tarjimalar yozuvchini xalqaro miqyosda tanilishiga

hamda o'zbek adabiyotining jahondagi nufuzini ko'tarishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Abdulla Qahhorning "O'g'ri", "Dahshat", "Bemor", "Anor" kabi tarixiy hikoyalari bir qarashda totalitar davr mahsuli sifatida taassurot qoldiradi, chunki sho'rolar mafkurasi asosida shakllangan sotsialistik realizm metodining muhim talablaridan biri "o'tmishni qoralash, chirkin xususiyatlarni fosh qilish, tarixni ideallashtirmaslik" dan iborat edi. Qahhor ham mana shu tamoyilga ergashib, o'sha davrning farzandi, iste'dodli yozuvchisi sifatida atrofidagi voqea-hodisalarni badiiy o'zlashtirishi, muayyan ijtimoiy omillar ta'sirida asarlar yaratganligini tabiiy holat deb qabul qilish lozim. Ikkinchidan, Qahhor hikoyalardagi fojeaviy voqealar yozuvchi fantaziyasi emas balki o'zi yashagan og'ir ijtimoiy turmush, zamonasining dahshatli illatlarini badiiy in'ikosidir. E'tiborli jihati Qahhor bu fojealarni o'z uslubida talqin qilgan. Yozuvchi uslubidagi bu xoslik esa kichik voqeadan katta ma'nolar chiqarishdir. Asarning ontologik xususiyati ham undagi botiniy mazmun mohiyatining yashovchanligida, o'lmasligida, takror murojaat etish ehtiyojining mavjudligida, yangicha yondashuvlarga manba bo'la olishligi, yangicha tahlillarga yaroqligidadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola zamonaviy adabiyotshunoslik tamoyillaridan biri, nemis olimi Wolf Gang Iser asos solgan, matn strukturasi va strukturaviy faoliyat asosiga qurilgan "kitobxon javobi" (o'zlashtirish estetikasi) nazariyasi asosida tahlil qilingan. Qahhorning mashhur hikoyalaridan biri "Dahshat" ga xos yangi qarashlar qiyosi-tarixiy, empirik va pragmatik tahlil metodlari orqali ochiqqlangan.

Tahlil va natijalar. Abdulla Qahhor hayoti va ijodiy faoliyati turli xil mafkuralar, e'tiqodlar, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar davriga to'g'ri keldi. Mazkur evrilishlar zamonida barcha ijodkorlar singari Qahhor uchun ham e'tiqod - maslagini saqlab qolish, o'z istak-xohishlari, erki doirasida ijod qilish oson kechmadi. Uning ayrim asarlarida zamonasozlik ruhi sezilib turishi, Qahhor ham davr mafkurasi ta'sirida qator asarlar yaratganligi ham inkor qilib bo'lmaydigan haqiqat. Bunday asarlarning dunyoga kelishida birinchidan, Qahhor ham boshqa ijodkorlar qatorida sho'rolar va'da qilgan "baxtli turmush" ga ishongan, ikkinchidan, davrning shafqatsiz qatag'onlaridan omon qolish instinkti Qahhor uchun ham begona emasdi. Mana shunga o'xshash ob'yektiv, sub'yektiv omillar yozuvchiga sotsialistik realizm metodi talablariga mos keladigan "Bolsheviklar", "Qishloq hukm ostida", "Millatchilar", "Mirzo", "Ming bir jon", "Mahalla" "Sinchalak" kabi zamonasoz qissa va hikoyalari yozishiga rag'bat berdi.

Abdulla Qahhorning "O'g'ri", "Dahshat", "Bemor", "Anor" kabi tarixiy hikoyalari bir qarashda totalitar davr mahsuli sifatida

taasurot qoldiradi, chunki sho'rolar mafkurasi asosida shakllangan sotsialistik realizm metodining muhim talablaridan biri "o'tmishni qoralash, chirkir xususiyatlarni fosh qilish, tarixni ideallashtirishlik" dan iborat edi. Qahhor ham mana shu tamoyilga ergashib, o'sha davrning farzandi, iste'dodli yozuvchisi sifatida atrofidagi voqeahodisalarni badiiy o'zlashtirishi, muayyan ijtimoiy omillar ta'sirida asarlar yaratganligini tabiiy holat deb qabul qilish lozim. Ikkinchidan, Qahhor hikoyalardagi fojeaviy voqealar yozuvchi fantaziyasi emas balki o'zi yashagan og'ir ijtimoiy turmush, zamonasining dahshatli illatlari badiiy in'ikosidir. E'tiborli jihati Qahhor bu fojealarni o'z uslubida talqin qilgan. Yozuvchi uslubidagi bu xoslik esa kichik voqeadan katta ma'nolar chiqarishdir. Asarning ontologik xususiyati ham undagi botiniy mazmun mohiyatining yashovchanligida, o'lmasligida, takror murojaat etish ehtiyojining mavjudligida, yangicha yondashuvlarga materilar bo'la olishligi, yaroqligidadir.

Abdulla Qahhor hikoyalari, jumladan, "Dahshat" da ham g'oyalar yuzaki emasligi, ma'nolar, g'oyalarning ramzlarga burkab talqin qilinganligi bois har bir yangi jamiyat, ijtimoiy-siyosiy tuzum, yangi davr asar yuzasidan yangi savollar, noodatiy mulohazalarni keltirib chiqaraveradi. Masalan, kitobxon (zamonaviy kitobxon, ta'kid bizniki, ZM) javobi nazariyasi va Iserning dinamik o'qish haqidagi g'oyalari Unsinning erk uchun hayotini garovga qo'yib, o'ta og'ir shartni bajarishi bilan bog'liq voqelikni hech bir mulohazasiz, silliq qabul qilishi shubhali. Chunonchi, insonlardagi tug'ma omon qolish instinkti tufayli ular har doim yashashga intiladilar. Mana shu instinkt kishini har qanday fojeaviy holatlarda ham o'limdan qochishiga, nafas olishiga majbur qiladi. Ayni paytda Unsinning jasorat bilan og'ir shartga rozi bo'lishini dalillovchi qator sabablar mavjudligini ham e'tibordan chetda qoldirmaymiz. 1) go'zal, qalbi orzu umidlariga to'la Unsin qatoridagi har qanday qizning payg'ambar yoshidagi cholga turmushga chiqish fojeasi; 2) oddiy odamlar tabiatida erkinlikka, erkin yashashga intilish kuchliroq bo'lganligi uchun ular aksar holatlarda o'limdan ozodlikni afzal ko'radi. Unsin sakkiz oy mobaynida Olimbek dodxoga itoatda yashab kelayotgan bo'lsa ham ruhiyatida zulmga qarshi isyoni bor edi, uni yuzaga chiqarish uchun sabab yo'q edi, xolos. Shuning uchun ham u qabristonga borib, choy damlab kelish dahshatidan cho'chimadi. Uning Ganjiravonga ketish uchun "bitta go'rga bitta pichoq emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelishga" tayyorligi o'sha isyonga olib boruvchi jasoratni aks ettirgan edi; 3) Matyoqub Qo'shjonov aytganidek, bu dahshatga rozi bo'lgan qizning botinidagi kulfatlar qo'rqinchli shartni bajarishdan ko'p barobar dahshatliroq bo'lgan uchun ham qiz shartga rozi bo'ladi. Ammo bu sabablar kitobxonni badiiy asar yaratilgan davrdagi tarixiy, ijtimoiy vaziyat nuqtai nazaridan qoniqtirishi, hatto Unsinning fojeasida Dodxonni ayblamasligi ham mumkin. Zotan uni oqlashga undovchi, ma'lum darajada inkor qilib bo'lmaydigan faktorlar ham bor. Masalan, Unsin Dodxonning eng kenja, suyukli xotini. Unsin Dodxoga ota-onasining qistovi (majburlashi) bilan turmushga chiqqan bo'lsada besh oy muddatda xonadon sharoyitiga ko'nikkan, taqdiriga tan berib, turmush o'rtog'iga so'ssiz itoatda umr kechirayotgan edi. Agar Nodirmohbegim rahmatli otasi aytib bergan hikoyani qo'zg'amaganda, Unsin dodxonning g'ashiga tegadigan gap aytmaganda, ehtimol, Unsin yana avvalgidek yashashda davom etishi, yosh joniga jabr qilmasligi mumkin edi. Qabristonga borish fikri ham Unsinning o'zidan chiqdi. Uni Dodxo majburlamadi. Oddiy tegirmonchining qizi Unsinning jasorat va ayni o'rinda bepisandlik bilan "o'lsin, nokas odam ekan, bitta qo'yni deb...Koshki arziydigan narsa bo'lsa" degan gapi go'riston vahimasidan dahshatga tushib, "tiligacha sovuq ter chiqqan", jamiyatda anchayin "obro' e'tibor" ga ega Dodxonning g'ururiga tekkan edi. Unsinning o'nta qo'yni rad etib, uning erkinlik so'rashi, "bir gadovachchaning bu dargohdan ketishga oshiqishi" ni esa Dodxo naqd haqorat deb qabul qildi. U ayni paytda Unsinni qamchi bilan jazolab, "esini kiritib qo'yishi" mumkin edi, lekin boshqa xotinlari oldida obro'siga soya solgan Unsin uchun bunday jazo, Dodxo nazdida yetarli emasdi, qolaversa, g'ururini bu tarzda himoya qilishni ham o'ziga ravo ko'rmadi va zaharxanda muloyimlik bilan Unsin shartiga rozi bo'ldi. Lafz uchun unga bir taloqni ham berib bo'lgandi. Ayni damda kitobxonda Dodxonning hayolidan nimalar o'tganiyu, Unsinni qanday jazolash haqida muayyan farazlar paydo bo'lishi mumkin. "Zaifa" xotinlari oldida Dodxonni mulzam qilgan kenja xotinidan o'ch olish rejayi ushbu farazlarning haqiqatga yaqinrog'i deb qarashga asoslar yetarli. Sabab: 1) Unsin yosh bo'lishiga qaramay chindan jasoratli ayol edi. Hikoyada uning jasorati ochiq tasvirlanmasa-da, hatta -harakatlari, katta-kichik detallar, Nodirmohbegim so'zlab bergan rivoyatdagi yigir obraziga paralel tasvirlar orqali sochiqlanadi. Demak, Dodxo Unsinning shartni bajarib, sog'-salomat qaytib kelishini taxmin qilgan; 2) Unig shartni bajarib, Ganjiravonga qaytib ketishi Dodxo sha'niga to'g'ri kelmaydi, u

Unsinning tirik qaytishidan manfaatdor ham emas. Ma'lumki, qo'rquv psixologik jarayon, u xususiyatlari bilan tana a'zolariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va hatto inson umriga nuqta qo'yishi ham mumkin. Oqshom, go'riston, Dodxo qo'yyan shart, har balolarning ko'ziga ko'rinishi... bularning barchasi Unsinning dahshati va uning ortidagi fojea-o'limiga yetarlicha sabablar sifatida ko'rsatish mumkin. Ammo Unsin "kattakon bir sag'ananing ichidanmi, naryog'idanmi allaqanaqa bir tovush" ni eshitib, yelkasiga nimadur minib olib, uni bo'g'moqchi bo'lib qo'l uzatganini his qilgandan keyin, ko'kragiga nihoyatda og'ir bir narsa bilan urilganday ko'ngli ozib tentirab, hushidan ketdi. Dahshatning bu kulminatsion nuqtasiga qadar u qabriston qo'rquvi ta'siridagi salbiy tuyg'ulardan qochishga harakat qilib, qo'rquvni o'ziga yo'latmay qumg'onda choyini qaynatib bo'lgan edi. Ya'ni, maymun Unsin o'limiga sababchi eng muhim va birlamchi faktor vazifasini bajardi. Hikoyada maymunni Dodxo yuborgani haqidagi ma'lumot esa faqat Unsinning quyidagi nutqi orqaligina ochiqqlangan. "Unsin qo'rquvdan telba bir ahvolda bo'lsa ham fahmladi: maymun! Dodxonning maymuni! Maymunni dodxonning o'zi olib kelmagandir, birovdan berib yuborgan! Dunyoda dodxoday berahm odam yana bor ekanmi! Unsin yelkasiga maymun mingan dakiqada naqadar qo'rqqan bo'lsa, hozir shu qadar tinchidi, xotirjam bo'ldi: demak, qandoq berahm bo'lsa ham shu atrofda odam bor!"

Ikki og'iz maymun obrazi xususida:

Maymun obrazi muayyan xalqlar dini, e'tiqodi, madaniyati, urf odatlari, qadriyatlariga ko'ra turli xil ko'rinishlarda aks ettirilgan. Masalan, qadimgi Afrika xalqlari adabiyotida aql va zakovat ramzi sifatida tasvirlansa, Osiyo madaniyatida boylik ramzi bo'lib xizmat qilgan. Lekin XIX-XX G'arb xalqlari gotik [Gotik-qo'rqinchi] sujeta ega asarlar-ZM asarlarda mymun salbiy, fojealarga sababchi mulxoqat sifatida gavdalangan. Masalan, Edgar Elan Poning mashhur "Ru Morgu ko'chadidagi qotillik" hikoyasida ham sirlig qotil maymun bo'lib chiqadi. Yoki Gyotening mashhur "Faust" asaridagi shaytonning malaylari ham maymun obraza akslangan [3;536]. Dankle Harvey (inglizcha Harvey Dunkle) ning yozishicha, Yevropadagi tasviriy san'at namunalari maymun olma (ayrim manbalarda xurmo, bug'doy tarzida talqin qilingan) tishlab turgan qiyofada tasvirlanadi. Bunday tasvirlar, diniy e'tiqodlarga ko'ra, "maymun Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilishiga sabab bo'lgan hayvon" qabilida talqin qilinadi [3;536].

Arab manbalarida qayd qilinishicha, Abbosiylar xalifaligidagi maymunlar uy hayvoni sifatida xonadonlarda boqilgan. Maymunlar noyob hayvonlar qatorida arablarning boylik ramzi bo'lgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qo'qonda ham maymun boylik ramzi sifatida boy, mansabdor, obro'li shaxslar xonadonida maxsus boqilgani, Qo'qonda istiqomat qiluvchi mansabdorlar, boylar Hindiston va Xitoyga boriladigan karvonboshilardan maymunlar xarid qilgani yoki Hindistonga maxsus borib maymun olib kelganliklari haqida qarashlar mavjud. Balki O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi bilan ushbu an'ana ham o'lkada urfga aylangan bo'lishi mumkin. Bizda bu fikrlarning qay biri haqiqatga yaqinligini tasdiqlovchi yozma dalillar mavjud bo'lmasada, Qahhor o'tkir realist sifatida maymun obrazini hikoyaga olib kirishida muayyan mantiqiy asosga tayangani aniq. Holbuki, maymun tashqi qiyofasi, biologik xususiyatlari, hatti-harakatlari nuqtai nazaridan dahshatli voqealar akslangan asarlar estetikasi mos. Demak, Abdulla Qahhor, "Dahshat" ga maymun obrazini tasodif olib kirmagan. Obrazni shakllantirishda yuqoridagi ma'lumotlar ham muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Shu o'rinda kitobxonda savol tug'iladi: "agar Dodxo Unsin ortidan maymunni yubormaganda, Unsin Dodxo aytgan shartni bajarib ozodlikka chiqishi mumkin edi(mi)? Unsinning fojeasiga Dodxo daxl qilmaydi yoki Dodxo aybdor emas deyishimizda mantiq bormi!?"

Xulosa. Abdulla Qahhor hikoyalarning yechimi o'ziga xos uslubda yakun topadi. Asarlariga olib kirilgan har bir katta kichik obrazlarga jiddiy vazifalar yuklaydi va ular o'z mantig'i doirasida harakatlanadi, kitobxonlarni o'z hatti harakatlari bilan ishontiradi. Kitobxon bir asrdan keyingi talqinlarda ham Qahhor yaratgan obrazlarga, estetik ideallarga qarshi borolmaydi, ularni boshqa o'zanga burolmaydi, goyaviy konsepsiyasiga qarshi qo'yishning ham imkoni yo'q. Masalan, Unsinning o'limida Dodxonni ayblamaslik uchun muayyan sabablar topsakda uni oqlashga jur'at qilolmaymiz, yanada aniqroq aytganda, Qahhor qachonlardur kitobxonlar mana shu masalani ko'tarishi mumkinligini tahmin qilib, Dodxonni uning maymuni vositasida eng og'ir joniatchi- qotilga aylantirgan va kitobxonda uni oqlashga hech qanday imkoniyat qoldirmagan. Balki chindan ham agar Dodxo maymunni Unsin ketidan yubormaganda va uning ruhiyatidagi qo'rquvni katalizatoriga aylantirganida Dodxonni oqlash haqida o'ylab ko'rish mumkin bo'lardi, balki. Ayni o'rinda Dodxoga doir yana boshqa muhim masala ham bor. Aytaylik, Unsin

shartni bajarib qaytib keldi va to'ra xaltasini olib Ganjiravonga jo'nab ketdi...Uning ozodlikka chiqishidan Olimxon manfaatdor emasligi, bu voqea uning g'ururi, sha'nini battar loyga botirishini kitobxon yaxshi biladi va Dodxo nima qilib bo'lsa ham Unsinni uyga tirik qaytarmaslik chorasini ko'rishi ham o'quvchida mavjud farazlardan biri edi, chunki inson tabiatida "yutqizish" emas balki "yutish" ga intilish kuchli. Bunday tuyg'u Dodxo kabi hudbin shaxslarda ikki karra ko'p namoyon bo'ladi.

Xulosa shuki, Abdulla Qahhor yaratgan hikoyalar o'tmish voqealarini mohirlik bilan umumlashtirib, ularni tarixga muxrladi va har bir davr uchun manba bo'ladigan katta adabiyotni me'ros qoldirdi. Yozuvchi hikoyalarini turli rakurslarda, yangi nazariyalar yetovida tahlil qilish orqali uning o'ziga xos xususiyatlarini kashf qilish adabiyotshunoslik, ilmiy jamoatchilik uchun ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qahhor hikoyalarning yangicha tahlil ask etgan 1-maqola "O'zbek filologiyasi:muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plamida nashr etilgan, Toshkent, 2024, 17-aprel, 172-176-betlar
2. Dunkle H. Monkey Business in Goethe's Faust, Die Wahlverwandschaften, and Science." Goethe Yearbook, vol. 4, 1988, p. 123.
3. Gyote Y. Faust. Toshkent. Yangi asr avlodi, 536 b.
4. Мелиев С. Ижтимоий гоя зугуми ёхуд меҳрининг бадий кучи. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 1995, 23 июнь.
5. Mirzayeva Z. "Dahshat" "kitobxon javobi" tajribasida. (1-maqola). "O'zbek filologiyasi: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plami. Toshkent, 2024, 17-aprel, 172-176-betlar.
6. Mirzayeva Z., Jalilov K. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. Toshkent, Akademik Space, 2024.
7. Расулов А. Бадийлик безавол янгилик. Тошкент, Шарк, 2007. – 97 б
8. Wolfgang I The Act of Reading: A Theory of Aesthetic Response. John Hopkins U P, Baltimore 1978 .
9. Ковылкин А.Н. Вопросы рецептивной эстетики: Филологические науки // Омский научный вестник, № 2 (54) 2007, стр. 153.
10. Qahhor A. Dahshat. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-dahshat-hikoya>



UDK: 82-1/-9 + 82(0.053.4) + 82(091)

Ziyoda MIRUSMANOVA,

Fan va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: Mirusmanovaziyoda@gmail.com

ToshDO‘TAU professori v.), f.f.d O.Hamroyeva taqrizi asosida

THE INFLUENCE OF EASTERN CLASSICAL POETRY ON WESTERN POETS

Annotation

Literature serves as a mirror reflecting the cultural, social, and philosophical contexts of its time. Western and eastern literature has impacted each other in all eras. While Western poetry has its own distinct heritage, it has also been significantly influenced by Eastern classical poetry. The interplay between Eastern and Western literary traditions has been a significant area of exploration in comparative literature. This article examines how Eastern classical poetry has influenced notable Western poets, specifically Johann Wolfgang von Goethe, Alexander Pushkin, and Lord Byron. By analyzing their works, we can uncover the profound impact of Eastern themes, forms, and philosophies on Western literary expressions.

Key words: classical poetry, heroism, cross-cultural influence, romanticism

ВЛИЯНИЕ ВОСТОЧНОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ НА ЗАПАДНЫХ ПОЭТОВ

Аннотация

Литература служит зеркалом, отражающим культурный, социальный и философский контексты своего времени. Западная и восточная литература влияют друг на друга во все эпохи. Хотя западная поэзия имеет свое особое наследие, на нее также оказала значительное влияние восточная классическая поэзия. Взаимодействие между восточными и западными литературными традициями является важной областью исследований в области сравнительного литературоведения. В этой статье рассматривается влияние восточной классической поэзии на выдающихся западных поэтов, в частности на Иоганна Вольфганга фон Гете, Александра Пушкина и лорда Байрона. Анализируя их произведения, мы можем выявить глубокое влияние восточных тем, форм и философий на западное литературное творчество.

Ключевые слова: классическая поэзия, героизм, межкультурное влияние, романтизм

SHARQ MUMTOZ POETIKASINING G‘ARB SHOIRLARIGA TA‘SIRI

Annotatsiya

Adabiyot o‘z davrining madaniy, ijtimoiy va falsafiy kontekstlarini aks ettiruvchi ko‘zgu bo‘lib xizmat qiladi. G‘arb va Sharq adabiyoti barcha davrlarda bir-biriga ta‘sir ko‘rsatib kelgan. G‘arb mumtoz she‘riyatining o‘ziga xos merosi bo‘lsa-da, unga Sharq mumtoz she‘riyati ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Sharq va G‘arb adabiyotining o‘zaro ta‘sirini qiyosiy adabiyotda muhim tadqiqot sohasi hisoblanadi. Ushbu maqolada Sharq mumtoz she‘riyatining taniqli G‘arb shoirlariga, xususan, Yoxann Volfgang fon Gyote, Aleksandr Pushkin va Lord Bayron ijodiga ta‘sir o‘rganiladi. Ularning asarlarini tahlil qilib, Sharq mavzulari, shakllari va falsafalarining G‘arb adabiy muhitiga ta‘sirini ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: mumtoz she‘riyat, qahramonlik, madaniyatlararo ta‘sir, romantizm

Introduction. The cultural exchanges between the East and West have a long history, characterized by trade, exploration, and the translation of texts. As early as the Middle Ages, European scholars began to engage with Eastern texts, particularly those from the Islamic and Persian traditions. The translation of Persian poetry, particularly the works of poets like Hafiz, played a crucial role in introducing Eastern literary aesthetics to Western audiences. Another well-known movement in history which is considered key influence to European literature is Romantic movement. Romantic movement in the late 18th and early 19th centuries saw poets seeking inspiration from nature, the sublime, and the exotic. Eastern poetry, with its rich imagery and philosophical depth, provided fertile ground for Romantic poets.

Literature review. Johann Wolfgang von Goethe (1749-1832) is often regarded as a pivotal figure in the dialogue between Eastern and Western literature. His work, *West-Eastern Divan* (1819), is a direct response to Persian poetry, particularly the ghazals of Hafiz. For many Persians, the poet Muhammad b. Muhammad Shams al-din Shirazi known as Hafiz (ca. 1320-ca. 1390) and his *Divan* epitomize Iran’s rich poetic and cultural tradition. The esteem with which he is held is represented concretely by the effort expended over the centuries to collect, edit, and analyze his poetry, making him easily the most closely studied and widely well-known Persian poet [6].

Goethe’s fascination with Hafiz began after he encountered a German translation of the poet’s *Divan*. This led him to study Persian literature and language, culminating in his own collection of poems that reflect Eastern themes of love, nature, and spirituality.

In *West-Eastern Divan*, Goethe employs the lyrical form of the ghazal, adapting its structure to express his own philosophical musings. This blending of forms illustrates how Eastern poetry influenced his stylistic choices.

Although Goethe’s *West-Eastern Divan* was not a translation of Hafiz, he utilized the themes he found in the poetry of Hafiz. He

interposed Persian terms in his poetry in order to convey a just idea of what Hafiz intended in his *divan*. Indeed the work can be seen as the fusion of the Occident and the Orient. The *West-Eastern Divan* consists of twelve books all with Persian words: *Moqqani-Nameh* or *Book of the Singer*, *Hafi z-Nameh* or *Book of Hafi z*, *Eshq-Nameh* or *Book of Lover*, *Tafakkor-Nameh* or *Book of Reflection*, *Rind-Nameh* or *Book of Ill Humour*, *Hikmat-Nameh* or *Book of Maxims*, *Timur-Nameh* or *Book of Timur*, *Zuleika-Nameh* or *Book of Zuleika*, *Saki--Nameh* or *Book of the Cupbearer*, *Matal-Nameh* or *Book of Parables*, *Parsi Nameh* or *Book of the Parsees* and *Khuld-Nameh* or *Book of Paradise* [1;5]. Goethe’s work exemplifies a dialogue between cultures, where he not only assimilates Eastern themes but also critiques and reflects upon Western society through an Eastern lens.

Research Methodology. Lord Byron (1788-1824) is another key figure whose poetry reflects the influence of Eastern classical poetry. His travels through the Ottoman Empire and his interest in Eastern themes are evident in several of his works. As Peter Cochran mentions Byron’s Orientalism is often praised, and used as a contrast with that of other “romantic” writers, because it was based on experience [4]. He is also considered one of the poets who was inspired by Hafiz. Byron’s admiration for Hafiz is explicitly noted in his satirical poem *English Bards and Scotch Reviewers* (1809), where he references the Persian poet’s insights on love and aging:

“Love conquers age - so Hafiz hath averr’d” [2]. This line encapsulates Hafiz’s belief in the enduring power of love, regardless of age, a theme that resonates throughout Byron’s own poetry. Byron’s poetry often mirrors Hafiz’s exploration of love’s complexities. Byron’s engagement with Hafiz is not merely an act of admiration; it also reflects a complex relationship with Eastern culture. While he reveres Hafiz, Byron’s depictions of Eastern societies often carry an ambivalent tone. For example, in *Childe Harold’s Pilgrimage*, Byron expresses both fascination and critique of

the East, illustrating a duality that mirrors Hafiz's own nuanced portrayals of love and spirituality.

Byron's references to Hafiz serve to bridge the gap between Eastern and Western literary traditions. His acknowledgment of Hafiz as "the immortal Hafiz, the oriental Anacreon" underscores the poet's significance in both cultures [Byron, qtd. in Lord Byron's *Allusions to Persia*]. This recognition reflects Byron's broader interest in the interplay between different cultural narratives and the universal themes that connect them.

Byron's *The Giaour* and *The Bride of Abydos* draw heavily on Eastern settings and characters, reflecting the fascination with the exotic "Orient." His portrayal of Eastern characters often challenges Western stereotypes, presenting a more nuanced view of Eastern cultures. Byron's engagement with Eastern themes serves as a critique of Western imperialism. Through his poetry, he questions the moral implications of colonialism and the representation of the East in Western literature.

Theme/Style	Goethe	Pushkin	Byron
Exoticism	Embraces Persian motifs	Integrates Eastern folklore	Romanticizes Eastern settings
Love and longing	Explores spiritual love	Depicts unrequited love	Reflects on lost love
Nature	Nature as a spiritual entity	Nature as a backdrop for emotion	Nature as a source of inspiration
Cultural dialogue	Engages in a literary conversation	Blends Russian and Eastern traditions	Critiques Western imperialism

While Goethe, Pushkin, and Byron each drew from Eastern classical poetics, their approaches reveal distinct cultural and thematic nuances:

Goethe's *West-Eastern Divan* emphasizes a harmonious dialogue between Eastern and Western cultures, suggesting a mutual appreciation and understanding. In contrast, Pushkin's works reflect a more personal engagement with Eastern themes, often exploring identity and belonging within the context of Russian culture.

All three authors explore themes of love and nature, but their interpretations vary. Goethe's work is imbued with a sense of mysticism and philosophical inquiry, Pushkin's narratives often highlight the tension between love and societal constraints, while Lord Byron's poetry focuses on the dramatic and the exotic, embodying the Romantic ideal of the Byronic hero.

Goethe's use of the ghazal form showcases his admiration for Eastern poetic structures, while Pushkin's narrative style reflects the

Furthermore, Russian literature also shows great interest to Eastern classical poetics. Alexander Pushkin (1799-1837), often hailed as the father of Russian literature, was significantly influenced by Eastern poetry, particularly through the lens of the Persian literary tradition. Pushkin's poetry frequently explores themes similar to those found in Eastern poetry, such as unrequited love and the beauty of nature. His poem *The Fountain of Bakhchisarai* incorporates elements of Eastern romanticism, reflecting a longing for the exotic and the mystical.

In works like *The Tale of Tsar Saltan*, Pushkin integrates Eastern motifs and folklore, showcasing the cultural richness of the East. His engagement with these themes demonstrates a synthesis of Russian and Eastern literary traditions.

Analysis and results

The influence of Eastern classical poetry on Goethe, Pushkin, and Byron can be analyzed through several common themes and stylistic elements:

storytelling traditions of the East. Lord Byron's lyrical and narrative poetry, rich in imagery and emotion, captures the essence of Eastern aesthetics while maintaining a distinctively Western voice.

Conclusion. The influence of Eastern classical poetry on Western poets such as Goethe, Pushkin, and Byron is profound and multifaceted. Through their engagement with Eastern themes, forms, and philosophies, these poets not only enriched their own literary traditions but also fostered a deeper understanding of cultural exchanges. The dialogue between East and West, as illustrated in their works, continues to resonate in contemporary literature, highlighting the enduring impact of cross-cultural influences.

In summary, the exploration of Eastern classical poetry's influence on Western literature reveals a rich tapestry of interconnected ideas and artistic expressions, underscoring the significance of cultural dialogue in shaping literary history.

REFERENCES

1. Ali Salami, "The influence of hafiz on western poetry", *Jurnal Sarjana* Jilid 24, Bilangan 2, 2009
2. Byron, *English Bards and Scotch Reviewers*, Stanza
3. Fadipe, T. F. *A Comparative Study of Byron and Pushkin with Special Attention to Don Juan and Evgeny Onegin*. Master of Arts Thesis, North Texas State University.1975
4. Zhou, X. *East and West Comparative Literature and Culture: A Book Review Article*. CLCWeb: Comparative Literature and Culture, 2(3). 2000. Retrieved from <http://docs.lib.purdue.edu/clcweb/vol2/iss3/9>.
5. Peter Cochran. *Byron and Orientalism*. Cambridge Scholars Publishing, 26 march, 2009
6. Priscilla Soucek. *Interpreting the ghazals of Hafiz*. Res 43 Spring 2003.
7. Jalolovna, Hamroyeva Orzigul. "The study of movements of rhyme." (2022).
8. Bausani, A. *The development of form in Persian lyrics*. East and west. 1958.
9. Mersereau, John, Jr. "Pushkin's Concept of Romanticism." *Studies in Romanticism*, 3 (1963-64), 24-41.
10. Sanders, Charles Richard. *The Byron Closed in Sartor Resartus*. *Studies in Romanticism*, 3 (Autumn 1963-Summer 1964), 77-108



UDK:297.4 + 82-1/-9:297.4 + 2-28

Aziza OMANBOYEVA,
Ma'mun universiteti o'qituvchisi
E-mail: Omanboyevaaziza1@gmail.com

DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

THE ROLE OF THE PERIOD OF ASCETICISM IN THE HISTORY OF SUFISM AND MYSTICAL AND ARTISTIC LITERATURE

Annotation

This article will discuss the history of Sufism literature, which is an intrinsic element of Uzbek classical literature, as well as the causes for the doctrine's formation. The role of asceticism in Sufi literature is examined, as well as the reflection of ascetic thinking in spiritual and creative writing.

Key words: The asceticism age, ascetics, ubbads, self-reflection, asceticism in prophetic life, "Rabguzi's story".

РОЛЬ ПЕРИОДА АСКЕТИЗМА В ИСТОРИИ СУФИЗМА И МИСТИЧЕСКОЙ И ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

В данной статье раскрывается история суфийской литературы, являющейся составной частью узбекской классической литературы, и причины возникновения этого учения. Обсуждается место периода аскетизма в суфийской литературе, отражение аскетического мышления в суфизме и художественной литературе.

Ключевые слова: период подвижничества, аскетизм, Набожные, саморефлексия, подвижничество в жизни пророков, «Рабгузи-история».

TASAVVUF TARIXI VA IRFONIIY-BADIIY ADABIYOTDA ZUHD DAVRINING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining ajralmas bir qismi hisoblangan tasavvuf adabiyotining tarixi, ta'limotning yuzaga kelishi sabablari o'zgarib qaytadi. Tasavvuf adabiyotida zuhd davrining o'rni, irfoniy-badiiy adabiyotda zuhdiy tafakkurning in'ikosi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Zuhd davri, zuhdodlar, ubbodlar, nafs tazkiyasi, payg'ambarlar hayotidagi zuhd, "Qissasi Rabg'uziy".

Kirish. Sharq mumtoz adabiyotining asoslaridan biri sanalgan turkiy adabiyot ko'p asrlardan buyon dunyo adabiyotshunosligida o'zining teran mazmuni va salmog'ini yo'qotmasdan kelmoqda. Zero, mumtoz adabiyot mazmun va shakl, g'oya va badiiyat jihatdangina emas, didaktik ta'sir kuchining kengligi bilan ham ahamiyatlidir. Sharq klassik adabiyotining komil shaxsni dunyoga keltirish maqsadida yaratilgan badiiy-irfoniy asarlari halihanuz o'z mohiyati hamda ta'siri bilan G'arb-u Sharqni birday lol qoldirmoqda. Zero, ularning asosi ilohiyotda, islom aqidasi ko'ngil huzuriga aylantirgan tasavvuf-dadir. Hamida axloqqa erishish uchun ma'lum bir maslak va ifodani tanlagan irfoniy adabiyotning paydo bo'lishida tasavvuf ta'limotining, tariqatlarining, umuman ilohiy e'tiqodning o'rni beqiyos.

Adabiyotshunoslikda urg'ulanganidek: "Ichki bir xotirjamlik, ruhiy bir farog'atni ta'minlovchi tasavvuf va inson botinidagi sir-asrorni yorituvchi badiiy adabiyot mushtarak bir bayroq ostida nafs tarbiyasiga kirishgan. Shu bois bosh maqsadi inson axloqi va tafakkur kamoli bo'lgan mumtoz adabiyot va komil insonni tarbiyalayotgan tasavvufni ayri-ayri tasavvur etish mumkin emas. Ayrim tariqat vakillarining ijodkor ekanligi, tasavvuf haqidagi risolalari, hol bayonlari bo'lgan nazmiy merosi ham fikrimizni dalilaydi". Demak, mumtoz adabiyot namunalaridagi g'oya va maslak, muallif shaxsi va adabiy qahramonlar, obraz va ramz singari tushunchalardan bahs yuritishda, albatta, tasavvufiy hamda adabiy bilimlarimizga birday tayanmog'imiz lozim. Ushbu adabiyot tarixiga, rivojlanishiga, tafakkur takomiliga nazar tashlar ekanmiz mavzumiz yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zuhd davri, badiiy adabiyotda zuhdiy qarashlar masalasi tasavvuf ta'limoti mohiyatini o'rganishdan boshlanadi. Turk olimi Usmon turarning "Tasavvuf tarixi" asarida shunday ta'rifga duch kelamiz: "... hijriy II asrda musulmonlar orasida dunyo moliga bo'lgan sevgi va hirsning oshishi toat-ibodatga berilganlar toifasini ulardan uzil-kesil uzdi. Mazkur zumra so'fiy, mutasavvuf nomlari bian tanilishdi. Bu ism ishtiqoq jihatidan "suf"dan kelib chiqqan. Chunki ular chiroyli kiyimlarni tark etib, suf – "jun"dan kiyim kiyib, dunyoparastlarga zid ish qilishgan. Ular zuhd, uzlat, ibodat va toatga qattiq berilishgach, o'zlariga xos vajd (jo'shish) va boshqa hollarga ega bo'lishdi. Ushbu ta'rif mohiyatan tasavvuf haqida turli-tuman tavsif va haqiqatlarni qamrab olgan. Tasavvuf bir ta'limot sifatida o'zining tarixiga ega. Uning tarixiga nazar tashlar ekanmiz, o'zining tadrijida katta ikki bosqichni

bosib o'tganiga guvoh bo'lamiz. Abdulkarim Kushayriyning sharhlashicha, mutasavviflar zuhdod va ubbodlar (zohidlar va obidlar)dan so'ng maydonga chiqqan toifalardir. Bundan tasavvuf ta'limotida tariqatlarining shakllanishida zuhd davri muhim ahamiyatga ega degan xulosaga haqli ravishda kelish mumkin. Zero, tasavvufdagi har bir maqomning tamali zuhd hisoblanadi. Mazkur tamalsiz boshqa maqomlarga yuksalish mushkuldir. Ilmiy manbalardagi ma'lumotlarga asoslangan holda tasavvufning ilk davri ikkiga ajratishimiz mumkin: 1.Zohidlik davri; 2.Orif-oshiqlik davri.

Ma'lumki, payg'ambarimiz sallolohu alayhi vassallam vafotlaridan so'ng, xalifalar hukmronligi ham yakuniga yetgach, mamlakatda boshlangan taxt uchun kurash, boylik, aysh-ishratga berilish, dahring fony matohlariga bog'lanib, oxirat va din masalalaridan uzoqlashish boshlandi. Ushbu holat qalbida asl iymoni bor, shariat yo'lida sobit turgan, sahobalar hayotini ko'rgan tobeinlar va ularning avlodlari ko'nglida ochiq qarshilikka aylandi. Ular xatti-harakatlari natijasida oddiy avom orasida zohid, so'fiy nomlari bilan tanilishdi. Kundalik hayotda bir luqma taomga qanoat qilish, hech qanday boylik to'plamaslik, kun-u tunlarni bedorlik bilan toat-u ibodatda o'tkazish, tillaridan Yaratganning nomini tushirmay O'zining marhamatidan umidvorlik, mansab-u obro'ga nazar qilmaslik, bor zehn-shuurini yolg'iz Alloh sifat va tajallisi haqida mushohadaga yo'naltirish ularning asosiy xususiyatlari hisoblangan. Katta va asosiy bir davrni egallagan zuhd haqida tasavvufiy-irfoniy manbalarda atroflicha to'xtalangan.

Tasavvuf tadrijida yana bir qancha davriy tasniflarni ham uchratishimiz mumkin. Shulardan biri: - Zuhd davri; - Tasavvuf davri; - Vahdati vujud davri; - Tariqatlar davri.

Tadqiqot metodologiyasi. Ba'zida xalq orasida ayrim tushunchalar, nomlar, istilohlar ayricha bir ma'no kasb etadi. Har til va ilm-fanda, har din va dunyoqarashda bu tushunchalarning o'ziga xos dunyoga kelish tarixi yoki o'zgacha bir qamroviga duch kelamiz. Ba'zan mazkur tushunchalar o'z atrofida turfa ixtiloflar yuzaga keltiradi, natijada u haqida shubha va gumonlar tug'ilishi, u sababli turli ziddiyatli savollar paydo bo'lishi mumkin. Tasavvuf ham, bizningcha, xuddi shunday maslak. Ammo bugun haqiqiy, hali bid'atlar aralashmagan chin tasavvuf haqida ulamolarni tomonidan uzil-kesil xulosalar berilgan. Tasavvuf nafs riyozatini amaliy-nazariy jihatdan belgilab bergan, o'zining xos dasturlariga ega bir maktabdir. Bugungi ziddiyatli fikrlar esa keyingi botil tariqatlar haqidagi

qarashlar natijasidir. Biroq har zamonlarda ham ushbu oliy tarbiya yo'liga ma'naviy ehtiyoj, albatta, bo'lgan.

Tasavvufshunoslar nazdida, jasadga ko'ra ruh qanday bo'lsa, shariatning zohiriga ko'ra botini – tasavvuf ham shundaydir. Bu nomda ulug' bir ilm, o'ziga mos fiqh, munosib adab va riyozat yo'li turadi. Islomning ilk davrlarida Tasavvuf kalimasining o'rnida Zuhd va Riyozat atamaları qo'llanilgan. Istilohiy ma'noda Tasavvuf – aloqasi bo'lmaslik, qadr bermaslik, dunyoni kichik ko'rish, tark degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu ma'nolari ila tasavvuf lafzi Qur'oni Karimda kuzatilmasa ham, payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vassalamning hadislarida ko'zga tashlanadi. Zuhd esa ma'rifiy istiloh o'laroq dunyodan oxiratning, moddadan ma'noning, jismdan ko'ra ruhning, ko'ngilning istaklarini bajarishni ustun ko'rmoqdir. Shunday yashash tarziga rozi bo'lgan va amallarni to'la-to'kis ado eta olgan inson zohid deya ataladi. “Zuhd” atamasi tasavvufiy-ma'rifiy tushuncha bo'lib, Sharq adabiyotida keng qo'llaniladi. Tarixan kelib chiqishi arabcha so'z bo'lib lug'atlardagi ma'nosi “Z H D / ذ ه د” fe'lining masdaridandir, ya'ni biror narsaga moyil bo'lmaslik, talab qilmaslik, yuz o'girish, befarqlik va undan voz kechish ma'nolarini bildiradi, beye'tiborlik, dunyo moliga ahamiyat bermaslik degan ma'nolarga ega". Shuningdek, fors-tojik, o'zbek va turkiy lug'atlarda “zuhd”, asosan, tasavvufiy atama sifatida oxiratga yuzlanish uchun dunyodan chekinish yoki Allohga yuzlanish uchun dunyoni ham, oxiratni ham tark etish ma'nosida qo'llaniladi. Tasavvuf g'oyalari targ'ibiga, riyozatdagi nafs kechinmalarining izhoriga bag'ishlangan hikmatlarda ham xuddi shu mazmunga guvoh bo'ladilar o'srinlar talaygina:

Alad-davom shuhud istab shohidlardek,
Zuhdu vara' hosil qilib zohidlardek,
Ibodat toat aylab obidlardek,
Oxiratning ishin munda qiling, do'stlar.

VIII asrda «zuhd» so'zi ilgari shu mazmunda qo'llangan «nusk» so'zining o'rnini egallay boshladi, qanoat (o'z xohishlarini nazorat qilish va boriga ko'nib yashash) va vara' (parhezkorlik) kabi taqvodorlikni ifodalovchi tushunchalardan chuqurroq ma'no kasb etdi va uning tasavvufiy hayotdagi o'rnini barqarorlashdi. Shu sababdan ham moli oz bo'lgan kishiga nisbatan muzhid, oz yemak yeydigan kishiga zohid, hajman oz bo'lgan narsaga ham zehid, dunyoda parhez qilib yashamoqqa nisbatan esa zahodat shaklida qo'llanilganligi asarlarda tilga olinadi. Bir so'z bilan aytganda, zuhd tarkidir:

Shariatda tajridur dunyosini tark etmoq,
Tark etmayin dunyosin sivo bo'ldum demasun, –

deydi shoir. Ta'kidlash joizki, Zuhdona tarkda bir faqirlik bor, bu faqirlikda esa Alloh taolaga qurbat, jannati ma'voga umidvorlik mavjud. Mana shunday ilk his va hollarsiz keyingi ma'naviy martabalariga ko'tarilish mahol. Imom Kushayriy esa “tasavvufni faqat zuhd va vara'dan iborat deb bilmay, uni zohidlikdan tasavvufga, amaldan mushohadaga, ibodatdan hikmatga, shariatdan haqiqatga o'tish” deya izohlagan". Darhaqiqat, shubhali har qanday narsadan voz kechish ma'nosidagi arabiy vara' kalimasi lug'atlarda "...gunohlardan chetlashish, o'zini tiyish, Alloh taoladan qo'rqib, harom narsalarni tark qilib taqvador bo'lish"dir. Shu bois zuhd va vara' so'zlari yonma-yon keladi va mazmunda bir-birini to'ldiradi:

Fig'onki, ishq chekar bog'lab oni bo'nyum'ga
Nechaki zuhdu vara' pardasin rido qilsam.

Alisher Navoiy hazratlari ham bu hollarni yonma-yon keltirib, ma'noni kuchaytirgan. “Tasavvuf atamaları lug'atida esa zuhd quyidagicha ta'riflanadi: “Nafsga qarshi mujohadaning ko'p chuqur usullarini qamrab olgan zuhd hayoti dastlabki paytlarda inson ruhini kamolga yetkazuvchi eng ishonchli yo'llardan biri bo'lgan". Zuhd tasavvufning tamallaridan bo'lganligi bois ko'plab tasavvufga oid asarlarda zuhd davri haqida so'z boradi. Doktor Tezi va Ahmat Atlining “Tasavvufda riyo ul-g'ayb” asarida zuhdga: “Qo'lda bo'lmagan narsaning qalbdan ham yo'qligi, dunyoni tark etmoq, mol-u dunyo kimning qo'liga o'tsa ham uni qalbga kiritmaslik, nafsni tiya bilgan holda dunyodan yuz o'girish, olami borliqni zavol ko'zi bilan ko'rish, insonni Allohning zikridan g'ofil etgan narsalardan yuz burmoq, dunyoni kichik sanamoq va har qanday orzu-havasini ko'ngildan silki chiqarmoq, Allohdan boshqa har narsa va har kimdan zohid bo'lmoqdir”, – deya ta'rif beriladi. Ko'rinib turibdiki, zuhd ahlining ibodat amallari, tarku dunyolari bari – Allohning marhamatiga erishish, uning cheksiz rahmatidan bahramand bo'lishga qaratilgan. Alloh zikrida doimiy bo'lish, ularning har doim uyg'og'ligi, g'afllardan yiroqligini, tom ma'noda, foni dunyodagi imtihon hayoti Yaratgan bilan oralarida parda bo'la olmasligini bildiradi. Ularning qalblari hamisha zirkulloh bilan mashg'ul va uyg'odir. Mazkur tasniflarning barchasida zuhd davri tasavvufning ilk boshlanmasi ekani isbotlanadi. Tasavvuf hol ilmi hisoblanadi. Shunday ekan, zuhd

amallari ham ko'ngil yo'lichiligidan hol va maqomni o'zgartiradi. Darhaqiqat, har qanday riyozat, jumladan, zuhd solikni hol evrilishiga sabab bo'lmoq' kerak. Zuhddan maqsad ham baytulloh hisoblangan qalb tasfiyasiga olib kelishdir. Shoh shoir Qul Ubaydiy ham nafs tazkiyasining bosh omillaridan biri zuhd ekanligini ta'kidlab yozadi:

Zuhdu taqvo daryosining suvin sepmay,
Nafsu havo o'ti hargiz so'nmas ermish.

Nafsdagi hollar amallardan dunyoga keladi. Zuhd – amaldir. Unda quruq da'vo, yolg'on so'z bo'lishi mumkin emas. Ahli zuhdning dunyoga munosabati, Haqqa muhabbati barcha ahli sulukka ibrat bo'lgan. Zero, shoir aytganidek, nafsu havoning shiddati olovini zuhd taqvo daryosining suvi bilanгина o'chirish mumkin.

Hasan Basriy: “Zuhd – dunyoga tavakkal qilish, dunyoga ko'ngil qo'yganlardan xafa bo'lish, dunyodagi narsalarni yomon ko'rish, oxiratga nisbatan ishtiyqli bo'lishdir”- der ekan, Abu Sulaymon Doroniy "Dunyo kelib bir qalbg joylashsa, oxirat u yerdan hijrat qiladi,- deb ta'kidlaydi. Haromning azobiga va halolning hisobiga tayyor bo'lish sharti bilan inson dunyoning barcha ne'matlariga sho'ng'ishi mumkin. Zuhdiy hayotni tarjih etganlar Haqni unutiruvchi dunyoga hushyor bo'lishgan, chunki u hirs va ehtirosni uyg'otgan, takabburlik va g'ururni keltirib chiqargan va uni ko'pchilikning poygasiga aylantirgan. Zero, dunyo hayotiga moyillik oxiratni unutishga, bandasini nafs asiriga aylanishiga olib keladi. Zuhdning badiiy adabiyotdagi talqinlari, albatta, dunyoga munosabat bilan ochib beriladi. Bandalarning o'n sakkiz ming olamni Yaratgan Biruborga bo'lgan ishq ilohiy kitoblarda ham ko'p ta'riflari keltirilgan, bir-biri bilan ziddan foni hamda boqiy dunyo yoxud dunyo va oxiratga munosabatlari bilan belgilanadi. Shunday fano va baqo tushunchalarini bir-biridan farqlashda, dunyoviy va uhroviy hayot huzurini anglatishda zuhd ahliga teng kelish qiyin. Chunki zuhd ahli bo'lgan, amalda va so'zda dunyoparastlikdan yiroq bo'lib, mahsharga tayyorgarlikni, abadiyat hayotiga muhabbatni ta'lim bergan, boqiy hayot borligidan xabardor qilganlar boshida barchalari barcha payg'ambarlar turadi. “Qisasi Rabg'uzyi”da o'qiyimiz: “Ul Idris payg'ambar alayhissalomni buldilar. Anga bordilar, aydilar: «Bizni shafolat qilg'il, bizni Izi azza va jalla yorliqasun», tedilar. Idris duo qildi. Farmon keldi: «Ey Idris, ularga aytg'il dunyoning azobinmu ixtiyori qilursiz yo uqbo azobinmu?» Idris bu so'zni aydi ersa aydilar: «Ey Idris, qamug' azobin ixtiyor qilaling, ayu bergil». Idris aydi: «Uqbo jovidona turur, dunyo azobin ixtiyor qilaling”. Albatta, azob, dard, balo tushunchalarining tasavvufdagi ma'rifiy ma'nosi o'z ma'nosidan ko'ra kengroq. Ammo Idris a.s. o'z qavmiga Uqbodagi farog'at, dunyodagi balo bilan bo'lishini ta'kidlaydi. 950 yil umr ko'rgan Nuh a.s.ning: “Xabarda kelur, bir kun Jabroil keldi. Nuh umri oxir bo'lmishda aydi: «Ey Nuh, payg'ambarlardin sening umrung uzunroq bo'ldi. Dunyoni netak buldung!» Nuh aydi: «Dunyoni bir, ikki qabug'lug' saroytak buldum. Bir qabug'din kirdim, bir qabug'din chiqa tururman», – degan dunyo haqidagi fikrlari ham aslida zuhd hayotga da'vatdir. Ummatning ilkilari bo'lgan sahobayi kiromlarning hayot tarzi, dunyoqarashi barchaga ma'lumdur. Dunyoviy kamchiliklardan xoli bo'lgan Payg'ambar alayhissalomning do'stlari ham qalblariga dunyo sevgisini yaqinlashtirmaslik ishtiyoi bilan yonganlar. Oliy istak samarasi o'laroq “...Alloh ulardan rozi bo'ldi va ular ham Undan rozi bo'ldilar. Yana (Alloh) ular uchun ostidan daryolar oqib turadigan, ular abadiy qoladigan jannatlarni tayyorlab qo'ydi. Mana shu buyuk baxt (Tavba: 9/100)ga musharraf bo'ldilar. Zuhdiy hayotni yashab o'tish tanlovida yuqoridagi kabi oyatlarning ta'siri katta bo'lgan. Shu bois aytish mumkinki, zuhdni ravotning oliy namunasi sahoba, tobeinlarda kechdi. Ularning islom ravnaqi uchun qilgan har bir xatti-harakatida, xayru ehsonida, eng muhimi Muhammad Mustafoda hamda Alloh azza va jalla ishqidan boshqa hamma narsani supurib tashlagan qalbida bir zohid yashadi.

Tahlil va natijalar. Ilk so'fiylardan Fuzayl ibn Iyoz: “Alloh bir uyning barcha yomonliklarini to'ldirdi va dunyo ishqini bu uyning kaliti qildi. U barcha yaxshilikni boshqa uyga to'ldirdi, zohidlik esa bu uyning kaliti bo'ldi”, – deydi. Mumtoz adabiyot mana shunday dunyoqarashlardan oziqlandi. Komil inson obrazini yaratishda adabiy qahramonning dunyoga munosabatidan ham kelib chiqdi. Rahnamolar ham muridlarini tarbiyat qanotiga olar ekan, ilk bor ularga g'animlarini tanitishga harakat qildi. Bular shariatdan chetlatuvchi shaytoni la'in, jilolanib o'ziga jalb etayotgan o'tar dunyodir. Bulardan qutulmoq uchun zuhdni ixtiyor qilmoq kerak. Turkiy adabiyotdagi ilk dostonlar ham zuhd g'oyalari bilan nurlanib, ko'ngillarni yoritdi. Jumladan, “Hibat ul-haqoyiq”da:

Bu dunyo nengitin egu kedguluk,
O'l ortuq tilama vabal yutguluk, –

ya'ni bu dunyo moli hech kimga vafo qilmaydi, u yo'qlikka mahkumdir, deyiladi. Zuhd tushunchasi va zohid shaxsiga munosabat jiddiy bo'lganligi bois, tasavvufning ta'rifi kabi ularga berilgan tavsiflar ham har xil. Barcha valiyalar, riyozat ahli bu mavzuga befarq bo'lishmagan hamda o'zlarining mulohazalarini aytib o'tishgan. Masalan, Ahmad ibn Havoriy: "Olamga havas va ishq nigohi bilan qaraganlarning qalbidan Alloh taolo zohidlik va ishonch nurini olib tashlaydi,"- desa, Abu Zarr: "Dunyoda zohidlik – halolni ham harom qilmoq, mol-u mulkni ham tark qilmoqdir. Zuhd – Allohning iznida bo'lgan narsalarga o'z qo'lingda bo'lgan narsalardan ko'proq ishonmoqdir". Abu Hafz: "Zuhd faqat halolda bo'lar" deydi, unga ko'ra dunyoda halol narsasi bo'lmagan kimsa haqida zuhdan so'z ochish ham noto'g'ri. Zunnun Misriy: "Zuhd – dunyoni sevishni tark etish, nafsning rohatini, sururini ta'min etuvchi narsalardan uzoqlashmoq, rohatlantiruvchi bog'lardan aloqani uzmoq, dunyoviy amallardan tiyilmoq, Allohga ishonmoq, dunyoda zaruriy ehtiyojlardan o'zgasini istamaslik, Allohdan uzoqlashtiruvchi har narsadan qochmoq, maxluqot sevgisini qalbdan chiqarmoq". Bu kabi fikrlarini uzoq davom ettirish mumkin, ammo ularning barida haqiqatni jamlovchi nuqta bor. Mohiyat – Alloh sevgisini qozonish yo'lida barcha to'siqlarni olib tashlash, dunyo hijobini oradan ko'tarish. Shu ma'noda ilohiy amrlar va hayotiy tajribalar asnosida dunyoga kelgan zuhd ta'limoti bugun ham o'z qimmatini va foydasini yo'qotmagan. Dunyoning foniyligini anglagan oxiratning boqiyiligini

tushunadi. Baqoga bo'lgan ishonch, fanoga bo'lgan qullikdan ozod qiladi. Natijada, istig'no maqomiga ko'tarilgan inson o'zining ehtiyoji faqat Yaratganda ekanligini fahmlaydi. Bandalikni tan olish bilan hurlik boshlanadi. Zuhdda ozodlik bor, zohid haqiqiy hurdir. Tasavvuf tarixida zuhd davrining muhim ahamiyati, shubhasiz, badiiy adabiyotda ham o'z aksini topdi. Zuhd davridan oriflik davriga o'tgan tasavvuf, zuhd qarashlaridan voz kechgani yo'q. Zuhd pillapoyasini bosib, keyingi martabaga yuksaldi xolos. Zuhdiy amallarni ado etib, oshiqona muroqaba, orifona mushohadaga erishildi. Zohidona tarkni amalga oshirgachgina xoslar tarkiga etildi. Adabiyotda ham ma'rifiy maslak mohiyati zuhd g'oyalar bilan uyg'unlikda ochib berildi. Oshiq, yor, orif, rind, soqiy, qalandar, darvesh, raqib kabi bosh obrazlarning xarakter xususiyati, estetik asoslari zohid obrazi bilan parallellikda yoxud qarshilantirishda teranroq yoritib berildi.

Xulosalar. Albatta, zuhd maslagi va zohid obrazining badiiy adabiyotdagi hayoti asarning g'oya va janr xususiyatlari bilan, davr bilan, shoir shaxsiyati bilan ham chambarchas bog'liq. Payg'ambarlar qissasi, tazkira, manoqiblarda zuhd va zohidlik insoniyat kamolatidagi bosh talablardan sanaladi. Epik turdagi asarlarda, xususan, dostonlarda qahramonlar erlik yo'lida ma'lum ma'noda zuhd bosqichini bosib o'tishadi yoki tarkidunyo qilib, zohidona hayotni ixtiyor etgan ma'naviy bobolardan madad olishadi. Ko'ngilning hududsiz his-u ehtirolarini ifodalagan lirikada goh zuhd hayot sog'inchi, goh zuhd amallarga isyon tasvirlari beriladi.

ADABIYOTLAR

1. I.Haqul. Meros va mohiyat, –T.: "Ma'naviyat", 2008. 3-b
2. Komilov N "Tasavvuf". Toshkent. "Movarounnahr"- "O'zbekiston" 2009 27-b
3. Xakkuil I. Tasavvuf va she'riyat. – T: Adabiёт va san'at, 1991.
4. Xakkuil I. Irфон va идрок. –T.: "Ma'naviyat", 1998
5. Raхмонова З. Ишқ, ирфон va иршод. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2021.
6. Усмон Турар. Tasavvuf тарихи. – Тошкент: 1999. – Б. 23
7. Xakkuil I. Navoiyга қайтиш (3-китоб). –T.: Тафаккур, 2016. В-99



UDK: 811.512.133.34

Dildora PULATOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: pulatovadildora@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-3637-8095>

F.f.n, dots. M.Abduraxmanova taqrizi asosida

REGIONAL SPECIFICATION OF THE FORMS OF ADDRESS IN THE UZBEKI LANGUAGE

Annotation

This article provides information on the research conducted on the study of dialects of the Uzbek language. Considerations have been made about the territorial specificity of forms of address, hyponyms of kinship, general language and dialectal forms of address. It is stated that the forms of reference related to the dialect are manifested in phonetically, lexically-semantically and grammatically in different variants, lexically, regional specificity is related to the semantics and structure of the word, and regionally specific forms of reference are analyzed through examples.

Key words: forms of reference, units of reference, dialects of the Uzbek language, dialect, dialect-related words, regionally specific forms of reference.

РЕГИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКАЦИЯ ФОРМ ОБРАЩЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье представлена информация об исследованиях, проводимых по изучению диалектов узбекского языка. Учтены территориальная специфика форм обращения, гипонимов родства, общеязыковых и диалектных форм обращения. Утверждается, что формы обращения, относящиеся к диалекту, проявляются фонетически, лексико-семантически и грамматически в разных вариантах, лексически региональная специфика связана с семантикой и структурой слова, а регионально-специфические формы обращения анализируются через примеры.

Ключевые слова: формы обращения, единицы обращения, узбекского языка, диалект, говор, слова, относящиеся к диалекту, регионально специфичные формы обращения.

O'ZBEK TILIDA MUROJAAT SHAKLLARINING HUDUDIY XOSLANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek tili dialektlarini o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Murojaat shakllarining hududiy xoslanishi, qarindoshlik giponimlari, umumtilga va shevaga xos murojaat shakllari haqida mulohazalar yuritilgan. Shevaga oid murojaat shakllari fonetik, leksik-semantik va grammatik jihatdan turli variantlarda namoyon bo'lishi, leksik jihatdan hududiy xoslik so'zning semantikasi, strukturalari bilan aloqador ekanligi bayon qilingan hamda hududiy xoslangan murojaat shakllari misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: murojaat shakllari, murojaat birliklari, o'zbek tili shevalari, lahja, sheva, dialekt, shevaga oid so'zlar, hududiy xoslangan murojaat shakllari.

Kirish. O'zbek shevalari har bir hududda o'ziga xos xususiyatlarga ega va turfa ifodalarni o'zida mujassam etadi. Shuning uchun ham, o'zbek tili juda serqirra va boy tillardan sanaladi. O'zbek tilidagi shevaga oid so'zlarni o'rganishning yo'nalishini belgilashda S.Ibrohimov, S.Rahimov, T.Yo'ldoshev kabi olimlarning tadqiqotlari yetakchi rol o'ynaydi [1]. O'zbek tili leksik qatlamining dialektal o'ziga xosligi qadimgi urug' va qabilalarning alohida hududlarda yashaganliklari bilan belgilanadi. Chunki qadimdan urug' va qabilalarning ijtimoiy hayot tarzi, hududiy mustaqilligi, kasb-hunari, etnografik xususiyatlari ularning tilida aks etishi tayin edi. Natijada, bu jarayon umumiy o'zbek tilini saqlab qolgan holda ma'lum hududlarga xos turfa xil sheva variantlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo va Qozog'iston hududida mavjud bo'lgan qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil, uyg'ur xalqlarining til birligi o'zbek tilida ham shunga muvofiq sheva va lahjalarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Demak, o'zbek milliy tilining shakllanishi va ravnaqi uchun uchta lahja xizmat qilgan: qipchoq (janubiy-g'arbiy guruh), o'g'uz (shimoliy-g'arbiy guruh) va qarluq (janubiy-sharqiy guruh) lahjalari bo'lib, ular ma'lum hududlar bilan chegaralangan [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek tili dialektlarini o'rganish yuzasidan ko'pgina tadqiqot ishlari olib borilgan. Hududiy dialektlar masalasida professorlar Q.Muhammadjonov shimoliy o'zbek shevalarini, A.Aliyev Namangan guruh shevalarini, X.Doniyorov Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi o'zbek shevalarini, B.Jo'rayev va A.Shermatov Yuqori Qashqadaryo hamda Quyi Qashqadaryo o'zbek shevalarini, N.Murodova Navoiy viloyati shevalarini, T.Qudratov Qashqadaryo viloyatidagi o'zbek shevalarining oraliq guruhini tadqiq etishgan [3]. Bu tadqiqotlar o'zbek tili shevalarining o'ziga xosligini asoslab beradi.

Yana shuni aytish mumkinki, o'zbek tilidagi shevaga oid so'zlarning tasnifiy masalalari ham ko'pgina olimlar tomonidan

o'rganilgan. Xususan, professor V.V.Reshetovning tasnifiga ko'ra, o'zbek tili shevalari uch guruhga ajratiladi:

1) shimoli-g'arbiy guruh – bu qipchoq lahjasidagi shevalardan iborat va unga qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tillarining ta'siri sezilib turadi;

2) janubi-g'arbiy guruh – bu o'g'uz lahjasiga taalluqli bo'lib, unga chegaradosh hudud tili, ya'ni turkman tilining ta'siri bor;

3) janubi-sharqiy guruh – bu qarluq lahjasiga xos bo'lib, unga tojik tilining aralashuvini kuzatish mumkin [4].

Olimning tasnifi O'zbekiston viloyatlari tilining o'ziga xosligini belgilash uchun asos bo'ladi. Garchi barcha viloyatlar uchun umumiy so'zlashuv tili o'zbekcha bo'lsa ham, viloyatlararo leksik qatlam o'ziga xos leksik-semantik, fonetik, grammatik, sintaktik jihatdan farqlanadi. Bu masalada ham V.V.Reshetovning tasnifi muhim ahamiyatga ega. Ba'zi so'zlar semantik bir xillik, ayni bir tushunchani ifodalasa-da, shevalarda turli so'zlar bilan berilishi va turlicha mazmunni ifodalashi mumkin: aka – Samarqand, Buxoroda ukadan katta yaqin qarindosh, Xorazmda esa dada ma'nosida. Demak, so'zlar anglatgan tushunchasiga ko'ra ham, shakliyl tuzilishi jihatidan ham hududlararo farqlanishi mumkin.

Har bir hududning sheva variantlari o'ziga xoslikka ega. Bu borada Xorazm leksikasida qolgan boshqa hududlarga nisbatan farqli belgilarni kuzatish mumkin. Ushbu hudud shevasi o'g'uz lahjasiga asoslangan bo'lib, unda ozarbayjon, turk, turkman tillariga xos leksik birliklar ko'p uchraydi [5]. Buxoro va Qashqadaryo shevalarida, bola – bachcha, qiz – duxtar, o'rta yoshli erkak – mardakcha, yigit – pisap tarzida uchraydi [6].

Adabiy tildagi qarindosh-urug'chilik leksikonidagi bobo murojaatda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm hududlarida buva, bobo, ota, katta ota, Farg'ona hududida buva, bobo so'zlari bilan birgalikda opoqi, katta ota variantlarida, Samarqand hududida Namanganda opodada (opoqdada) ham qo'llaniladi.

Shevalarning turfa xilligiga yana bir sabab unga boshqa tillarning ta'siri bo'lganligi bilan belgilanadi. Masalan, tadqiqotlardan ma'lum bo'ladi, o'zbek tili boshqa tillardan ajralib mustaqil taraqqiy etib boshlagan davrdan boshlab, unga turkiy va eroniy tillarning kuchli ta'siri bo'lgan. Jumladan, Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalariga qoraqalpoq va qozoq tillarining, Toshhovuz o'zbek shevalariga (Xorazm shevalariga) turkman tilining, shimoliy o'zbek shevalariga qozoq tilining, Qirg'izistondagi o'zbek shevalariga qirg'iz tilining, Samarqand, Buxoro, Namangan, Sariosiyo va Tojikistondagi o'zbek shevalariga tojik tilining ta'siri kuchlidir. Shu tufayli ham bu shevalar boshqa shevalardan farqlanib qolmoqda va o'ziga xoslikni vujudga keltirmoqda [7].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilidagi murojaat shakllari ham hududiy jihatdan o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Zotan, har bir hududning leksik qatlami o'ziga xos tabiati va jozibasiga ega bo'ladi. Shu sababdan maqola mazmunini yoritishda qiyosiy, chog'ishtirma, tavsiflash, komponent tahlil, stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shevaga oid murojaat shakllari fonetik, leksik-semantik va grammatik jihatdan turli variantlarda namoyon bo'ladi. Leksik jihatdan hududiy xoslik so'zning semantikasi, strukturalari bilan aloqador bo'ladi. Masalan, kayyoni so'zi Buxoro, Navoiyning ayrim hududlarida yoshi ulug' buvilarga murojaat qilishda, shuningdek, to'y-marosimlarda tashkiliy ishlarni amalga oshiruvchi onaxonlarga murojaat qilishda ishlatiladigan shaxs oti sanaladi: Nov, kayyoni! O'tovdan sas chiqmadi. (III. Xolmirzaev "Saylanma", 1-jild hixoyalar, 109-6.); Hamsoya so'zi qo'ni-qo'shniga murojaat qilishda ishlatiladi va bu leksik birlik Toshkent viloyati ba'zi hududlari, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro viloyati shevalarida qo'llanadi: Manavi husayni-ya, hamsoya? (T. Murod "Otamdan kolgan dalalar" 86-6.); Ay, hamsoya, esim qursin, xiyol bo'lmasa esimdan chiqayin, debdi, – dedi. – Xoldon momonikiga sumalakka boring. (T. Murod "От кишнаган окшом", Шарк-2006, 66-6).

Ena so'zi yoshi katta buvilar, onaga nisbatan murojaat shakli sifatida qo'llanadi va bu so'z, ko'pincha, Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent viloyati shevalarida uchraydi: Ena, ena!.. — deymen. Men yuzlarimni onamiz qo'llariga bosib-bosib hiqillayman. (T. Murod "Otamdan kolgan dalalar" 22-6.); Sahahardan bir arava mehmon olib keldim, ena! Uyingiz kuydi toza! Ikki kunda bor-yo'g'ingizdan ajralib qoqlanasiz endi! Qani, bo'ling, eshikni oching! Qo'nmimiz ulgudek och... (Ch'ulpon "Кеча ва Кундуз", 23-6).

Samarqandning Bulung'ur tumanida qiz bolaga nisbatan ayna so'zi qo'llanadi: Kel-ke! aynam, manavi yerga o'tir, — dedi Hojar ko'r. (T. Murod "Oyindin yurgan odamlar" 89-6.); Ot tuyog'ini tosh ursa, Hojar ko'r aybdor emas, aynam!... (T. Murod "От кишнаган окшом", Шарк-2006, 47-6.); Samarqand, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy Qashqadaryoning ayrim hududlarida yanga, yangajon, checha so'zlari aka, amaki, tog'aning xotiniga murojaat qilishda qo'llaniladigan birliklar sanaladi: Yangajon, boraveringlar (III. Xolmirzaev "Бахтли бўлинглар" 169-6.); Nov yanga! Nov, checha!.. Odam bormi? Mehmon keldiyam demaysizlar! (III. Xolmirzaev "Saylanma" 1-jild hixoyalar, 109-6.)

Shuningdek, hududiy chegaralangan murojaat shakllari fonetik jihatdan ham o'ziga xoslikni ifoda etishi mumkin. Masalan, ulim so'zi adabiy tilda o'g'lim semasini ifoda etadi. Ushbu so'z Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand va Jizzax viloyatining ayrim hududlariga xos: Ulim, bir nima esingda bo'lsin. Gagarinday boshing osmonga yetsa-da, olim bo'lib yetti iqlimni so'rasangda, sen, avvalambor, Ziyodulla chavandozning uli bo'l. (T. Murod "Юлдузлар мангу ёнади", Шарк-2009, 204-6.) Misoldan ma'lum bo'ladi, o' tovushi u tarzida o'zgarigan va nutqiy ixchamlikka erishilgan. Tadqiqotchi D. To'rayevaning ta'kidlashicha, Qashqadaryo hududiga oid sheva noadabiy unli tovushlarning talaffuzi va yuzuvda aks etishiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ya'ni bu hududda o' unlisi u tarzida talaffuz etiladi va yoziladi [8].

Yuqoridagi misollardan shuni aytish mumkinki, murojaat shakli sifatida qo'llanadigan shaxs otlari O'zbekistonning shimoliy hududlari, yoki janubiy hududlarida musharaklikka ega. Chunki uchala lahja variantlari deyarli barcha hududlarda tarqalgan. E'tiborli jihati shundaki, aynan bir so'z viloyatlararo hududiy xoslikka ega bo'lishi mumkin. Masalan, oshna so'zi Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax viloyatining ayrim hududlarida uchraydi. Asosan, bu so'z ushbu hududlarda erkaklar nutqida qo'llanadi: Senga bir nima aytayinmi, Nasim oshna? Enam somonxonaga moyak yashirib qo'yibdi. (T. Murod "Юлдузлар мангу ёнади", Шарк-2009, 25-6.). Ammo bu so'z O'zbekistonning shimoliy hududlari, ya'ni Farg'ona,

Marg'ilonda hamtovoq, birga tamaddi qiladigan insonga nisbatan ishlatiladigan semaga ega. Eng qiziq tomoni shundaki, bu so'z ushbu hududlarda genderologik xoslikka ega emas. Ya'ni ayollar ham, erkaklar ham oshna so'zidan muloqot jarayonida murojaat birligi sifatida faol foydalanishadi.

Hududiy o'ziga xoslik moma so'zida ham uchraydi. Ushbu so'z adabiy tilda kampir semasini ifodalaydi. Samarqand, Buxoroning janubiy tumanlari, Toshkentning ayrim hududlari, Surxondaryo, Qashqadaryoda momo so'zi buvi tushunchasini ifoda etadi: Momojon, rahmat. Onaxon, sizga ham. (III. Xolmirzaev, "Насиб этса" 137-6.); Rahmat, endi o'tiring, momo!.. (III. Xolmirzaev "Saylanma" 1-jild hixoyalar, 109-6.); Kuynanimdan gapiraman-da, Sora momo, kuynanimdan!-dedi Qimmat momo. Bo'lam-da, ming qilsayam, bo'lagingam-da! (T. Murod "Oyindin yurgan odamlar" 176-6.); Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida chollarning kampiriga murojaat shakli sifatida ham ishlatiladi: Cho'larda yig'laysan bunday ming'ayib, Ne sababdan, moma, sochingni yo'yib? ("Алломиш" достонидан). Shuningdek, bu so'z Farg'ona vodiysida kichkina qizlarga nisbatan erkalash ma'nosida ham qo'llanadi.

Murojaat birliklarining hududiy xoslanishini quyidagilarda ham ko'rish mumkin: akaning turmush o'rtog'iga murojaatda: kennayi, kennoyi, kelinoyi, o'yi, kelinopa, yanga, yangamullo, ism-yanga, checha, oycha, poshsho, yangaposhsho, biyi, oyi, kenchaya va b;

otaning onasi yoki onaning onasiga murojaatda: buvi, anna, buva, moma, bibi, biyi, katta ena, momo, ana, buvijon, to'ta, una, kattauna, kattaaya, ena kabi murojaat so'zlarni qo'llash.

Muloqot jarayonida turli nutq vaziyatidan kelib chiqib turlicha murojaat so'zlarni qo'llanadi. O'zbek tilida hududiy jihatdan o'ziga xos murojaat so'zlar mavjud. Yuqoridagi misollarda murojaat shakli sifatida qo'llanadigan shevaga oid shaxs otlariga misollar keltirildi va o'ziga xos xususiyatlari bayon etildi. Murojaat shakllari undov so'zlar misolida ham berilishi mumkin. Masalan, ay undov so'zi adabiy tilda ey semasiga to'g'ri keladi. Ushbu so'z Surxondaryo, Navoiy shevalariga xos bo'lib, shaxsga murojaat shakli sifatida foydalaniladi: Ayolimizni uyquli turtdim. — Ay, tur, tong otdi, — dedim. — Ay, akang qarag'ayni motosiklini ko'rib qo'yi — dedim. (T. Murod "Otamdan kolgan dalalar" 66-76-6.); Ay, Bolxin hamsoya, — deydi soya. — Shuginangiz bir baloga yo'liqqan-ov. Uljon folchiga fol ochirib kelsangiz bo'lardi. (T. Murod "Otamdan kolgan dalalar" 27-6.) Ushbu misolda e tovushi a tovushi tarzida ifoda etilyapti. So'zning birinchi urg'usiz ochiq bo'g'inida: Apa, avqotiz pishdimi? (Buxoro shevasi). So'zning birinchi urg'usiz yopiq bo'g'inida: Tag'o, hali ham karana virus ketmadi-ya? (Qashqadaryo shevasi). Shuningdek "a"lashish jarayoni Xo'jand hududi shevalari uchun ham xosdir [9], e tovushi a tarzida talaffuz etiladi va yoziladi. Ushbu variant ko'pchilik shevalar uchun xosdir: ...manga ko'p narsa... (Buxoro shevasi); Sani kutib qoluvchi... (Qashqadaryo shevasi) [10].

Insonning ijtimoiy mavqeyi, odob-axloqi, nutqiy maqsadiga ko'ra ba'zan vulgar so'zlar ham murojaat shakli sifatida nutqda qo'llanishi mumkin. Masalan, hundi — ichidagini aytolmaydigan, odamovi, egoist insonlarga nisbatan ishlatiladi. Adabiy tilda kamgap, jamiyat ishlariga aralashmaydigan insonga nisbatan aytiladi. Ushbu so'z kamsituvchi birlik sifatida nutqda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan,

"Bo'ri, o'lay agar, hundsan, hundi — dedi. Ichimdagini top deb, bezrayib tura berasan?" (T. Murod "Юлдузлар мангу ёнади", 11 - 6.); uka so'ziga nisbatan salbiy ma'noda ukkag'ar birligi ishlatiladi. Bu so'z, asosan, Samarqand, Qashqadaryo, Navoiyning ayrim hududlarida uchraydi. Masalan, Hay ukkag'ar polvonlar-e, kulasan-a, kulasan. (T. Murod "Юлдузлар мангу ёнади").

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi misollardan ma'lum bo'ladi, murojaat shakllari sifatida, odatda, shaxs otlari, vulgarizmlar hamda undov so'zlar hududiy o'ziga xoslikka ega sanaladi. Odatda, hududiy xoslangan murojaat shakllari fonetik, leksik, grammatik strukturaning o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Bu ayrim hududlarda bir so'zning ikki xil semantik ifodasini taqozo etsa, ayrim viloyatlarda bir semaga ega leksik birlikning turli xil strukturada ifodalanishini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, nutqiy vaziyat, so'zlovchining ijtimoiy qatlamidan kelib-chiqqan holda murojaat shakllari sifatida vulgar so'zlar ham qo'llaniladi. Bundan haqorat va so'kinishga oid birliklar so'zlovchining nutqiy maqsadi natijasida yuzaga keladi. Buyruq-xitob undovlari ham murojaat shakli sifatida hududiy xoslikka ega. Odatda, bu so'zdan katta yoshlilarning o'zidan kichik shaxslarga murojaati sifatida foydalaniladi.

ADABIYOTLAR

1. Ибрахимов С.И. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи. – Тошкент, 1967.
2. Намроев М., Мухамедова Д., Шодмонқуллова Д., Г'уломова Х., Yo'ldosheva Sh. Ona Tili: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017. – B. 5.
3. Qudratov T. O'zbek tilining oraliq shevalari (Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va Qamashi rayonlaridagi oraliq sheva materiallari asosida): Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1968. – B.236;
4. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013. – B.36.
5. Xudayberganova D.Q. Xorazm xalq dostonlari leksikasida nofaol qatlam: Filol. fan. d-ri. ...diss. – Urganch, 2017. – B.39.
6. To'rayeva D.A. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi: Filol. Fan. fals. dok-ri. – Qo'qon, 2022. – B. 42.
7. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013. – B.7.
8. To'rayeva D.A. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi: Filol. Fan. fals. dok-ri. – Qo'qon, 2022. – B. 104.
9. Sheraliyev Sh.E. O'zbek tili sharqiy Xo'jand shevalarining grammatik kategoriyalari: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2001. – B.27.
10. To'rayeva D.A. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi. – Qo'qon, 2022. – B. 102.



Gavhar SALOMOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsent v.b., PhD
E-mail: gavhar.salomova@mail.ru

TerDU professori, f.f.d. P.Bakirov taqrizi asosida

TILSHUNOSLIKDA QISQARTMALAR VA ULARNING TO'LIQ SHAKLI O'RTASIDAGI MUNOSABAT

Annotatsiya

Mazkur maqola dunyo tilshunosligida qisqartma so'zlar, ularning so'z birikmalari va birikma nomlarni almashtirish vazifalarini aniqlash, qisqartmalar yuzaga kelish yo'llarini tipologik aspektida tavsiflash, qisqartmalar birikma nomlardagi ma'noni bera olish jihatlari ilmiy asoslash, rasmiy, badiiy va publitsistik uslublarda qo'llanishini o'rganish asosiy vazifa bo'lib keldi. Keyingi tadqiqotlarda esa qisqartmalarni ilmiy va rasmiy matnlarda to'laqonli qo'llanishini lingvistik asoslash, bunday matnlarni ixchamlashtirishda qisqartmalardan foydalanish usullarini ishlab chiqish dolzarblik kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: qisqartma so'zlar, abbreviatsiya, tipologiya, sistemosestrizm, antroposentrizm.

THE RELATIONSHIP BETWEEN ABBREVIATIONS AND THEIR FULL FORM IN LINGUISTICS

Annotation

This article defines the functions of replacing abbreviations, their word combinations and compound nouns in world linguistics, describes the ways of occurrence of abbreviations in the typological aspect, scientifically substantiates the aspects of the ability of abbreviations to give meaning in compound nouns, uses them in official, artistic and journalistic styles. The main task has been to study the application. In further studies, the linguistic justification of the full use of abbreviations in scientific and official texts, the development of methods of using abbreviations in the condensing of such texts are gaining relevance.

Key words: acronyms, abbreviations, typology, systemocentrism, anthropocentrism.

СВЯЗЬ МЕЖДУ АББРЕВИАТУРАМИ И ИХ ПОЛНОЙ ФОРМОЙ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье определены функции замены аббревиатур, их словосочетаний и сложных существительных в мировой лингвистике, описаны способы возникновения аббревиатур в типологическом аспекте, научно обоснованы аспекты способности аббревиатур придавать значение в сложных существительных, используется их в официальном, художественный и публицистический стили. Основной задачей было изучить приложение. В дальнейших исследованиях приобретают актуальность лингвистическое обоснование полноценного использования сокращений в научных и официальных текстах, разработка способов использования сокращений при сокращении таких текстов.

Ключевые слова: аббревиатуры, аббревиатуры, типология, системосентризм, антропоцентризм.

Kirish. Qisqartirish murakkab lingvistik hodisa bo'lib, lug'at, so'z shakllanishi, aloqa va axborot nazariyasi, semiotik nazariya va motivatsiya nazariyasi sohasidagi bir qator nazariy muammolar bilan bog'liq. Murakkab hodisa bo'lib, qisqartma uni ta'riflash va baholashda noaniq yondashuvlarni keltirib chiqaradi. Tizimga asoslangan yondashuv qisqartmani munosabatlarning barcha turlarini o'z ichiga olgan hodisa sifatida ko'rib chiqish imkoniyatini beradi: rasmiy-strukturaviy, motivatsion, derivatsion, semantik, paradigmatic, diskursiv va boshqalar).

Muammoga pragmatik yondashuvga ko'ra, qisqartma bir nechta o'zaro bog'liq jihatlarda yoritilgan: mazmun (pragmasematika yoki "ichki pragmatika); funksional-kommunikativ (yaratish va foydalanishning pragmatik tamoyillari nuqtai nazaridan); sotsiolingvistik (ijtimoiy mavqei, millati, jinsi, yoshi, kasbiy mansubligi parametrlari bo'yicha farqlash nuqtai nazaridan);

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XVIII asrdan XX asr boshlariga qadar bu so'z asl etimologik ma'nosida qo'llanilgan. Jumladan, F.Pavlenkovning lug'atidagi mazkur so'zning talqini bo'yicha: abbreviatura – "yozma va bosmaxonadagi qisqartma" deb keltiriladi[3]. E.S.Kubryakova, A.N.Eldishev, E.A.Dyujikova singari olimlarning fikricha, "abbreviatura" va "abbreviatsiya" tushunchalarini "qisqartirish" «сокращение» terminiga tenglashtirish maqsadga muvofiqdir, negaki asosiy farq faqat quyidagi tushunchalarning etimologiyasida: "abbreviatura" termini – o'zlashma so'z[4].

O'z navbatida, I.V.Arnold ham "abbreviatura" va "qisqartma" «сокращение» tushunchalarini sinonim va ularni farqlab bo'lmaydi[5], deb ta'kidlaydi. Bu tushunchalarni farqlash, chegaralash tarafdorimiz. Boisi Kubryakova va Arnoldlar aytganidek, qisqartmalar teng tushunchalar emas.

Barchamizga ma'lumki, abbreviatura – qisqartirish jarayoni bo'lib, lisoniy hodisa sanaldi. Y.Odilov ham bu tushunchalarni chegaralab qo'llash, farqlab yondashish haqida quyidagi fikrini bildirgan edi: "tadqiqotlardan qisqartma so'z va qisqartirish hodisasi

farqlanmagani hamda qisqartma so'zlarning turlari yetarlicha tavsiflanmagani ayon bo'ladi. Shu o'rinda so'zlarni qisqartirish usullari va qisqartirish usullari bilan hosil bo'ladigan qisqartma so'zlar tushunchasi jiddiy farqlanishi zarur"[6].

Muammoga antroposentrik yondashuv qisqartmalarni til tizimi va ona tilida so'zlashuvchining o'zaro ta'siri nuqtai nazaridan, qisqartmalarni esa nominatsiyani kontseptsyalashning asosiy vositalaridan biri sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Til birliklarini ongsiz va ongli ravishda yaratish va ishlatishda namoyon bo'ladigan "inson omili" ni hisobga olgan holda, inson leksikonida SLE saqlanishining o'ziga xosligi, kodlash va dekodlash tabiati, tillar o'rtasidagi assotsiatsiyalar tabiati hisobga olinadi. belgining referenti, tushunchasi va tanasi ochiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, muammoga barcha mavjud yondashuvlar qisqartmaning lingvistik tabiatini tan olishga to'g'ri keladi. Bizning ishimizda qisqartmani aniqlashning nazariy asosi E.S.Kubryakova, "motivatsiya manbaining har qanday chiziqli qismlarini kesishdan iborat bo'lgan va o'z shaklida biron bir qism yoki qismni aks ettiruvchi so'zning paydo bo'lishiga olib keladigan so'z maqomiga ega ikkilamchi nominatsiya birliklarini yaratish jarayoni. asl birlik tarkibiy qismlaridan".


Tahlil va natijalar. Bunday jarayonning samarali birligi qisqartma hisoblanadi. Qisqartma so'zning morfologik belgilariga (jins, hol, ko'plik), shuningdek, so'zning asosiy belgilariga (fonetik shakl, grammatik yaxlitlik, o'tib ketmaslik, ajratiluvchanlik, frazeologik ma'no, nominativlik va boshqalar) ega bo'lgan taqdirdagina so'z maqomiga ega bo'ladi. Bizning ishimizda tahlil qilingan leksik qisqartmalarda o'xshash belgilarining mavjudligi ularning leksiklashuvini va mustaqil leksik birliklar xususiyatini tasdiqlaydi.

Leksik qisqartmalar boshqa so'zlar bilan bir xil aloqa vositasi vazifasini bajaradi, ya'ni ular to'laqonli aloqa birliklari bo'lib, til tizimiga kirib, tilga xos usullar bilan yangi so'zlarning shakllanishiga asos bo'ladi. Zamonaviy ingliz tili lug'atini yangi leksemalar,

jumladan qisqartirilgan hosilalar bilan to'ldirish tashqi va ichki omillarning ta'siri bilan bog'liq.

Shu bilan birga, tashqi omillarning ta'siri, qoida tariqasida, juda aniq ifodalanadi va jamiyat hayotida sodir bo'layotgan jarayonlar

bilan bevosita bog'liqdir. Qisqartirilgan neologizmlarning paydo bo'lishi ma'lum bir vaqt oralig'ida ular bildiradigan hodisaning dolzarbligini ko'rsatadi.



Ingliz tilidagi qisqartma so'zlarning yondosh tushunchalarining foizlarda ko'rsatkichlari

Qisqartmalarning keng qo'llanilishi ko'pincha katta ijtimoiy o'zgarishlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va millatlararo ijtimoiy-madaniy aloqalarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, ular taniqli nomlarni takomillashtirish yoki takomillashtirish asosida bir qator yangi paydo bo'lgan hodisalarni nomlash zarurligini keltirib chiqaradi. chiqarishning yangi usullaridan foydalanish va, xususan, so'z yaratishning qisqartma usulining faollashishiga va yanada baquvvat namoyon bo'lishiga hissa qo'shing.

Qisqartmalarning intensiv shakllanishi til rivojlanishining ma'lum bir davridir. Shu bilan birga, til tizimining so'z yasallishi va leksik darajalarining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, shuning uchun umuman tilning o'zgarishi nafaqat inson va jamiyat hayotida sodir bo'ladigan ijtimoiy-madaniy hodisalarga bog'liq, balki lingvistik jarayonlar haqida ham uning rivojlanishi va rivojlanishining barcha bosqichlarida sodir bo'ladi, chunki tilning aloqa vositasi sifatida ishlashi "o'z-o'zidan odamlarga bog'liq bo'lmagan o'zgarishlar uchun impuls yaratishga qodir" (Serebrennikov 1968). Dunyoning lingvistik rasmining ichki o'zgarishlari kamroq seziladi. Biroq, intrasistemik neoplazmalar tabiatda va ular bajaradigan funktsiyalarning tabiatida xilma-xildir.

Tashqi stimullar (inson va jamiyat hayotida sodir bo'ladigan ijtimoiy-tarixiy va ijtimoiy-madaniy hodisalar, jamiyat rivojlanishining kommunikativ va diskursiv yo'nalishlari) intralingual stimullarni amalga oshirishga yordam beradi (ikkinchi darajali nominatsiya usullari, lingvistik ifoda iqtisodiyoti, til rivojlanishining antinomiyalarini hal qilish "kod-matn", "so'zlovchi-tinglovchi", semantik innovatsiyalar va transformatsiyalar, qo'shimcha konnotatsiyalarni ishlab chiqish) va allaqachon ma'lum bo'lgan kontseptsiyani berishga intiladigan til mexanizmini harakatga keltiradi. jamiyatning zamonaviy rivojlanishining u yoki bu tendentsiyalariga mos keladigan til tizimining ma'lum bir holati uchun qulay belgi.

Ingliz tili bo'yicha ishlarda eng ko'p murojaat qilinadigan "Oxford Advanced Learner's Dictionary" hamda "Oxford Advanced American Dictionary" dagi ma'lumotlarga ko'ra, abbreviatura birikma va h.k.larning qisqargan shakli – a short form of a word, etc; biror so'z, qo'shma ot kabilarni qisqartirish jarayoni – the process of abbreviating something[7] hisoblanadi. "Macmillan English Dictionary" da esa shunday izohlanadi: A short form of a word or phrase: MIA is an abbreviation for "Missing in Action"[8].

Ko'rinadiki, lug'atlarda abbreviatura termini bilan ham birikmalarni qisqartirish jarayoni, ham qisqartirish hodisasi natijasi bo'lgan til birligi nazarda tutilmoqda. Bizningcha, bu termin bilan ikkita har xil lisoniy holatni bunday talqin qilish o'zini oqlamaydi. Birikma nomni yoki so'z birikmasini qisqartirish jarayoni bu lisoniy hodisadir, uni o'zbek tili nuqtayi nazaridan qisqartirish yoki umumlingvistik atama sifatida abbreviatsiya deyish to'g'ri bo'ladi. Bunda abbreviatsiya xalqaro termin sifatida yanada ma'qulroq ko'rinadi. Abbreviatsiya natijasi bo'lgan birlikni esa qisqartma, qisqartma so'z yoki abbreviatura shaklida tushuntirganimiz joiz. Bular ichidan qisqartma termini sof o'zbekchaligi bilan, abbreviatura termini lingvistikada ko'p qo'llanganligi bilan bir-biridan afzallik kasb etadi.

Biz o'zbek tilining ilm-fan tiliga aylanayotgani va tadqiqotimiz o'zbek jamiyati uchun mo'ljallanganligini hisobga olib, tadqiqotimiz davomida asosan qisqartma terminidan foydalandik, ayrim o'rinlarda – bu termini takror qo'llashga to'g'ri kelgan o'rinlarda tautologiya (takror)dan qochish maqsadida abbreviatura atamasini ishlatdik.

Qisqartmalar bir nechta ma'noga ega bo'lib qolishi ham mumkin. Bu paytda matnda ulardan foydalanilganda qaysi ma'noda kelganligi noaniq bo'lib qoladi. "Machine Reading" (elektron o'qish) vazifalari uchun muhimdir. Mavjud yondashuvlarda asosan qisqartmalarning qo'lda belgilab chiqilgan namunalar va ularning to'g'ri, qisqartirilmagan shakllariga tayanib tushuniladi. Qisqartmalarning asl birikma shakllari bo'yicha bunday ma'lumotlar to'plamlari kamligi, cheklangan qo'llanilishi va moslashuvchanligi sababli sun'iy intellekt yordamida o'qitish modellarini yaratish murakkablashadi, alohida tadqiqotlarni taqozo qiladi. Muhimi shundaki, ko'plab mavjud qisqartirish usullarini sun'iy intellekt tushunishi uchun qisqartmalar to'liq empirik baholanishi kerak va bu amalda juda qiyin. Ma'no bo'yicha alohida matnlar yaratilib, kontekst ko'rinishlari so'z vektorlari sifatida o'rganiladi.

Qo'shimcha tuzilmagan matndan foydalangan holda yaxshiroq kontekst ko'rinishlarini olish orqali qisqartmalarning ma'nosini aniqlash samaradorligini qanday amalga oshirishni ko'rsatadi. Bizning qisqartmalarni kontekstual tahlil qilish usulimiz to'liq miqyosda baholashni talab qilmasdan ishlashni tahlil qilishga imkon beruvchi shaffof modelga ega bo'lgan birinchi qisqartmani aniqlashtirish usuli bo'lib, bu uni bugungi axborot asrida juda dolzarblashtiradi[6].

Mazkur tur qisqartmalar (akronimlar) ingliz tiliga transliteratsiya yo'li bilan yangi atamalar sifatida ko'chiriladi. Bunday birliklar shaklan ixchamligi sababli terminologiyada oson barqarorlashadi: ASAP – as soon as possible – iloji boricha tezroq; ADSS – Association of Directors of Social Services-ijtimoiy xizmatlar direktorlari uyushmasi; AE-Age Equivalent – yoshga teng; AEN-Additional Education Needs-qo'shimcha ta'limga ehtiyojlar; laser – light amplification by stimulated emission of radiation – induksiya qilingan nurlanish orqali yorug'likni kuchaytirish; radar – radio detection and ranging – radio aniqlash va masofani aniqlash; scuba – self-contained underwater breathing apparatus – mustaqil suv osti nafas olish apparati; TESOL – Teachers of English to Speakers of Other Languages – boshqa tillarda so'zlashuvchi ingliz tili o'qituvchilari.

Ingliz tilida akronimlar ikki xil ma'nodagi so'zni birlashtirish yoki qisqartirish va ularni bitta so'z bilan birlashtirish orqali bir so'z o'rni qo'llaniladi.

Xulosa. Jahon tilshunosligida qisqartmalar bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar o'rganilganda rivojlanishining hozirgi bosqichida abbreviatura o'ziga xos so'z hosil qilish jarayoni ekani ma'lum bo'ldi. Biz qisqartmalarni tizimli ko'rib chiqilishi kerakligiga qo'shilamiz. Qisqartmalarni hosila so'zlar hisoblash imkoniyati ko'pincha rad etilgan, chunki ularning semantikasi birikma nomlarning semantikasiga mos keladi.

ADABIYOTLAR

1. Иванова Л.В. Структурно-семантические и функционально-прагматические особенности отабревиатурной лексики: на материале немецкоязычных текстов СМИ. Автореф. дис. ... канд. филол. наук –Барнаул, 2010. – 18 с.
2. Salomova G.A. Ingliz va o'zbek tillardagi qisqartma so'zlarning chog'ishtirma tadqiqi. F.f.f.d. (PhD) dis... - Termiz, 2023. – 220 b.
3. Словарь иностранных слов, вошедших в состав русского языка. – СПб.: Ф. Павленков, 1900. – С.4. (714 с.).

4. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений: Семантика производного слова. – М., 1981. – С.103.; Елдышев А.Н. Стрoение и мотивированность сокращённых слов (к проблеме взаимодействия формально-содержательных признаков в слове): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1982. – С.14;
5. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: ФЛИНТА, 2012. – С.188. (376 с.).
6. Одилов Ё.Р. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг таракқиёти: монография. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – В.35.
7. Oxford Advanced Learner's Dictionary. 7th edition. London. 2005. – P.74.
8. Macmillan English Dictionary. For Advanced Learners. – USA: Macmillan Education, 2001. – P.



UDK: 811(111.34)

Hayotxon TEMIROVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: Hayyothayyot@gmail.com

Taqrizchi: Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti Fakultetlararo chet tili kafedrasida dotsent v.b. filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) U.S.H. Turayeva taqrizi ostida.

THE IMPACT OF VOWEL SYNHARMONY IN KIPCHAK DIALECTS ON ENGLISH PRONUNCIATION

Annotation

The Kipchak dialect spoken in Surkhandarya exhibits distinct vowel synharmony patterns that negatively affect the acquisition of English pronunciation among its speakers. This study examines how these vowel harmonization features, unique to the Kipchak dialect, create challenges in accurately producing English vowel sounds. Native speakers of the Kipchak dialect often apply their native vowel harmonization rules to English, resulting in mispronunciations and difficulties in distinguishing between similar vowel sounds. In contrast, English learners from non-Kipchak dialect backgrounds do not encounter these specific issues. The study includes a detailed analysis of the vowel system in the Kipchak dialect and provides examples of pronunciation errors in English.

Key words: Vowel Synharmony, Kipchak Dialects, English Pronunciation, Negative Transfer, Phonetic Analysis, Dialectal Variation, Language Acquisition.

QIPCHOQ LAHJASIDA TOVUSH SINGARMONIYASINING INGLIZ TILI TALAFFUZIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Surxondaryoda gaplashiladigan Qipchoq shevasida o'ziga xos tovush singarmoniyasi shakllari mavjud bo'lib, ular ingliz tili talaffuzini o'rganish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot Qipchoq shevasida mavjud bo'lgan tovushlar uyg'unligi xususiyatlarining ingliz tili tovushlari aniq talaffuz qilishda qanday qiyinchiliklar keltirib chiqarishini o'rganadi. Qipchoq shevasining ona tiliga xos tovush uyg'unligi xususiyatini ingliz tilida ham qo'llash natijasida talaffuz xatoliklari va o'xshash tovushlarni ajratishdagi qiyinchiliklar yuzaga keladi. Boshqa shevalarda so'zlashuvchi ingliz tili o'rganuvchilari esa bu muammolarni uchratmaydi. Tadqiqot Qipchoq shevasidagi tovush tizimining batafsil tahlilini o'z ichiga oladi va ingliz tilidagi talaffuz xatoliklariga misollar keltiradi.

Kalit so'zlar: Tovush singarmoniyasi, Qipchoq shevalari, Ingliz tili talaffuzi, Salbiy transfer, Fonetik tahlil, Dialektal farqlar, Til o'rganish

ВЛИЯНИЕ СИНГАРМОНИИ ГЛАСНЫХ В КИПЧАКСКИХ ДИАЛЕКТАХ НА ПРОИЗНОШЕНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Кипчакский диалект, распространенный в Сурхандарье, характеризуется особенностями сингармонии гласных, которые негативно влияют на изучение произношения английского языка носителями этого диалекта. В данном исследовании рассматривается, как эти особенности гармонизации гласных, уникальные для кипчакского диалекта, создают трудности в точном произнесении гласных звуков в английском языке. Носители кипчакского диалекта часто применяют правила гармонизации гласных своего родного языка к английскому, что приводит к ошибкам произношения и трудностям в различении схожих гласных звуков. В отличие от них, изучающие английский язык, не говорящие на кипчакских диалектах, не сталкиваются с этими проблемами.

Ключевые слова: Сингармония Гласных, Кипчакские Диалекты, Английское Произношение, Негативный Перенос, Фонетический Анализ, Дialeктное Вариирование, Изучение Языков

Introduction. Problem of the Research: The study investigates how vowel synharmony in the Kipchak dialect of Surkhandarya negatively impacts English pronunciation. Specifically, it focuses on the difficulties Kipchak dialect speakers face in distinguishing and producing English vowel sounds, leading to phonological errors due to negative transfer from their native vowel harmonization patterns. These challenges are significant in light of the educational reforms and development goals set forth by our president's these statements: "educating young people in the spirit of national and universal values will never lose its significance and necessity for us" [1]. Our head of state emphasizes the modernization of education and the importance of equipping students with the skills needed for effective global communication. This study aligns with those goals by addressing the linguistic barriers faced by learners, particularly in mastering English pronunciation.

Aim

The aim of the study is to analyze and document the impact of vowel synharmony from the Kipchak dialect on the pronunciation of English vowels, highlighting the challenges faced by learners from this background and providing insights into addressing these errors.

Tasks

Examine the vowel system of the Kipchak dialect.

Identify the specific vowel errors that occur when Kipchak speakers attempt to pronounce English vowels.

Provide detailed examples of these phonological errors.

Offer suggestions for addressing these pronunciation challenges in English language instruction.

Literature review. The influence of native dialects on the acquisition of foreign language pronunciation has been a subject of linguistic research for many decades. The phenomenon of negative

transfer, also known as interference, is particularly pronounced when speakers of dialects with specific phonetic characteristics learn a foreign language. In this study, the focus is on the Kipchak dialect of Surkhandarya, Uzbekistan, where the distinct vowel synharmony patterns interfere with the accurate pronunciation of English vowels. Several key studies provide the foundation for understanding the dialectal phonological features that lead to these difficulties.

Rahimov (1985) conducted an extensive analysis of Surkhandarya dialects, documenting their unique phonetic and lexical features. His work highlights the presence of vowel harmony rules in these dialects, which are based on the position and articulation of vowels within a word. This is particularly relevant to the Kipchak dialect, where these harmonization patterns are well-preserved and influence how speakers adapt vowel sounds from other languages, including English. Rahimov's work provides an essential phonological background for understanding why Kipchak speakers face specific challenges in distinguishing between certain English vowels, such as [i] and [e].

The foundational work of Dmitriev (1948) on Turkic languages further supports the significance of vowel harmony in dialectal phonology. His study on Bashkir grammar highlights how vowel harmony operates across different Turkic dialects, including the transition of vowels based on their phonetic context. This principle of vowel harmony is mirrored in the Kipchak dialect, and Dmitriev's insights help explain the systematic nature of vowel substitution errors among Kipchak speakers learning English.

In addition to Dmitriev, Baskakov (1940) explores the vowel systems of Nogay and other Turkic dialects, emphasizing the role of labialization and vowel height in determining vowel quality. His research is relevant in understanding the errors made by Kipchak

speakers, as the vowel system in their dialect often causes mispronunciations in English due to differences in tongue height and labial involvement during articulation. Baskakov's classification of vowels provides a framework for analyzing the specific vowel substitutions observed in Kipchak-speaking English learners.

Ishayev (1977) and Nosirov (1980) contribute to the understanding of Uzbek dialects, including the Kipchak dialect, by examining how vowel harmony rules manifest differently in various regions of Uzbekistan. Their studies show that dialectal variation within Uzbek often leads to phonological inconsistencies when speakers of these dialects learn a foreign language. For Kipchak speakers, the lack of differentiation between certain vowel pairs in their native dialect, such as [i] and [e], poses a significant challenge when learning English pronunciation. Ishayev and Nosirov's work is crucial in contextualizing the specific phonetic environment of Kipchak speakers and its impact on their acquisition of English.

Finally, the work of Reshetov on Kuraminskiye dialects offers additional insights into the vowel harmony phenomenon across Turkic languages, particularly in regions close to Surkhandarya. Reshetov's analysis of dialectal variation provides a broader linguistic context for understanding how vowel harmony systems like that of the Kipchak dialect can lead to negative transfer in the acquisition of English vowel sounds. His work underscores the importance of phonological awareness in addressing these pronunciation issues.

Research methodology. This study employs a qualitative analysis of vowel synharmony in the Kipchak dialect and its impact on English pronunciation. Key methods include: Phonetic Analysis: Examining the vowel system of the Kipchak dialect to identify harmonization patterns that affect English vowel production.; Error Analysis: Analyzing common pronunciation errors made by Kipchak speakers when learning English, illustrating how native vowel rules lead to mispronunciations.; Comparative Framework: Comparing Kipchak speakers with non-Kipchak speakers to highlight specific challenges related to negative transfer.; Theoretical Context: Utilizing theories of negative transfer to explain how first language phonology interferes with second language acquisition.

Analysis and results. The Kipchak dialect spoken in Surkhandarya exhibits certain vowel synharmony patterns that have been observed to have a negative impact on the process of learning English pronunciation. This negative transfer, resulting from the preservation of specific vowel synharmony features in the Kipchak

According to the horizontal rise of the tongue		Front raw		Back raw	
		not labialized	labialized	not labialized	Labialized
According to the vertical rise of the tongue	high	i	ü	i	u
	mid	e	ö		o
	Low	ə		a	o

The phoneme [i], represented as "I" in written form, is a front row vowel sound that is narrow and non-labialized. It is commonly found in most Turkic languages, including the dialects of Surkhandarya. In these dialects, the vowel [i] is phonetically similar to the [i] sound in the Karakalpak language and the [i] sound in the Kazakh language [2].

Over time, the phoneme [i] has undergone a development process, transforming into a high-mid-rising unlabialized vowel. This evolution has also been observed in the Karakalpak language. Acoustically, the [i] vowel sounds open and approaches a closed [e] sound in unstressed syllables [3].

In the j-group of the investigated dialects, the [i] vowel is considered an independent phoneme, distinct from other vowel sounds. It has its own contrasting pair, [i]. This means that [i] and [i] are not merely positional variants, but they have their own distinct sounds.

In these dialects, the substitution of [i//e//ə] sporadically occurs at different positions within words. This includes the beginning of words, the middle of words, and the end of complex words and grammatical forms. For example, words like "xirs" may be pronounced as "ers," "iloxi" as "eloyi," "xisobot" as "xesabat [4], "nima" as "nema," "nima deysan" as "nema deysen," and "kelib edik" as "kevek [5]."

In bilingual dialects, where two languages are spoken, the phoneme [i] is pronounced closer to [e], but with a slightly elongated position. This can be observed in words like "obi" being pronounced as "obe," "lalmi" as "lalme," "Sarvi" as "Sarve," "Lutfi" as "Lutfe," and "Nuri" as "Nure." This feature is also present in the Kokan dialect of the Uzbek language [6].

The harmony of sounds [i] and [e] in the Surkhandarya dialect is not included in the phonetics of the literary Uzbek language,

has been found to be unique to native speakers of this particular dialect. Conversely, it has been determined that English language learners who do not speak a Kipchak dialect do not encounter the same pronunciation errors stemming from this negative transfer phenomenon.

The preservation of vowel synharmony in the Kipchak dialect of Surkhandarya has been identified as a contributing factor to the difficulties faced by native speakers of this dialect when learning English pronunciation. The distinct vowel synharmony patterns present in the Kipchak dialect, which involve the adaptation and harmonization of vowels based on their position and place of articulation within words, tend to interfere with the acquisition of English pronunciation rules.

It has been observed that native speakers of the Kipchak dialect, due to the influence of vowel synharmony, may exhibit pronunciation errors in English words that involve vowel sounds. These errors arise from the tendency to apply the vowel harmonization patterns of the Kipchak dialect to English words, which do not adhere to the same principles of vowel synharmony. This negative transfer, unique to native speakers of the Kipchak dialect, can lead to mispronunciations and difficulties in accurately producing English vowel sounds.

In contrast, non-Kipchak dialect speaking English language learners do not encounter the same pronunciation errors caused by this negative transfer phenomenon. As they are not exposed to the vowel synharmony patterns present in the Kipchak dialect, their learning process is not hindered by the preservation of these specific features. Consequently, non-Kipchak dialect speakers have a comparatively easier time acquiring and reproducing English vowel sounds accurately.

The table presented outlines the vowel system of the Kipchak dialect of the Uzbek language. It provides a detailed classification of vowels based on key articulatory features, helping to illustrate the specific phonetic characteristics of the dialect. By categorizing vowels according to the horizontal and vertical rise of the tongue, as well as the involvement of the lips, this table offers a clear representation of how vowels are pronounced within the Kipchak dialect. Such a classification is crucial for understanding the distinct phonological patterns that set this dialect apart from others within the Uzbek language.

Vowel classification of Kipchak dialect [2].

as it is not considered phonologically important. However, this phenomenon can create negative transfer in the process of acquiring the same sounds in the English language. When native speakers of the Surkhandarya dialect learn English, the differentiation between [i] and [e] poses a challenge and prevents them from pronouncing these sounds correctly. As a result, phonological errors may occur in their English pronunciation [7].

Negative transfer, also known as interference or cross-linguistic influence, refers to the influence of one's native language on the acquisition or production of a second language. In the case of the Surkhandarya dialect speakers learning English, the lack of distinction between [i] and [e] in their native dialect can lead to difficulties in accurately producing these sounds in English [8].

In the Surkhandarya dialect, the phonetic distinction between [i] and [e] is not phonologically significant, meaning that the two sounds are not considered distinct phonemes that differentiate meaning in words. This lack of differentiation can result in a tendency to pronounce both [i] and [e] as a single sound, which can be problematic when learning English, as English does make a phonemic distinction between these two vowel sounds.

The English language distinguishes between [i] and [e] in words such as "bit" and "bet," where the vowel sound changes the meaning of the word. However, based on our analysis, it is anticipated that for speakers of the Surkhandarya dialect, who are not accustomed to differentiating between [i] and [e], accurately producing these sounds in English can be challenging. It is plausible to expect that this can lead to phonological errors, where the intended word may be mispronounced or misunderstood due to the incorrect pronunciation of [i] and [e].

We expect that forthcoming studies in this domain will reveal instances where the pronunciation of these words may be incorrectly articulated, as demonstrated in the given examples.

1. Sit - Set: "I need to set down and take a break."
2. Hit - Hat: "I put on my favorite hit before going out."
3. Bit - Bet: "I took a bat of the apple."
4. Lid - Led: "She placed the led on the pot to cover it."
5. Big - Beg "She bought a beg bag to carry all her belongings."
6. Lit - Let: "She let the candle to create a cozy atmosphere."
7. His - Has: "Has dog is very playful."
8. Six - Sex: "I ate sex cupcakes"

Conclusion and recommendations. The conclusion should restate the main finding that vowel synharmony in the Kipchak dialect

creates specific challenges in learning English pronunciation. The study confirms that negative transfer from the Kipchak vowel system is a significant factor in phonological errors, and addressing this requires tailored instructional approaches for learners from this background. To mitigate the negative transfer effects, the study recommends:

Increased awareness and training for English teachers working with Kipchak dialect speakers to address vowel mispronunciations; Development of targeted pronunciation exercises focusing on distinguishing English vowels that do not exist in the Kipchak dialect; Further research into other dialects and their impact on English pronunciation.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Ensuring the supremacy of the law and human interests – the guarantee of the development of the country and the welfare of the people. Tashkent: "Uzbekistan" NMIU, 2017. – p. 44
2. Rahimov, S. Surxandaryo Shevalari (fonetika, leksika). Tashkent: O'zbekiston SSR fan nashriyoti.1985. p.67
3. Abdullaev, F. O'zbek Tilining Qipchoq Shevasi. UzDM, I. Tashkent,1957, p. 327
4. Baskakov, N. A. Nogayskiy Yazyk i Ego Dialekty. Moscow,1940, p 54
5. Дмитриев Н. К. Грамматика башкирского языка. М. 1948, с.11; Баскаков Н. А. Ногайский язык и его диалекты. М.,1940, с. 8.
6. Ishaev A. Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari. Toshkent, 1977, 24-bet
7. Jo'rayev B. Yuqori Qashqadaryo O'zbek shevalari. 12-bet
8. Nosirov Sh. O'zbek tilining Qo'qon shevasi. Toshkent, 1980, 19-bet
9. Polivanov, E. D.Foneticheskaya Sistema Govora Kishlaka Ikkan. Izvestiya AN SSSR, OGN, L.1929, p. 130
10. Reshetov V. V. O'zbek shevalarining klassifikatsiyasi. I O'TA. T, 1966.



Nafosat O'ROQOVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: n.y.uroqova@buxdu.uz

Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d. D.Quvvatova taqrizi asosida

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAUNISTIK OBRAZLARNING AN'ANAVIYLIGI

Annotatsiya

Insonlar va hayvonlar o'rtasidagi aloqa qadim-qadimdan mavjud bo'lgan. Taraqqiyot davomida bu ikki yaratilarning bir-biriga ehtiyoji borligi yanada ayonlashdi. Shu bois ular orasidagi zanjir uzilmasdan kelmoqda. Dastlab insonlar hayvonlardan qo'rqib, ularga ilohiy mo'jiza sifatida qaragan bo'lsalar, keyinchalik ularni o'zlarining manfaatlarini yo'lida bo'ysundirdilar. Ilk bor afsona-yu rivoyatlar, miflarda aks etgan faunistik obrazlar sekin-astalik bilan o'zining tadrijiy takomilini topa boshladi. Jahon adabiyotida bo'lgani singari o'zbek mumtoz she'riyatida ham faunistik obrazlarning o'rni beqiyos. Maqolada mazkur masala atroflicha yoritilgan. Faunistik obrazlar ifodalaydigan ma'no qirralari mumtoz shoirlar ijodidan keltirilgan she'riy namunalar orqali dalillangan.

Kalit so'zlar: olamning badiiy manzarasi, obraz, faunistik obraz, o'zbek mumtoz lirikasi, g'azal, hayvonlar, it, ot

TRADITIONALITY OF FAUNISTIC IMAGES IN UZBEK CLASSICAL LITERATURE

Annotation

Communication between humans and animals has existed since ancient times. In the course of development, it became even more clear that these two creatures need each other. Therefore, the chain between them is unbroken. At first, people were afraid of animals and looked at them as divine miracles, but later they subjugated them for their own interests. The faunistic images reflected in the first legends and stories, myths gradually began to find their gradual improvement. As in world literature, the place of faunistic images is incomparable in Uzbek classical poetry. This issue is covered in detail in the article. The aspects of meaning represented by faunistic images are proved by poetic examples from the works of classical poets.

Key words: artistic view of the world, image, faunistic image, Uzbek classical lyric, ghazal, animals, dog, horse

ТРАДИЦИОННОСТЬ ФАУНИСТИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

Общение между человеком и животными существовало с древних времен. В ходе развития стало еще более понятно, что эти два существа нужны друг другу. Поэтому цепь между ними неразрывна. Поначалу люди боялись животных и смотрели на них как на божественные чудеса, но позже подчинили их своим интересам. Фаунистические образы, отраженные в первых легендах и сказаниях, мифах постепенно стали находить свое постепенное совершенствование. Как и в мировой литературе, в узбекской классической поэзии бесподобно место фаунистических образов. Подробно этот вопрос рассмотрен в статье. Смысловые аспекты фаунистических образов доказываются поэтическими примерами из произведений поэтов-классиков.

Ключевые слова: художественная картинка мира, образ, фаунистический образ, узбекская классическая лирика, газель, животные, собака, лошадь.

Kirish. Olamning badiiy manzarasini ifodalashda turli-tuman obrazlar qo'llanadi. Hayvon timsollaridan foydalanish badiiy ijodning ilk davrlaridayoq mavjud bo'lgan. Xalq og'zaki ijodida uning turli yo'nalishlari shakllandi. Bu jarayonning davomi o'laroq, mumtoz she'riyatimizda hayvon obrazlari tizimi har jihatdan boyidi.

Folklor janrlarida kam uchraydigan, u qadar e'tiborni jalb qilmaydigan hayvonlardan it obrazi mumtoz adabiyot namunalarida faollashdi. U yorning eshigida qo'riqchi vazifasini ado etishi bilan o'z mavqeyini oshirdi. Oshiq nazarida, ma'shuqa itga mehribonlik ko'rsatadi, ammo unga parvo qilmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadimiy manbalar, xususan, Qur'oni Karimda hayvonlarning borliqda o'z o'rni mavjudligi borasida fikrlar uchraydi. Imom G'azzoliyning "Daqoyiqul-axbor" asaridan tortib bugungi zamonaviy tadqiqotlargacha hayvonlar va insonlar o'rtasidagi munosabatga diqqat qaratib kelinmoqda. Sh.Ashurovaning "Inglizabon g'arb adabiyoti va o'zbek adabiyotidanimalistika janri xususiyatlari", N.Ochilovanning "Inglizabon g'arb va o'zbek nasrida ot obrazi", L.Mirzohidovanning "XI-XII asrlar turkiy adabiyotida majoziy tasvir badiiyati", N.Mo'minovaning "Afsonalar badiiyatida xalqona tarbiya", L.Hasanovaning "Xazoyin ul-maoniyy" kulliyotida it obrazlarining tasvirlanishi tamoyillari" nomli qator tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada faunistik obrazlarning genezisi, badiiyati masalasini tadqiq qilishda qiyosiy tarixiy, qiyosiy-tipologik, lingvistik, analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mumtoz adabiyotimiz vakillaridan Atoyi ijodida it obrazi ko'p uchraydi.

Itning har kecha to subhidam eshikta yoturda, Qani, ki sarbasar etkay gadodin o'zga musohib [3].

Uning mazkur bayti "Musohib" radifli g'azalidan olingan. Musohib [11] so'zining lug'aviy ma'nosi – hamsuhbat, suhbatdosh. Lirik qahramon ma'shuqaga erishishning barcha yo'llarini qidirib ko'radi. Bil'aks, buning uddasidan chiqolmaydi. Shunda uning yodiga yorining iti keladi. Najot topgan misol suyungan oshiq ma'shuqaning qo'riqchisi it bilan do'stlashishga qaror qiladi. It bilan tongga qadar hamsuhbat bo'lishga o'zidan boshqa munosib dildosh ko'rmagan oshiq uchun eng to'g'ri yo'l shu edi.

Mavlono Lutfiyning olti baytli "Mening" radifli g'azalida oshiq yigitning oh-u nolalari tasvirlangan:

Nolishim berdi eshigi itlariga dardi sar,

Afv qilg'aylar karam birla bu berohim mening [6].

Baytdagi it obrazi ma'shuqaning uyida qo'riqchi. Uning sodiq, vafodor hamrohi. Lirik qahramonning yor uyi oldida chekkan nolishlari shu qadar kuchliki, bundan hatto uning iti ham azob ko'rgan. Shu xatosini sezgan oshiq yorning itiga boshog'riq bo'lgani, ishq dardida haddidan oshib, o'zboshimchalik qilgani uchun ham uni afv etishlarini so'raydi. Boshqa bir g'azalida esa shu itga havasi kelib, uning mansabiga tayinlashlarini tilaydi:

Itlarningning mansabin Lutfiyg'a ta'yin aylakim,

Davlatningda qilsa sultonlig' ne bo'lgay bir gado [6?]

O'zini bir gado sifatida tanib, yor ostonasida bir lahzalik bo'lsa-da, sultonlikni orzu qiladi. Sultonlik nimada ko'rinadi? Bizningcha, bu baxtga ma'shuqa emas, aksincha, it musharraf bo'lgan. Chunki yorning itga e'tibori, mehri bor. Shu o'rinda it obrazi oshiqqa nisbatan qisman raqib holda gavdalangan. Buni his qilish mumkin. Shunday bo'lsa-da, oshiq ma'shuqasi jamoliga erishish yo'lida har zamon uning iti yordamiga muhtojlik tuygan. Agar undan yordam kelmasa, shu it o'rinda bo'lishni orzu qilgan. Ushbu motiv ko'pgina g'azallarning asos leytmotivini tashkil etgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Jahon adabiyotshunosligida mutafakkir Alisher Navoiyning serqirra ijod sohibi, fasohatda tengsiz alloma ekanligi bir necha asrlar davomida yuksak e'tirof etib kelinmoqda. Buyuk san'atkor ijtimoiy hayotning barcha jabhasini qalamga olgan. Bu uning qomusiy olim sifatidagi mavqei yanada oshirgan. So'z erkinligiga erishilgandan boshlab, Navoiy ijodini chuqurroq o'rganish hamda uni tahlil va talqin etishda yangicha yondashuvlar maydonga keldi.

Navoiy lirikasida ham faunistik obrazlarning yuksak namunalari uchun kelamiz. Masalan, "Istasangkim, urg'asen davrong'a tiyg'i inqito..." g'azalining sakkizinchi baytida pand-nasihati ruhi ustuvorlik qiladi. Bunga obraz sifatida tanlangan hayvonlarning ramziylik ifodasi orqali erishilgan:

Besha sherin gar zabun qilsang, shijoatdin emas,

Nafs itin qilsang zabun olamda yo'q sendek shujo [5].

Misradagi "besha" – "o'rmon, to'qay, changalzor" [1]; "zabun" – "yengmoq, mag'lub qilmoq, g'olib bo'lmoq" [1]; "shujo" so'zi esa shijoatli, jasoratli, jasur [1] ma'nolarini anglatadi. Anglashiladiki, ushbu baytda to'qay sherini yengmoq shijoat sanalmaydi, balki asl jasorat bu – nafs itini mag'lub etmoqlikdir, degan badiiy g'oya ilgari surilgan. Bu o'rinda she'r o'z ma'nosida qo'llangan. Nafs iti esa ramziy ma'no tashiydi. Mazkur birikma istiora san'ati asosida yuzaga chiqarilgan.

Inson ma'naviy-axloqiy tarbiyasining bosqichma-bosqich shakllanishida tasavvuf adabiyotining o'rni beqiyos. Asrlar davomida tasavvuf ilmining ahamiyatli ekanligi o'z isbotini topmoqda. Tasavvuf tariqatlarida nafs tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan hamda uning turli darajalari mavjudligi o'rganilgan.

It obrazi insoniyatning ming yillik tarixi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan bo'lib, hozirga qadar o'ziga xos jarayonlardan o'tgan. Masalan, folklor namunalarini tarkibida saqlanib qolgan bir qancha ko'hna motivlar, obrazlar "it"ga xalqimiz e'tiqodi tarixining ma'lum bir qatlamlarida ijobiy yoki salbiy obraz sifatida qaralganligini tasdiqlaydi.

Xalq og'zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyotda it qator ramziy ma'nolarda kela olishi bilan ajralib turadi. Turli rivoyat va afsonalarda, sehrli-fantastik e'taklarda g'aroyib it obrazlari keltiriladiki, ular bosh qahramonga zarur paytida yordamga kelgan zoomorf ko'makchilar tarzida talqin qilinadi. Bungacha bosh qahramon ularning jonini saqlab qolishi motivi keltiriladi. Insonning shu yordamiga javoban ular ham zarur sharoitda bosh qahramonni qo'llab-quvvatlashadi. Bosh qahramonlar ko'pincha ularning yordamida yo sevgan yorini sehrdan qutqaradilar, yo biror-bir tilsimli predmetni qo'lga kiritadilar va hokazo.

Mumtoz adabiyotimizda it timsoli ishtirok etgan lirik asarlar ko'p uchraydi. Birgina Navoiy devonlari tarkibida uchraydigan bu jonivor bilan aloqador ko'plab g'azallarni tahlilga tortishimiz mumkin:

Takovaringg'a bag'ir qonidin xino bog'la,

Itingga g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il [5].

Insoniyat dastlabki xonakilashtirgan, o'ziga o'rgatib olgan jonzoatlardan sanaluvchi it va odamlar orasida munosabat ijobiy bo'lib kelgan. It insonning do'sti sifatida talqin etilgan. Ammo itning salbiy va ijobiy xususiyatlarini mavjudligi bois bu xususiyatlar har bir lirik asar namunasi turlicha yoritilgan. "Qilg'il" radifli g'azalda kelgan ushbu bayt atrofida bugungi kun adabiy jarayonida hanuz munozaralar ketmoqda. Adabiyotshunos olimlar hamda so'z ixlosmandlari ushbu baytda qo'llangan it obrazi atrofida bahsga kirishar ekanlar, uning turli so'fiyona ma'nolarini o'rtaga tashlayaptilar. Tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqul baytda qo'llangan it timsolining dastlab tashqi ma'nosiga to'xtaladi: "Bundagi "it"ning zohiriy ma'nosi – vafo va sadoqatda o'rnatilgan. Chunki an'anaviy tasvirlarga ko'ra, sidqu sadoqat va vafodorlikda oshiq o'zini it bilan (ko'pincha yorning iti bilan) teng ko'radi. Shu g'azalning qiyosiy tahlili bilan maxsus shug'ullangan olimlar professor H.Boltaboyev va N.Jumaxo'ja fikrlariga tayanib, botiniy ma'noda it obrazi misrada nafs ammorani

ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилдлик. I жилд. – Т.: Фан, 1983.
2. Бобур. Девон. –Т.: Фан, 1994.
3. Девони Шайхзода Атоийи. –Т.: Фан, 2008. .
4. Mushkin qoshining hay'ati: Munis, Ogahiy/to'plovchi va so'zboshi muallifi E.Ochilov. – Т.: O'zbekiston, 2015.
5. Orazin yopqach ko'zumdin: g'azallar, qit'alar, ruboilar, tuyuqlar, fardlar/Alisher Navoiy. So'zboshi, izohlar muallifi va to'plab nashrga tayyorlovchi M. Abdulkayir. –Т.: Zabarjad media, 2023.
6. Lutfiy: g'azallar/nashrga tayyorlovchi M. Kenjabek. –Т.: Akademnashr, 2020.
7. Yoriyevna, U. N. (2023). Relationships between humans and animals. Confrencea, 8(1), 123-126.
8. O'roqova N. O'zbek she'riyatida kapalak obrazi talqini //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2024. – Т. 47. – №. 47.
9. Yoriyevna, U. N. (2023). The originality and genesis of animal symbolism in poetry. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development.
10. Yoriyevna, U. N., & Narzulloyevna, M. L. (2024). Interpretation of the Image of Animals in Abdulla Oripov's Poetry. International Journal of Formal Education, 3(4), 40-45. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2478>
11. <https://uz.wiktionary.org/wiki/musohib>

ifodalab kelishini ta'kidlaydi. Nafs – inson ruhiyatining qashshoqlashuvi bo'lib, bunda moddiy dunyoga mehr ortadi, o'tkinchi ne'matlarga moyillik kuchaya boradi. Buning oldi olinmasa, inson ma'naviyati tanazzulga yuz tutadi, ruhiy olami qovjiraydi.

Navoiy talqiniga ko'ra, borliq olamdagi eng kuchli yirtqich hisoblanuvchi sherni yengish juda qiyin. Ayniqsa, bu ishni inson zoti amalga oshirishi amri maholdir. Ammo shunday bir hayvon borki, u yirtqich sanalmasa-da, vahshiyatlardan ming karra xavfliroqdir. Bu – nafs iti. Uni yengish, mag'lub qila olish uchun juda katta ruhiy tayyorgarlik lozim. Ma'naviy kamolotning bir qancha bosqichlaridan muvaffaqiyatli bir yo'sinda oshish nafs itini xorlik sari itqitishda qo'l keladi.

Shoirming "Labingdin xasta jonkim bo'ldi betob..." g'azalida

mazkur hayvon vositasida pastkash kimsalar timsoli gavdalanirilgan:

Falak boshingg'a qoplab it terisin,

Sen oni jahldin deb kishu sinjob.

Ajab yo'q, odamiylikni unutsang,

O'zungni bo'yla it charmidasrob [5].

Ushbu ikki baytda itdan tashqari kish (qunduzning bir turi) hamda sinjob (silovsin) singari hayvonlar nomi tilga olingan. Badiiy g'oya mazmun-mohiyatining kitobxonga to'la yetib borishi, anglanishi oson bo'lishi uchun ulardan yordamchi timsol sifatida foydalanilgan.

Yuqoridagi baytlar talqinidan ko'rinadiki, lirik qahramon yorga murojaat qilib, taqdiri azal boshiga qiyin kunlarni solganda, o'tkinchi dunyoga daxldor masalalarni bahona qilib, odamiylikdan chiqmasligini ta'kidlaydi. Buni, go'yoki, o'zini "it charmidasrob" (chetga olib!), ya'ni bechorasifat, xo'rangan kabi ko'rsatib, insoniylik chegarasini buzishga menzash mumkin. Navoiyning o'z davrida ilgari surgan bunyodkorlik g'oyalaridan biri odamiylik, insonparvarlik bo'lgan. Bu tushunchalar ijodkor lirikasining bosh tamoyili sifatida hamisha markazda bo'rtib ko'ringan.

It obrazi Bobur ijodida ham g'oyaviy rang-baranglik kasb etadi. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, uning ma'shuqa qo'riqchisi sifatidagi roli alohida ajralib turadi:

Yor iti, qichqirma gar Bobur desa holin sanga,

Naylayin bu g'urbat ichra sendin o'zga yo'q kishim [2].

Odatdagidek, mazkur baytda oshiq ma'shuqadan mehr, vafo ko'rmagani tufayli dardini uning itiga aytgisi, ko'nglidan kechirganlarini u bilan bo'lishgisi keladi. Yor xayoli bilan shu qadar bond bo'lganligidan ko'ziga faqat uning atrofidagi narsalar, masalan, doim ma'shuqa bilan yonma-yon bo'luvchi itgina ko'rinadi, xolos. Bunda itga nisbatan do'stlik, birodarlik tuyg'ularini tuyadi. Ushbu motiv mumtoz lirikamizning keyingi davrlarida ham an'ana sifatida davom etganini ko'rishimiz mumkin:

Nolalarkim, men chekarman dam-badam ko'ying aro,

Itlaring ul sho'rdin bedor erur afg'on bila [2, 12].

Ayonki, Munisning ushbu betakror misralari bundan mustasno emas. Bu o'rinda sho'r so'zi oshiqning ma'shuqa dardida chekkan nolalari – ko'z yoshlarini anglatadi. Ma'shuqaning iti oshiqning ko'z yoshlari, faryodi sababidan doim bedor, bezovta. Ammo u o'z vazifasini mas'uliyat bilan ado qiladi. Yorning eshigini qo'riqlaydi. G'azallarda uchlik mavjud: oshiq raqib, ma'shuqa. Raqib obrazi ishtirok etmagan ko'pgina g'azallarda it obrazi uning o'rmini to'ldirib turadi. Xullas, mazkur hayvon mumtoz lirikamizning obrazlar olamini boyitganligi bilan diqqatga sazovordir.

Xulosa va takliflar. Olamning badiiy manzarasini ifodalashda turli obrazlar qatori hayvon timsollaridan ham faol qo'llanib kelingan. Mazkur obrazning genezisi, shakllanish davri folklor asarlariga borib taqaladi. Bu an'ananing davomiyligini mumtoz she'riyatimizga oid janrlarda ham ko'rishimiz mumkin. Binobarin, ta'kidlash joizki, faunistik obrazlar mumtoz lirikada an'anaviyligini saqlagan holda novatorlik ham kasb etdi. O'zining badiiy estetik vazifasini maromiga yetkazib bajardi.



УДК: 81'27:94(470+571) + 94(73) + 81'373.4

Узлой ХАЖИМУРАДОВА,
Базовый докторант Термезского государственного университета
E-mail: ukhajimuradova93@mail.ru

По рецензии доц. PhD А.Э.Худайкулова

АДАПТАЦИЯ ЗАИМСТВОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ТЕКСТАХ АНГЛИЙСКИХ И РУССКИХ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ XVI-XVII ВЕКОВ

Аннотация

В статье рассматривается влияние дипломатических отношений на языковой обмен, исследуется адаптация заимствованной лексики в письменных памятниках России и Англии XVI-XVII веков. Анализируются трудности перевода заимствованных терминов и изменения их значений, а также подчеркивается важность терминологических систем в международных отношениях.

Ключевые слова: Лексическое влияние, культурный обмен, исторический контекст, дипломатические отношения, заимствованная лексика.

XVI-XVII ASRLARDAGI INGLIZ VA RUS DIPLOMATIK HUYJATLAR MATNLARIDA O'ZLASHGAN LEKSIKANIING MOSLASHUVI

Аннотация

Maqolada diplomatik munosabatlarning til almashinuviga ta'siri, XVI-XVII asrlardagi Rossiya va Angliya yozma yodgorliklarida o'zlashgan leksikaning moslashuvi tadqiq etilgan. O'zlashma terminlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar va ularning ma'nolaridagi o'zgarishlar tahlil qilinib, xalqaro munosabatlarda terminologik tizimlarning ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: leksik ta'sir, madaniy almashiv, tarixiy kontekst, diplomatik munosabatlar, o'zlashtirilgan so'zlar.

ADAPTATION OF BORROWED LEXICON IN ENGLISH AND RUSSIAN DIPLOMATIC DOCUMENTS OF THE XVI-XVII CENTURIES

Annotation

The article explores the adaptation of foreign lexicon in Russian and English business documents of the 16th and 17th centuries, focusing on the influence of diplomatic relations on linguistic exchange. It discusses translation complexities and changes in the meanings of borrowed terms, highlighting the significance of terminological systems for international relations.

Key words: Lexical influence, cultural exchange, historical context, diplomatic relations, borrowed words

Введение. С конца XVI века между Россией и Англией начался процесс активной деловой переписки, который стал важным этапом в установлении формальных отношений между двумя государствами. С конца XVI века между Россией и Англией начался процесс активной деловой переписки, который стал важным этапом в установлении формальных отношений между двумя государствами. Этот период характеризовался стремлением обеих стран развивать торговлю и укреплять политические связи. Одним из первых значимых шагов стало основание Московской компании в 1555 году, что открыло новые возможности для английских купцов на российском рынке.

В 1586 году был подписан торговый договор, который закрепил права английских предпринимателей и способствовал росту взаимных интересов. Активные дипломатические обмены, регулярные посольства и деловые контакты стали основой для дальнейшего сотрудничества.

Анализ литературы по теме. Дипломатические документы, собранные в таких источниках, как «Памятники дипломатических сношений Московского государства с Англией» [9] и «Первые 40 лет сношений между Россией и Англией» [7], становятся основой для глубокого анализа языковых заимствований из английского языка в русский. Эти сборники содержат оригинальные тексты грамот и их переводы, что позволяет исследовать специфику языкового контакта. Ю.В. Толстой, один из первых исследователей англо-русских сношений, собрал и издал документы, относящиеся к дипломатическим отношениям, и обратил внимание на переводные аспекты. Его работа значительно способствовала пониманию языка и культуры того времени, а его издание, «Первые 40 лет сношений между Россией и Англией» [7], стало основополагающим в изучении дипломатической лексики.

Исследования таких ученых, как М.П. Алексеев, В.М. Аристова и С.А. Беляева, значительно углубляют понимание взаимодействия между русским и английским языками в XVI-XVII веках. Алексеев подчеркивает значимость лексических заимствований для формирования русского языка, акцентируя внимание на их роли в обогащении лексического запаса и

структурных изменениях, особенно в научной и административной терминологии [1]. Аристова анализирует эволюцию англицизмов, прослеживая изменения в значении и употреблении этих слов в различных исторических контекстах, демонстрируя влияние социально-экономических факторов на их адаптацию [3]. Беляева фокусируется на лексико-семантической адаптации англицизмов, исследуя их интеграцию в русскую языковую систему и выделяя категории заимствованных лексем с их семантическими изменениями [4]. В совокупности, работы этих исследователей создают целостную картину языкового взаимодействия, подчеркивая важность лексических заимствований для исторической и лингвистической науки.

Методология исследования. При исследовании адаптации заимствованной лексики в текстах английских и русских дипломатических памятников XVI-XVII веков мы использовали несколько методов. Во-первых, применялся описательный метод, который позволил систематизировать и охарактеризовать заимствованные слова в контексте дипломатической переписки. Во-вторых, был использован сравнительный анализ, что дало возможность выявить различия и сходства в процессах адаптации лексики между английскими и русскими текстами.

Кроме того, мы применяли лексикографический подход, основанный на использовании словарей и справочных материалов для определения происхождения заимствованных слов и их значений в обоих языках. Филологический анализ текстов позволил глубже понять контекст использования этих слов и их роль в дипломатической практике того времени. Эти методы совместно обеспечили комплексный подход к исследованию темы.

Анализ и результаты. В процессе дипломатических отношений XVI-XVII веков русский язык активно обогащался заимствованиями из английского языка, особенно в терминологии дипломатической сферы. Языковые заимствования включали как прямые заимствования, так и адаптированные варианты, что создавало интересный лексический контекст. В представленной таблице представлены

несколько ключевых терминов, которые имеют важное значение в области дипломатии и административной лексики XVI-XVII веков. Эти термины не только служат связующим звеном между

русским и английским языками, но и отражают сложные культурные и исторические контексты, в которых они использовались.

Русское слово	Английский перевод	Примечания	Примеры использования (Русский)	Examples (English)
Посол	Ambassadour	Это унифицированный термин, однако могут быть нюансы в значении в зависимости от контекста. В приведённом примере из русской грамоты видно, что "посол" используется для обозначения официального представителя, отправленного для передачи важной информации.	Что присылала еси к нам посла своего Томаса Рандолфу грамотою а в ней писала еси что прошлого лета в Сентябрѣ имѣеть Н.Ц. Онтон Янкинсонъ грамоту к вамъ прислали в которой грамоте ты видела нашу государскую мысль против ваших поданных вас испитаны видали и поразумѣли[7]	For what you sent to us your ambassador Thomas Randolphe with leteres wee vnderstand also wee bearevin minde your leteres written the yere past inSeptember and ye beare in minde our highnes leteres sent to you with our welbelovied servaunt Anthonie Jenkinson in which our letres you know our pleasure towards your subiects for sake[7]
Посольство	EMBASSAGE	Этот термин также демонстрирует специфику дипломатической практики. Он указывает на учреждения, занимающиеся дипломатическими миссиями, а также на контекст, в котором они функционировали.	Посольство его главнѣйше касалось устройства купцовъ и относилось къ Гловеру иРюттеру и другимъ подозрительнымъ лицамъ[7]	Whose embassy chiefly tended for the establishing of merchaunts and towching Glover and Gluttar with other suspected persones [7]
Дяк	Secretary	Этот термин может обозначать как канцелярского работника, так и более высокую должность. Его двойственность указывает на сложность административной иерархии того времени.	Послани есмья къ тебѣ к се(стрѣ) на(шей) Ондрѣя Гдригоревича Совина, да при немъ дяка своего Семена Савостоянова[7]	We send to you,our sister „Andrew Grigorievich Sovin and with him oue secretary Simeon Savostiano[7]

Анализ этих терминов показывает, как язык, через который осуществляется дипломатическое взаимодействие, способен отражать не только функциональные, но и культурные аспекты времени. Взаимосвязь между русскими и английскими терминами подчеркивает, как заимствование и адаптация лексических единиц формировали не только словарный запас, но и культурное взаимодействие двух стран в контексте международной политики.

Заключение и предложения. Таким образом, иноязычная лексика, заимствованная из английского языка в русский в XVI-XVII веках, представляет собой важный аспект культурного и языкового обмена между двумя странами. Исследование дипломатической терминологии того периода

показывает, что процесс заимствования и адаптации языковых элементов был сложным и многогранным. Будущие исследования могут углубить понимание этой темы, анализируя менее известные документы и рассматривая влияние этих процессов на современный деловой язык.

Также важно продолжать исследовать проблемы перевода и терминологии, поскольку они остаются актуальными и сегодня. Языковая политика, культурные различия и особенности исторического контекста продолжают оказывать влияние на развитие языков и формирование лексического запаса, что делает данную тему актуальной и значимой для дальнейшего изучения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Алексеев М.П. Англия и англичане в памятниках московской письменности XVI–XVII вв. // Учёные Записки. Серия исторических наук. Л.: Изд-во ЛГУ. 1946. Вып. 15. № 95.
2. Алексеев М.П. Очерки из истории англо-русских литературных отношений XVI–XVII веков / Тезисы диссертации. Л.: АН СССР, 1937.
3. Аристова В.М. Англо-русские языковые контакты (англизмы в русском языке). Л.: Изд-во ЛГУ, 1978
4. Беляева С.А. Английские лексические заимствования в русский литературный язык XVI–XX вв: автореф. дис... канд. филол. наук. Л., 1973.
5. Anderson M.S. English Views on Russia in the 17th century // The Slavonic and East European Review. United Kingdom: Maney Publishing, 1954, № 80.
6. Памятники дипломатических сношений Московского государства с Англиею (1581–1604 гг.) / под ред. К.Н. Бестужева-Рюмина. СПб.: Типография В.С. Балашёва, 1883. Т. 1
7. Толстой Ю.В. Первые 40 лет сношений между Россией и Англиею 1553–1593 гг. М.: Книга по требованию, 2013. 564 с.
8. Статейный список приезда и пребывания в России английского посла Е. Флетчера. Москва 1588 г. // Временник императорского Московского Общества Истории и Древностей Российских. М.: Типография Московского ун-та, 1850. Кн. 8. С. 1–96.
9. Путешествия русских послов XVI–XVII веков. Статейные списки. СПб.: Наука, 2008. 490 с.
10. Foster B. Language and communication / Ed. By J.C. Richards and R.W. Schmidt. London: Longman, 1983. 276 p.
11. Hamel J. England and Russia. London: Bentley, 1854. XI, 422 p.



Dilafro'z XALILOVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
E-mail: dxb981@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, dotsent O.Norov taqrizi asosida

STOMATOLOGIYA SOHASIDA INGLIZ TILIDAGI ABBREVIATURALARNING ISHLATILISHI

Аннотация

Qisqartmalar so'z yoki so'z birikmasining qisqartmasi asosida hosil bo'ladigan leksik xususiyatlarga ega bo'lgan leksik birlik hisoblanadi. Abbreviaturalarni barcha sohalarida uchragani kabi tibbiyot sohasining stomatologiya sohasida ham uchratish mumkin. Shakllanish usuliga ko'ra stomatologiya abbreviaturalarning bir qancha turlari mavjudligini kuzatish mumkin.

Kalit so'zlar: abbreviatura, terminologiya, tibbiyot sohasi, stomatologiya sohasi, qisqartirish, birikma, tushuncha.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНГЛИЙСКИХ СОКРАЩЕНИЙ В ОБЛАСТИ СТОМАТОЛОГИИ

Аннотация

Аббревиатуры – это лексические последствия, лексические свойства, которые образованы на основе слов или словосочетания. Аббревиатуры можно встретить в стоматологической области, а также во всех других областях. По способу образования можно заметить, что существует несколько типов сокращений зубов.

Ключевые слова: аббревиатура, стоматология, терминология, английский язык, медицинская сфера.

USING ENGLISH ABBREVIATIONS IN DENTISTRY

Annotation

The article analyzes abbreviations in English used in today's rapidly developing field of dentistry. The density and the complexity of this process determine the urgency of the problem, creating the need to resort to a careful study of abbreviations. How important it is not to make mistakes in the spelling of abbreviations, otherwise it can lead to misunderstandings in determining the meaning of the word.

Key words: abbreviation, dentistry, terminology, English language, dental field, medical field.

Kirish. Abbreviatura – “qisqartma” yoki “qisqartirilgan so'z” tushunchasi leksik deb tushuniladigan so'z yoki so'z birikmasining qisqartmasi bilan hosil bo'lgan, lug'at tarkibining elementi sifatida alohida leksik xususiyatlarga ega bo'lgan ot turkumiga oid so'z [10]. Abbreviatura yangi so'zlarni shakllantirish usuli sifatida terminologiyaga, xususan, normal so'zlarning terminologik tizimiga qat'iy kiritiladi. Yangi voqelik va tushunchalarning paydo bo'lishi sezilarli darajada noma'lumlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ushbu turdagi so'zlarning me'yoriy va grammatik xususiyatlari, ularni yaratish jarayonida uyg'un leksik birliklar hosil qilish tendensiyasi paydo bo'lishiga olib keladi. Qisqartma so'zi rus tiliga italyan tilidan “abbreviatura” (abbreviatura, lotincha brevis “qisqa”) deb tarjima qilingan bo'lib, XVIII asrdan XX asr boshlarigacha bu so'z o'zining asl, etimologik ma'nosida ishlatilgan.

Qisqartma ya'ni abbreviaturalar XX asrda Yevropa tillarida vujudga kelgan bo'lib, ko'plab tillarda ularning yasaliish andozalari yuzaga kelgan. Rus tilida birinchi qo'shma so'zlar XXI asrning 90-yillar oxirida paydo bo'lgan. Ayniqsa, so'nggi o'n yillirda abbreviaturalar soni va zamonaviy yevropa tillarida ularidan foydalanish chastotasi nihoyatda oshgan, abbreviaturalar so'z shakllanishining yetakchi usullaridan biriga aylanmoqda. Zichlik va bu jarayonning murakkabligi muammoning dolzarbligini belgilaydi, qisqartmalarni sinchkovlik bilan o'rganishga murojaat qilish zaruratini yuzaga keltiradi. O.G.Kosareva: “Qisqartma kommunikativ birliklarning moddiy qobig'ini kamaytiradi va shu bilan birga axborot oqimi tezligini oshiradi” deb ta'kidlaydi. Abbreviatura - qisqartirish - ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishi va qisqarishidir.

Tilshunoslikning bir qismi hisoblanmish qisqartma so'zlar, abbreviatura yillar davomida qator olimlar tomonidan o'rganilib, ko'plab ilmiy manbaalarda yoritilgan. Ushbu tushunchalarni o'rganishda O.Yespersion, G.Kannon, L.Blumfeld, N.N.Alekseyeva, V.P.Korovushkin, L.B.Tkacheva V.V.Borisov, I.V.Arnol'd, M.T.Irisqulov, A.Hojiev kabi olimlar o'z hissarini qo'shganlar. Tilshunoslikda qisqartma so'zlar hamda abbreviatura tushunchalari keng qo'llanib kelinmoqda. Bu atamalar o'rtasida deyarli katta farq bo'lmas-da, ularning har ikkalasi alohida atama sifatida o'rganilgan.

Abbreviaturalar tarjima qilish qiyin. Chunki bu holatda tarjimon yordamchi adabiyot yoki lug'atlardan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Ko'pincha, bu holda, tarjimon o'zining professional tajribasiga tayanishi kerak va agar u qisqartmani bilmasa, suhbatning umumiy ma'nosiga amal qilishi kerak. Tarjima inson faoliyatining murakkab va ko'p qirrali turidir. Abbreviaturalar bir

qator grammatik xususiyatlarni ochib beradi. Ilmiy va texnik adabiyotlarda ma'lum bir tilda so'zlashuvchilarga emas, balki ma'lum bir ekstralingvistik bilimga ega bo'lgan ma'lum bir professional guruh vakillariga qaratilgan matnlarda alohida o'rin tutadi.

Zamonaviy tilshunoslikda lingvistik hodisa sifatida qisqartiriladigan leksik birlik muammolari ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortib keladi. Ushbu muammolar xorijiy mualliflarning ko'plab maqola va asarlarida ko'rib chiqiladi. Abbreviaturalar xorijiy maxsus matnlarni tushunish va tarjima qilish uchun eng qiyin elementlaridan biri hisoblanadi. Qisqartirilgan leksik birliklarni to'liq tushunish uchun ma'lum bir matnning mukammal bilish, shuningdek, o'quvchi matnda ishlatiladigan qisqartmalarning ma'nosini oldindan bilgan tushunchalarni anglab yetadi.

Abbreviaturalar adresat uchun tushunarsiz, faqatgina asiyat uchungina xos bo'lmagan holda, ya'ni qisqartmalar bilan birgalikda ularning to'liq shakli ham berilishi lozim.

Tahlil. Abbreviaturalar tibbiyotdan dingacha hayotning barcha sohalarida mavjud [1]. Abbreviaturalar barcha sohalarida uchragani kabi tibbiyot sohasining stomatologiya sohasida ham uchratish mumkin.

ALARA: as low as reasonably achievable - erishish mumkin bo'lgan o'rtacha darajadan past daraja

ANUG: acute necrotic ulcerative gingivitis- o'tkir nekrotik yarali gingivit

CDA: Certified Dental Assistant- sertifikatga ega stomatolog yordamchisi

CCD: charge coupled device – zaryadlangan qurilma

CAT: computer assisted tomography – kompyuter tomografiyasi

CEREC: ceramic reconstruction – keramik rekonstruksiya

DDS/DMD: Doctor of Dental Surgery or Doctor of Dental Medicine – tish jarrohligi yoki stomatologiya fanlari doktori

HIPAA: Health Insurance Portability and Accountability Act – sog'liqni saqlash sug'urtasi portativligi va javobgarligi to'g'risidagi qonun

MPD: maximum permissible dose – ruxsat etilgan maksimal doza

PDR: Physician's Desk Reference – shifokor stoli ma'lumotnomasi

PPE: personal protection equipment – shaxsiy himoya vositalari

RDH: Registered Dental Hygienist – ro'yxatdan o'tkazilgan tish gigiyenasi

Har qanday tilda abbreviatura - qisqartmalar tizimi uning umumiy leksik-semantik tizimining ajralmas qismidir va shuning

uchun turli tillardagi qisqartmalar tizimi o'xshash emas[10]. Ba'zan ma'lum bir tilda ishlatilgan abbreviatura boshqa tilga kirib borganda abbreviaturalik xususiyatiga mos kelmay qolishi yoki yangi abbreviaturaning hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Shakllanish usuliga ko'ra abbreviaturalarning quyidagi turlarga bo'linadi.

Shakllanish usuli	Ingliz tili	To'liq shakli
Bir so'zning bosh harflaridan hosil bo'lgan	ADA CDPMA DDS	American Dental Association Certified Dental Practice Management Assistant Doctor of Dental Surgery
Bosh bo'laklar birikishidan hosil bo'lgan	Medicaid Medicare	
Aralash, so'zlarning bosh qismlari va bosh harflaridan iborat	X-bite, x-rays, t-test, p-value	
Bosh qismining butun so'z birikishidan iborat	bis-GMA	bisphenol Adiglycidylether methacrylate

Medicaid[4]: low-income and qualified persons receive medical treatment or care, with prior authorization, except in emergencies, in which case treatment is provided without waiting for approval; state-administered program, and each state sets its own guidelines.

Tarjimasi: kam daromadli shaxslar ustivor vakolat bilan tibbiy muhofaza va tibbiy muolaja va favqulotda vaziyatlarda muolaja tasdig'ini kutmasdan amalga oshiriladi, bu davlat tomonidan nazorat qilinadigan dastur bo'lib har bir davlat o'z ko'rsatmalarini belgilaydi.

Medicare [4]: health care for patients over age 65 who have registered for care.

Tarjimasi: ro'yxatdan o'tgan oltmish besh yoshdan oshgan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish.

X-bite [6]- The action of bringing the mandibular and maxillary teeth into contact. A scissors bite (X-bite) occurs if one or more teeth in the upper buccal segment is positioned so that its palatal cusp occludes buccal to the buccal cusp of a lower tooth: it can involve a single tooth or a complete quadrant, and can involve one side (unilateral) or both sides (bilateral) of the arch and be either anterior or posterior.

Tarjimasi: X-bite – pastki va yuqori jag' tishlarining aloqa qilish harakati.

Agar yuqori yonoq (lot.t. Buccal-yonoq) qismida bir yoki undan ko'p tishlar joylashgan bo'lsa, yuqori tanglay tishlari pastki jag' yonoq tishlarini to'sib qo'ysa qaychisimon tishlash sodir bo'ladi, u bitta tishni yoki to'liq tishning chorak qismini o'z ichiga olishi, shuningdek arkning bir tomonini yoki ikkala tomonini ham o'z ichiga olishi va u yana old yoki orqa tomonda bo'lishi mumkin.

X-raysx [6] - High-energy electromagnetic radiation of shorter wavelength than ultraviolet radiation which passes through matter in varying degrees depending on its density.

Tarjimasi: ultrabinafsha nurlaridan ko'ra qisqaroq to'lqin uzunligidagi yuqori energiyali elektromagnit radiyatsiya zichligiga bog'liq moddadan turli darajada kesib o'tadi.

P-value [6] - The chances of obtaining a certain pattern of results if there really is no relationship between the variables and the result could therefore have been caused by chance.

Tarjimasi: o'zgaruvchanlik va natija o'rtasida hech qanday bog'liqlik bo'lmasa ma'lum bir natijalarning shaklini olish imkoniyati tasodifan sodir bo'lishi mumkin.

Bisphenol Adiglycidylether methacrylate (bis-GMA) [6] - A large molecule

methacrylate monomer used in resin composite material.

Tarjimasi: katta molekula metakrilat monomeri rezina(yelim)dan tashkil topgan materialda ishlatiladi.

Leksikografik manbalarda qisqartmalarining amaliy ahamiyatini quyidagicha xulosalashimiz mumkin:

qisqartmalar matn bilan ishlashda takrorning oldini oladi;

vaqt, joy, makon tejankorligiga xizmat qiladi;

harbiy sohalar uchun tuzilgan lug'atla maxfiylikni ta'minlashga xizmat qiladi;

bir tildan ikkinchi tilga tarjima lug'atlarda shartli qisqartmalar ko'plab uchraydi;

qisqartmalar bosh harflardan, bosh harflar va so'zlar aralashmasidan yoki boshqa tilda so'zlarni ifodalovchi so'zlardan yoki harflardan iborat bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Keltirilgan tahlillardan ko'rish mumkinki, qisqartmalarni to'liq tushunish uchun soha matnini mukammal bilish, shuningdek, o'quvchi yoki tarjimon matnda keltirilgan qisqartmalar ma'nosini matn mazmunidan kelib chiqib anglab yetadi. Bugun kunda yangi texnika-texnologiyalar, terminlar, abbreviaturalar paydo bo'layotganligi aynan abbreviaturalar yo'nalishining hali ochilmagan qirralari, o'rganilmagan jihatlarini ko'pligidan dalolat beradi. Jamiyat nutqida tez-tez qo'llaniladigan va chet tillaridan o'zlashtiriladigan qisqartmalarni doimiy tarzda o'rganib, ilmiy tadqiqotlar olib borish tilshunoslik sohasi taraqqiyoti uchun juda muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

- Burmeister Jan, (2008). "Acronyms and other forms of abbreviation"
- Варфоломеева, И.В., Аббревиатуры современного английского языка: когнитивно-дискурсивный аспект: автореф. дис. ... канд. филол. наук / И. В. Варфоломеева. - Москва, 2007. - 28 с.
- Dental Abbreviations, Symbols and Acronyms [Electronic resource]. - 2008. - Mode of access :https://www.adldata.org/wp-content/uploads/2015/06/dentalpractice_abbreviations.pdf
- Dental Terminology, Third Edition Charline M. Dofka.
- Плоцкая Ю.В., Структурно-семантические особенности немецкой стоматологической терминологии. Дисс. ... канд. филол. наук. – Мытищи. 2020. - 173 с.
- Robert Ireland. A Dictionary of Dentistry.
- Русакова М.М. Лексико-семантические поля терминосистемы "стоматология / dentistry" в сравнительно-сопоставительном аспекте (на материале профессиональных медицинских дискурсов русского и английского языков). Дисс. ... канд. филол. наук. Челябинск. 2017. 200 с.
- Webster's new world dictionary of the American language, second edition, David B.Guralnik.
- www.academia.edu
- Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли лугати. Тошкент, 1985. – 166 б.
- Энциклопедический словарь медицинских терминов, главный редактор академик Б.В.Петровский, том 3ех, 1982.



Sobir XAMZAYEV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, PhD
E-mail: sobir.khamzaev@yahoo.com

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

BORROWED WORDS FROM FOREIGN LANGUAGES AND THEIR INFLUENCE ON THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE VOCABULARY OF THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article dedicated to the discussion of the vocabulary of the Uzbek language, the sources of origin of words in it, and is also devoted to the issues of formation and development of the lexicon of the Uzbek language with the help of words borrowed from foreign languages. According to the conclusions in the article, in different periods of the history of the development of the Uzbek language, words were adopted mainly from Arabic, Persian-Tajik and Russian languages, as well as from English through Russian. In the modern period, borrowing words directly from English occurs at a rapid pace.

Key words: word stock of a language, borrowed words, historical lexicology, social factors, political factors, cultural factors, semantic group.

ЗАИМСТВОВАННЫЕ СЛОВА С ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье речь идет о словарном составе узбекского языка, источниках происхождения слов в нем, а также она посвящена вопросам формирования и развития лексики узбекского языка из слов, заимствованных из иностранных языков. Согласно статье, в разные периоды истории развития узбекского языка слова усваивались преимущественно из арабского, персидско-таджикского и русского языков, а также из английского языка через русский язык. В современный период заимствование слов непосредственно из английского языка происходит быстрыми темпами.

Ключевые слова: лексический состав языка, заимствованные слова, историческая лексикология, социальные факторы, политические факторы, культурные факторы, семантическая группа.

CHET TILLARDAN O'ZLASHGAN SO'ZLAR VA ULARNING O'ZBEK TILI LUG'AT TARKIBINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Mazkur maqola o'zbek tili lug'at tarkibidagi so'zlar, ularning kelib chiqish manbalari haqida bo'lib, unda chet tillardan o'zlashgan so'zlarning o'zbek tili lug'at tarkibining shakllanishi va rivojlanishi masalalariga bag'ishlangan. Maqolada ta'kidlanishicha, o'zbek tili rivojlanish tarixining turli davrlarida asosan arab, fors-tojik va rus tillaridan, shuningdek rus tili orqali ingliz tilidan so'zlar o'zlashtirilgan. Hozirgi davrda esa to'g'ridan-to'g'ri ingliz tilidan so'zlar o'zlashtirilishi jadal tarzda sodir bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: lug'at tarkibi, o'zlashgan so'zlar, tarixiy leksikologiya, ijtimoiy omillar, siyosiy omillar, madaniy omillar, semantik guruh.

Kirish. Jahon tilshunosligida o'zaro bog'liq bo'lmagan, ya'ni noqardosh tillarni qiyoslash, tarixiy leksikologiya, til leksik tarkibi darajasini rivojlanitirish va leksik-semantik tahlil qilish bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. O'zlashtirilgan so'zlar qatlamini etimologik tahlil qilish, ularda yuz bergan semantik o'zgarishlarni aniqlash, ko'chma ma'nolarining emtsional-ekspressiv va akkumulyativ funktsiyalari bilan tanishish, denotativ va pragmatik ma'nolar o'rtasidaga munosabatni izohlash, asliyat tili va qabul qiluvchi tillarning lingvistik imkoniyatlarini o'rganish dolzarbligicha qolmoqda.

Butun dunyoda so'nggi paytlarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ma'lum qismi bir tildan boshqa tilga o'zlashtirilgan so'zlarning semantik tahlili va ularning kognitiv-pragmatik xususiyatlariga qaratilgan. Bugungi kunda har bir til jahon tillari tizimida o'z o'rnini topishida uning lug'at tarkibi, leksik-semantik imkoniyatlari, shu til sohiblarining dunyoqarashining til rivojiga ta'siri kabi masalalar amaliy ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek tilining nufuzi va mavqei aniqlash uchun uning tarixini yoritish, hozirgi paytdagi leksik fondning qatlamlarini, o'z va o'zlashgan qatlamlari o'rtasidaga munosabatni aniqlash, o'zbek tilining o'zlashgan leksemalarining semantik rivojlanishini izohlash va ularning keng miqyosda qo'llanilishi masalalarini aniqlash muhim hisoblanadi.

O'zbek tili qadimiy ildizlarga ega bo'lib, o'ziga xos tarixiy yo'nalish va rivojlanish bosqichlariga ega. Mazkur til turkiy tillar rivojidan boshlab ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalar ta'sirida rivojlanib, takomillashib borgan. O'zbek tilining hozirgi lug'at tarkibi uning rivojlanish bosqichlariga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Boduen de Kurtenening ta'kidlashicha, dunyoda birorta ham sof, boshqa tillar ta'sirida o'zgarmagan til mavjud emas. O'zbek tilining leksik fondi ham ichki va tashqi manbalar hisobiga boyib borgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbek tilining lug'aviy fondi o'z va o'zlashgan so'zlardan iborat. XX asr boshlarigacha o'zlashtirilgan qatlam asosan fors-tojik va arab

tillaridan o'tgan so'zlar hisobiga boyigan. XX asrlar boshlariga kelib, rus tilidan olingan yoki rus tili orqali olingan boshqa tillarga xos bo'lgan so'zlar faol tarzda qo'llanila boshlangan. So'z o'zlashtirishning asosiy manbalari sifatida yunon, lotin, fors-tojik, arab va mo'g'ul tillarini ko'rsatish mumkin. Xronologik nuqta nazardan qaraganda, so'zlarni o'zlashtirish jarayoni asosan qadimgi fors va arab manbalari hisobiga bo'lgan. Ushbu tillardan faol tarzda so'zlar o'zlashtirilgan. Keyinchalik esa rus tilining ta'siri davri boshlangan.

Xalqaro savdoning rivojlanishi, texnologik taraqqiyot va siyosiy o'zaro ta'sirlar tufayli o'zbek tilining lug'aviy tarkibining rus tilidan o'zlashgan so'zlar hisobiga tezlik bilan o'sishi kuzatiladi. Kollej, litsey, universitet, institut, rektor, prezident va boshqa ko'plab so'zlar hozirgi o'zbek tiliga rus tilidan kirib kelgan xalqaro terminlardir. Hozirgi vaqtda fan va texnikaning jadal tarzda rivojlanishi munosabati bilan ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri so'z o'zlashtirish o'zbek tilida ham kuzatilmog'da. Departament, grant, PhD, DSc, kontrakt, bakalavr, magistratura kabi terminlar ingliz tilidan o'zlashtirilgan.

Fors-tojik va arab tilidan olingan so'zlar ruscha-xalqaro so'zlardan farqli ravishda o'zbek tilida mustahkam o'rin egallagan. O'zbek tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda ayrim semantik rivojlanishi kuzatilgan. Jumladan, bu kabi o'zgarishlar arab leksemalari semantikasining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yuz bergan. So'z lug'aviy ma'nodan farqli ravishda boshqa ma'noni ifodalagan. Bu o'zbek tilidagi o'zlashmalarning qo'llanilishi bilan belgilanadi, shuningdek bu ularning ichki til taraqqiyoti qonuniga moslashishi bilan izohlanadi.

Masalan, arabcha "mehnat" so'zining "sinov; mashaqqat, og'irchilik" ma'nosi "biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat, ish"; "natijali faoliyat" ma'nolariga o'zgargan. "Maraz" so'zining "kasallik" ma'nosi "yaramas, zararli nuqson, illat", "yomon fe'l-atvorga ega shaxs" ma'nolarini olishi o'zbek tilidagi

semantik o'zgarishlarning asosiy ko'rsatkichlari sifatida qaralishi mumkin.

Tabiiyki, arablarning O'rta Osiyoning bosib olishi va islom dinining qaror topishi davri turkiy tillar tomonidan arab lug'atini keng miqyosda o'zlashtirishning boshlanishi deb hisoblash kerak. Bu siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar "arab madaniyati va arab tilining turkiy tillar intellektual hayotining barcha sohalariga kirib borishiga" hissa qo'shdi [10].

Arablarning O'rta Osiyoni bosib olishi va islom dinining tarqalishi davri turkiy tillar, jumladan o'zbek tili lug'at tarkibiga ko'plab arabizmlar o'zlashishining boshlanishiga to'g'ri keladi. Bu siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar "arab madaniyati va arab tilining

1-jadval. Turkiy tillardagi arabizmlarning semantik guruhlari

№	Semantik guruh
1.	Diniy atamalar
2.	Xulq-atvorni ifodalovchi leksemalar
3.	Abstrakt tushunchalarni ifodalovchi terminlar
4.	Iqtisodiy terminlar
5.	Predmet nomlari
6.	Ijtimoiy-siyosiy terminlar

Shuni ta'kidlash lozimki, barcha tillarda so'z o'zlashtirish g'ayrioddiy hodisa sifatida qaralishi mumkin. Turkiy tillarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, arab tilidan o'tgan o'zlashmalar turlicha o'zlashtirilgan va har-xil darajaga ega. O'zbek tiliga arab tilidan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar qozoq tilida uchramasligi mumkin. Masalan, تصريف [tasrif] so'zi qozoq tilida "sorttau, retteu" shakliga ega. A.Memetov qrim tatar tilida bo'lgan arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlarni inobatga olib, ular o'zlashtirilgan tilga shu qadar kuchli o'zlashtirilganligini ta'kidlaydiki, ular ba'zan asl so'zlar sifatida ham qabul qilinishi mumkin. Bunga misol qilib "havo", "hayot", "vatan" kabi so'zlarni keltiradi. Ularning barchasi kelib chiqishi jihatidan arab tiliga borib taqaladi [10].

Mazkur xilma-xillik turkiy tillarning rivojlanish jarayoni, turli ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, til tashqi (ekstralingvistik) va til ichki (intralingvistik) omillar bilan belgilanadi. Tillarning o'zaro munosabati, ta'siri masalasi o'zbek tiliga ham xosdir. Masalan, hozirgi o'zbek tilida lug'at tarkibining salmoqli qismini arab tilidan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi. Bunga ko'p asrlik siyosiy-tarixiy voqealar sabab bo'lgan.

Arab istilolari natijasida nafaqat yangi din – islom dini, balki arab tili ham keng tarqalgan. Arab istilosi va arab madaniyati ta'sirida o'zbek tilining lug'at tarkibi kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma'no, ilhom, san'at, tanqid, madaniyat, kashf, a'lo, odob, xat, savod, amal, oila, inson, husn, nutq, soat, avlod, savol, sinf, millat, hikoya, maqol, hayot, shamol, qadr, dohiy, mag'rur, xafa kabi leksemalar bilan boyitilgan.

Ular keng miqyosda qo'llanilgan va hozirgi vaqtda ham qo'llanilmoqda. Arabcha leksemalar diniy terminlar va turli sohaga oid so'zlardan tashkil topgan. O'zbek tilidagi ko'pchilik kishi ismlari ham kelib chiqishi jihatidan arab tiliga borib taqaladi. O'zbek tilidagi arabizmlar kommunikativ, emotsional-ekspressiv va akkumulyativ vazifalarni bajaradi.

Tahlil va natijalar. Arabizmlarning o'zbek tiliga olish sabablari quyidagilar bilan izohlanadi:

- Arab tilining jamiyat madaniy va ilmiy hayotiga ta'siri shunchalik kuchli bo'lganki, aksariyat olimlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar va boshqa gumanitar fanlar vakillari o'z asarlarini arab tilida yozganlar. Arab tilining kuchli ta'siri turkiy tillar ta'sirining torayishi va ularning arab tilidan o'zlashgan so'zlar bilan almashtirilishiga olib kelgan. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek tili taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan. X.Jamolxonovning ta'kidicha, arabcha so'zlarning faol tarzda qo'llanilishi VIII-X asrlarda sodir bo'lgan. Uning fikricha, arabcha so'zlar qo'llanilishi rivojlanishining asosiy omillar arablarning bosqinchiligi va islom dinining keng tarqalishi, ta'lim muassasalarida arab yozuvining joriy etilishi, turkiy-arab ikki tilliligi (bilingvizm)ning paydo bo'lishi va boshqa jihatlardir [6].

- Arabizmlar o'rta asrlar jamiyatining axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy hayotiga kirib borib, hukmron til sifatida o'rin egallagan. T.Raxmonovning fikricha, bunga bir qator muhim omillar sabab bo'lgan: "...O'rta Osiyoda arab tili davlat, rasmiy adabiy til sifatida qo'llanilgan. O'sha davrdagi barcha rasmiy, huquqiy hujjatlar shu tilda olib borilgan. Davlat, sud-huquq tizimi, savdo va qishloq xo'jaligi ishlari arab tilida olib borilgan. Bu esa mahalliy tillarga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birgalikda arab tili badiiy adabiyot tili ham bo'lgan. O'sha davrning ko'pgina shoirlari o'z asallarini shu tilda yaratishgan" [14]. I.Usmonov o'z tadqiqotida Somoniylar davri arabzabon shoir va yozuvchilari haqida ham batafsil

turkiy tillar intellektual hayotining barcha sohalariga kirib borishiga" hissa qo'shdi [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, qaysi millatga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, O'rta Osiyoda yashagan xalqlar ma'lum bir muddat asosan arab tilidan adabiy til sifatida foydalanganlar. O'sha davrning ko'plab mashhur olim va mutafakkirlari o'z asarlarini shu tilda yozganlar. Arab tili o'sha tarixiy davrning ilm-fan va madaniyat tiliga aylangan, bu esa uning mahalliy tillarga ta'siriga sabab bo'lgan.

Zamonaviy turkiy tillar lug'at tarkibining o'zlashtirilgan qatlami haqida so'z borganda, birinchi navbatda, arabizmlarning keng tarqalganligi kuzatiladi. Hozirgi turkiy tillarning arab tilidan o'zlashgan so'zlarini quyidagi semantik guruhlariga ajratish mumkin:

bayon qiladi va qimmatli ma'lumotlar taqdim etadi [16]. U ayrim ikki tilli shoirlarning hayoti va ijodini ma'lum darajada yoritib bergan va mazkur ma'lumotlar arab tilining o'sha davrdagi maqomi haqida ma'lum xulosalarga kelishda foydali bo'ladi.

X-XI asrlarda Somoniylar hukmronligi davrida ular bosib olgan hududlar gullab-yashnagan davrda arab tili o'rmini bosqichma-bosqich fors-tojik tili egallay boshlagan. Shunga qaramay arab tili ustuvorlik beriladigan til sifatida qolavergan va ilm-fan va madaniyat tili bo'lib qolavergan.

Adabiyotning rivojlanish tarixiga nazar tashlansa, asosan ikki tilda – turkiy va fors-tojik tillarida ko'plab mashhur badiiy asarlar yaratilganligini ko'rish mumkin. Bu holat fors-tojikcha so'zlarning o'zbek tili lug'at tarkibiga kirib kelishiga xizmat qilgan.

Fors tilidan o'zlashgan so'zlar. Tarixdan ma'lumki, turkiy qabilalar O'rta Osiyoda arslari davomida yashab kelgan. Markaziy Osiyoda, daryolararo mintaqada turkiy tilli qabilalar uzoq vaqtdan buyon forsiyazabon aholi bilan birga yashab kelgan. Shu asnoda, turkiyazabon va forsiyazabon xalqlar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, madaniy va boshqa turdagi aloqalar o'rnatilgan holatlar mavjud bo'lgan.

Garchi mazkur xalqlar etnik jihatdan boshqa-boshqa qatlamlarga taalluqli bo'lsa-da, turli tillarda so'lashuvchi mazkur millatlar deyarli o'xshash sharoitlarda yashashgan, ishlab chiqarishda birga ishtirok etishgan, adolatsizlik va zulmga qarshi birga kurashishgan. Bunday madaniy, maishiy va adabiy aloqalar mazkur millatlarning yanada yaqinlashishiga, hamkorlik aloqalarining mustahkamlashishiga olib kelgan [12].

Fors tojik tilini yaxshi bilgan XIV-XV asrda ijod qilgan shoir va yozuvchilar ikki tilda ijod qilganliklarini ta'kidlash lozim. Demak, forsiy so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishida quyidagi omillar muhim rol o'ynagan:

- bu xalqlarning azaldan bir mintaqada, bir ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy muhitda yashab kelganligi;
- keng tarqalgan o'zbek-tojik va tojik-o'zbek ikki tilliligi (bilingvizm);
- tojik-fors tillarida ijod an'analari ko'p asrlar davomida davom etganligi;
- fors-tojik tili Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida alohida o'rin tutganligi;
- ushbu xalqlar adabiyoti, san'ati, madaniyati, urf-odatlari va an'alarining odatiy muvofiqligi.

Jumladan, Alisher Navoiy asarlari lug'atida oziq-ovqat mahsulotlari va idish-ovoq nomlarini bildiruvchi 5489 ta forscha so'zni uchratish mumkin [2]. Bu raqam Alisher Navoiy asarlari lug'atida ikkinchi o'rinda turadi. Jumladan uning asarlarida non, osh, kabob, shakar, maviz (mayiz) kabi so'zlarning keng miqyosda qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, fors tiliga moslashtirilgan kabob taomining nomi Navoiy asarlari lug'atida ko'p uchraydi. O'sha paytda ham bu hozirgi kabobni, ya'ni go'shtni metall yoki yog'och tayoqqa solib, cho'g'da pishirishni anglatardi. "Azham merosi tarixi" ("Tarixi mulki azham")dan bir misol: "Bir kun bir yo'lda tushub, kabob buyurdi" [1].

O'zbek tili rivojlanishining mustaqillik davrigacha bo'lgan davridagi so'nggi vaqtlarda rus tilining ta'siri katta bo'lgan. Rus tilining ta'siri, ayniqsa, XX asr boshlarida sobiq sovet hokimiyatining paydo bo'lishi bilan yaqqol namoyon bo'ldi, garchi undan ancha oldin, XVII asrdan boshlab, xalqaro savdoning rivojlanishi, texnologik taraqqiyot va xalqlarning siyosiy o'zaro ta'siri tufayli o'zbek tili

shevalarida kelib chiqishi rus tiliga borib taqaluvchi so'zlar paydo bo'la boshlagan.

Inqilobdan so'ng sobiq O'zbekiston SSRda hayot tanib bo'lmas darajada o'zgan – mahalliy aholining yashash tarzi butunlay o'zgarib ketgan. Shu kabi jihatlarining barchasi pirovardida tilning ijtimoiy funksiyalari kengayishiga va uning leksik qatlamining ko'plab rus tilida olingan so'zlar bilan boyishiga olib kelgan.

An'anaga ko'ra, sobiq ittifoq respublikalari milliy tillari leksik qatlamining kengayishi va boyitilishi ikki yo'nalishda sodir bo'lgan:

1) Chet tillarda so'zlarni olish, ularni til normalariga moslashtirish. Jumladan "yarim kalka" so'zlarning paydo bo'lishi;

2) Boshqa tillardan olingan so'zlar asosida so'z yasashni o'z ichiga olgan jarayon.

Quyida rus tilidan o'zbek tiliga olingan eng ko'zga ko'ringan va keng qo'llaniluvchi so'zlarni ko'rib chiqamiz.

Yil oylarining nomlari – ilgari oylar oy taqvimini bo'yicha hisoblangan va butunlay boshqacha nomlarga ega bo'lgan: masalan, iyul oyi "saraton" deb nomlangan. Keyinchalik, yilning barcha oylari rus tilidan olingan nomlarga ega bo'lgan, biroq o'zbek tilida yumshoq belgi bo'lmaganligi sababli yozilishi quyidagicha qabul qilingan: dekabr, aprel, iyun kabi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llaniluvchi xalqaro atama va terminlarning ko'pchiligi shu davrda aynan rus tili orqali olinganligini ham alohida ta'kidlash lozimdir. Masalan, poyezd, vagon, futbol, voleybol, universitet, institut, pomidor, kartoshka, krossovka, stol, stul, shkaf kabi so'zlar garchi kelib chiqishi boshqa tillarga borib taqalsa-da, aynan rus tili orqali o'zlashtirilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, o'zbek tili, jumladan uning leksik qatlami rivojiga asosan quyidagi omillar sababchi bo'lgan: ijtimoiy-siyosiy, boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar va boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqalar ta'sirida. Biroq, ular orasida ayniqsa chet tillardan ma'lum bir sabablarga ko'ra o'zlashtirilgan so'zlar muhim o'rin tutadi. Bu borada o'zbek tili rivojlanishining turli bosqichlarida arab, fors-tojik va rus tillari muhim o'rin tutgan. Shuningdek boshqa tillardan ham kam sonli bo'lsa-da so'zlar o'zlashtirilgan. Alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi vaqtlarda o'zbek tiliga so'zlar ma'lum bir davrda bo'lgani kabi "ko'prik til" orqali emas, balki to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilmoqda. Bu o'rinda, boshqa tillarda bo'lgani kabi so'zlar o'zbek tilining lisoniy qoidalariga to'liq yoki qisman moslashtirilmoqda, shuningdek, ayrim o'rinlarda hech qanday o'zgartirishsiz ham so'zlar o'zlashtirilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 16-jild. – T.: Fan, 1998. – 239 b.
2. Bafojev B. Navoiy asarlari leksikasi. –T.: Fan, 1983. – 155-b.
3. Dadabayev X. Obshestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pismennix pamyatnix XI-XIV vv. –T.: Yozuvchi, 1991. –S.139.
4. Dmitriyev N.K. Arabskiy element v bashkirskom yazike// Stroy tyurkskix yazikov. –M.: Visshaya shkola, 1962. – S.503-569.
5. Ivanov S.N. Arabizmi v turetskom yazike. –L.: LGU, 1973. – 61s.
6. Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek tili. –T.: O'qituvchi, 2005. – B.179.
7. Kenestayeva S. Fonotakticheskiye modeli arabizmov v kazaxskom yazike. Tolkoviy slovar zaimstvovaniy. –Alma-Ata: Kazaxstan, 1977. – 199 s.
8. Khamzaev S.A. Patterns of interaction of categories generalizing external factors of vocabulary development. Foreign Linguistics and Linguodidactics. Issue – 2 № 2 (2024) / ISSN 2181-3701. Pp. 164-178.
9. Kodirova N.I. Semantiko-stilisticheskii analiz zaimstvovaniy v uzbekskom i russkom yazikax v noveyshi period 1991-2001gg.: diss. ...kand. filol. nauk: – T., 2001. – S. 24.
10. Memetov A. Arabskiy zaimstvovaniya v sovremennom krimsko-tatarskom yazike // Sovremennaya tyurkologiya. – M.: MGLU, 1985. N.3. – C.9-21.
11. Musayev K. Leksika tyurkskix yazikov v sravnitel'nom osvmenii. –M.: Nauka. 1973. – 354 s.
12. O'zbek adabiyoti tarixi. –T.: Fan, 1977. – 159-b.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2008. – 587-b.
14. Raxmonov T. Hozirgi o'zbek tilidagi arabcha o'zlashma so'zlar semantikasidagi o'zgarishlar. Filol. fan. nomz. diss. –T.,1994. – B.37
15. Usmonov F.I. Abumansur as-Salibi i yego "Tatimmat al-Yatima" kak istochnik po araboyazichnoy persidsko-tadjikskoy poezii X veka: Avtoref... dis. kand. filol. nauk – Dushanbe, 2011. – 27 S.
16. Xamzayev S.A. Gilyazetdinov E.Z. The influence of borrowed words to the vocabulary stock of the Uzbek language. Tilni o'qitish va o'rganishda XXI asr ko'nikmalari – II xalqaro anjuman. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materillari, 2021 yil, 9 Aprel. 1-kitob. – B. 21-24.
17. Xamzayev S.A. Causes of Enrichment of the Language Vocabulary. "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish: zamonaviy metodlar va ulardan samarali foydalanish" mavzusidagi respublika ilmiy amaliy konferentsiya. QDPU, 2024 yil, 30-aprel. – B. 94-97.



Yusuf XODJIYEV,
Guliston davlat universiteti doktoranti, PhD
E-mail:Yusuf.hojiyev@icloud.com

ToshDO‘TAU prof. v.b, f.f.d M.Xakimova taqrizi asosida

OR-NOMUS TUSHUNCHASINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI VA BADIY IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek xalqi tabiatiga xos axloqiy fazilatlar, jumladan, or-nomus ifodasi leksikografik dalillar asosida talqin qilingan. Shuningdek, or-nomus leksemasi va uning sinonimlari xalq ma‘naviy mulkining ko‘zgusi o‘laroq badiiy matnning ifodaviyligi, jozibasini ham ta‘minlashga xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: or-nomus, ma‘naviy sifat, fe‘l-atvor, konseptual mohiyat, leksikografik talqin, etimologik mazmun-mohiyat, yaxlit sistema, konnotativ sema.

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОНЯТИЯ ЧЕСТЬ

Аннотация

В данной статье на основе лексикографических данных трактуются нравственные качества, свойственные природе узбекского народа, в том числе проявление чести. Также лексема чести и ее синонимы как зеркало духовного достояния народа служили обеспечению выразительности и очарования художественного текста.

Ключевые слова: честь, нравственные качества, характер, понятийная сущность, лексикографическая интерпретация, этимологическая содержательно-сущность, целостная система, коннотативная сема.

LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION AND ARTISTIC POSSIBILITIES OF THE CONCEPT OF HONOR

Annotation

In this article, the moral qualities of the Uzbek people, including the expression of honor, are interpreted on the basis of lexicographical evidence. Also, the lexeme of honor and its synonyms, as a mirror of the people's spiritual property, served to ensure the expressiveness and charm of the artistic text.

Key words: honor, moral quality, character, conceptual essence, lexicographic interpretation, etymological content-essence, integrated system, connotative scheme.

Kirish. Darhaqiqat, oila jamiyatning bosh bo‘g‘ini, asosi bo‘lib, o‘zbek xalqi madaniyati, mentalitetida, avvalo, oila xalqimizning azaliy qadriyatlarini, an‘analari hisoblanmish: halollik, or-nomus, mehr-oqibat, sadoqat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlar evaziga barpo etiladi. Ayniqsa, o‘zbek oilalarining mustahkamligi, muqimligi va manguiligi ana shu ma‘naviy an‘analarga tayanganligi bilan bog‘liq bo‘lib, har qanday millatning o‘zligini or-nomus, shaxsning mohiyatini esa oriyat darajasi belgilaydi. Shu ma‘noda shaxsning ma‘naviy sifati bilan aloqador birliklar sirasida or, nomus, or-nomus hamda ularning barchasini birlashtiradigan oriyat so‘zlari ifodalaydigan konseptual mohiyat markaziy o‘rinni egallaydi.

Ma‘lumki, o‘zbek xalqi or-nomusli, diyonatli ekanligi bilan ajralib turadi. “O‘zbek xalqi tabiatiga xos bo‘lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-u hayo, ibo, iffat kabi betakror fazilatlar, bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, oqko‘ngillik xususiyatlari ham xalqimiz fe‘l-atvorini ifoda etuvchi ajoyib xislatlardir” [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuda zamonaviy o‘zbek tilshunosligi va jahon tilshunosligida aynan qilingan ishlar mavjud emas. Bu tanlangan mavzuning yangiligi, dolzarbligidan darak beradi. Biroq “or-nomus” tushunchasi va uning ma‘nodoshlari xalqimizning azaliy qadriyatlarini, til va tafakkur yaxlitligi o‘laroq yuzaga keladigan lingvomadaniy, kognitiv va leksikografik tadqiqotlar uchun asosiy manba bo‘la oladi. Shu ma‘noda, mazkur mavzuda Yevropa ilm-fanida Aristotel, Kvintilian, J.Lakoff [2], E.Kassirer, A.Richards singari faylasuf va tilshunolar, rus tilshunosligida V.N.Vinogradov, N.D.Arutyunova [3], V.N.Teliya [4], A.Chudinov, G.N.Sklyarevskaya [5], V.P.Moskvin [6], V.V.Krasnits, J.V.Krasnobayeva-Chyornaya [7], V.M.Savitskiy, X.Sargach [8] singari taniqli olimlar tomonidan o‘rganilgan ishlardan foydalansak, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Or-nomus konsepti insonga xos axloqiy, zaruriy fazilatlar sirasiga kirishini hisobga oladigan bo‘lsak, bunda o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik aspektida o‘rganishga doir Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev [9], M.Mukarramov, R.Qo‘ng‘urov [10], B.Umurqulov [11], N.Mahmudov, D.Xudayberganova [12], Sh.Maxmaraimova [13] singari olimlar, A.Yuldashv, F.Usmonov, N.O‘Kobilov [14], U.E.Xolnazarov [15] kabi tilshunolar tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarga murojaat qilishimiz mumkin.

Ma‘lumki, nomus so‘zi birinchi ma‘nosida or so‘zi bilan sinonimik munosabatga kirishadi: Or 1 O‘ziga nomunosib yoki ep ko‘rilmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyulish tuyg‘usi; uyat, nomus. 2 Obro‘, faxr.

Sh.Rahmatullayev ham ushbu so‘zlar etimologiyasi haqida fikr yuritganda, ular orasidagi o‘zbek tilidagi farqlarga e‘tiborni ko‘p qaratmaydi. Bizning nazarimizda, ma‘nodoshlik lug‘atlarida sinonimik qatordagi so‘zlarning konnotativ sema asosidagi farqlanishiga darajalanish tamoyili asosida yondashish va so‘zlarning ushbu qatordagi o‘rnidan kelib chiqqan holda nisbiylik tamoyili asosida izohlar berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar, har bir so‘zning mohiyati to‘laqonli ochilar edi.

Demak, nomus (or-nomus), or, oriyat, vijdon, diyonat so‘zlari o‘zaro uyadosh bo‘lib, ular sirasida nomus, or-nomus, or, oriyat so‘zlari o‘zaro sinonimik munosabatdadir. Vijdon, oriyat (nomus, or-nomus, or) va diyonat so‘zlarini o‘zaro sinonim deiysh ham, izohlarda ishora qilish usulidan foydalanish ham maqsadga muvofiq emas. Vijdon leksemasi ko‘p qo‘llanuvchanligi va boshqa tillarda o‘zining erkin muqobiliga egaligi, diyonat so‘zi boshqalar uchun islomiy e‘tiqodli xalqlardagi realiya ekanligi bilan xarakterlanadi, oriyat esa “ichki men” semalari bilan o‘zaro farqlanadi. O‘zbek tilida nomus birligi oriyat, or-nomus, or so‘zlaridan gender belgiga egaligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek tilshunosligida bu masalani yoritishda leksikografik, tahliliy, tavsifiy, tasnifiy va konseptual usullar alohida muhimlik kasb etadi. Or-nomus ifodasi esa ma‘noni kuchaytirish maqsadida ma‘nodosh birliklarning juftlashishidan hosil qilingan. Bu birliklar nutqda “Nomus” konseptini voqelantiradi.

“Nomus” konseptining mohiyati quyidagi freymlardan sintezlanadi:

nomus – kishining o‘z obro‘sini saqlash tuyg‘usi;

nomus – uyat hissi;

nomus – qizning bokiralik holati.

Sh.Rahmatullayev tomonidan tartib berilgan etimologik lug‘atda diyonat so‘zi berilgan. Olim bu haqda shunday yozadi: “... Bu so‘z dana fe‘lining “ilohiy kuchga sig‘indi” ma‘nosidan yasalgan ot bo‘lib, “diniy e‘tiqod” ma‘nosini anglatadi. O‘TILda bu so‘z ma‘nosining (I, 233) “vijdon, vijdonlilik, insof” tarzida izohlangani

to'g'ri emas, bunday izohlar O'TILga "Tadjiksko-russkiy slovar" (TjRS, 129) dan ko'chib o'tgan. O'zbek tilida diyonat so'zidan diyonatli, diyonatsiz sifatleri yasalgan" [16]. Buning sababi, bizningcha, ushbu lug'atlar yaratilgan davrdagi mafkuraviy muhit va sharoit bilan bog'liq bo'lsa kerak. Zero, bu so'z 2 tomlil "O'zbek tilining izohli lug'ati"da xuddi shunday izohlangan [17], 5 jildli lug'atga ham shunday o'tgan va illyustrativ misollar bilan boyitilgan.

Sh.Rahmatullayevning fikrlariga qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, "Узбекско-русский словарь" da bu so'z ikki ma'noli leksema sifatida izohlangan va birinchi ma'nosi "честность, добросовестность, совесть, честь" bo'lsa, ikkinchi ma'nosi "религиозность, набожность, благосердие" deb berilgan [18]. Nazarimizda, ushbu izoh har holda ijtimoiy lisoniy ong'dagi holatni to'g'ri aks ettirgan. Zero, o'zbek lisoniy jamiyati dunyoviy davlat bo'lganligi sababli keng qo'llanishdagi diyonat so'zining birinchi ma'nosi asosiy ekanligi shubhali emas. Shunga ko'ra, diyonat so'zi birinchi ma'nosida vijdon, ikkinchi ma'nosida e'tiqod so'zlari bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi. Izohni esa "e'tiqodiy vijdon" (1) va "diniy e'tiqod" (1) deb berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Diyonat so'ziga "vijdon, vijdonlilik, insof" izoh bo'la olmaydi. Buning sabablari:

So'z	Ma'nolar izohi	Ishora qilingan sinonimi
Vijdon	Kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat hissi	diyonat, insof
Diyonat	Vijdon, vijdonlilik, insof	vijdon, vijdonlilik, insof
	Diniy qonun-qoidalarga qattiq rioya etish	dindorlik, taqvodorlik
Oriyat	Or-nomus; izzati nafs	or-nomus, izzati nafs
	Uyat, sharm, or	uyat, sharm, or
Nomus	Kishining o'z obro'sini ulug'lash va ardoqlash his-tuyg'usi	oriyat, diyonat, vijdon
	Xijolat tortish his-tuyg'usi	uyat-andisha, sharm, hayo, or
	Qizning pokligi	bokiralik, iffat, qizlik

Berilgan so'zlarni lug'atdagi izohi asosida quyidagicha tasniflash mumkin:

to'la izohlangan so'zlar: vijdon, nomus;
qisman izohlangan so'zlar: diyonat (2);
izohlanmay, sinonimlariga tenglashtirilgan so'zlar: oriyat, diyonat (1);

sinonimlariga qisman tenglashtirilgan so'zlar: diyonat; izohdan so'ng sinonimlariga ishora qilingan so'zlar: vijdon (diyonat, insof), diyonat (vijdon, vijdonlilik, insof), oriyat (or-nomus, izzati nafs, uyat, sharm, or), nomus (oriyat, diyonat, vijdon; uyat-andisha, sharm, hayo, or; bokiralik, iffat, qizlik).

Dashtab so'zlarning etimologik xususiyatlarini o'rganamiz:
nomus – arabcha: "qonun; vijdon, diyonat; obro'-e'tibor; iffat, bokiralik" (yun. nomos — qonun);
or – arabcha: uyat, sharmandalik, nomus; uyalish;

oriyat – arabcha: birovdan vaqtincha olingan narsa; qarzga berilgan buyum;

diyonat – arabcha: din, e'tiqod; diniy ta'limot, ishonish;
vijdon – arabcha: ehtiros, his-tuyg'u; insof, diyonat.

Demak, arab tilida vijdon so'zi insof, diyonat so'zlari bilan, or so'zi uyat so'zi bilan, nomus so'zi qonun; vijdon, diyonat; obro'-e'tibor; iffat, bokiralik so'zlari bilan etimologik jihatdan sinonimik munosabatda bo'ladi [20]. Bunda faqat diyonat va oriyat so'zlari etimologik jihatdan ulardan tubdan farq qilib turadi.

"O'zbek tilining sinonimlari izohli lug'ati"da yuqoridagi so'zlarning izohini kuzatganimizda quyidagi holatga duch keldik:

Nomus so'zi berilmagani holda nomusli so'zi hayoli, oriyatli, andishali, iboli (149) so'zlari bilan, uyat so'zi nomus, sharm, hayo, or, oriyat, andisha, ibo, isnod so'zlari bilan (206), vijdon so'zi nomus (77) so'zi bilan sinonimik qatorda berilgan. E'tiborli jihati shundaki, lug'atda sinonimik qatordagi barcha so'zlarga bitta umumiy izoh berilgan va ularning o'zaro farqlariga qisman va ko'p hollarda yuzaki to'xtalangan. Masalan:

"UYAT, NOMUS, SHARM, HAYO, OR, ORIYAT, ANDISHA, IBO, ISNOD Izza hissi, xijolatlik, uyalish hissi. Uyat kengroq tushunchaga ega. Sharm, or, hayo so'zlari yakka holda ham qo'llanadi. Sharm, hayo so'zlari ko'pincha juft so'z holda (sharm-

birinchidan, izohda so'zning sinonimiga ishora qilish uning mohiyatini ochib bera olmaydi. Zero, mohiyatdagi bir xillik bittasining ortiqchaligini ko'rsatadi. Mohiyatlar esa bir xil bo'lishi mumkin emas;

ikkinchidan, ko'rib o'tilganidek, izohda diyonat va vijdon so'zlarini tenglashtirishda subyektivlik ustuvorlik qilgan.

Tahlil va natijalar. Xalqning o'zligini ifodalovchi or, nomus, andisha, ehtiros, vatanparvarlik, jasorat, poklik va muhabbat, halollik va nafsoniyat, g'urur va iroda kabi milliy-mental xususiyatlari, milliy xarakterlari xalq ma'naviy mulkining ko'zguvidir. Nazarimizda, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilganidek, birinchi freymdagi mohiyat oriyat, diyonat, vijdon so'zlari bilan to'la muvofiq kelmaydi. Bunga leksikografik dalillar asosida amin bo'lish mumkin. Qiyoslaymiz:

Oriyat 1 Or-nomus; izzati nafs 2 Uyat, sharm, or [19].

Vijdon Kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat hissi, insoniylikning asosiy belgilaridan biri; diyonat, insof [19].

Diyonat 1 Vijdon, vijdonlilik, insof. 2 Diniy qonun-qoidalarga qattiq rioya etish; dindorlik, taqvodorlik.

So'zlarning o'xshash va farqli tomonlarini aniq va to'la tasavvur qilish uchun ularni jadvalda kuzatamiz:

hayo) qo'llanadi. Or so'zi ham ko'pincha nomus so'zi bilan juft so'z holda (or-nomus) qo'llanadi. Shuningdek, or so'zi ko'pincha qilmog, kelmog so'zlari bilan birga qo'llanadi. Ibo kam qo'llanadi. Andisha bu ma'nodada kam qo'llanadi" [21, 205]. Bizningcha, isnod so'ziga ushbu qatordan o'rin berilishi to'g'ri emas. Zero, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da unga shunday izoh keltiriladi:

Isnod [a. – tayanch, tirgak; dalil; manba; nisbat berish, taalluqli qilish] Uyatga yoki ta'naga qoldiradigan, nomiga dog' tushiradigan ish; shunday ishdan bo'ladigan (keladigan) uyatli holat. Ha, bu isnodning bir chekkasi o'qituvchilarga ham tegadi, butun maktabga tegadi! (H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar). Mastonbibining kelini bu yil ham planini bajarolmabdi, degan isnodni ko'tarolasanmi? (S.Ahmad, Qardron dalalar).

Isnod keltirmoq yoki isnodga qoldirmoq.

Uyat, nomus, ta'naga qoldirmoq, nomiga dog' tushirmoq [22].

Ko'rinadiki, isnod uyat emas, balki uyatni keltirib chiqaradigan, uyatga sabab bo'ladigan ish. Yana aytish mumkinki, nomusga tegadigan, sharm qilish lozim bo'lgan, hayo yo'l qo'ymaydigan, kishi or qiladigan, oriyat yo'l bermaydigan, andisha, ibo to'siq bo'ladigan ish, amal isnod so'zi bilan ifodalanaadi. Qisqasi, nomus (sharm, hayo, or, oriyat, andisha, ibo) yo'q holat isnodli holatni keltirib chiqaradi. Bu dalillar esa ushbu sinonimik qatarga uni kiritish ma'qul emasligini ko'rsatadi.

E'tibor qilinsa, bu so'zlar orasidagi farq qo'llanishning zohiriy tomonlari (juft yoki yakka, kam yoki ko'p) bilan cheklangan. Ma'nodagi farqlarga ahamiyat berilmagan.

Xulosa. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, ushbu tizimga kirgan so'zlarning ma'no mohiyati talqinida sinonimlariga ishora qilish ustuvorlik qiladi. Bu esa tavnologik izoh bo'lib, so'zlarning asl mohiyati ochilmay qolishiga olib kelgan. Nazarimizda, ushbu so'zlarni yaxlit sistema tarkibida qarab, tizimiy munosabatlarini ochish, etimologik mazmun-mohiyati va qo'llanish xususiyatlarini o'rganish asosida tegishli leksikografik to'xtamlarga kelish zarur. Bu "shaxs ma'naviy sifatleri" umumiy semali mazkur leksemalarning konseptual xususiyatlarini diskursiv o'rganish, tahlil qilish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбек табиати. Ойна, 2023. 21.12. <https://oyina.uz/kiril/teahause/2667>
2. Лакофф Дж. Лингвистические гештальты // Новое в зарубежной лингвистике. Вып X. – М.: Прогресс, 1981. – С. 350-368
3. Н. Д. Арутюновой; Общ. ред. Н. Д. Арутюновой и М. А. Журиной. — М.: Прогресс, 1990. — 512 с.
4. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М. 1986.
5. Склярская Г.Н. Метафора в системе языка. – СПб. : Наука, 1993.
6. Москвин В. П. Стилистика русского языка. Теоретический курс / В. П. Москвин. – Изд. 4-е, перераб. и доп. – Ростов н/Д: Феникс, 2006.

7. Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговор) // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М. МАКС Пресс, 2001. – С. 644.
8. Савицкий В.М. Лингвокультурные коды: к обоснованию понятия // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Лингвистика. – №2. – С. 57.
9. Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи//Ўзбек тили ва адабиёти. – 1973.4-сон. – Б. 34-37.
10. Қўнгулов Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1978.
11. Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари. Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. Тошкент, 2020. – Б. 271.
12. Худайберганава Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентриқ талқини: Докторлик дисс. автореферати. – Тошкент, 2015. – Б.13.
13. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентриқ тадқиқи: Филол. фанлари док-ри дисс... – Самарқанд, 2020.
14. Кобилов Н. Тоғай Мурад қиссаларининг лингвопрагматик хусусиятлари. Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри дисс.. – Самарқанд, 2022. – Б. 141.
15. Xolnazarov U. Nasriy nuutqda metaforalarning lingvokognitiv, lingvomadaniy xususiyatlari (Tog'ay Murod qissalari misolida). Filol. fanlari bo'yicha falsafa dok-ri diss.. – Termiz, 2023. – B. 145.
16. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II. Араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 107-108.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 1-том. – Тошкент: Издателства «Русская язык», –1981. – Б.223.
18. Узбекско-русский словарь. - Тошкент: ЎзСЭ Бош редакцияси, 1988. – Б.120.
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 1-жилд. – Б.542.
20. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II. Араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар. – Тошкент: Университет, 2003.
21. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: – Б. 205.
22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, – 2008. – Б.336.



Dildora KHOLBOEVA,

Lecturer, the department of Interfaculty(english) The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
E-mail:dildora.kholboeva1985@gmail.com

Under the review of USWLU ,associate prof. N.Yuldasheva

DIACHRONIC AND SYNCHRONIC APPROACH TO THE TERMINOLOGY AND TERM(TOURISM) IN LINGUISTICS

Annotation

The article discusses the main features of the term. The main requirements that should be met for the term are: consistency, motivation, unambiguity, accuracy, brevity are discussed in detail. The study and definition of any terminological system should also be synchronous. include diachronic aspects, in which a comprehensive analysis of the history of terminology development allows us to determine the general principles of creating terms and their use-activity.

Key words: system, motivation, demotivation, optional.

ДИАХРОНИЧЕСКИЙ И СИНХРОНИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ТЕРМИНОЛОГИИ И ТЕРМИНУ(ТУРИЗМ) В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются основные особенности термина. Подробно рассмотрены основные требования, которым должен соответствовать термин: последовательность, мотивированность, однозначность, точность, краткость. Изучение и определение любой терминологической системы также должны быть синхронными. включают диachронические аспекты, в которых комплексный анализ истории развития терминологии позволяет определить общие принципы создания терминов и их употребление-деятельность.

Ключевые слова: система, мотивация, демотивация, факультатив.

TILSHUNOSLIKDA TERMINOLOGIYA VA TERMIN(TURIZM) TUSHUNCHALARIGA DIAKRONIK VA SINXRONIK YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada terminning asosiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Teminga qo'yilishi lozim bo'lgan asosiy talablar ya'ni:tizimlilik, motivatsiyalanganlik, bir ma'nolilik, aniqlik, qisqalik kabilar batafsil yoritilgan. Har qanday terminologik tizimni o'rganish va ta'riflash ham sinxron bo'lishi kerak. terminologiyaning rivojlanish tarixini har tomonlama tahlil qilish terminlarni yaratish va ulardan foydalanishning umumiy tamoyillarini aniqlash imkonini beradigan diaxronik jihatlarini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: tizim, motivatsiya, yalanganlik, demotivatsiya, fakultativ.

Introduction. Today, one of the main problems of any field of scientific knowledge is the definition of terminology, since terminological factors play a special role in professional and scientific society and make up more than 80% of textual material. At the same time, due to their structural and semantic terms, they cause difficulties in the mutual understanding of specialists.

The term is subject to constant change and modification is a dynamic element of the language. These are the definitions of this term subject to change and inherent in the term itself defining a characteristic as specific to the requirements placed on it doesn't make much sense.

Literature review.1) Systemacity. Each of the terms is an integral part of the terminological system-is an element, it always organically interacts with its other elements. This feature is the most important for most researchers.

2) Motivation, semantic transparency of the term, signs that make up its "literal meaning". Some linguists in his opinion, this term is always motivated: "Generally applicable an unmotivated word in a language, when it is a term in a language will be motivated."

3) The idea that the term may not be motivated which classifies terms according to the degree of motivation is confirmed in the works of scientists:

1) Motivated, that is, semantic and word-forming conditions with motivation

2)semi-motivated (i.e., of the two types of motivation only motivated on the basis of one)

3)unmotivated sign of a motivating language unit loss leads to his demotivation, and this situation or symbols reflecting the nature of the terminable concept terminological unit and designation, which is the basis for differentiation when the connection between them weakens or for some reason at all loss occurs unconsciously or in the process of term formation used consciously and specifically.

Thus, in our opinion, the term is motivated. This feature should be considered optional rather than required.

4) Ambiguity. This feature has been around for quite sometimes subject to harsh criticism.

The first researchers, if this lexical form in other fields of knowledge is used in other meanings that this does not affect his ambiguity in a certain field of knowledge emphasized. In fact, today the same term is used in different systems many examples that represent different concepts we can bring (basis - library work, computer science in economics).Today, for many authors, polysemy is precisely one we are talking about the opportunity to meet in the terminological system itself. There are especially many such examples in technical language, where the terms substance and can represent process, material and process e.g.: lubricant (substance and process), wire (conductivity)(material and process). Thus, the ambiguity of the term cannot be considered its obligatory feature.

5) Accuracy. A term in terms of concept, semantic rigor or must have clarity: "the term - its meaning is strictly defined word".

"Clarification of the meaning of the level of direct agreement it is emphasized that words processed on the surface are terms.In our opinion, any term should strive for clarity.

6) Brevity. Some researchers highlight this feature shows that due to the large size of the term it is widely used in speech believes that it prevents its use.

Other terms about "brevity" and optimal length, that is, in a certain system of terms

(based on a given natural language) is the reality of the formation of terms reflects the length of time during which conditions are taken into account. Third category considers the points of the previous point of view to be incorrect: "The term is not a word in everyday use and its precision is short will be more important." Therefore, the verbosity of the term author doesn't consider this a disadvantage.

It is known that terms are used in various fields and sciences. Today, the rapidly developing tourism sector is no exception, and there are special terms for tourism activities. The study and definition of any terminological system should also be synchronous. include diachronic aspects, in which a comprehensive analysis of the history of terminology development allows us to determine the general principles of creating terms and their use-activity. Therefore, in this

study, we considered it appropriate to primarily study the processes of formation and development of tourism terminology.

A large number of studies have been devoted to the problem of studying terminology in diachronic order. Among them are L. L. Kutina, G. P. Snetova and N. V. Vasilyeva's scientific research deserves praise. The state of terminology, sources and methods of forming terms have been deeply studied in the studies of the mentioned scientists.

Analyses and results. It should be noted here that the diachronic study of terminological units has its own characteristics, the essence of which lies in the study of the historical sequence of the development of individual terms and the development of the terminology system as a whole. Of course, this statement creates the necessary conditions for studying the history of the emergence and development of tourist terminology and its full description.

In the modern era of globalization, despite natural disasters, economic downturns, various conflicts, terrorist attacks, wars, etc., tourism growth is observed all over the world, and tourism is treated as one of the fastest growing sectors of the economy. For this reason, new terms appear in the lexical layer of the language.

The system of terms related to the sphere of tourism in English has its own stage of formation and development. We will discuss this in detail below.

It is known from various sources that England is the birthplace of tourism as a type of economic activity, so we considered it appropriate to consider the formation of tourism terminology in more detail using the English language as an example. This industry is visible in our country and does not include the period, because of this, Uzbek tourism terms are less voluminous compared to English ones. According to the analysis of the scientific literature on tourism that we studied, in particular, according to S. N. Makarenko and I. V. Zorin, English tourism historically has four stages, and the division into these periods is based on technical development, social and economic reasons.

The first stage - the prototype of tourist activity - covers the period from antiquity to the beginning of the 19th century, when the main reasons for British travel were trade, pilgrimage, healing and education. In the 16th century in England, the Grand Tour - a trip of rich people to the European continent became attractive to many and became popular. The beginning of the Grand Tour will allow you to see the surroundings of the Mediterranean Sea. In the 18th century, health resorts became popular in a number of cities, which also contributed to the increase in the number of travelers. As a result of the above reasons, the terminology associated with English tourism began to form; the terms actively used at that time were carriage, boarding house, excursion, hotel, resort, route, etc. The terminological units were taken from the commonly used literary language. For example, the word "resort" in the lexical layer of the language initially expressed the meaning of "something to which one turns for help or assistance", but later it acquired the meaning of "a place where people go on vacation and became tourism.

The second stage is the beginning of the development of mass tourism - this stage covers the 19th century. By this time, the foundations of the material and technical base of tourism, methods of work and management bodies began to be created. It was at this stage that the terms "tourism" and "tourist" appeared, which are now widely popular and are used in languages as exotic lexemes. The term "tourism" was first introduced by the English writer D. Page at the beginning of the 19th century. In his book "Jokes of the English Tourist" he first called the traveler a tourist. The term "tourist" was first mentioned in the Oxford Universal Dictionary in 1800 as "a

person who travels for the pleasure of travel and out of curiosity." In connection with the rapid development of the tourism industry, tourism terminology was actively formed at the second stage. Moreover, their formation took place in accordance with various tourism services. For example, the terms "conductor", "reservation", "coupon", "commute", "Pullman car", "final stop", "liner", "transit", "head waiter", "bivouac", "room" appeared. "safari", "attraction". Based on the newly created terms, the following phrases were formed: special tour/personally conducted tour/additional tour; entrance ticket / international travel card / travel card; load capacity; tourism activities; tourism opportunities; hotel coupon system; inclusive fare. Foreign terms have also actively penetrated English terminology: from French (coupon, bivouac, head waiter, omnibus, a la carte, table d'hôte); from German (Baedeker), from Swedish (buffet)

The third stage lasted from the beginning of the 20th century until the end of World War II. "This period also saw the growth of the hotel business and the expansion of the range of hotel services provided, which led to the emergence of new terms - new means of accommodation and lodging (motel, penthouse, duplex), persons (hotelier, administrator), services led to the creation of conditions for types (reservation, room service)". Due to the dynamic development of transport in tourism terminology, the number of terms related to tourist transport services has expanded: leg, plane, aircraft carrier, shuttle, airline, airport, hitchhiking

The fourth stage - mass differentiated tourism - began after the Second World War and continues to this day. Differentiated tourism is characterized by a wide range of services, and in this regard it is important to note that the English terminology of tourism has begun to be actively supplemented with terms of specialized tourism. (agrotourism, disaster tour, nostalgic tourism, familiarization trip, flightseeing, island hopping, jeep safari, on-your-own package, rural tourism and etc.) The 50-60s of the 20th century - a period of intensive creation of tourism infrastructure in the sphere of hospitality (condominium, check-in, check-out, boutique hotel, flotel), public catering (brunch, catering, stand-up buffet, American plan, European plan), led to the emergence of new terms specific to the sphere of intermediary services of tour operators and travel agents (service area, last minute tour, booking system, tour cancellation, incoming, redefining commission). In our opinion, the third category the scientists' opinion seems to be preferable because if the concept is good systematicity of a term expressed by a group of agreed words provided. Thus, the brevity of the term is optional and not mandatory peculiarity.

Thus, at the end of the 20th century, tourism terminology in English was enriched with another large layer of terms, that is, the terms of tourist statistics, settlement of friends and relatives. Thus, at the end of the 20th century, tourism terminology in the English language was enriched with another large layer of terms - the terms of tourism statistics.

Conclusion. As a conclusion from the above, we can say that the emergence of terms specific to tourism directly goes back to the English language. The reason is that, as stated above, the first tourism activity was created in England, and as a result of the popularization of this industry, it spread to other continents and countries. Currently, tourist terms used not only in our language, but also in other languages, are directly borrowed in certain places and are called exotic, i.e., unalternative lexemes, while others are translated according to the laws of the language. The stage of formation and development of tourism terminology in our linguistics can be explained directly by the expansion of tourism activities and the introduction of terms related to this area from foreign languages.

LITERATURE

1. Alieva M.T. Razvitiya industrii turizma // Mezhdunarodnye Plekhanovskie chteniya, April 19 REA. im.G.V. Plexanova. - M., 2006
2. Ушаков Д.С. Технология выездного туризма. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2009. – С. 240.
3. Aliyeva M.T., Mirzaev M. va boshqalar. Turizm huquqi. O'quv qo'llanma. – T.:Talqin, 2003. – B. 245.
4. Алиева М.Т. Развитие индустрии туризма // Международные Плехановские чтения, 19 апреля РЭА. им. Г.В. Плеханова. – М., 2006
5. Алиева М.Т. Тенденции развития туризма в Узбекистане // Пятнадцатые международные Плехановские чтения, 27 апреля РЭА. им. Г.В. Плеханова. –М., 2002.
6. Grinev- Grinevich S.V. Terminovedenie. Uchebnoe posobie. - M.: Akademiya, 2008. - P.102-104.
7. www.uzbekturizm.uz.
8. hppt://en.wikipedia.org



Zamira HAKIMOVA,
First-year doctoral student of the Uzbekistan State University of World Languages
E-mail: zamira@mail.ru

Based Of Review DSc, S.Zokirova

THE STRUCTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF JARGONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article explores the structural and semantic aspects of jargons in English and Uzbek languages. Jargon, often used within specific professional or social groups, plays a critical role in communication by providing concise and efficient expression. The paper compares and contrasts the formation, usage, and meaning of jargons in both languages, emphasizing their role in shaping cultural identity and professional communication. The study reveals significant differences in morphological construction and semantic shifts in jargons between English and Uzbek, influenced by sociocultural and linguistic factors.

Key words: jargon, structural analysis, semantic analysis, English, Uzbek, language, sociolinguistics.

СТРУКТУРНЫЙ И СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЖАРГОНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В этой статье рассматриваются структурные и семантические аспекты жаргонов в английском и узбекском языках. Жаргон, часто используемый в определенных профессиональных или социальных группах, играет важную роль в общении, обеспечивая краткое и эффективное выражение. В статье сравниваются и сопоставляются формирование, использование и значение жаргонов в обоих языках, подчеркивая их роль в формировании культурной идентичности и профессиональной коммуникации. Исследование выявляет существенные различия в морфологической конструкции и семантических сдвигах в жаргонах между английским и узбекским языками, на которые влияют социокультурные и лингвистические факторы.

Ключевые слова: жаргон, структурный анализ, семантический анализ, английский, узбекский, язык, социолингвистика.

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA JARGONLARNING TUZILISHI VA SEMANTIK TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi jargonlarning strukturaviy va semantik jihatlarini o'rganadi. Ko'pincha muayyan kasbiy yoki ijtimoiy guruhlarda qo'llaniladigan jargon qisqa va samarali ifoda etish orqali muloqotda muhim rol o'ynaydi. Maqolada har ikki tilda jargonlarning shakllanishi, qo'llanilishi va ma'nosi solishtirilib, ularning madaniy o'ziga xoslik va professional muloqotni shakllantirishdagi roli ta'kidlangan. Tadqiqot ijtimoiy-madaniy va lingvistik omillar ta'sirida ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi morfologik qurilish va jargonlardagi semantik siljishlardagi sezilarli farqlarni ochib beradi.

Kalit so'zlar: jargon, strukturaviy tahlil, semantik tahlil, ingliz, o'zbek, til, sotsiolingvistika.

Introduction. The development of phraseological units in language today in linguistics cultural studies show the relationship between language and culture, because fixed phrases are more of the life of the people than other linguistic units of the language is related to They are centuries-old life experiences that continue to this day formed on the basis of coming traditions and rituals. So mental qualities clearly felt. In particular, phraseological units contain onomastic components this feature becomes more apparent. The reason is onomastic the units have become a bridge connecting the people's past and present life. Consequently, phraseological units in different systematic languages, their etymology, It is important for linguistics to study its structure and semantics separately, to create a classification one of the tasks

The language that appeared with humanity has played the most important role in its life and will not lose its importance. Language, first of all, is one of the necessary conditions for the formation of a person and his thinking. Lexicology is a branch of linguistics that studies the vocabulary of a language. A word is the clearest and most important part of vocabulary. According to the characteristics of each language, sounds combine in a certain way to form a word. Members of a society who speak a particular language communicate using the vocabulary and grammatical rules of that language. Jargon refers to specialized language used by particular groups, often incomprehensible to outsiders. It serves the dual purpose of efficient communication within a group and exclusion of those outside the group. This phenomenon is universal and exists in every language, including English and Uzbek. While much research has been conducted on jargons in English, there is limited comparative analysis between English and Uzbek. This paper aims to fill that gap by examining the structural and semantic features of jargons in both languages. The study will answer key questions regarding how jargons are formed, how their meanings evolve, and how sociocultural factors influence their development.

Literature Review and Methodology. Numerous studies have been conducted on the formation and use of jargon in specific

fields such as medicine, law, and technology (Swales, 1990; Crystal, 2006). However, little has been done to compare jargon across different linguistic and cultural contexts, particularly between English and Uzbek. According to linguistic theory, jargon can be analyzed from a structural perspective by examining morphology and syntax (Halliday & Hasan, 1976), and from a semantic perspective by analyzing meaning shifts and metaphorical use (Lakoff & Johnson, 1980). The methodology used in this paper includes a comparative linguistic analysis of jargons collected from various domains such as technology, business, and social media in both English and Uzbek. The data is drawn from professional literature, online forums, and interviews with native speakers. The analysis focuses on the morphological construction and semantic evolution of jargons in these two languages.

Phraseology, like other branches of linguistics, has its own formation and has stages of development. Phraseologisms are very ancient in origin however, the science of phraseology covers almost two hundred years. 1 Phraseology. The founder of the science is the Swiss scientist Charles Balli. He wrote his "French Stylistics" (1909) is a study of word associations, that is, phraseological units has introduced special chapters. And Ferdinand de Saussure is syntagma, its signs expressed his views about it. There are such ready-made units in the language that their Linguistic nature of the meaning and syntactic features of such compounds he said that it is used ready-made, according to tradition. In terms of linguistic requirements for terms in different works, various grounds are given, although, despite their fragmentation, these requirements in the linguistic literature are also sufficiently defined. From the point of view of the current state of the development of terminology in the Uzbek scientific and technical language, the issue of terminology tint in terms of relation to the sources of its formation, primarily its nationalization, internationalization or regionalization, should be considered the most important

Results. Language is an intricate and multifaceted aspect of human communication, reflecting the diversity of cultures, history,

and societal norms. The study of the structural and semantic features of different languages provides insight into the ways in which human beings convey meaning, express emotions, and articulate their thoughts. In this context, a comparative analysis of the structural and semantic peculiarities of English and Uzbek phrases offers the opportunity to explore the similarities and differences between these two languages, shedding light on the complexities and richness of linguistic expression.

Structural Analysis. English Jargon: In English, jargons often exhibit compound word formations, abbreviations, and acronyms. For instance, in the business domain, terms like "synergy" or "B2B" (Business to Business) are commonly used. Abbreviation is a prominent feature of English jargon, especially in technological fields (e.g., "RAM" for Random Access Memory). These formations provide a quick and efficient way to communicate complex ideas.

Uzbek Jargon: Uzbek jargons, on the other hand, frequently rely on affixation and borrowed words. For instance, technical terms such as "kompyuter" (computer) and "internet" are borrowed and adapted from English. Affixation in Uzbek is used to modify root words to create jargon specific to professional fields. For example, adding the suffix "-chi" (denoting profession) to words forms terms like "programmachi" (programmer).

Semantic Analysis:

English Jargon: In English, jargons often experience semantic broadening and narrowing. For example, in the world of social media, the term "viral" has shifted from its original meaning related to infections to now describe content that spreads rapidly online. Another notable feature is the metaphorical use of jargon, such as "cloud" in computing, which refers to remote data storage.

Uzbek Jargon: Uzbek jargons often retain their literal meanings but undergo slight semantic shifts to adapt to new contexts. For instance, the term "telefon" (telephone) has been expanded to include mobile and internet-based communications, which was not part of its original meaning. Additionally, Uzbek jargons frequently borrow semantic structures from Russian and other languages, particularly in technical and medical fields.

Terminological lectures show signs of the most systematically organized layer of language lectures. Defining its consistency as a hierarchically strictly organized part based on the study of a certain branch of science (construction) is significant in terms of its relationship with other systemic semantic associations (groups, fields, etc.) in the lecture, identifying its place in the system of semantic groupings. In this regard, it becomes necessary to study theoretical approaches to the definition of language as a system in modern linguistics, techniques and methods for establishing the systemic levels and unity of language, especially lectures. From this point of view, try to generalize the theoretical foundations of systematization and determine the main practical techniques and methods of systematization in the lexicon of the language. This approach requires an appeal to the history of linguistics with the aim of reviewing the literature on this issue and identifying the main directions, principles and methods for studying the main properties of systematization in a lecture. As the generalization of the available literature shows, one of the main tasks of lexicology at the present stage has become the establishment of various types of systemic groupings that exist within various groups of lectures, the definition of principles and features that unite lectures, units into semantic groups.

As a review of the literature on this issue shows, the greatest objection in the criticism of existing concepts on the systemic description of the lecture system is caused by the practical and theoretical foundations for distinguishing various system-forming semantic groups, primarily based not on specific linguistic features, but on their correlation with objects and phenomena of objective reality, their connections in the material world. The direct dependence on extralinguistic reality also determines the significant difficulties that arise when trying to discover systemic relationships between units in a lecture. Proceeding from this, the most difficult issue of modern lexicology is the development of methods for identifying and establishing signs of systemic relations in a lecture, the principles based on which determine the systemic nature of a lecture. In some studies, the task of studying systemicity is determined by identifying the actual linguistic features of the lexicosemantic structure of the language, "pure" language relations. In this research, the texts of the advertisements in English and Uzbek are Leech It was analyzed according to 7 types of meaning. The ad above texts and slogans have only 5 types of meaning, i.e. conceptual meaning, connotative

meaning, effective meaning, reflective meaning and social meanings were determined. These are the meanings among them, the connotative meaning is used the most. The purpose of advertising is as a kind of announcement given in order to increase the purchase of the products being sold or offered, to the predominance of the connotative meaning it can be said that it was caused by it can be said that it was the cause.

Discussion. The structural analysis reveals that while both English and Uzbek jargons use linguistic modifications to create new terms, English relies more on abbreviation and acronymization, whereas Uzbek depends heavily on affixation and borrowing. This difference is largely due to linguistic structure: English, with its analytic nature, tends to create compact forms, while Uzbek, as an agglutinative language, forms longer, affixed constructions. In terms of semantics, English jargons demonstrate a higher degree of metaphorical usage and semantic shift. This is reflective of the English language's flexibility in adapting meanings based on context, especially in fields like technology and business. Uzbek jargons, in contrast, exhibit more straightforward adaptations, often retaining the core meaning of borrowed terms while applying them to new contexts. Sociocultural factors also play a significant role. In English, jargons are often created in response to rapid technological or social changes, as seen in the lexicon of Silicon Valley. In Uzbekistan, however, the development of jargon is more gradual and influenced by both Russian and global English, particularly in fields like medicine and information technology. This bilingual influence creates a unique linguistic environment where Uzbek professionals often use a hybrid form of jargon, incorporating elements of both languages.

Structural-semantic peculiarities of Uzbek phrases can be complex and unique, reflecting the grammar and syntax of the Uzbek language. Uzbek is a Turkic language and is spoken by over 30 million people in Uzbekistan and other Central Asian countries. The language has its own distinct features, and this is reflected in the way phrases are constructed and interpreted. One of the notable structural features of Uzbek phrases is the use of suffixes and prefixes to modify the meaning of words. These affixes are added to the root of the word and can change its grammatical function or indicate tense, aspect, mood, or case. For example, the suffix -ni is used to indicate the direct object in Uzbek, and the suffix -ga is used to indicate the indirect object. It is important to note that the structural-semantic peculiarities of Uzbek phrases are influenced by historical and cultural factors, and may vary across different regions and dialects. As the language continues to evolve and adapt to modern contexts, these peculiarities may also change over time. Overall, the structural-semantic peculiarities of Uzbek phrases contribute to the richness and complexity of the language, and reflect the unique worldview and communication style of the Uzbek people. The set of relations connecting lexemes with other lexemes in a lexical system is based on syntagmatic and paradigmatic principles. Syntagmatic relations are characterized by a distributive relationship of lexemes within a lexicon, i.e. those relations that the units of a lecture enter into, connecting with each other in the process of speech or as part of a unit of a higher rank. Syntagmatic relations are semantic relations between lexical units that are jointly present in the flow of speech. Unlike paradigmatic relations, syntagmatic relations are based on the associative possibilities of lexemes.

Conclusion. The structural and semantic analysis of jargons in English and Uzbek highlights both the universal nature of jargon formation and the distinct linguistic and cultural influences that shape it. While English jargons are characterized by abbreviation and metaphorical usage, Uzbek jargons rely more on affixation and borrowing. The semantic evolution of jargons in both languages reflects broader sociocultural changes, with English adapting quickly to technological innovations and Uzbek reflecting a slower, more hybrid development. Understanding these differences not only enriches our knowledge of linguistic diversity but also provides insights into the dynamics of language in professional and social contexts. Future research could focus on the influence of digital communication on the evolution of jargons in both languages, as well as the role of bilingualism in shaping jargon use in Uzbekistan.

In conclusion, learning lexical units related to education and getting to know them in depth is one of the main issues. One of the main tasks is to do research on the relevance of words in this field today, according to their study. It is clear that the need to learn the words related to education will be the main factor for our future generations to have a deep knowledge of this field.

REFERENCES

1. Crystal, D. (2006). *The Cambridge Encyclopedia of Language*. Cambridge University Press.
2. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). *Cohesion in English*. Longman.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
4. Swales, J. M. (1990). *Genre Analysis: English in Academic and Research Settings*. Cambridge University Press.
5. Zubaydova, N., 2022. Semantic Characteristics of the English and Uzbek Languages. *International Journal on Integrated Education*, 5(6), pp.357-363.\



Aslbek ERGASHEV,
Chirchik davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: aslbek.chdpu@gmail.com

DSc, professor D.Mahmudova taqrizi asosida

DISTINCTIVE FEATURES OF ESSAYS OF RUSSIAN AND UZBEK LITERATURE BY ARTISTIC STYLE AND STYLISTIC CRITERIA

Annotation

At the beginning of the 20th century, Uzbek literary criticism addressed the need for careful treatment of literary works. The pages of the weekly press of Uzbekistan published valuable articles about literary criticism, its importance, positive impact and its role in the development of literature in general. For example, in the publication "Sadoi Turkestan" one can find such entries about the term "criticism": "this word appears as a neologism in some dictionaries that we have. The term "criticism" is a novelty in our history, since it is absent from dictionaries used in the Turkestan region".

Key words: essay, sociological point of view, sadoi turkestan, criticism, formalistic complexities.

ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОЧЕРКОВ РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ХУДОЖЕСТВЕННОМУ СТИЛЮ И СТИЛИСТИЧЕСКИМ КРИТЕРИЯМ

Аннотация

В начале XX века узбекская литературная критика обратила внимание на необходимость бережного отношения к литературным произведениям. На страницах еженедельной прессы Узбекистана публикуются ценные статьи о литературной критике, ее значении, положительном влиянии и ее роли в развитии литературы в целом. Например, в издании "Садой Туркестан" можно найти такие записи о термине "критика": "Это слово фигурирует как неологизм в некоторых имеющихся у нас словарях. Термин "критика" является новшеством в нашей истории, поскольку он отсутствует в словарях, используемых в Туркестанском регионе".

Ключевые слова: Эссе, социологическая точка зрения, Садой Туркестан, критика, формальные сложности.

RUS VA O'ZBEK ADABIYOTI ESSELARINING BADIHY USLUB VA STILISTIK MEZONLAR BO'YICHA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

XX asr boshida O'zbekiston adabiy tanqidida adabiy asarlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishning zarurati haqida gapirilgan. O'zbekistonning haftalik matbuoti sahifalarida adabiy tanqid haqida, uning ahamiyati, ijobiy ta'siri va umuman adabiyot rivojidadagi roli haqida qimmatli maqolalar chop etilgan. Masalan, "Sadoi Turkiston" nashrida "tanqid" atamasi haqida bunday yozuvlarni topish mumkin: "Bu so'z bizda mavjud bo'lgan ba'zi lug'atlarda neologizm sifatida uchraydi. "Tanqid" termini bizning tariximizda yangilik hisoblanadi, chunki u Turkiston mintaqasida ishlatiladigan lug'atlarda yo'q".

Kalit so'zlar. Esse, sotsiologik nuqtai nazar, Sadoi Turkiston, tanqid, formalistik murakkabliklar.

Kirish. Esse, bugungi kunda adabiyotshunoslik va lingvistik sohasida kam o'rganilgan bo'lib, bu, birinchi navbatda, ideologik omillarga bog'liq, qachonki "san'at ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy oqimlarga, shubhasiz, bo'ysunadi" [1].

Bu ta'sir na nashriyot sohasida, na ilmiy-ta'lim sohasida seziladi. V.B. Kataev 1989 yilgacha oliy ta'lim dasturida umumiy qabul qilingan baholash tizimini tilga oladi, unda sinf kurashi, inqilob, ozodlik, muxolifat, antiklerikalizm, erkinlikka intilish, fosh qilish (dvoryanlik, burjuaziya, liberalizm), tabiiy demokratizm, tanqidiy nuqtalar va boshqalar kabi toifalar ijobiy baholangan. Bilish zarur bo'lgan mualliflar ro'yxati ham qat'iy belgilangan va bir xil bo'lgan.

O'sha vaqtdagi ilmiy adabiyotlarda ko'pincha buyuk fikrchilarning iqtiboslarini uchratish mumkin edi. Xususan, Chernyshevskiy, Dobrolyubov, Gorkiy, Lunacharskiy va Lenin kabi. Masalan, "Gorkiy va Lunacharskiy Dostoevskiy haqida" degan kitob bo'lgan, ammo Baxtinning Dostoevskiy haqidagi ishlari yo'q edi. Garchi Lunacharskiyning maqolasi aslida Baxtinning ishiga reaksiya bo'lgan. Shuningdek, Tolstoy haqidagi bo'linda Straxov, Leontev, Rozanov, Merejkovskiy va boshqalarning ishlari tilga olinmagan.

Natijada, sovet akademik adabiyotidagi buyuk fikrlovchilar va shoirlar o'zlarining noyobligini yo'qotib qo'yishdi. Darsliklarda va akademik ishlarda Pushkin, Rylyev, Lermontov, Nekrasov va Blok Mayakovskiyning 20-yillardagi she'riyati va shoirning roliga bo'lgan qarashlarida farqlanmasdan tasvirlanardi. Olimlar, vaqtinchalik sharoitlarning ta'sirida yoki o'zlarining xato qarashlarida, "Shoir, xalq muhabbatiga e'tibor bermas" misralarini shunday talqin qilardilarki, "xalq" ostida ular saroy jamiyatini va dunyoviy elitani tushunardilar.

Aftidan, matnlar ijodkorlari o'z tinglovchilari Pushkinning qolgan 13 bayti bilan tanisholmasligiga va bu sodir bo'lgan taqdirda ham ular tanqid qilishga jur'at eta olmasligiga amin edilar. Agar kimdir tanqid qilishga qaror qilsa, u tezda ushbu missiya uchun maxsus tanlangan "jar tishlari" tomonidan tinchlantirilardi" [2].

Sovet hukmronligi davrida ham XX asr boshiga borib taqaladigan adabiy voqealar va faktlarga nisbatan keskin salbiy munosabat keng tarqalgan edi. Shu jumladan, ularga "yorliqlar" yopishtirish ham. Masalan, L.A. Novikov o'z izohlarida o'sha davr baholariga A. Belyning bezakli prozasiga qilingan tahlillarda, bunday proza uzoq vaqt davomida antisotsial hodisa sifatida, "bezakchilik", "formalistik murakkabliklar", "qo'ng'iroqchali proza" kabi yorliqlar bilan yuklangan va bu yorliqlarni va ularning "tanqid" usullarini vulgar-sotsiologik deb boshqacha tasvirlab bo'lmas edi [3].

O'sha vaqtda, vulgar sotsiologik nuqtai nazar adabiy tanqidida hukmron bo'lganida, bu chigalliksiz o'quvchilarning bu yo'nalishni qabul qilishiga ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Yuriy Ayxenvaldning "Rus yozuvchilari siluetlari" to'plami 1917 yilgacha ko'plab nashrlarni boshdan kechirgan, faqat 1994 yilda kitob javonlarida qayta tirildi. Vladimir Nabokovning "Nikolay Gogol" essesi birinchi marta Nyu-Yorkda 1944 yilda nashr etilgan. SSSRdagi o'quvchilarga faqat 1987 yilda "Новый мир" jurnali orqali yetib bordi. I. Annenskiyning "Aks etuvchi kitoblar" asarlari ham nashrlar orasida sezilarli tanaffuslarni boshidan kechirdi.

Andrey Sinyavskiyning (Ters) "Pushkin bilan sayrlar" essesi chet elda ilk bor 1975 yilda nashr etilgan. U 1990 yilgacha rus tilida gapiradigan o'quvchilar uchun to'liq mavjud bo'lmagan. Uzoq vaqt davomida A. Drujimin va N. Straxov kabi mualliflarning tanqidiy ishlari unutilgan, ularni estetik va diniy qadriyatlariga ijtimoiy qadriyatlardan ko'ra ko'proq ahamiyat berganlikda ayblashgan. Bu akademik nashrlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan, Rossiyada "esse" atamasi deyarli ishlatilmagan" [4] va o'zi esse janri rus va sovet adabiyoti uchun "xaraktersiz" ekanligi (KLE, BSE) haqidagi keng tarqalgan ishonchga olib kelgan.

Ayrim filologlar bu fikrga qo'shiladilar. Jumladan, B. Xazanov A.Lat'yamina va I. Kuznesov tanqidchilari bilan mulohazalar rus madaniyatida adabiyot haqida mulohazalar an'anasi yetarlicha rivojlanmaganligi va rus ongida esseistik madaniyatning yo'qligiga

ishora qiladi: "Tasodif emaski, rus tilida "esse" so'zining ekvivalenti yo'q. Shunga qaramay, biz boshqa tillarda analoglari bo'lmagan noyob janr ta'riflariga egamiz, masalan, "hikoya". Biroq, esseizm hali ham qarzga olingan va rus madaniyatiga tegishli emas deb hisoblanadi" [5].

Zamonaviy dunyoda esseistika tanqidi qarama-qarshi baholarni keltirib chiqaradi. Fikrlar xilma-xilligi usulshunoslik prinsipi sifatida har xillikni tan olishdan, zamonaviy fikrlash xilma-xilligiga mos kelishdan tortib, akademikdan tortib P. Vayl va A. Genisning esselaridagi kabi shaxsiyroq bo'lgan turli tadqiqot usullarini oqlashgacha bo'lgan fikrlarni qamrab oladi. Biroq, shu janrda ishlaydigan mualliflarga fazilatlarini rad etadigan tanqidchilar ham bor.

Vladimir Serdyuchenkoning Vladimir Yerofeev va uning hamkasblari ijodi haqidagi fikrlari misol bo'la olishi mumkin, unda ularning ishlarida ataylab milliy adabiy merosni, ayniqsa, sovet adabiyotini yo'q qilish va haqoratlash yuz berayotgani ta'kidlanadi. V. Yerofeevning matnlari bo'yab zaharli siyoh bilan eng chuqur qismlargacha borib, o'zining vayronkor kuchini yanada samarali sarflashni bilmay, V. Yerofeevning fikrdoshlari o'z nigohlarini klassikaga qaratdilar.

Uning essesi haqidagi qarama-qarshi fikrlarga qaramay, zamonaviy jiddiy nasr hududini, bir paytlar Sergey Petrovich Zaligin ta'kidlaganidek, "egoistik esseizm" egallagan va shuning uchun bu jonli va samarali adabiy hodisa tadqiqotchilar nuqtai nazaridan chetda qolmasligi kerak.

Adabiyotshunoslik atamalarining qisqacha lug'atida esse alohida janr sifatida ajratilmaydi, balki u ocherkning bir turi sifatida qaraladi. "Esse - bu "eskiz turi bo'lib, unda asosiy rol fakti takrorlash emas, balki taassurotlar, fikrlar va birlashmalarni tasvirlash orqali o'ynaydi"... Esse muallifi asarni tahlil qilishga da'vo qilmaydi, balki u haqida fikr yuritish bilan cheklanadi, o'z munosabatining sub'ektivligini ta'kidlaydi".

T. Eshbek ma'lum darajada eskiz va essening umumiy jihatlari borligiga rozi bo'lar ekan, esse janrining plastika va erkinligiga e'tibor qaratdi: "Esse o'z xususiyati bilan ocherkka yaqin turadi, ya'ni unda ham hayot voqealari badiiy-publitsistik usulda aks ettiriladi. Ammo essening ocherkdan farqi uning erkin uslubda yozilishi, hajmining cheklanmaganligi, muallifning olingan mavzu borasida atroflicha fikr yuritib, kerakli o'rinlarda ilmiy, kerakli

o'rinlarda ijtimoiy-tarixiy va badiiy vositalardan keng foydalanishi, publitsistik xulosalar chiqarishida o'z ifodasini topadi.

Ko'rib turganimizdek, esse janrining adabiy manbalar tomonidan talqin qilinishida sezilarli farqlar mavjud.

To'liq tahlil uchun XX asr davomida yozilgan adabiy-tanqidiy esselarga murojaat qilish zarur. Biz zamonaviy esseistikaning ildizlari XX asr boshlaridagi tanqidiy prozada shakllanganiga ishonchimiz komil. Asr boshidagi adabiy tanqidi o'rganish shuni ko'rsatdiki, adabiy asarni idrok etish va tahlil qilish jarayoni, qoida tariqasida, sub'ektiv xususiyatga ega bo'lib, ijodiy jarayon bilan ko'p umumiyliklari mavjud.

Bu turdagi tanqid o'zining sub'ektivligini yashirmasdi, aksincha, uni namoyishkorona e'lon qilardi. U cheklanmagan ishonchga asoslangan holda qurilgan bo'lib, o'quvchi klassik adabiyotdan yaxshi xabardor va tanqidchi bilan teng sharoitlarda muloqot qilishga qodir bo'lishi kerak, u bilan birgalikda yangi ma'naviy o'lchovlarni o'rganishi lozim edi.

Biroq, ideologik tendensiyalarning ta'siri ostida, adabiy-tanqidiy insholar janrida ijod qilgan mualliflarning asarlari ko'pincha tanqidga uchragan va XIX asr klassik tanqid an'alarida yozilgan asarlarga qaraganda salbiy baholangan. Masalan, V. Kuleshov o'zining mashhur ishi "Rus tanqidi tarixi XVIII - XX asrlar boshi"da Yu. Ayxenvaldning adabiyotda tarixiy chuqurlikning yo'qligi, sub'ektivizm va sinf pozitsiyasining yo'qligi, D. Merejkovskiyda sub'ektivizm va idealizm, shuningdek, "kontrastlar va xarakteristikalarining yuzakiligi"ni ko'rsatib o'tgan. U, shuningdek, A. Belyuni formalizm, tor yondashuv va eklektizm yuzasidan tanqid qiladi va hokazo.

XX asr boshida O'zbekiston adabiy tanqidida adabiy asarlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishning zarurati haqida gapirildi.

O'zbekistonning haftalik matbuoti sahifalarida adabiy tanqid haqida, uning ahamiyati, ijobiy ta'siri va umuman adabiyot rivojidadagi roli haqida qimmatli maqolalar chop etilgan. Masalan, "Sadoi Turkiston" nashrida "tanqid" atamasi haqida bunday yozuvlarni topish mumkin: "Bu so'z bizda mavjud bo'lgan ba'zi lug'atlarda neologizm sifatida uchraydi. "Tanqid" termini bizning tariximizda yangilik hisoblanadi, chunki u Turkiston mintaqasida ishlatiladigan lug'atlarda yo'q".

ADABIYOTLAR

1. Затонский Д. Какой не должна быть история литературы? // Вопр. лит. 1998. – С. 21.
2. Баевский В. Пожалуй, нам всем сообще пора приняться за чистку авгиевых конюшен // Вопр. лит., 1998. – С. 25.
3. Новиков Л.А. Стилистика орнаментальной прозы Андрея Белого. – М.: Наука, 1990. – С. 4.
4. Зальгин С.П. Вопросы литературы, 1998, № 3-4.
5. Кулешов В.И. История русской критики XVIII начала XIX веков: Учеб. для студ. пед. ин-тов по спец. "Рус. яз. и лит." – М.: Просвещение, 1991. – С. 361-388.
6. Литературная газета. 19.04.1995.
7. Литературный энциклопедический словарь. – М.: Сов. энцикл., 1987.; Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974.; Словарь русского языка / Под ред. С.И. Ожегова. – М.: Рус. яз., 1990. (Словарь Ожегова СО).
8. Новиков В.Л. Освобождение классики // Новый мир. 1991. № 3. – С. 246.
9. Сердюченко В. Об одной истории // Вопр. лит. 1998. – С. 56.
10. Эссе // Краткий словарь литературоведческих терминов. – М.: 1987 [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://literatura5.narod.ru/essays.html> (дата обращения: 02.01.2023).
11. Эшбек Т. Бадий-публицистик жанрлар. 2019. <http://uchildiz.uz/бадий-публицистик>.



УДК: 811.161.1:004.738.5 + 81ʻ42

Фароғат ЮЛДАШЕВА,

Старший преподаватель Национального университета Узбекистана им.М.Улугбека

На основе рецензии к.п.н, доцента М.Ахмедовой

DEVELOPMENT OF THE RUSSIAN LANGUAGE IN INTERNET COMMUNICATION

Annotation

This article discusses communication on the Internet, which is a noticeable part of relationships in the modern world. The growth of Internet use attests to the popularity of the Web, which in turn leads to transformations in the system of linguistic means. The trends that have taken place in the language on the World Wide Web in recent years are described.

Key words: Internet language, Internet speech, Internet vocabulary, transliteration, erratives, letter abbreviations, social networks, word formation, Internet communication, active derivational processes, derivatives, affixes, models and ways of word formation, neologisms.

РУССКИЙ ЯЗЫК И ИНТЕРНЕТ-КОММУНИКАЦИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается общение в сети Интернет, которое является заметной частью взаимоотношений в современном мире. Рост интернет-пользования свидетельствует о популярности Сети, что в свою очередь приводит к трансформациям в системе лингвистических средств. Описываются тенденции развития языка во Всемирной паутине за последнее время.

Ключевые слова: интернет-язык, интернет-речь, интернет-лексика, транслит, эрративы, буквенные сокращения, социальные сети, словообразование, интернет-коммуникация, активные процессы словообразования, производные слова, аффиксы, словообразовательные модели, способы словообразования, неологизмы.

INTERNET ALOQASIDA RUS TILINI RIVOJLANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda munosabatlarning sezilarli qismi bo'lgan Internetdagi muloqot muhokama qilinadi. Internetdan foydalanishning o'sishi Internetning mashhurligidan dalolat beradi, bu esa o'z navbatida lingvistik vositalar tizimidagi o'zgarishlarga olib keladi. So'nggi yillarda Jahon Internetida tilda sodir bo'lgan tendentsiyalar tasvirlangan.

Kalit so'zlar: Internet tili, Internet nutqi, Internet lug'ati, transliteratsiya, xatoliklar, harf qisqartmalari, ijtimoiy tarmoqlar, so'z yasalishi, Internet aloqasi, faol hosila jarayonlari, hosilalar, affikslar, so'z yasalish modellari va usullari, neologizmlar.

Русский язык активно развивается в контексте интернет-коммуникации, что приводит к появлению новых слов и явлений. Современные средства связи и социальные сети стимулируют лингвистические инновации, которые отражают современные тенденции и технологии.

В конце XX–начале XXI в. в русском языке заметно активизировались деривационные процессы: появилось большое число новых производных слов, словообразовательных аффиксов и аффиксоидов, возросла продуктивность ряда традиционных словообразовательных моделей и способов словообразования, появились новые словообразовательные модели и даже новые способы словообразования. Активные процессы современного словообразования до недавнего времени рассматривались лингвистами в основном на материале языка средств массовой информации – периодической печати, радио и телевидения

Со сменой способа взаимодействия людей, внедрением Интернета в жизнь изменилась и речь, употребляемая при общении в разных сферах человеческой деятельности, поскольку она должна соответствовать современным тенденциям. Представление об особенностях лексикона интернет-пользователя предопределяется его индивидуально-психологическими чертами, а также культурно-социальным типом.

Русский язык интернета в отечественной и зарубежной лингвистике рассматривается в разных аспектах: детально изучены словообразовательные явления, частотные для Сетевого общения, отдельно фиксируются новые, в том числе окказиональные лексемы, описан интернет-жаргон. Существуют работы, посвященные рассмотрению синтаксических особенностей интернет-коммуникации

Традиционно внешняя речь делится на письменную и устную, однако появление Интернета и мессенджеров изменило эту четкую градацию, поскольку новые способы общения не отвечают в полной мере признакам устоявшейся классификации речи. Поэтому в литературе активно используется новый термин – «устно-письменная речь». Также такую речь можно охарактеризовать как «интернет-речь».

Кроме того, интернет-коммуникация способствует созданию новых слов и выражений, которые связаны с сетевой

культурой и явлениями. Например, слово "мем" стало широко распространенным термином для описания виртуальных явлений, таких как шутки, изображения и видеоролики, которые быстро распространяются через интернет. Также появились новые слова, связанные с социальными сетями, такие как "лайк" (подтверждение понравившегося контента), "фолловеры" (подписчики) и "тренды" (тенденции).

С одной стороны, при передаче речи в мессенджерах происходит её формальная фиксация при помощи письменных знаков и символов. С другой стороны, скорость передачи речи в диалогах, её прерывистость, избыточность, спонтанность, а также использование неформальных, выходящих за рамки установленных правил, выражений и эмотивов, не позволяет отнести высказывание к обычной письменной речи. Все это свидетельствует об интернет языке как о сложном образовании, несущем поликодовый характер в плане объединения элементов устности и письменности.

Как отмечает О.Б. Максимова, сетевая коммуникация уже априори предполагает возможность неправильного выражения устной формы речи. Специфика взаимодействия в Интернете отличается от обычного разговора своим набором вербальных и паравербальных средств по сравнению с традиционной устной речью, что препятствует установлению быстрой ответной реакции между участниками общения даже в максимально интерактивных форматах интернет-коммуникации, например на форумах или в соцсетях, а также в различного рода мессенджерах и других способах виртуального контактирования.

Следует отметить, что стандартные кинестетические средства невербального общения, свойственные устной форме речи и служащие для выражения разнообразных переживаний и отношения к собеседнику, нельзя использовать в Сети. Данную роль заместителя интернет-коммуникации берут на себя особые графические средства, к которым относятся эмодзи, хотя они не могут в полной мере компенсировать многообразие средств невербального сопровождения естественного дискурса [6].

Кроме того, язык Интернета принадлежит к разговорному дискурсу с преобладающей устной формой речи, хотя по внешним признакам относится к письменной речи и обладает основными признаками устного выступления:

диалогическая форма изложения, непосредственность, непринужденность, спонтанность взаимодействия, разговорно-оценочные слова, сниженная лексика, особые морфологические средства, синтаксическая неполнотроструктурность, прерывистость, нарушения логики, избыточность и т.п. Словарный состав языка также соответствует специфике разговорной речи [2].

Развитие социальных сетей, мессенджеров и приложений для мгновенного обмена информацией оказывает сильнейшее влияние на формирование новых лексем. Слова сокращают всё сильнее и сильнее для удобства и скорости написания, крайне редко используют в правильной, традиционной форме, поскольку основная цель подобного общения – это максимально быстро донести информацию. Приведем некоторые примеры сокращений: «нзчт» – не за что, «споки» – спокойной ночи, «спс» – спасибо, «тя» – тебя, «ок» – хорошо. Помимо скорости общения и сокращений привычных слов в интернет-диалогах, большое влияние на аудиторию имеют «мемные» языки. «Упячка», «язык падонкафф», или «олбанский» – это языки, суть которых состоит в том, что они видоизменили орфографию привычных слов.

Интернет-язык выступает в качестве языковой подсистемы специфического типа, отражающей такие тенденции развития, которые направлены на формирование собственных, некодифицированных норм на разных лингвистических уровнях. Это свидетельствует о том, что норма может быть не только кодифицированной, но и некодифицированной, то есть не зафиксированной в словарях, справочниках, грамматиках, учебниках и учебных пособиях по русскому языку. Но некодифицированная норма в разговорной речи воспринимается, осознается и используется значительной частью пользователей Сети намеренно.

Примером некодифицированной нормы могут служить так называемые эрративы – это намеренно искаженные слова, выполняющие роль языковой игры, изобрели которую представители «новой интеллигенции»: рекламисты, программисты, пиарщики, журналисты. Эрративы – осознанно искаженные слова, носящие нарочитый характер, которые использует интернет-пользователь, владеющий литературной нормой [4]. Такие слова могут появляться в диалогах, сохраняя принцип «как слышится, так и пишется»: «афтар», «яцитаю», «узбагойся», «пеши», «памагити», «исчо», «ржунимагу», а также другие подобные «орфографические неологизмы» – отголоски старых «мемных» языков. Появление данных слов нередко является словесной импровизацией, как творческое вдохновение, когда собеседник создает образную и выразительную картину, чтобы она вызвала живой отклик аудитории [1].

В настоящее время для общения в Интернете используют и другие характерные орфографические особенности, не применяемые в традиционной письменной речи, но имеющие место при устном разговоре. Например, повторное написание в словах одной и той же гласной буквы, чтобы передать их интонационное растягивание, обозначить эмоцию: «ооооо так миинило», «нуууу не знаю», «по мне так ооочень затянуто» и др. Впрочем, не только гласные могут растягиваться, часто и согласные буквы также дублируются при написании: «нуууууу», «ммммм, супер вкусно». Причем по правилам русского языка, повторяющиеся в словах буквы должны отделяться дефисами («ну-у-у»), но в интернет-языке с целью ускорения написания сообщения данные правила не применяют.

Вышеописанные сознательные сокращения и изменения слов ради упрощения либо шутки вряд ли смогут оказать существенное влияние на грамотность человека. Тем не менее, интернет-общение содержит в себе угрозу снижения грамотности и фундаментальных знаний русского языка.

Большинство людей в процессе применения гаджетов зачастую используют функцию «Т9», способную автоматически исправлять орфографические ошибки в напечатанном тексте. Благодаря этому в целом удобному режиму, необходимость в грамотном написании слов автором текста минимизировалась, поскольку ответственность за ошибки перекладывается на электронное устройство, ведь возможности функции «Т9» практически безграничны.

Объективности ради надо отметить, что эта система была создана для функциональных целей, поскольку в условиях скоростного общения она позволяет максимально быстро составить текст, и благодаря этому большинство людей не задумываются о правильности написания своих посланий, так как

у них появляется возможность решать более глобальные задачи эффективной коммуникации.

Кроме того, при написании текстов в ходе интернет-общения авторы не заостряют своё внимание и на знаках препинания. Данное обстоятельство связано с разговорностью как специфической чертой интернет-коммуникации, которая в непринужденном чате практически не содержит причастных и деепричастных оборотов, также в ней минимально присутствуют сложные синтаксические конструкции. В этой связи потребность в проставлении запятых, точки с запятой, тире и двоеточия возникает редко. Но даже вполне очевидные знаки препинания, необходимые с точки зрения правил русского языка, также иногда пропускаются. Причина очевидна: людям просто не хочется тратить время на их проставление, особенно если это не мешает смысловому наполнению текста. Логика проста – заменой одной буквы на другую время не сэкономишь, а вот пропуская запятые – вполне.

Но если в интернет-языке большинство знаков препинания просто не нашли себе места по причине нехватки времени, то у точки сложилась иная судьба. Точка стала активно игнорироваться. Обязательный в конце большинства предложений знак, несущий нейтральное значение, приобрел в интернет-общении плохую репутацию, став для многих знаком обиды и холодного отношения. Ставить точку в конце сообщения в мессенджере – это дополнительные временные затраты, поэтому если визави все же акцентирует на ней внимание, то, как следствие, собеседник приходит к выводу об определенном значении проставленного знака, его непростой смысловой нагрузке.

Но восполнить отсутствие точки в русскоязычных интернет-диалогах смогла простая скобка – вот такая: «) », выполняющая на себя функцию сокращенного смайлика. В случае выражения сильных эмоций скобку дублируют несколько раз: «))) ». Именно этот знак стал символом нейтрального, дружелюбного сообщения, но совсем не обязательно – бодрого и веселого.

Как отмечает лингвист М.А. Кронгауз, «смайлики стали очень важным элементом общения. Смайллик обычно ставят в конце предложения – более того, это стало так привычно, что его отсутствие настораживает. Особенно, если мы говорим о людях моложе тридцати. Они, если не видят в конце предложения смайлика, думают, что собеседник на них обижен. То есть нейтральным стало наличие смайлика, а не его отсутствие» [7].

Сокращенные смайлики стали отличительной особенностью именно русскоязычных форумов, при этом применение скобок-смайликов в переписке с иностранцами может привести к недопониманию, они просто не поймут, что это означает.

До появления полноценных смайликов, в мессенджерах использовались импровизированные картинки, состоящие из доступных на клавиатуре символов. Но помимо понятных всем картинок, например « :-) » или « :D » применялись и такие, которые предполагали пояснения от отправившего их автора. Например, « <3 »: мало кто понимал, что обозначает обычное сердечко. Основная проблема подобных смайликов – это время, затраченное на их написание. Даже проставление в тексте простейших смайлов иногда занимало больше времени, чем написание слов их обозначающих. Поэтому популярность такого рода символов быстро ушла, и их перестали применять.

В скором времени появились уже смайлики (эмодзи), понятные для большинства пользователей. Именно благодаря их употреблению в интернет-общении стало проще и удобнее выражать свои эмоции, нажав единожды на картинку и не тратя времени на написание слов. Теперь смайлики-картинки являются неотъемлемой частью общения. Визуально сами эмодзи стали разнообразнее, и спектр эмоций, который можно выразить с их помощью, постоянно увеличивается. Сейчас существует огромное количество смайлов, благодаря которым общаться можно исключительно с помощью картинок, что существенно ускоряет написание сообщения и максимально передает эмоциональное состояние автора.

Безусловно, существующий темп жизни диктует свои условия, в том числе и в такой сфере общения, как интернет-переписка, однако сокращенные символы и переделанные слова стоит применять только в личных, дружеских сообщениях. В процессе деловой переписки либо в ходе общения с людьми старшего поколения будет уместнее составлять текст, опираясь на классические правила русского языка.

Кроме того, следует отметить значительное влияние Интернета на форматы общения современников, в частности, здесь важна активизация в интернет-коммуникации транслита – стихийно сложившегося и неcodифицированного использования латинских букв для передачи языковых средств современного русского языка: *ya se4as na paraх* или *privet*, *BRB* (*be right back*) – сейчас буду, *IMHO* (*in my humble opinion*), *LOL* (*laughing out loud*) – очень сильно смеюсь [5].

В связи с тем, что значительную часть времени современная молодежь и люди немногим старше проводят в Интернете, обмениваясь текстовыми, аудио-, видеосообщениями, используя такие разнопрофильные программы, как *Viber*, *Whatsap*, *Skype*, *Telegram* и др., нередко отдельные слова или целые сообщения (по ряду причин, в том числе и для ускорения

переписки) передаются латинской графикой. В дальнейшем оформленные с помощью транслита тексты станут короче и будут носить более частный характер. В будущем общество, пользующееся кириллической азбукой, может попасть в ситуацию графической диглоссии, суть которой заключается в том, что личная переписка будет оформляться латиницей, а официальные документы – в Сети на кириллице [5].

В заключение, русский язык тесно связан с интернет-коммуникацией и активно адаптируется к новым явлениям и технологиям. Новые слова и выражения, созданные в сети, становятся неотъемлемой частью современного лингвистического ландшафта и отражают современные тенденции и культурные изменения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бочарова Т.И. Импровизация в речи учителя // Дидакт. 1998. № 4 (25).
2. Гох О.В. Лексика с переносным значением в интернет-языке // Грамота. 2010. № 11 (42): в 2-х ч. Ч. I.
3. Гох О.В. Эмоционально-оценочная суффиксация в интернет-языке // Вестник коми государственного педагогического института. 2011. № 9.
4. Гусейнов Г.Ч. Берлога веблога. Введение в эрратическую семантику. URL: http://www.speakrus.ru/gg/microprosa_erraticaA1.htm (дата обращения: 30.11.2021).
5. Ефремов В.А. О влиянии электронной коммуникации на язык и речь современника // Динамика языковых и культурных процессов в современной России: материалы IV Конгресса РОПРЯЛ, проходящего в рамках I Педагогического форума «Русский язык в современной школе» (Сочи, 1–2 ноября 2014 г.). СПб., 2014.
6. Максимова О.Б. Язык в интернет-коммуникации: общие закономерности и национально-культурные особенности (на материале русского и английского языков) // Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2010. № 3.
7. С русского на русский. Особенности общения в сети. Ч. 1. URL: https://Higher Education Discovery/hedclub.com/ru/publication/from_russian_into_russian_internet_communication_aspects_43/ru
8. Caroline V., Encarnación C.P. Une information en plusieurslangues: vers une compétence informationnelle plurilingue // Open Edition Journals. 2020. Vol. 23. № 2.